

Z. F. SHAROPOVA

**TA‘LIM
TEXNOLOGIYALARI**

*Barcha qishloq xo‘jaligi 5111000 – kasb ta‘lim yo‘nalishi
talabalari uchun mo‘ljallangan*

TOSHKENT-2019
«NAVRO‘Z» NASHIRYOTI

UO‘K: 61.11.24
KBK 550.350.439(8)
Г 41

Z. F. SHAROPOVA, «TA’LIM TEXNOLOGIYALARI» darslik.
– T.: «Navro‘z» nashriyoti, 2019, 340 bet.

Ushbu darslik ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv jarayonida treninglar, yakka tartibda, juftlikda, kichik guruhlar va jamoada ishlashni tashkil qilgan holda ilg‘or ta’lim metodlarini amaliyotga joriy qilish hamda pedagogik jarayonga yangicha yondashuv masalalariga bag‘ishlangan. Darslik materiallarida o‘qituvchilarda global tafakkur, kompetentlik, professionallikni shakllantirish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim turlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, ulardan o‘z pedagogik faoliyatlarida samarali foydalanishlarini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Darslik Qishloq xo‘jaligi oliy ta’lim muassasalarining kasb ta’lim yo‘nalishlari, Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat talabalari, stajyor tadqiqotchilari, izlanuvchilar, mustaqil ilmiy-tadqiqotchilar, shuningdek, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

M.Qurbonova – O‘zbekiston Milliy Universiteti professori.

U.A.Uzakov – O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, ped.fan.nom.

G.K.Saparova – Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, ped.fan.nom.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 27-maydagi “394” – sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-564-08-4

© «Navro‘z» nashriyoti, 2019-y.

MUQADDIMA

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishga zarurat mavjud. Hozirgi vaqtda agrar soha mutaxassislarini tayyorlashda ta'limning zamonaviy texnologiyalarini izchil joriy etish hayotiy zarurat bo'lib qolmoqda.

“Agrar sektorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini maksimal darajada avtomatlashtirish, ustuvor qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini jiddiy oshirish va qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etadi”.¹

Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ishlab chiqilishini tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ'ib qilish va amaliy foydalanish mexanizmlarini shakllantirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va salmog'i yuqoriligini ta'kidlash joiz.

Ilmiy-texnik salohiyatni oqilona joylashtirish va samarali foydalanish, agrar sektorini rivojlantirishga fan va texnologiyalarning

¹ “O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2017-yil 30-noyabr, PQ-3416-sonli qarori.

hissasini oshirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

“Ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish...”¹ - zarurligi ta'kidlanadi. Bu esa ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish asosida yanada takomillashtirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida belgilangan vazifalarning samarali echimini to'liq ta'minlash maqsadida oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash maqsadida Oliy ta'lim tizimini 2017–2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Dasturga muvofiq, 2017–2021-yillarda 48 ta oliy ta'lim muassasasida jami 180 ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari ob'ektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta'lim muassasasida 400 ta o'quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta'lim muassasasida barcha oliy ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi.

Ushbu qaror uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oliy ta'lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazalari mustahkamlandi. Shuni qoniqish bilan aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim tizimining joriy etilishi bugungi kunda ijobiy natijalar bermoqda. Endigi, pedagoglarning vazifasi zamonaviy texnik ta'minotga ega ta'lim muassasalarida talablar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori

darajasida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Yuqoridagi vazifalarni amaliyotda o'z ifodasini toptirishda ta'lim texnologiyalari fani muhim rol o'ynaydi. Kasb ta'lim yo'nalish mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ta'lim texnologiyalari fani kasbiy bilimlarni egallash texnologiyalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish ustvor o'rin egallaydi.

Mazkur darslik, ta'lim texnologiyalari fan dasturiga asoslangan holda yaratilgan bo'lib, talabalar uchun zarur materiallar izchil ravishda, muayyan tartibda joylashtirilgan.

Darslikda "Ta'lim texnologiyalari" fani doirasida talabalar ta'lim texnologiyalarining turlari va mohiyati, nazariy asoslari, samarali shakl, metod va vositalari bilan tanishadi. Kasbiy faoliyatda ta'lim texnologiyalarni samarali, maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir bilimlarini boyitadi. Nazariy va amaliy materiallar nisbatan maqsadga muvofiq taqsimlagan bo'lib, nazariya bilan amaliyot birligi tamoyiliga to'la rioya qilingan.

Mazkur darslikning yaratilishida xorijiy mamlakatlar va o'zbekistonlik pedagog-psixolog olimlar tomonidan yozilgan ta'lim texnologiyalarga oid nazariy va amaliy adabiyotlar hamda maqolalardan foydalanganligimiz uchun ularning mualliflariga o'zimizning samimiy minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Darslik nopedagogik Oliy o'quv yurtlarining bakalavriat talabalari, stajyor tadqiqotchilari, izlanuvchilar, mustaqil ilmiy-tadqiqotchilar, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarga mo'ljallangan.

I-BOB. TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI

“TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy komponentlari

Ta'lim tizimini takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda ta'lim texnologiyalarining o'rnini beqiyosdir.

Kadrlar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish.

“Ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish”.¹ O'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish”.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori

Oliy ta'lim tizimini 2017–2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar 1,7 trillion so'mdan ziyod bo'lib, ulardan 1,2 trillion so'mi o'quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga, 500 milliard so'mdan ortiq mablag' esa o'quv-laboratoriya uskunalari, mebel va inventar bilan ta'minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo'ljallangan, barcha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi¹. Bu esa ta'lim tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va pedagogik amaliyotda yangi yo'l va vositalarini jadal tatbiq etishni talab etadi.

Ta'lim texnologiyalarining ilmiy xarakterdaligiga e'tibor qaratgan holda, uning amaliy yo'nalishga xosligini, uni aniq masalalarni hal qilishda qo'llash mumkinligini e'tirof etish kerak.

Demak, nazariyani o'quv amaliyoti bilan bog'lash zaruriyatini va ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o'rganish zamonaviy ta'lim texnologiyalarni aniqlab beradigan qator holatlarni belgilashga imkon berdi:

1. Zamonaviylik ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribasino'vdan tekshirilgan, tasdiqlangan didaktikaga oid yangiliklar, tartib-qoidalarni joriy etish majburiyatini taqozo etadi.

2. O'quv jarayonini maqbullashtirish.

3. Ilmiylik ta'limda yangi vositalar, faol usullar, didaktik materiallarni, tashkiliy masalalarning yangi echimlarini qo'llashni taqozo etadi.

4. Talaba va pedagog-o'qituvchining dasturli faoliyati o'quv jarayonidan jamiki ortiq harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga, kerakli natijalarni qo'lga kiritishga intilishni talab etadi.

5. Ta'limni faollashtiruvchi axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. 2017-yil-20 aprel, PQ-2909-son qarori

keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy belgilaridan biridir.

6. O'quv jarayoni uchun moddiy-texnik bazaning maqsadga muvofiqligi pedagogik texnologiyalarning navbatdagi belgisidir.

7. O'quv-tarbiyaviy jarayon natijalarini sifatli baholash pedagogik texnologiyaning o'z oldiga qo'ygan natijaviy maqsadidir.

Xulosa shuki, ta'lim texnologiyalar o'zining pedagogika va boshqa fanlar yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi navbatda, o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, ikkinchidan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol usullaridan keng foydalanishga asoslangan pedagog-o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi samarali faoliyatiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishdir, ya'ni, Respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish yo'lidan izchil ilgari lab borish; mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustivorligini qaror toptirish, milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat uyg'otish, respublikaning jahondigi mavqei va obro'-e'tiborini mustahkamlanib borishigi erishish.

Uning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdir. Vazifalari "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish; ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv ilmiy ishlab chiqarish majmua sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash; ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash; kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini

yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarishdan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy komponentlari (1-sxema):

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim soxasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafili.


3. Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limni barcha turlarini davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

4. Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan extiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi (1-sxema).

Ushbu dastur mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga etkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Chunonchi, mazkur jarayonning birinchi bosqichi (1997-2001-yillar)da "...o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish", ikkinchi bosqich (2001-2005-yillar)da "...ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlarni va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash" hamda uchinchi bosqich (2005-va undan keyingi yillar) da "...ta'lim

muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta‘minlash” kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog‘i lozim.



1-sxema. Kadrlar tayyorlash milliy modeli

1.2. Ta‘lim texnologiyalari fanining maqsad va vazifasi

Ta‘lim texnologiyalari fanining predmeti o‘qitish jarayoning sifat va samaradorligini ta‘minlaydigan kasbiy texnologiya va interfaol o‘qitish usullari yuzasidan tayanch bilimlar berishga mo‘ljallangan bo‘lib, oliy ta‘lim sohasida muhim o‘rniga ega. Uni o‘rganish kasbiy va umumilmiy salohiyatning mustahkamlanishiga yordam beradi va bo‘lajak pedagoglarni ta‘lim texnologiyalarining konseptual asoslari bilan tanishtiradi hamda qishloq xo‘jalik fanlarni o‘qitish jarayonida ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi.

Fanning asosiy maqsadi – bo‘lajak mutaxassislarni “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalar hamda 5111000 – Kasb ta‘limi bakalavriat yo‘nalishlarining

malaka talablar darajasida zamonaviy ta'lim texnologiyalar va ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni, ulardan foydalanish, shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalar va shu kabi boshqa ta'lim texnologiyalar hamda ularni o'quv-tarbiya jarayonida qo'llashning nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

“Ta'lim texnologiyalari” fani quyidagilarga alohida e'tibor beradi: litsey va kollejlarning bo'lajak o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim texnologiyalarning nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish; yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lishlari; zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g'oyalar maktablar, yo'nalishlar, keng turlarida yo'l topa bilish mahorati; pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish; mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirish.

Fanning vazifasi – uni o'rganuvchilarga: ta'lim texnologiyalarining shakllanishi va uning zamonaviy tuzilmasi; an'anaviy va noan'anviy ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari; ta'limning fanga va shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari; didaktik o'yinli texnologiyalar; rivojlantiruvchi va tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi ta'lim texnologiyalari; modulli o'qitish texnologiyasi; masofaviy o'qitish texnologiyasi; o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari bo'yicha xalqaro integratsiya; tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish; o'qituvchining muloqot madaniyati va pedagogik texnikasi; zamonaviy ta'lim tizimi va texnologiyalarining muammolari bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

Hozirgi paytda barcha pedagog-psixolog olimlar ta'lim texnologiyalarga berilgan eng mukammal ta'rif sifatida YuNESKOning quyidagi ta'rifini tan olishadi: “Bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini

loyihalashda va amalda qo'llashda majmuaviy yondashuv usulidan foydalanishdir".¹

Yuqorida keltirilganlardan xulosa shuki, pedagogik texnologiyalarning asosiy tushunchasi, o'quv jarayoniga majmua sifatida yondashishdir. «Bunda ta'lim-tarbiya ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni majmuani tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuyining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi».²

Ko'rinib turibdiki, ta'lim texnologiyasi asosini ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida bu jarayonni to'liq bajarish g'oyasi tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni aniq rasmiylashtirilgan va qismlari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, ta'lim - texnologiyalarning **predmeti – ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.**³

Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisi bo'lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak.


Kadrlar tayyorlash milliy modeli jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni

¹ Qarang: Silber K.H. Some implication all of the history of Educational Technology We're all in this together. In: J.W.Brown and S.N.Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Librares Unlimited, 1981, r.21.

² B.Ziyomuhamedov. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: TURON – IQBOL, 2006, 289-bet.

³ «Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari» mavzusidagi seminar trening materiallari. – T.: 2002, 31-bet.

tarbiyalashni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Demak, kadrlar tayyorlash milliy modeli ta‘lim va tarbiya sohasidagi davlat ijtimoiy buyurtmasini ifodalaydi. Faqat davlat ijtimoiy buyurtmasigina ta‘lim va tarbiyaning aniq maqsad va vazifalarini belgilab beradi yoki oliy ta‘lim uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, pedagogik tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi va ta‘lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsad esa zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bosh bo‘g‘ini hisoblanib, u pedagogik tizimning qolgan elementlarini o‘z vaqtida yangilash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ta‘lim-tarbiya tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatining mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:



1-shakl. Zamonaviy ta‘lim-tarbiya jarayonida ta‘lim texnologiyalarni qo‘llash zaruriyatining mohiyati.

Demak, pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi – talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta‘lim maqsadiga erishishni ta‘minlashdan iborat. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Pedagogik texnologiyalar» fanining asosiy maqsadi – kasb ta‘limi (iqtisodchi-pedagog) yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni fanni o‘rganishda qo‘llanadigan ta‘lim-

ning zamonaviy texnologiyalari bilan tanishtirish va kelajakda o'z faoliyatlarida interaktiv usullar qo'llashni o'rgatishdir.

Pedagogik texnologiyalarning vazifalari – pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarni kiritish va ularni qo'llashda quyidagi vazifalar belgilanadi va hal etiladi:

- pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiya asoslari bilan tanishtirish – ma'ruza, adabiyotlar tavsiya etish;

- zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida ishlashni xohlovchi fidoyi o'qituvchilarni aniqlash. Ular orqali pedagog-o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan ko'zda tutilgan maqsadni, uning mohiyatini etkazish;

- zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida ishlamoqchi bo'lgan pedagog-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llash jarayoniga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish: ta'lim (tarbiya) jarayonining umumiy, yaxlit loyahasini ishlab chiqish, ta'lim (tarbiya) jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash, ta'lim (tarbiya) jarayoni mohiyatini bashoratlash (taxmin qilish) va uning samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali, maqbul shakl, usul hamda texnik vositalarni tanlash, ta'lim jarayonida talabaning erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish, ularda ma'lum ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi uchun vaqt o'rnini belgilash, ularning bilimlari darajasini avvaldan tashxislash, talabalar faoliyatini yo'naltirish, nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish bilan bog'liq individual maslahatlar berish, seminarlar, treninglar, ko'rgazmali darslar tashkil etish;

– zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida ishlovchi pedagog-o'qituvchilarning ta'lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi samaradorligini baholashning ishonarliligini ta'minlash uchun uning monitoringini olib borish, kuzatuv va tahlillar o'tkazish, metodik yordamlar ko'rsatish va ularning hisobotlarini eshitib borish;

– zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida ishlovchi pedagog-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya loyihasini mashg'ulotlar jarayonida sinash, maqsadning natijalanganlik darajasini tahlil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ishlashning afzalliklarini innovator o'qituvchilarni kafedra yig'ilishlaridagi ilmiy-uslubiy seminarlarda, oliy o'quv yurtlari ilmiy kengashlarida chiqishlarini tashkil etib, pedagogik jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash;

– oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ishlovchi innovatsion (pedagogik texnologiya) markazlar zarur didaktik va metodik materiallar, texnika vositalari bilan ta'minlanishi zarur;

– ta'lim texnologiyalar va undan ta'lim jarayonida foydalanish borasidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan ilg'or pedagog-o'qituvchilardan innovator pedagogik jamoani shakllantirish va h.k.

Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va raqobatbardosh malakali mutaxassislarni tarbiyalashga imkon beradi.

1.3. Ta'lim texnologiyasi nima? Ta'lim texnologiyasining xususiyatlari

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (Techne) - san'at, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

“Texnologiya” atamasi pedagogika fani tomonidan ishlab chiqarish sohasidan o‘zlashtirilganki, bunda “yuqori asosli psixologiya – pedagogik muhandisligi maydoniga o‘zgaradi” (A.M. Kushnir, 2004-y.).

Texnologiya mohiyati va vazifasi bo‘yicha insonshunosiylik, ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy bor narsalarni mavjud bo‘lishidek qabul qilish kerak” (A.M. Kushnir, 2004-y.).

Ta’lim texnologiyasi¹ – keng sohadir. Shuning uchun, ayrimlari munozarali bo‘lgan aniqlashlarni topishlari mumkin. Ta’lim texnologiyasi o‘rganish, o‘qitish va ijtimoiy tashkil qilining asoslarini o‘rganuvchi yoki loyihalash fani yoki turli tadqiqot qiziqishlari majmuasi sifatida olinishi mumkin.

Ammo, ko‘plab tadqiqotchi va amaliyotchilar rozi bo‘ladigan ayrim xususiyatlari bor:

1. Texnologiyani qo‘llash prinsip asosida: Texnologiya amaliy topshiriqlar uchun ilmiy bilimlarning tizimli qo‘llanilishini bildiradi. Shuning uchun, ta’lim texnologiyasi turli xil fanlardan olingan nazariy bilimlarga (kommunikatsiya, ta’lim, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, sun’iy intellekt, informatika va xk.) hamda ta’lim amaliyotidan olingan amaliy bilimlarga tayanadi.

2. Ta’lim texnologiyasi talimni yaxshilashga qaratilgan. Texnologiya ta’lim tizimining o‘rganish jarayonlariga va uning ko‘rsatgichlarini oshirishga ko‘maklashadi, chunki u samaraga tegishli bo‘ladi. Bunday qisqa kirishda, biz sohaning boshlang‘ich ta’rifini berishga harakat qilamiz.

Kompyuterlar texnologiyalari. Hozirgi texnologiyalar kompyuterlarda videoyozuvlarni amalga oshirish, hamda o‘zingizning raqamli kamerangizdagi rasmlarni onlayn tarzda oilangiz va do‘stlaringiz bilan baham ko‘rishingiz mumkin. Bu va shunga o‘xshagan texnologiyalar bugungi kunlik hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi. Bular ayniqsa: uyda, maktabda, yoki ishda.

Texnologiya sizga axborotlardan samarali foydalanish va qidirish, do‘stlaringiz va boshqalar bilan fikrlar, rasmlar va videolarni baham ko‘rish; boshqa odamlar bilan muloqot qilish va uchrashish, moliyaviy

¹N.Saidaxmedov. pedagogik texnologiyalarva pedagogik mahorat. T. Fan. 2009. 58-bet.

masalalarni boshqarish, xizmatlar va tovarlardan foydalanish, o‘yinlar o‘ynash yoki dam olish vositalarining boshqa manbalaridan foydalanish, hayotingizni va faoliyatingizni tartiblash va biznes faoliyatlarini oxiriga etkazishni samarali amalga oshirishga imkon yaratadi. Texnologiya vositasidan ushbu yumushlarni bajarishda foydalana oladigan odamlar bugungi kunda texnik faollar deb yuritiladi. Raqamli sohadagi (Digitally) bilimdonligingizni saqlab qolishingiz uchun o‘zgarib borayotgan texnologiyalar bilan qadamba-qadam borishingiz kerak.¹

Texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san’at, “logos” – tushuncha, ta’limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi

Ta’lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi

Ta’lim texnologiyasi – ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma- bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish


2-sxema. Ta’lim texnologiyalari haqida mutaxassislarning sharhi²

Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, texnologik jarayon–bu mehnat qurollari bilan mehnat ob’ektlari (xom ashyo)ga bosqichma – bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi-mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chirish mumkin, ya’ni: PT – bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

¹ Misty E Vermaat, Susan L Sebok, Steven M Freund. Discovering Computers (C)2016 (2016 edition). Textbook.USA, 2016.

² Adeyanju, R.J. (1999). Basic Concepts in Educational Technology. A handbook for Preservice and Inservice Teachers in West African Countries. Winneba-Ghana.


Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” shakllari pedagogik adabiyotlarda foydalanila boshlandi va mualliflar ta’lim-texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko‘plab ifodalarga ega bo‘ldi.



O‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o‘laroq, *ta’lim texnologiyasi* ta’lim oluvchilar faoliyatiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Odatda, “Texnik texnologiya” atamasi dastlab ishlab chiqarishda qo‘llanilgan bo‘lib, unga xomashyo, materiallar, yarim fabrikatlarga ishlov


berish yoki ularning tarkibini, xususiyatlarini, tayyorlanishini, qoʻllanish sohasini oʻzgartirish usullari haqidagi fan sifatida tushunilgan.¹



3-sxema Ta'lim texnologiyasining komponentlari

¹ Qarang: Yoʻldoshev J., Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari.-T.: "Oʻqituvchi", 1994, 21-75-betlar; Yoʻldoshev J.G.; Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: "Oʻqituvchi", 2004, 48-50-betlar.

Fan-texnikani yuksak taraqqiyoti tufayli texnologiya tushunchasi ham takomillashib, mazmunan chuqurlashib borgan. Patent, litsenziyalar sotiladigan va sotib olinadigan bo'lgach, texnologiya deganda tayyor mahsulot olish, xomashyo va materiallarga ishlov berish usullari, bajariladigan ishlarning ketma-ketligi va qanday tarzda bajarilishi haqidagi hujjat ham tushuniladigan bo'ldi. Masalan, sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulot, aytaylik, detal loyihalanganda qanday materialdan tayyorlanadi, shakli qanday bo'ladi, buning uchun standart belgilari, chizmalarga ulardagi o'lchamlarni aniqlash va boshqa talablar aks ettiriladi, fan-texnika taraqqiyoti "Texnologiya"ni fan sifatida ham o'rganishni obyektiv zaruriyat qilib qo'ydi.



U fan sifatida fizik, ximik, mexanik va boshqa qonuniyatlarni aniqlash orqali mahsulot ishlab chiqarishning samarali usullarini o‘rganish, yangilarini topish va tajribada sinashni o‘rganadi.¹ Texnologiyani fan sifatidagi vazifasi-moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda qo‘llash maqsadida fizik, ximik, mexanik qonuniyatlarni topish va amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi.



4-sxema. O‘qituvchi texnologilari

Ishlab chiqarishda – “texnologiya” atamasining mazmun-mohiyatini anglatuvchi quyidagi tushunchalar mavjud:

Texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig‘indisi.

¹ Qarang:Yo‘ldoshev J.,Hasanov S. Jadid tarbiyashunosligi asoslari.-T.:O‘qituvchi, 1994, 21-75-betlar; Yo‘ldoshev J.G‘;Usmonov S.A. Pedagogik Texnologiya asoslari.-T.:O‘qituvchi, 2004, 48-50-betlar.

Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o‘zining ish joyida bajariladigan yakuniga etkaziladigan harakat ko‘rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita – ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo‘lib, ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, sharoitlarini belgilaydi. Umuman, ishlab chiqarishdagi texnologiyada turli xomashyo materiallariga ishlov berish operatsiyalari yuqori darajali kasb ustalari tomonidan bajarilsagina mahsulot sifati kafolatlanadi.

Ta’limni texnologiyalashtirish bu o‘qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta’lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo‘llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlarni ochib beruvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Ta’lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat.


Ta’lim texnologiyasi loyihalash fani sifatida. Loyihalash fani sifatida, ta’lim texnologiyasi odamlar, jarayonlar, bilim, texnik vositalar va tashkiliy strukturalarni jalb qiluvchi majmuaviy ko‘p xajmli jarayonlar bo‘lib ko‘rinadi. O‘rganish va o‘qitishdagi turli muammolarga echim topish, loyihalash jarayoni, tatbiq qilish va boshqaruv, hamda baholashga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim texnologiyasi - ta’limning injiniring fani sifatida. Ta’lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar doimo maqsadli kun tartibiga ega. Ba’zan, u faqatgina joriy amaliyot samarasi yoki samaradorligiga yo‘nalsa, ammo tez-tez u yangi loyihalar kashf etish orqali ta’limni yaxshilashga yo‘naladi.

“Texnologiya bizni turli loyihalarni ishlatib ko‘rish uchun kuchli qurollar bilan ta’minlaydi, bunda ta’lim nazariyasi o‘rniga, biz ta’lim fanini rivojlantirishni boshlashimiz mumkin. Ammo, bu fizika yoki psixologiya kabi tahliliy fan bo‘lishi mumkin emas, va u aeronavtika yoki sun’iy intellekt kabi loyiha faniga ko‘proq monand bo‘lishi kerak. Misol

uchun, aeronavtikada maqsad – qanday qilib turli ishlanmalar ko‘tarish, manevrlikni oshirishga hissa qo‘shishini izohlashdan iborat. Xuddi shunday, ta’limning loyiha-dizayn fani o‘rganish muhitlarining turli dizaynlarining o‘rganish, xamkorlik, motivatsiya (tushunish) va ta’lim oluvchilarga qanday yordam berishini aniqlashdan iborat”¹ (Kollins, 1992-24).

Ta’lim texnologiyasi fundamental tadqiqot uchun “joy” sifatida.² Ta’lim soxasidagi tadqiqotchilar odatda turli boshqa soxalar, masalan – o‘rganish nazariyasi, didaktika va instruksional loyihalash, o‘zgartirilgan boshqaruv kabilarda fundamental tadqiqotlar olib boradilar. Ta’lim texnologiyasi, bu xolda, tadqiqot olib borish uchun o‘rtaliqda bo‘ladi. Keling, yangi terminologiya masalalariga qaraylik.



5-sxema. Ta’lim texnologiyalariga kirish

¹D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology.13-p.

²D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology.14-p.

Ta'lim texnologiyasi – bu sohadir. Ta'lim texnologiyasi ta'lim uchun mos keluvchi biror bir texnologiyani anglatadi. Bu ma'nodan tashqari va tadqiqot an'anasiga ko'ra, ta'lim texnologiyasi uchun boshqa nomlar ham bor, masalan:

- *Instruksional texnologiya*
- *Ta'lim kommunikatsiyalari va texnologiyasi*
- *O'rganish texnologiyasi*

Ta'lim texnologiyasi boshqa kichik sohalar majmuasi sifatida. Nihoyat, ko'plab texnik boshqa kichik sohalar mavjudki, ular mazkur matn bo'ylab tanishtirilib boriladi. Bir nechta pedagogik va texnik loyihalash mavjud: o'rganish uchun kognitiv qurollar, kompyuter asosida til o'rganish, kompyuter asosida baholash tizimlari, kompyuter asosida amaliyot, kompyuterga mo'ljallangan kommunikatsiyalar, kompyuter qo'llaydigan birgalikdagi o'rganish, tarqatma o'rganish muhitlari, elektron ishni qo'llovchi tizimlar, interfaol o'rganish muhitlari, interfaol multimediya tizimlari, interfaol rag'batlantiruvchi va o'yinlar, ongli internet hamkorlari, ongni o'qituvchi tizimlar, mikroso'zlar va o'rganish tizimlariga asoslangan virtual voqelik. Biz, shubxasiz shuni aytishimiz mumkinki, ta'lim texnologiyasi hali yaxshi o'rganilgan soha emas, lekin ham tadqiqotchi ham amaliyotchilar undagi kichik sohalar majmuasiga yo'nalishlari mumkin.

Konseptualga qarshi texnik tadqiqot.¹ Boshiga, konseptualdan tortib, texnikkacha bo'lgan darajalar seriyasini belgilab olish zarur:

1. Fundamental tadqiqot: Ko'plab soha tadqiqotchilari “multimediya animatsiyalari ko'proq qaysi sharoitda samarali bo'ladi” kabi kichik yaxshi aniqlangan muammolarga yo'naltirilgan yanada fundamental tadqiqotni qo'llashni tanlashadi.

2. Ta'limdagi turli domenlarga qo'llanilgan texnologiya tomonidan qo'llanib turiluvchi instruksional loyiha. Katta toifalar – masofaviy o'qitish, qo'shma o'qitish, kompyuterga asoslangan sinfda o'qitish, sanoatga oid amaliyot. Boshqa ixtisosliklar fanlarga tegishli bo'lishi

¹D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology.19-p.


mumkin (misol uchun, fan yoki tilni o‘qitish), yoki yondashuvlar (bevosita instruksiyaga qarshi loyihaga yo‘naltirilgan o‘rganish kabi).

3. Texnologiyalar loyihasi va qo‘llanilishi ustidagi tadqiqot. Tadqiqotchilar kompyuter vositalarini ta’limda qo‘llash kabi fanlarga yo‘nalib, texnik nuqtai nazardan, ular uchun mualliflik va o‘rganish muhitlarini qurishga ixtisoslanishlari mumkin.

O‘rganilayotgan fanlar instruksional loyihaga qarshi. Masalalarni kelgusi murakkablashuvi uchun, ayrim tadqiqotchilar fundamental tadqiqotni instruksional loyihalashning ma’lum bir turi va texnologiyaning ma’lum bir turi bilan umumlashtiradilar. Bunga qarab, ushbu opsiyalar, tadqiqot qiziqishlari va tadqiqot metodologiyasi bir xil bo‘lmaydi. Ehtimoliy umumlashtirishlar, biz balki ikkita yirik yo‘nalishni ajratib olishimiz mumkin bo‘ladi:

- **Ta’lim texnologiyasi o‘rganish fanlarining bir qismi sifatida.** Tadqiqot zamonaviy o‘rganish nazariyalari bilan to‘ldirilib uni yaxshilaydi. Bu yo‘nalish o‘z ichiga kompyuterga asoslangan birgalikdagi o‘rganish, ongli o‘qitish tizimlari, xar tomonlama xisoblash kabi tadqiqot vositalarini oladi.

- **Ta’lim texnologiyasi – instruksional texnologiya sifatida.** U instruksional loyihalash nazariyasi va metodologiyasini to‘ldiradi va uni yaxshilaydi. Bu yo‘nalish o‘z ichiga internet orqali o‘rganish, masofaviy o‘qitish, multimediya dizayni kabi tadqiqot vositalarini oladi.



6-sxema. Texnologiyalar integratsiyasi

O‘rganish nazariyasi va pedagogikasidagi fundamental tadqiqotga aloqadorlik.¹ *Garchi, sof injiniring jihatidan oladigan bo‘lsakda, Ta’lim texnologiyasi xaqida, instruksional dizayn modellari yoki instruksional dizayn uslublari atamaları bilan gapirish uncha tushunarli bo‘lmaydi. Biror bir instruksional dizayner (loyixachi) umumiy o‘rganish nazariyasi yoki pedagogika nazariyasi kabi fundamental bilimlarga qiziqishi mumkin. Bu nazariyalar o‘rganish tipi yoki o‘rganish darajasi orasidagi, va tegishli pedagogik strategiya, qanday ta’sir ko‘rsatish va motivatsiyaning o‘rganish jarayoniga ta’sir qilishi, multimedia loyihasi inson ma’lumotlarini qayta ishlash yoki kognitiv yuklama kabi nazariyalardan nimani o‘rganishi mumkinligi, nimaga metakognitsiya va birgalikdagi o‘rganish muhim ekanligi orasidagi masalalarga nazar tashlaydi.*

Tadqiqot yondashuvlari va metodologiyalari. *Ta’lim texnologiyalari loyiha fani sifatida olinishi va “Loyihaga asoslangan tadqiqot” kabi ma’lum bir tadqiqot metodologiyasini taraqqiy etishi mumkin. Ammo, u shuningdek o‘rganish, o‘qitish va ijtimoiy tashkil qilishning fundamental masalalariga aloqador ekan, ta’lim texnologiyasi zamonaviy ijtimoiy fan va hayot fanlari metodologiyasini to‘la hajmli qo‘llaydi.*


“Pedagogik texnologiya” termini birinchi bor pedagogika bo‘yicha ishlarda XX asrning 20-yillarida tilga olingan. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasida turlicha ifodalashlar mavjud. Keyingi 10 yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag‘ishlangan adabiyotlarda “Pedagogik texnologiya”, “Yangi pedagogik texnologiya”, “Ilg‘or pedagogik texnologiya”, “Progressiv pedagogik texnologiya” kabi tushunchalar ko‘p uchrab turgani bilan, ularning o‘zbek tilidagi maromiga etgan ta’rifi hali tuzilmagan.

“Pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talabanning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilar ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitga

¹D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology.18-p.

moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.



6-sxema. O'qitish texnologilari

Bu erda, nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni ilmiy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi degan savol paydo bo'lishi mumkin. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchilikning aksariyati, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki:

Birinchiidan: ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi:

Ikkinchiidan: an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib,

o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

Uchinchi dan: Fan-texnika taraqqiyotining o‘rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

To‘rtinchi dan: kishilik jamiyati o‘z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo‘lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o‘tib borayotganligi:

Beshinchi dan: yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob‘ektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Pedagogik texnologiya fani yuqorida sanab o‘tilgan 5 ta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbirdir.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur‘atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, hulosalash hamda o‘quvchiga etkaza berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.


Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiriq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta’lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

“Pedagogik texnologiya” - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

1.4. “Ta’lim texnologiyalari” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

“Ta’lim texnologiyalari” fanini o‘rganish pedagogik nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, psixologiya, demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa, mantiq, etika, ma’naviyat, O‘zbekiston tarixi, maktab gigienasi va fiziologiyasi, ona tili bilan o‘zaro bog‘liqlikda quriladi.



7-sxema. Ta’lim psixologiyasi

Ta’lim texnologiyalar fan sifatida bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me’yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ta’lim texnologiyalari ayniqsa psixologiya bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir,¹ deb ta'riflangan. Bundan ko'rinadiki shaxs faoliyati va uning amalga oshirish texnologiyalari psixologik qoidalar asosida ro'yobga chiqadi.

Ta'lim texnologiyalarning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya masalalariga o'ziga xos yondoshadi. Shu sababli «Pedagogik texnologiya» fanining falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalar fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi. Insonlarning olamini hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning hususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi texnologiyalar uchun zaruriy shartdir. Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Ta'lim texnologiyalarning pedagogik asosi zamonaviy pedagogika fanining ilmiy xulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika fanining rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

¹Charles Stangor. Introdution to Psychology. 2011. 4-8.

Ta'lim texnologiyalarning psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy hulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi.

Ta'limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi hususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi.

Ta'lim texnologiyalarning fiziologik asosi o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik hususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o'g'il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodni voyaga etkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalarning gigienik asosi ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o'quvchining va o'qituvchining ish o'rni, jihozlar, o'quv yuklamalarining me'yori, didaktik vositalarning qulayligi sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ekologiya talablariga, insonparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi. Bu talab va me'yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyani amalga tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o'rganish bilan maktab gigienasi fani shug'ullanadi.

Ta'lim texnologiyalarning mafkuraviy asosi uning milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoiy, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalarning huquqiy-me'yoriy asosi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat

ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar qaror va buyruqlari, ular asosida tayyorlanib o'rnatilgan tartibga tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Ta'lim texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me'yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Ta'lim texnologiyalarning iqtisodiy asosi ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Ta'lim texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'lgani sababli uning iqtisodiy samarasi o'ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta'minot masalalari hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosini mustahkam bo'lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Ta'lim texnologiyalarning tarixiy asosi ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi. Hozirgi pedagogik texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan tahlillar, chiqarilgan hulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-mulohazalarning rivojlantirilishi asosida paydo bo'lib, takomillashib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi uning o'ziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur o'rganish kelgusi rivojlanish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Yuqorida aytilgan va boshqa asoslar umumlashtirilsa, har bir pedagogik texnologiyaning o'zi kelib chiqadi. Ular alohida maqsad, vazifalari, mazmuni, shakl, usul, vositalariga muvofiq belgilanadi.

“Ta'lim texnologiyalar” fanining metodologik asoslari.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsad sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni engib o'tadi. Bu to'siqlarni engib o'tish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi.

Maqsadga etishda muayyan to'siqni engib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir va choralar majmuini usul deyiladi.

Maqsadga etishda bir necha ba'zan, o'nlab–yuzlab to'siqlarni engishga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni engish uchun tegishli usullar tegishli ma'lum bir tizimda qo'llaniladi. Maqsadga etishda qo'llaniladigan usullar

tizimini uslub (yo'l) deyiladi. Usullarni ma'lum bir uslubda qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, kishi maqsadga etish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Kishi maqsad sari qilgan harakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlari bilan harakati davomida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologiya deyiladi.

Har bir shaxsni, ijtimoiy guruhni va butun jamiyatni eng umumiy, umumiy va xususiy maqsadlari bo'ladi, inchunkun ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

Jamiyat oldiga qo'ygan umumiy maqsad ko'rsatkichlari falsafaning umumiy qonuniyatlari hamma uchun eng umumiy metodologik asosdir.

Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari bilan faqat shu sohada hukm suruvchi qonuniyatlar shu sohada faoliyat ko'rsatuvchilar uchun umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Muayyan faoliyatning eng umumiy, umumiy maqsad ko'rsatkichlari va qonuniyatlari bilan birga shu faoliyatning ichida qisqa muddatli maqsad ko'rsatkichlari va tarmoq qonuniyatlari ham bo'ladi. Ularga amal qilish xususiy metodologiya deyiladi.

Odamlar faoliyat ko'rsatish jarayonida o'z ishlarini eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chiqqan holda amalga oshiradilar. Aks holda qilgan harakatlari zoe ketadi.

Usul, uslub va metodologiya tushunchalariga umumfalsafiy ta'rif berib chiqqanimizdan so'ng ularning o'quv jarayonida ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi-uning o'z oldiga maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishidir, deb ta'kidladik.

Tabiiy savol tug'iladiki, bu maqsadlar qayoqdan paydo bo'ladi? Javob: har qanday maqsad alohida bir shaxs, ijtimoiy guruh yoki millatning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligidan uning biologik ehtiyoji barobarida ijtimoiy ehtiyoji ham mavjud.

Biologik ehtiyojlar kishining biologik tabiatidan kelib chiqadi. Tirik mavjudot sifatida hayotni saqlab qolish uchun talab etiladigan zaruriy ehtiyoj biologik ehtiyoj deyiladi. Bularga eb-ichish, nafas olish, xavf-xatardan saqlanish, nasl qoldirish kabilar kiradi.

Ijtimoiy ehtiyojga kishining ijtimoiy taraqqiyoti natijasida vujudga keladigan fikr yuritish, fikr almashish, bilim olish, mehnat qilish, zavqlanish sevish va sevilish kabi ehtiyojlar kiradi.

Ehtiyojni qondirish ustida ma'lum vaqt fikr-mulohaza yuritilgandan keyin ehtiyoj yoki inkor qilinib bostiriladi, yoki unga etishish maqsad qilib qo'yiladi.

Maqsad va uning ko'rsatkichlari aniq bo'lgandan keyin, unga etishish usullari tizimi izlab topiladi va harakat boshlanadi. Shunda maqsad ko'rsatkichlari bilan harakat paytida o'z mavjudligini namoyon qiluvchi qonunlar yig'indisi ushbu faoliyatning metodologik asosini ya'ni amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar majmuini tashkil qiladi.

Har qanday jamiyatning asosiy maqsadi bo'ladi. Uni milliy g'oya deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqlarining asosiy maqsadi huquqiy demokratik davlat barpo etish hamda odil fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir.

Bunday davlat va jamiyat sifatlarini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar bo'ladi. Ular falsafaning eng umumiy qonuniyatlari bilan birgalikda jamiyat a'zolarining barcha faoliyatiga, shu jumladan, ta'lim-tarbiya sohasidagilarga ham, eng umumiy metodologik asos vazifasini bajaradi.

Kishi o'z faoliyatida eng umumiy tamoyillarga amal qilishi bilan birga muayyan bir sohaning umumiy maqsad va qonuniyatlariga tamoyil sifatida suyanadi, degan edik.

Pedagogik jarayonning umumiy metodologiyasi soha oldiga qo'ygan maqsad ko'rsatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir.

Pedagogika sohasining umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, yani g'oyasidan kelib chiqib, ajralmas qismi hisoblanadi.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyati talablariga javob beruvchi kishini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak: aqlli, mustaqil fikr yurita oladigan; odobli, millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega; mehnatsevar, bilimli, diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotga qo'llay olishi; jismoniy, ruhiy, ijtimoiy sog'lom; milliy g'ururga

ega-ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy meroslarini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi; vatanparvar, vatan uchun xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muxofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi; baynalminal, o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiluvchi; insonparvar inson zotiga faqat yaxshiliklar yo'llovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi; jasur va shijoatli - har bir ishiga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga etkazuvchi.

Bu ijtimoiy sifatlar jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umumsohaviy metodologiyaning birinchi qismi hisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi qismini o'qituvchilarga yaxshi tanish bo'lgan didaktika tamoyillari tashkil qiladi.

Ularga: ta'lim-tarbiya jaryonida ta'lim oluvchi diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uni jarayon oxirigacha saqlab turish; har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda o'quvchining imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; bilim berishda mumkin qadar ko'proq ko'rgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlilik va davomiylikni saqlash; o'quv jarayonini mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borish; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Har bir faoliyatning eng umumiy, umumiy metodologik asoslari bilan bir qatorda xususiy metodologiyasi ham mavjud. Bizning misolda, bu muayyan o'quv predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni o'tishga kutilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan pedagogik texnologiyaning besh tamoyillari hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda amal qilinishi shart bo'lgan uch turdagi metodologik asosni ko'rib chiqdik. O'quv jarayoni bilan shug'ullanuvchi har bir o'qituvchi, tarbiyachi va boshqalar ushbu uch metodologik asosning hammasiga birday amal qilishi shart. Faqat shundagina ular kutilgan natijalarga erishishlari mumkin. Bunda ta'lim texnologiyalari fanining o'rni va roli beqiyosdir.

Xulosa

Olimlar tomonidan “metodika” va “ta’lim texnologiyalari” tushunchalarini bir xil qarash noto‘g‘ri deb hisoblanadi. Metodikani texnologiyadan farqlab turadigan ikkita asosiy belgilar: a) ta’lim texnologiyalarida talimning so‘ngi natijasi ta’minlangan bo‘ladi; b) amalga oshirish jarayoni oldindan loyihalashtirilgan bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan ta’limda faoliyat ko‘rinishida ko‘nikma va malakalar amalga oshiriladi, ma’lumot ko‘rinishida o‘quv materiallari o‘zlashtiriladi. Natijada nazariy va amaliy bilimlarning mushtarakligi kuzatiladi. Pedagogik texnologiyalar strukturasiga quyidagilar kiradi:

- a) ta’lim texnologiyalarining konsentual asosi;
- b) mazmuniy qism (maqsadlar, ta’lim mazmuni);
- v) protsessual qismi (o‘quv jarayonini tashkil etish, talabalar o‘quv faoliyatining metodlari va shakllari, o‘qituvchining faoliyati, ta’lim jarayonini boshqarish, o‘quv jarayonini tashxis qilish).

Nazorat uchun savollar:

1. “Texnologiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Ta’lim texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Ta’lim texnologiyalari fanining maqsad va vazifasi tushsuntiring
4. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi YUNESKO tomonidan qanday sharhlangan?
5. Qanday tamoyillar pedagogik texnologiyaga xos sanaladi?
6. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli nimasi bilan farq qiladi?
7. Texnologik xarita nima?
8. “Ta’lim texnologiyalar” fanining metodologik asoslarini tushsuntiring.

Tayanch iboralar izohi

1. Ta'lim – maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni.

2. Bilim – o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

3. Interfaol ta'lim – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

4. Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala.

5. Malaka – avtomatlashgan, o'rganib qolingani harakatdir.

6. Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish jarayoni.

7. Shakl – o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

8. Uslub – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish yo'li.

9. Uslubiyot – qat'iy ketma – ketlikka va tizimga rioya qilish.

10. Metodologiya – kishining maqsadga erishishidagi qoidalar majmui.

11. Natija – dars mashg'ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelish.

12. Texnologiya – san'at va mahorat.

13. Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

14. Ta'lim maqsadi – ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan asos hisoblanadi.

15. Ta'lim mazmuni – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va harakteri.

16. Ta'lim metodi – ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

17. Ta'lim monitoringi – ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi.

18. Ta'lim sifati – ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv massasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi.

19. Ta'lim standarti – ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalashga qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni.

20. Ta'lim tamoyili – o'qituvchi faoliyati va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir.

21. Didaktik tamoyillar – ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir.

22. Ta'lim vositalari – o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jixozlari.

23. Bilim – o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

24. Nazariy bilim – narsa va hodisalar mohiyatini bilish, qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

25. Ilmiy bilim – o'bektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi.

26. Ko'nikma – insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

27. Pedagogik texnika – o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini boshqarishga aytiladi.

28. Tizim – yaxlitlik, bir butunlik.

29. Tahlil qilish – materiallarni qismlarga ajratish.

30. Sintezlash – aloxida-aloxida materiallarni umumlashtirish, yaxlitlash.

31. Baholash – natijalar bilan maqsadni qiyoslash.

32. Uzluksizlik – ish harakat usullarini belgilangan vaqt davomida berish.

33. Nazorat – tekshirish.

34. Reyting – baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash.

35. O'quv dastur – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

36. O'quv rejasi – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SHAKLLANISHI VA UNING ZAMONAVIY TUZILMASI

2.1. Ta'lim texnologiyalarining mustaqil fan sifatda shakllanishi

Ta'lim texnologiya atamasi va bu sohadagi ilk ishlanmalar AQSh da XX asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. 15-20 yildan so'ng ta'lim texnologiya barcha rivojlangan mamlakatlar ta'lim sohasini qamrab oldi. So'nggi yillarda pedagogik texnologiyadan foydalanish geografiyasi uzluksiz kengayib bormoqda. Texnologiya tushunchasi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blum, J.Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir. Pedagogik texnologiyaning ilk paydo bo'lish davri ilmiy-texnik taraqqiyotning (ITT) jadallashuvi bilan belgilanadi. Mazkur davrdagi fanning natijalari kashfiyotlar oqimlari bo'lib, ular asosida texnika va texnologiyalarning yangi avlodlari yaratildi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar o'zining ilmtalabligi, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajrala boshladi. Ishlab chiqarish usuli va shart-sharoiti uzluksiz jadal o'zgarib bordi, ta'lim tizimi oldiga tamoman yangi talablar qo'yila bordi. Ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvi va ta'lim tizimga u tomonidan qo'yiladigan talablar nima bilan belgilanadi? Birinchidan - fanning o'sib borayotgan o'rni bilan, XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida, fanning taraqqiyoti eng yuqori sur'atlarga erishdi. Har 10-15 yilda fan faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ikki martadan oshib bordi. Shuning uchun, fanning taraqqiyot qonuni eksponenta qonuniga bo'ysunadi deb faraz qilinadi. Hozirgi zamonda fan taraqqiyotining yuqori sur'atlari, aqliy mehnatni avtomatlashtirish orqali saqlab turilmoqda. Fanning jadal taraqqiyoti, ilmi-texnik informatsiyaning tegishli taraqqiyotiga olib keladi. Fanning eksponenta bo'yicha rivoji uning ko'chkisimon rivojini anglatadi. Zero ilmiy-texnik informatsiyaning ham rivoji ko'chkisimon jarayon hisoblanadi. Informatsiya oqimining

ko'chkisimon o'sish sur'atini saqlash, uchun zamonaviy telekommunikatsion informatsion tizimlar yaratilmoqda va faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'rinib turganidek, fan va axborot hozirgi zamondagi o'sish sur'ati va hajmi, 20-30 yil oldingi ularning holatidan keskin farq qiladi. Fan tarqqiyoti, bu oliy ma'lumotli mutaxassislarining faoliyati doirasiga kiradi. Shuning uchun, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlovchi tizim - zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o'quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Ikkinchidan - zamonaviy fanning ko'chkisimon rivoji 2, 3 va undan ortiq ma'lum fanlar ulanmalarida yangi fanlar paydo bo'lishi bilan ham ta'minlanadi. Masalan: biofizika, biokimyoy, informatika, fiziko-kimyoviy mexanika va ko'pgina boshqa fanlar. Fan daraxti paydo bo'ladi. Ma'lum fanlar ulanmalarida tug'ilgan yangi fan - yangi ilmiy yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o'z ichiga oladi. Bu masalalarni oliy maktabning iqtidorli bitiruvchilari echishi lozim.

Shuning uchun kadrlar tayyorlovchi tizim original va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini, o'z ustiga tizimli va mashaqqat bilan ishlash malakalarini rivojlantirishi lozim.

Talaba ajablana olishi, hayratlana olishi lozim, shundagina u boshqalarni o'zining ijodiy mehnati bilan hayratlantira oladi.

Uchinchidan - fanning ko'chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o'suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanishni, o'qitishni individuallashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, zamonaviy o'qitish tizimining markaziy o'zagi - o'qitishni individuallashtirishdir. Shuning uchun o'qitishni individuallashtirish, mustaqil ta'lim, masofaviy o'qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

To'rtinchidan, muhandislik echimlar turining keskin ko'payishi ilmiy-texnik taraqqiyotining xususiyati hisoblanadi. Materiallar, texnologik jarayonlar, mashinalar konstruksiyalarining zudlik bilan

almashinuvi sodir bo‘ladi. Boshqaruv tizimining avtomatlashuv darajasi oshadi va ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishga qo‘llash muddatlarini qisqaradi. Masalan, telefon aloqasi kashfiyoti bilan undan foydalanish orasidan 56 yil o‘tgan bo‘lsa, radioga-35, televizorga-14, atom energiyasiga-6, tranzistorga-5 yil o‘tdi. Hozirgi paytda bu muddat, odatda 1 yilga ham etmaydi.

Shunday qilib, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlovchi tizim, ularda ishlab-chiqarish, texnika texnologiyaning uzluksiz o‘zgarib turuvchi sharoitiga zudlik bilan moslashuvchanlikni shakllantirishga yo‘naltirilishi zarur. Ular bilimlar harakatlanuvchanligi, tanqidiy fikrlash, ijod va kasbiy faoliyatida epchillik kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Beshinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni oliy maktabda tayyorlash uchun o‘qitishni jadallashtirish, o‘qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to‘la foydalanish zarur bo‘ladi. Ya’ni, timsolli-tomosha o‘qitishni jadallashtirish lozimdir. Bu esa, o‘qitish jarayonida axborotlar berishda, o‘quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o‘qitishni kompyuterlash, o‘quv televideniyasidan foydalanish va h.k.ni anglatadi.

Oltinchidan, har bir odam tabiatan individumdur, ya’ni u faqat o‘ziga xos o‘qish va o‘rganishdagi zehni, qobiliyatga ega bo‘ladi. Demak, zamonaviy o‘qitish tizimining vazifasi o‘quvchining individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ilmtalab, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumdorligi, ular puxtaligining ko‘p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablar qo‘ya boshladi.

Ilmiy texnika taraqqiyot jadallashuvidan oldingi davrda ishlab chiqariladigan mahsulot yuqori puxtaligi va sifati bilan ajarilib turmas edi. Shuning uchun mahsulotlar uchun kafolatli ta’mir muddatlari o‘rnatilgan edi, kafolatli ta’mir esa ishlab chiqarish korxonalarini hisobidan bajarilar edi. Mazkur sharoitlarda an’anaviy o‘qitish tizimi, ishlab chiqarish talabiga

javob berar edi. Ishlab chiqarish sharoitining o'zgarishi bilan an'anaviy pedagogik asosida tayyorlangan mutaxassislar sifati qo'yiladigan talablarga javob bera olmay qo'ydi.

O'qitishning ommaviyligi o'sib kelayotgan bir sharoitda ko'pchilik kadrlarni tayyorlash sifatda darajasi, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini o'sish sur'atidan, ya'ni ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvidan, ancha orqada qola boshladi.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;

v) o'qitishni individuallashtirish (o'qishga turli qobiliyatga ega bo'lgani uchun);

g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish.

Bayon etilgan, bir tomondan pedagogik texnologiyaning sodir bo'lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi. Shu sababli, ilmiy texnik taraqqiyot tezlashuviga 2...3 va undan ortiq fanlar ulanishlarida paydo bo'ladigan yangi fanlarning ta'sirini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Pedagogik texnologiya ham ikkita fan – «pedagogika» va «texnologiya»lar ulanishida paydo bo'lgan yangi fanlardan biridir. Pedagogik texnologiya ilmiy texnika taraqqiyoti jadallashuvi talabalari darajasida kadrlar tayyorlashuvi talabari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari tegishli davr talabari asosida ham paydo bo'ladilar.

«Texnologiya» materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır.

Hunar o'rganish individual tarzda amalga oshirilar edi. Ko'pgina hollarda, hunar sirlari, faqat avloddan avlodga, oilaviy qarindosh

urug'larga o'rgatilar edi. Avloddagi uzilishlar, ma'lum bir kasb sirlarini yo'qolishiga olib kelgan hollar ham mavjud. Misol tariqasida, qadim Sharqdagi machit madrasalarning tashqi va ichki devorlar, gumbazlaridagi naqshlar tabiiy bo'yoqlarining tayyorlanish sirlari yo'qolib ketganini keltirish mumkin. Bu bo'yoqlar hanuzgacha odamlarni o'zining tabiiyligi, chiroyi, ranglari jilosi, takrorsizligi, o'zidan nur sochib turishi, uzoqqa chidamliligi bilan maftun etib kelmoqda.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi, sabab bo'ldi.

Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi.

«Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

«Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllanganligi, bu qonuniy hodisadir. Chunki kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish, ommaviy o'qitishni taqozo etdi. Yuqorida zikr etilganlar ta'lim asoschisi Ya.A.Komenskiyning ilmiy merosini tashkil etadi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvining beqiyos va yuqori talablariga javob beradigan pedagogik texnologiyaning paydo bo'lishi ham shu qonuniyatga bo'ysunadi.

Pedagogik texnologiya, ta'lim tizimidagi mustaqil fan sifatida o'quv jarayonning barcha elementlarini – o'quv grafigini va o'quv rejasini tuzish,

o'qitish va uning natijalarini baholashni - o'z ichiga oladi Oliy ta'lim muassasining o'quv jarayoni o'quv materialini to'la o'zlashtirish tamoyillariga tayanishi lozim. Ya'ni fanning, o'quv dasturiga muvofiq, o'quv materiali barcha talabalar tomonidan o'zlashtirilishi shartdir.

O'quv materialining to'la o'zlashtirilish tamoyili - har qaysi mavzu bo'yicha bilim olish faoliyatining o'rnatilgan darajasiga erishishni anglatadi.

Ko'p sonli xorijiy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, «talabalarning to'la o'zlashtirishi» tushunchasi, guruhdagi har bir talaba tomonidan o'quv materialining kamida 80% ga o'zlashtirishini anglatadi. To'la ishonch bilan, isbotsiz aytish mumkinki, bunga faqat o'ta mahoratli professor va dotsentlar erishishi mumkin. Oddiy professor-o'qituvchilar tarkibida, o'quv materialining bu darajadagi o'zlashtirilishiga, faqat iqtidorli talabalargina erishishi mumkin. Ommaviy ta'lim sharoitida talabalarning to'la uzlashtirishiga qanday qilib erishish mumkin? Bunda uchta yo'lni ko'rsatish mumkin: *birinchi yo'l* – bu o'zlashtirish mezonini pasaytirish, ko'pchilik hollarda shu yo'l tanlanadi. Shu sababdan hozirgi paytda o'quv materialini, o'quv fanini 55% ga o'zlashtirgan talaba ijobiy baholanadi. Tabiiyki, bu yo'lning istiqboli yo'qdir.

Ikkinchi yo'l – professor-o'qituvchilar tarkibini faqatgina oliy darajali, ajoyib professor va dotsentlardan tuzish. Ularning har biri o'ziga xos o'qitish usullari va yo'llari tufayli, tayyorgarlik darajasi butunlay har xil bo'lgan talabalarning to'la o'zlashtirishini ta'minlaydilar.

Haqiqatda, bir guruhda kirish sinovlari fanlari bo'yicha o'zlashtirish darajasi 30% dan 90% va undan ortiq bo'lgan talabalar o'qishi mumkin. Bu yo'l haqiqatdan uzoq va ideallashtirilgan yo'ldir. Barcha talabalar iqtidorli bo'lmaganidek, o'n minglab professor-o'qituvchilar tarkibi ham xuddi shunday, iqtidorli, oliy darajali bo'la olmaydi.

Uchinchi yo'l – o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyani joriy etish bo'lib, ular o'qish va o'rgatishning asosiy elementlarini o'rnatib, o'zida, oliy darajadagi pedagog olimlarning o'qitishdagi uslub va yo'llarini mujassamlashtiradi.

Ishlab chiqarishda, malakasi uncha yuqori bo‘lmagan oddiy ishchi tayyor texnologiya bo‘yicha oliy sifatli mahsulot ishlab chiqarganidek, oddiy o‘qituvchi pedagogik texnologiyani qo‘llab ajoyib natijalarga erishadi.

Pedagogik texnologiya, o‘quv materialining to‘la o‘zlashtirish kafolatini beradi, ya’ni har bir talaba o‘quv fani dasturini kamida 80% ni o‘zlashtiradi.

2.2. “Ta’lim texnologiyalar”ining rivojlanish bosqichlari

Ta’lim texnologiyalarini mazmuni o‘zgarishini shartli ravishda davrlarga ajratish. Ta’lim texnologiyalarini rivojlanish tarixining ma’lum bosqichlariga uzviy bog‘liq.

1946-yilda AQShning Indiana shtatidagi universitetga audiovizual ta’lim kiritilgan (muallif L.K.Larson).

1954-yilda dasturli o‘qitish rejasi asoslab berilgan (muallif – professor B.F. Skinner).

1961-yil Janubiy Kaliforniya universitetida o‘qitish texnologiyasi bo‘limi ochilgan (bo‘lim rahbari – D.D.Finn).

1968-yil LOGO dasturlashtirish tili ishlab chiqilgan va ta’lim muassasasida tatbiq etilgan (AQShdagi Massachusetts texnologik instituti, rahbar – S.Peypert).

1976-yil birinchi shaxsiy kompyuter “Apple” yaratildi (mualliflar- S.Jobs, S.Uoznik).

1991-yil. Displayli sinflarda o‘quv maqsadlari uchun maxsus dasturiy vositalardan foydalanilgan.

1990-yil. Ta’limda interaktiv texnologiyalar qo‘llanilgan.

Ta’lim tizimini texnologiyalashtirish g‘oyasi o‘tgan asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa va AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o‘rtaga tashlandi. *Mazkur g‘oya 30-yillarda ta’lim jarayoniga “pedagogik texnika”* (“ta’lim texnikasi”) tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda “pedagogik (ta’lim) texnika(si)” tushunchasi “o‘quv mashg‘ulotlarini aniq

va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi” tarzida talqin etildi hamda o‘quv jarayoniga o‘quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko‘rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi etakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor tinglovchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob’ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi.

60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko‘rila boshlandi. Dasturiy ta’lim tinglovchilarga muayyan bilimlarni alohida qism holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta’lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan “Dasturiy ta’lim va o‘rgatuvchi mashinalar bo‘yicha birlashgan Qo‘mita” tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta’lim o‘zida ta’lim maqsadlari, ularni o‘zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta’lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bu esa o‘zgartirish majmuasini to‘lalgicha qayta tashkil etish tushunchasi mazmuniga mos keladi:

60-yillar o‘rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Vengriya) va darajasiga qarab uni talqin qilish ikki yo‘nalishi belgilandi.

Birinchi yo‘nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo‘llash zarurligini ta’kidladilar (technology in education).

Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g‘oyalarning texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo‘qotish muhim deb hisobladilar. Shunday qilib 1-yo‘nalish “o‘qitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, biz biroz keyinroq yuzaga kelgan 2-yo‘nalish “o‘qitish texnologiyasi” yoki “o‘quv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi o‘quv uskunalari va o‘quv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab etildi. Bularsiz o‘qitishning sifatli va samaradorligiga erishib bo‘lmas edi.

1-jadval. “Ta’lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanish bosqichi

№	Bosqich-lar	Yillar	Ta’lim texnologiyasi-TT
1.	I-bosqich	XX asrning 30- yillari	TT= Ptex O‘quv mashg‘ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko‘maklashuvchi usul va vositalar yig‘indisi (pedagogik texnika – Ptex)
2.	II-bosqich	XX asrning 50- yillari	TT=Ptex. + TV Ta’lim jarayonida texnik vositalar (TV) ni qo‘llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig‘imini kengaytirish, ularni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, tinglovchi faoliyatini individuallashtirish
3.	III-bosqich	XX asrning 60- yillari	TT = Ptex. + TV + dasturiy ta’lim (DT) Dasturiy ta’lim – ta’lim maqsadlarining aniqlanishi, ta’lim jarayonini umumiy loyihalash, tinglovchilar tomonidan nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashhislash, ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta’lim maqsadining natijalanganligini o‘rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish
			TT = Ptex + TV + DT

60-yillar o‘rtalari va 70-yillarning boshlarida AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiya kabi yuksak rivojlangan davlatlarda pedagogik texnologiyalar masalalari bilan shug‘ullanuvchi jurnallar nashr etilar edi,

keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shugʻullana boshlaydi.

Davr	Texnologik yondashuvning namoyon boʻlishi	“TT” tushunchasi maʼnosi
XVII asr	XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday taʼlim mexanizmi, yaʼni uni “didaktik mashina” deb nomlab, uning ustida izlanish olib borgan.	“Didaktik mashina”
30-50-yillarning oʻrtasi	30-yilning oʻrtasida AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va koʻrish (audiovizual) taʼlimi boʻyicha maʼruzalar oʻqilgan, 1946y. shu erning oʻzida eshitish va koʻrish taʼlimi boʻyicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va koʻrish vositalarni ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qoʻllab oʻquv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. 1954y. - professor B.F. Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) boʻyicha oʻrgatishning muntazamli texnologiyasini oʻzida namoyon etuvchi, dasturlashgan taʼlim modeli (DT) asoslandi. Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning toʻgʻriligini tezkor baholash va agar keyingi qadamga xatolik boʻlsa qaytarish deb taʼkidlagan.	“Taʼlimda texnologiyalar” - “... maʼlumotga ega boʻlish sohasida zamonamizning boʻlagi boʻlgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlari va jarayonlarini qoʻllash” (M. Klark). Pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va koʻrish (audiovizual) vositalarini qoʻllash
50-60-yillar oʻrtasi	1958y. – N.Krauder bir qator berilgan javoblarni toʻgʻriligiga bogʻliq ravishda qaytar aloqaga muvofiq javoblarni koʻp tanlash DT ning kengaytirilgan chizmasini taklif etdi.	“Oʻrgatuvchi texnologiya” (D.Finn,1959) – pedagogik maqsadda maxsus yaratilgan eshitish vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish uslubiyoti
70-80-yillar	Taʼlim texnologiyasini ilmiy asosi axborot, telealoqa nazariyasi, pedagogik kvalimetriyasi, tizimli tahlil, bilish jarayonini boshqarish nazariyasi, taʼlim jarayonini qulaylashtirish, pedagogik	“Taʼlimiy texnologiya” TT - “taʼlim texnik vositalari yoki kompyuter

	<p>mehnatni ilmiy tashkillashtirish va boshqalar.</p> <p>Eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshlandi.</p> <p><i>Ta'lim texnologiyasi</i> muammolari bo'yicha Xalqaro anjumanlarda ta'lim texnologiyasiga umumiy mohiyat taklif etildi.</p> <p>TT qo'llanish sohasi - (1) o'qitishning texnik vositalari, (2) ma'lumot olish muammolariga tizimli yondashishi.</p> <p>“Birinchi soha o'qitish vositalarida texnika yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiy nazariyasi birlashtirilishi lozim bo'lgan ilovaga bog'liq, ya'ni ta'lim muammolariga tizimli yondashishdir”.</p> <p>P.D. Mitchel (1970 y.) TT bo'yicha 102 manbalarni tahlil etishi natijasida TT ma'nosi va pedagog-texnologlar vazifasi asosini shakllantiradi: “Kutilayotgan pedagogik natijalarni olish uchun inson, moddiy va moliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash”.</p> <p>“TT muammolarining nazariy tadqiqotlarini ishlab chiquvchi oqim, mohir texnologlarning yangi avlodi paydo bo'ldi” (M. Eraut).</p> <p>“Faqat sodda odamlargina, texnologiyani - faqat moslamalar va o'quv materiallar majmui deb hisoblaydilar”. Bu bundan ko'prog'ini angalatadi. Bu tashkillashtirish yo'li, bu materiallar, insonlar, tashkilot, modellar va tizim turidagi “inson-mashina” to'g'risidagi tasavvur. Bu muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va inson qadri o'zaro harakatiga muhim aloqaga ega. “Ta'lim vositasining sinonimi hisoblanmasdan, u fanlararo xilma-xil tasodiflar yig'indisi, ta'limning barcha jihatlar bilan bog'liq bo'lgan, qisqa</p>	<p>sohasidagi izlanishlar emas; bu ta'lim jarayo-ning samarador-ligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li bilan, tuzilmaga kelti-rish hamda yo'l va materiallarni qo'llash yo'li bilan, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni-ni eng maqbullash-tirishtamoyilla-rini aniqlash va yo'llarini ishlab chiqish maqsadida-gi izlanishdir”.</p> <p>(Mejdunarodniy ejegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya – London – Nyu - York, 1978 g.)</p> <p>“TTning dastlab-ki mohiyati peda-gogik maqsadlarda muloqotqilish-ning eshitish va ko'rish vositalari, ko'rsatuv, kompyu-ter va boshqa turdagi “yumshoq” va “qattiq” vositalardan foydalanishni anglatgan. Yangi va kengroq ma'noda esa, ta'lim olish shakllarini maqbullashtirish-ni</p>
--	---	---

	<p>ta'limiy lavhadan to uning barcha harakatlaridagi milliy tizimlari hisoblanadi" – D.Finn, London, 1978.</p> <p>80-yillarda TT to'g'risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo'ldi:</p> <p>"... xorijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma'lum bo'lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti" (Klarin, 1989)</p>	<p>o'z vazifalari deb qo'yuvchi, butun ta'lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir".</p> <p>(YUNESKO,1986 y)</p>
90-yillar	<p>TT muammolarini: V.P.Bespalko, V.Guzeev, V. Klarin, V Monaxov, G. Selevko, S. Saidaxmedov, J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, M. Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar</p>	<p>"Pedagogik texnologiya" – atamasi pedagogika fanida vujudga keldi</p>
XXI asrning 1-o'n yillari	<p>"Pedagogikaning predmeti inson tabiati (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarining samarasi o'rtasidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi". Bir qancha uslubiyotlardan "tanlash huquqi" o'rniga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki inson to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mavjud sharoitlar uchun harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika "tajribani umumlashtirish" va "omma ijodkorligi" botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya – pedagogika muhandisligiga o'zgaradi.</p> <p>Ushbu matn parchasida TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir. Berilgan sharoitda maqbullik – texnologiyani hammabop tizimli belgisi.</p> <p>"Pedagogika uchun texnologiya ma'nosiga alohida, hech nimaga o'xshamaydiganlar, shuningdek unga texnik takrorlanish ma'nosini o'ylab</p>	

	topishga hech qanday sabab yo‘q. Mohiyati bo‘yicha mavjudlik va ishlab chiqarishlik, ijtimoiylik, insonshunoslik va texnologiya vazifalarini berilishidek qabul qilish kerak” (A.M. Kushnir, 2004 y.).	
--	--	--

2-jadval: Ta’limga texnologik yondashuv va “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi ma’nosining uzluksiz o‘zgarishi

2.3. Pedagogik texnologiyalarini rivojlanishi

PT mohiyati haqida kamida yarim asr davom etgan ilmiy munozaralar mazmuni turli mualliflar, pedagogik komissiyalar va uyushmalarning ta’rifu tavsiflarida o‘z aksini topdi. PT mohiyati haqida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtayi nazar mavjud. Munozaraning asosiy sababi ham xuddi ana shunda. Barcha mualliflar PTni o‘qitishning zamonaviy vositalari majmuasi deb hisoblashsa, boshqalari esa uni kommunikatsiya jarayoni, deb e’lon qildilar. Ayrim guruhdagi mualliflar o‘qitish vositalari va jarayonini PT tushunchasida birlashtirib, ularga bir butunlikda qaraydi.

London universitetida tashkil etilgan audiovizual markaz direktori M.Klark PTning dastlabki ma’nosini quyidagicha izohlagan: “PT-ta’lim sohasida ixtirolar, sanoat buyumlari va hozirgi zamon texnologiyasining asosiy qismi hisoblanmish jarayonlarni qo‘llash”. Ushbu ta’rif “ta’limda texnologiya” atamasini zamonaviy nuqtayi nazardan tushunishni ifoda etadi. Chunki bunda uning ma’nosi o‘qitishda qo‘llaniladigan nopedagogik buyumlar va jarayonlar sifatida talqin etiladi.

F.Persival va G.Ellingtonning e’tiroficha, “ta’limda texnologiya” atamasi axbortni taqdim etishning har qanday vositasini qamrab oladi. Bular “ta’lim tizimida qo‘llaniladigan jihozlar, masalan, televideniye, til o‘rgatish laboratoriyalari va tasvirlarni aks ettiruvchi turli vositalardir.

Boshqacha aytganda, “ta’limda texnologiya – bu audiovizual vositalar” (Persival F., Ellington H. A handbook of Educational Technology, London: Kogon page Ltd, 1984, p. 12). Bu ta’rifda “ta’limda texnologiya” dan ko‘proq “ta’lim texnologiyasi”ga urg‘u beriladi, chunki u o‘zida o‘quv jarayonini ta’minlash uchun maxsus yaratilgan va

moslashtirilgan vositalar (televideniye, til o'rgatish laboratoriyasi)ni hamda ularni amalda qo'llash metodikasini birlashtiradi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyasi tarkibiga qattiq (hardware) va yumshoq (software) vositalardan tashqari yana "sezilmagan" (intangible) aspektlar kiradi. Ularga bilimlarning turli tarmoqlari, masalan, psixologiya, sotsiologiya, kasbiy menejment va tizimli tahlilga oid g'oya va tajribalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda bilimlar va o'qitish tizimini optimal o'zlashtirish metodikasini ishlab chiqish uchun texnikaning optika, reprografiya, akustika va mikroelektronika tarmoqlaridan foydalaniladi. Yuqorida qayd etilgan aspektlarda qattiq (proyektorlar, magnitofonlar, televizorlar, mikrokompyuterlar) va yumshoq vositalar (slyaydlar, depozitivlar, magnitofonlar, videoyozuvlar, kompyuter dasturlari)ga qarama-qarshi o'laroq, boshqa "tegishli vositalar" (inderware) ham ta'riflanadi.

Ushbu yondashuvni asoslab (uni ko'p aspektli yondashuv deb atash mumkin), D.Finn quyidagi fikrni bayon etadi: "Faqat sodda odamlargina texnologiyani apparaturalar va o'quv materiallarining shunchaki majmuyidan iborat, deb tushunishi mumkin. Ammo texnologiya juda keng ma'noga ega. Texnologiya bu – o'quv jarayonini tashkil etish usullari, materiallar, odamlar, muassasalar, "inson mashina" tipidagi modellar va tizimlar haqidagi fikrlar timsoli. Texnologiya – muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va insoniy qadriyatlarining o'zaro ta'siriga ham daxldor". U yana "Pedagogik vositalar, kommunikatsiya va texnologiyalar ensiklopediyasi"da (London, 1978) shunday so'zlarni yozadi: pedagogik texnologiya iborasi "o'qitish vositalari" atamasiga sinonim emas. Pedagogik texnologiya fanlararo birikish (konglomerat) hisoblanadi. U ta'limning deyarli barcha aspektlari, ya'ni qisqa o'qitish kursidan tortib, to milliy ta'lim tizimining keng qamrovli vazifalari bilan uzviy bog'liq". Muallif pedagogik texnologiya haqida juda ko'p fikr-mulohazalar bildirilgan bo'lsada, lekin PT atamasining ma'nosiga juda kam e'tibor berilganini, uning chuqur tahlil etilmaganini alohida ta'kidlab o'tadi.

P.D. Mitchell PT muammolari bo'yicha 102 ta manba (monografiya va maqolalar)ni tahlil etadi. U tahlil natijalariga asoslanib, PTning yakuniy

ta'rifini izohlab beradi: "Pedagogik texnologiya-tadqiqot va amaliyot sohasi (ta'lim tizimi doirasida). U pedagogik tizimlar tuzilmasining barcha aspektlari hamda o'ziga xos (potensial jihatdan qayta tiklash mumkin bo'lgan) pedagogik natijalarga erishish maqsadida tashkil etiladigan tadbirlar bilan chambarchas bog'liq".

Ushbu ta'rif asosida P.D. Mitchell pedagog-texnologlarning asosiy vazifasini tavsiflab berdi. Uning fikricha, pedagog-texnologlarning asosiy vazifasi "kutilgan pedagogik natijaga erishish uchun inson resurslarini, moddiy va moliyaviy resurslarni eng maqbul darajada taqsimlash" dan iborat.

PTning ma'nosi to'g'risidagi munozaralarga yakun yasab, "AQSh pedagogik texnologiyalar va kommunikatsiyalar uyushmasi" 1979-yilda pedagogik texnologiyaning "rasmiy ta'rifi"ni e'lon qildi. Bu ta'rifga ko'ra, "pedagogik texnologiya odamlarni, g'oyalarni, bilimlarni o'zlashtirish aspektlarini, ta'lim olishni rejalashtirish, ta'minlash, baholash faoliyatini tashkil etish usul va vositalarini o'z ichiga qamrab olgan majmuaviy, integrativ jarayon"... (Silber K.H. Some implicational of the history of Educational Technology: we're all in this together. In: J.W. Brown and S.N. Brown, Educational Media Yearbook, Littleton, Colorada: Libraries Unlimited, 1981. p.21)

Ushbu ta'rif juda keng ma'noda berilgan. PTning tavsifidagi keyingi o'zgarishlar uning ma'nosi qirralarini aniqlashtirish va ularni ixtisoslashtirish bilan bog'liq. Ta'lim texnologiyalari atamaları glossariysida ko'rsatilishicha (Parij: YuNESKO, 1986, 43-b), PT ikki xil ma'noga ega: "Dastlabki paytlarda kommunikatsiya sohasidagi inqilob tufayli yaratilgan vositalar, masalan, audiovizual vositalar, televideniye, kompyuterlar hamda "qattiq" va "yumshoq" vositalarning boshqa turlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanishni PT ma'nosida tushunilgan. Yangi va keng ma'noda PT bu – butun o'qitish jarayonini rejalashtirish, amalda joriy etish va baholashning tizimli metodi hamda ta'limning eng samarali shakllariga erishishi uchun inson va texnika resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini e'tiborga olish yo'li bilan bilimlarni o'zlashtirish. Xuddi shu ma'noda, PT tizimli tahlilda nazariy vosita sifatida foydalaniladi».

Buni qoida deb hisoblash mumkin. Chunki keyingi yillarda PT muammolariga bag‘ishlab e‘lon qilingan maqolalardan ma‘lumki, ularning mualliflari PT ma‘nosini tahlil qilishga urinmaganlar. “Pedagogik texnologiyaning yuzaga kelishi, rivojlanishi” (R.M. Tomas, V.N. Kobayashi tahriri ostida. Oksford: Pergamon Press, 1987. 275 r.) nomli monografiya mualliflari ham bundan mustasno emas. R.M.Tomas PTning umumiy qabul qilingan ta‘rifi yo‘qligini e‘tirof etish bilangina cheklangan. Uning fikricha, “pedagogik texnologiya”ni turli odamlar turli ma‘noda tushunadi. Ko‘pchilik PT deganda elektron jihozlar, masalan, kinoapparatlar, magnitofonlar va televizorlardan o‘quv jarayonida foydalanishni tushunadi. Boshqalar esa, ular qatoriga noelektrik materiallarni, masalan, kitoblar, suratlar, kartalarni ham kiritadilar. Yana bir guruh kishilar esa PT ta‘rifiga boshqaruvda pedagogik ma‘muriyat tomonidan qo‘llaniladigan jihozlarni ham kiritadi. Monografiya mualliflarining o‘zlari esa, PT ta‘rifini tahlil etishdan voz kechib, texnologiyaning ayrim turlariga qarab o‘tadilar. Xususan, monografiyada to‘rtta asosiy pedagogik texnologiyaning konseptual tahlili berilgan: nashr vositalari, kompyuterlar, radio va televideniye, ta‘limni boshqarish tizimi (Thomas R.M., Kobayashi V.N. (Eds) Educational Technology its Greation? Development and Cross-Cultural Transfer. Oxsford: Pergamon press, 1987. 275 p.)

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvni PT tushunchasining rivojlanishida istiqbolli deb hisoblash mumkin, chunki u PT ma‘nosini ixtisosliklar nuqtayi nazaridan talqin etish imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyalar – bu ta‘lim samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladigan hamda pedagogika nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitish usullari va vositalari, yondashuvlar, tizimlar, konsepsiyalar, tendensiyalar, g‘oyalarning fanlari o‘zaro birikishi (konglomerat). Pedagogik texnologiyalar deyarli yarim asr davomida tadrijiy ravishda rivojlandi va o‘zining hozirgi zamon mavqeyiga erishdi. Bu davrlarda o‘qitish turlari “og‘zaki-audiovizual-dasturlash-multimedia-gipermedia” ketma-ketligi bo‘ylab almashdi.

Pedagogik texnologiyalarning e‘tirof etilish davrlarini uch bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi – pedagogik texnologiyalarni o‘rganish obyekti sifatida e’tirof etilishi. 1946-yilda AQShning Indiana universitetida audiovizual ta’lim rejasi kiritildi (muallif L.Larson). Bu ta’lim maskanida 30-yillardayoq talabalarga pedagogik texnologiya bo‘yicha saboq berila boshlangan edi. Lekin bu vaqtgacha pedagogik texnologiyani joriy etish bo‘yicha birorta ham mukammal dastur ishlab chiqilmagandi. L.Larson birinchi marta mutaxassislar tayyorlashning audiovizual rejasini kiritdi. Indiana universitetida kiritilgan audiovizual reja hamda Shimoliy Amerikadagi boshqa universitetlarda kiritilgan kurslar mazmunida ishlab chiqarishni rivojlantirish, audiovizual vositalarni qo‘llagan holda o‘quv jarayonini boshqarish va boshqa masalalar aks etgan (Ely D.P. Educational: Field of study. In: International Encyclopedia of Educational, v.1-10, v. 3. Oxsford : Pergamon press, 1985. p. 1616).

Ikkinchi – pedagogik texnologiyalarning kasbiy kategoriya sifatida e’tirof etilishi. 1954-yilda dasturli o‘qitish g‘oyasi asoslab berildi (muallif-B.F.Skinner) va bu hol pedagogik texnologiyadagi ustuvorliklarning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Uning asosida o‘zgarishni “stimul – reaksiya” sxemasi bo‘yicha mustahkamlash konsepsiyasi yotadi.

B.F. Skinner tomonidan ishlab chiqilgan dasturli o‘qitish (DO‘) modelida o‘qituvchiga bosqichma-bosqich o‘qitishning chiziqli texnologiyasi (mavzu-qadamlar – kadrlar) taklif etildi. Bunda teskari bog‘lanish, ya’ni joriy etilgan topshiriqlarning to‘g‘riligini tezda nazorat qilish va xatoga yo‘l qo‘yilgan hollarda avvalgi qadamga qaytish nazarda tutiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan davrda DO‘ g‘oyasi pedagog-texnologlar tayyorlashning ko‘plab rejalarini qamrab oldi. Ammo “o‘qitish texnologiyasi” atamasining muallifi, shubhasiz, D.D. Finn bo‘lib qoldi. U 1963-yilda Janubiy Kaliforniya universitetida “O‘qitish texnologiyasi” bo‘limini tashkil etdi.

1958-yilda DO‘ texnologiyasini N.Krauder yanada takomillashtirdi. U DO‘ ning tarmoqlangan sxemasini taklif etdi. Bunda taklif etilgan ko‘plab javoblardan tegishlilari tanlanadi va javoblarning to‘g‘ri-noto‘g‘ri tanlanganiga bog‘liq ravishda teskari bog‘lanish amalga oshiriladi. Shunday qilib, DO‘ning yangi modeli moslashuv modeli bo‘ldi.

“Skinnerchilar” va “krauderchi”larning DO‘ haqidagi 60-yillar davomida munozaralari oxir-oqibatda kelishuv bilan yakunlandi. Natijada DO‘ning kombinatsiyalashgan yangi texnologiyasi paydo bo‘ldi. U o‘z ichiga DO‘ning chiziqli va tarmoqlangan texnologiyasi mazmunini qamrab oladi.

Pedagogik texnologiyalar rivojlanishi ikkinchi bosqichining xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu davrda PT sohasida mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘z dasturlarini ishlab chiqqan oliy o‘quv yurtlari soni jadal sur‘atlarda ortdi. 1980-yilda AQShda pedagogik texnologiyalar bo‘-yicha 193 ta dastur amalda qo‘llanilgan (holbuki 1955-yilda 50 ta dastur bo‘lgan). PT sohasida 788 fakultet to‘la dastur (Fulltime) bo‘yicha, 469 fakultet esa qisman (parttime) dasturlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashgan.

Michigan, Sirakuza va Florida universitetlari pedagogik texnologiyalar bo‘yicha eng yaxshi dasturlarga ega bo‘lishgan. Bundan tashqari, 1981-yilda Garvard va Stanford universitetlarida magistr va fan doktorlari tayyorlash uchun pedagogik texnologiya sohasida yangi dasturlar ishlab chiqilgan.

Ilgari ham (xususan, asrimizning boshlarida) o‘qituvchilar pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqot ishlari olib borishgan, uslubiy tavsiyalar va o‘qitish vositalarini yaratishgan. Ammo o‘zlarini texnolog, deb hisoblashmagan. M.Eraut o‘z ilmiy ishlarida bunday holat to 80-yillarning boshigacha davom etganini alohida qayd etib o‘tadi.

80-yillar boshida professional texnologlarning yangi avlodlari shakllana boshladi. Ular pedagogik texnologiya muammolarini nazariy tadqiqot etishni kuchaytirib yubordi. Bu esa pedagogik texnologiya rivojlanishining yangi bosqichga o‘tishiga asos bo‘ldi (Eraut V. Educational Technology: Conceptual Frame Work and historical Development. In: The International Encyclopedia Education, v. 1-10, v.3. Oxsford: Pergamon press, 1985. p. 1604).

Uchinchi – pedagogik texnologiyalarning pedagogikadagi nazariy bilimlar tarmog‘i sifatida e’tirof etilishi. Bu bosqichning muhim belgisi shundan iboratki, bu davr (60-70-yillar)da pedagogik texnologiya muammolarini tadqiq etishga tizimli yondashuv tatbiq etildi, shuningdek,

mutaxassislarning audiovizual ta'lim va dasturli o'qitish bo'yicha nuqtayi nazarlari bir-biriga yaqinlashtirildi. Bu davrni kelishuv (konsolidatsiya) davri ham deb atashadi (1967-1972-yillar). Bundan tashqari, bu vaqtda pedagogik texnologiya haqida turli konsepsiyalar va paradigmalari ommaviylashdi.

Bu bosqichning ilk davri 1960-yilga to'g'ri keladi. To'g'rirog'i, 60-yil bu bosqichning sanoq boshi hisoblanadi. Chunki xuddi o'sha yili AQShda birinchi marta "Pedagogik texnologiya" (Educational Technology) bo'yicha maxsus nazariy jurnal nashr etildi. Unda texnologiya va ta'limning o'zaro munosabati hamda ularning jamiyatda tutgan o'rnini haqida va pedagogik texnologiya muammolarining nazariy tahliliga bag'ishlangan ikkita ilmiy ish e'lon qilindi. Birinchisi AQSh o'qitish vositalari bo'yicha mutaxassislar kasbiy uyushmasining Audiovizual ta'lim bo'limi prezidenti D.D.Finning "Texnologiya va o'qitish jarayoni" nomli ma'ruzasi edi. Ikkinchisi katta axborot nashri bo'lib "O'qitish mashinalari va dasturli o'qitish" deb nomlangan. Bu ilmiy ish I.A. Lamsdeyn va R.Gleyzerning tahriri ostida nashr etilgan (Lumsdaine A.A. Glasser (eds). Teaching machines and Programmed Learning: A Source Book. Department of Audiovizual instruction, National Education Association, Washington, DC. 1960. 572p.) Har ikkala ishda ham pedagogik texnologiya rivojlanishining eski konsepsiya va tendensiyalaridan yangisiga o'tish jarayoni tahlil etilgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyalarni e'tirof etishning to'rtinchi bosqichi davom etmoqda. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar fanlararo birikish (konglomerat) sifatida tan olinmoqda. U pedagogik bilimlarning ma'lum bo'lgan barcha tarmoqlari bazasida amal qiladi va o'zining ilmiy tushunchalarini boyitishda boshqa fanlar (kibernetika, mantiq, sotsiologiya, informatika, optika, akustika, kasbiy menejment) yutuqlaridan foydalanadi.

Bu bosqichning boshlanishi 1970-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda P.D. Mitchell o'z tadqiqoti natijalari haqida matbuotda ko'plab maqolalar e'lon qildi. U o'zining ilmiy izlanishlari natijasida "pedagogik texnologiyaning fanlararo bog'lanish tendensiyasi ortgani va buning natijasida PT ma'nosining g'oyaviy yo'nalishlari kengaygani" haqida

xulosa chiqardi (Mitchel P.D. Educational Technology: Pancebo// Bajpai A.C. and Leedham. (Eds). Aspects of Educational Technology, 4. London: Pitham, 1970).

Shuni ta'kidlash joizki, pedagogik texnologiyalarni e'tirof etishning keyingi ikki bosqichida nihoyatda ko'plab maqolalar e'lon qilinib, ular qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. "Pedagogik adabiyotlarning milliy bibliografik ko'rsatkichi"da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra (AQSh da 1927-yildan buyon nashr etiladi), dunyoda pedagogika bo'yicha har oyda ingliz tilida 20 mingga yaqin maqola, 1800 ta kitob chop etiladi (Educational Index, New-York, 1992 vol. 63). 1992-yilda katalogda ko'rsatilgan pedagogik Jurnallar soni 356 tani tashkil etgan. Shulardan 19 tasining nomida "texnologiya" atamasi mavjud.

"Konsepsiya" atamasi bir-biri bilan bog'liq bir necha ma'noga ega. Konsepsiya – bu biror narsa haqidagi qarashlar tizimi, umumiy g'oya yoki tasavvur, tushuncha. Uning keyingi ma'nosiga to'xtalib o'tamiz. YUNESKO ta'rifiga ko'ra, ZPT ikki ma'noga ega: o'qitishning texnik vositasi (O'TV) va ZPT, ya'ni dastlabki ma'noda "o'qitishning texnik vositasi". Yangi ta'rif bo'yicha esa, ZPT– rejalashtirish – joriy etish – baholash (devising-appiying – assessing) chizig'i bo'yicha tizimli yondashuv. Bu pedagogik texnologiyaning barcha yangi ta'riflari va ularning yangi konsepsiyalari uchun xarakterlidir.

Bundan tashqari, ko'rsatib o'tilgan ta'rif ZPTning barcha mavjud konsepsiyalarini ikki turga ajratishga imkon beradi. Ularni tor va keng konsepsiyalar, deb atash mumkin. ZPTning tor konsepsiyalari audiovizual ta'lim va dasturli o'qitishga xizmat qiluvchi barcha o'qitish vositalari haqidagi qarashlar tizimini tashkil etadi.

ZPTning keng konsepsiyalarida esa yuqorida aytilganlarga qo'shimcha ravishda, kibernetik g'oyalarning qo'llanilishi haqidagi umumiy tushunchalar, hozirgi zamon pedagogika nazariyasi va amaliyotida pedagogik mehnatni tashkil etish va boshqarish nazariyalari aks etadi.

XX asrda ZPTning rivojlanish tarixi "og'zaki – audiovizual – dasturli – multimedia – gipermedia o'qitish" chizig'i orqali o'tadi.

O‘qitishning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan turi ZPTning to‘rt asosiy konsepsiyasiga xizmat qiladi: instrumental (ZPT o‘qituvchining instrumenti sifatida), kommunikatsion (ZPT ommaviy kommunikatsion vosita sifatida), tizimli (ZPT samarali ta’limga erishish tizimi sifatida), interaksion (ZPT EHM bilan muloqot tartibini ta’minlovchi vositalar tizimi sifatida). Dastlabki uch konsepsiya texnologik yondashuvda, oxirgisi – axborot nuqtayi nazaridan yondashuvda sintezlangan.

ZPT muammosini tadqiq etgan olimlar K.Richmond (1970), P.D. Mitchell (1978), R.M. Tomas va V.N. Kobayashi (1987) PT ta’rifining ilgarilab ketuvchi ma’nosi va ZPT tushunchasining “buzilgan” chegaralari haqida qayd etib o‘tdilar. Ko‘rsatib o‘tilgan tendensiyalar yangi o‘qitish vositalarining paydo bo‘lishi va unga bog‘liq holda o‘qitish turlarining o‘zgarishi bilan tushuntiriladi. Ushbu holat ZPT ta’riflari mualliflarining ZPT predmeti tavsifi haqidagi fikrlarini o‘zgartirishga olib keladi. Natijada, pedagogik texnologiya predmetini tavsiflashga imkon beradigan belgilar soni yanada orttirildi.

Shunday qilib, 1979-yilda “AQSh pedagogik kommunikatsiya va texnologiyalar uyushmasi” ZPT xususiyatlarini tavsiflab berdi. Bu tavsifga ko‘ra, ZPT xususiyatlari quyidagicha: pedagogika nazariyasi qismi, intellektual o‘qitish majmuasi, texnikaning amaliyotga tatbiq etilishi, o‘qitishning ma’lum davri (sertifikat olish uchun), axloqiy me’yorlar va qoidalar to‘plami, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, ayni bir kasb vakillari uyushmasi, ZPTning pedagog-texnologiyalar tayyorlash uchun kasbiy ahamiyatga ega va boshqa kasblar bilan o‘zaro bog‘liq kasb ekanini e’tirof etish (Silber K.H. Some implications of the history of Educational Technology: We’re all in this together. In: J.W.Brawn & S.N. Brawn. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado Libraries Ublimited. 1981. r.21).

ZPTning kengaytirilgan ushbu ta’rifi ta’limdagi texnologik tendensiyalarni oldindan aytishda foydali bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda O‘Vlarni yangi avlodlarining paydo bo‘lishi va o‘qitish turlarining o‘zgarishi natijasida an’anaviy o‘qitish vositalari (magnitofonlar, proyektorlar va boshqa audiovizual vositalar) asta-sekinlik bilan pedagogik xizmat ko‘rsatish bozoridan siqib chiqarilmoqda. Ular

o‘rnini yaqin kelajakda yangi uchlik: shaxsiy kompyuter – telekommunikatsion tarmoqlar – video o‘qitish tizimi egallaydi.

ZPTning umumiy konsepsiyasi ZPT muammolari bo‘yicha 1969-yilda Londonda bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanda taklif etilgan edi. Bunda gap ZPT qo‘llanilishining ikki sohasi haqida boradi: o‘qitishning texnik vositalari va ta’lim muammolariga tizimli yondashuv.

1970-yilda ZPT bo‘yicha Loboroda bo‘lib o‘tgan anjumanda “birinchi soha o‘qitish vositalarida texnika yutuqlarining joriy etilishi, ikkinchisi esa pedagogik nazariyaning rivojlanishi bilan bog‘liqligi” ko‘rsatib o‘tilgan. Ular o‘qitishni tashkil etishning umumiy nazariyasi, ya’ni ta’lim masalalariga tizimli yondashuv orqali birlashtiriladi.

T.A.Ilinaning ta’kidlashicha, AQShda nashr etilgan adabiyotlarda “Pedagogik texnologiya”ga o‘qitishning yangi konsepsiyalari ham, yangi vosita va metodlarining o‘zaro ta’sir muammosi ham, o‘qitishni tashkil etishga tizimli yondashuvni qo‘llash ham kiritilgan”. T.A. Ilina ZPT sohasida tadqiqot olib borayotgan yaponiyalik mutaxassislar ham xuddi ana shu nuqtayi nazarda ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, M.Kaneko o‘zining “Pedagogik texnologiyaga kirish va o‘qitish tizimlari” (1970) nomli maqolasida audiovizual vositalar (O‘V), o‘qitishning psixologik nazariyasi va tizimlarning umumiy nazariyasi muammolari hamda uning pedagogikaga tatbiq etilishini qarab o‘tadi.

“Texnologiya” tushunchasining ikki jihatini mavjud: nazariy va amaliy. Birinchisida materiallarni qayta o‘zgartirish jarayonlarining ilmiy tavsifi, ikkinchisida muayyan amallarni joriy etish usul va malakalari majmuyi qarab o‘tiladi. Nazariy texnologiyaning asosiy muammosi, -deb ta’kidlaydi A.D. Bondarenko,- “inson-tabiati” tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq. Uning mazmuni shundan iboratki, yaqin istiqbolda (50-100 yillarda) insoniyat sivilizatsiyasining eng maqbul tarzda rivojlanish strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim”.

“Pedagogik texnologiya konsepsiyasi: o‘z-o‘zi bilan muloqot” (London, 1970) nomli monografiyada texnologiya yoki amaliy fanni o‘rganish borgan sari zaruratga aylanayotgani haqida yoziladi. Buning esa, birinchi sababi: texnologik jamiyatning vujudga kelishi...(buning politexnik ta’lim konsepsiyasida aks etgani ayni haqiqatdir). Ikkinchi

sababi: agar biz texnologiya mohiyatini tushunmasak, tevarak-atrofni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilmasak, u holda ko'pgina kishilar bu jarayonda ishtirok eta olmaydi. Uchinchi sababi: fanlar va tamoyillarni o'rgangan "sof" olimlar (kollej va universitet bitiruvchilari) sotsiologiyaga qaraganda ko'proq psixologiya bilan amaliy ish ko'rganlar va shuning uchun ham oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan keyin ham o'qish-izlanishda va kasbiy tayyorgarlik ko'rishda davom etadilar.

Ehtimol, – deb so'zini davom ettiradi D.Peterson, – amaliy yondashuv yordamida ko'plab o'quvchi-talabalarning ilmiy mashg'ulotlarga qiziqishi ortadi, ammo ular ilmiy xodim yoki texnolog bo'lmasligi mumkin. Har qalay, ular sivilizatsiyamizning texnologik bazasi haqida bilim olishgani ma'qul. Bu ular uchun ushbu texnologiyaga asoslangan ilmiy nazariyani bilishdan ko'ra muhimroqdir.

K.Richmond ham bu borada, o'z mulohazasini bildiradi: "bizning jamiyatimiz texnologik jamiyat va undagi ta'lim ijtimoiy jarayon hisoblanadi, Bundan kelib chiqadiki, texnologiyani o'rganish borgan sari zaruratga aylanadi... Siz bu da'vomizni qabul qila olasizmi? Pedagogik texnologiyalar bilan texnologik pedagogika o'rtasiga chiziq tortish mumkinmi?"

ZPTning yuqorida tahlil etilgan konsepsiyalarining asosiy yo'nalishlari professor Levis Eltonning mashhur modelida bayon etilgan (1977. Levis Elton. The Open University, UK). Unda PT rivojlanishining uch tarmog'i konsepsiyasi taqdim etilgan. Ular qatoriga ommaviy kommunikatsiya vositalari, individual o'qitish usullari hamda ta'lim oluvchilarni guruh holda o'qitish metodlari kiradi. Bu yo'nalishning har biri uch sohani o'z ichiga qamrab oladi: tadqiqot faoliyati, tadqiqot natijalarini tatbiq etish (ya'ni rivojlantirish), amaliyotda yangi tavsiyalardan foydalanish (Percival F., Ellington H.A. Handbook of Educational Technology. London: Kogan page 1984.p.20)

Akademik V.P. Bospalkoning ko'rsatib o'tishicha, ta'lim va ZPT konsepsiyasi asosida o'rta yoki oliy maktabning pedagogik tizimi yotadi. Pedagogik texnologiyalar asosida o'zaro bog'liq invariant elementlar bor: o'quvchi-talabalar, tarbiyaning maqsadi (umumiy va xususiy), tarbiya

mazmuni, tarbiya jarayoni (xususiy tarbiya va o‘qitish), o‘qituvchi yoki (O‘TV), tarbiyaviy ishlarning tashkiliy ishlari.

Ta’lim oluvchining o‘qishga kirishi va uning bitirishigacha bo‘lgan yo‘l (davr)da pedagogik tizim asosida strategik qarorlarning ikki bloki joriy etiladi: didaktik masalalar bloki (unga pedagogik tizimning dastlabki uch elementi kiradi) va o‘qitish texnologiyasi bloki (pedagogik tizimning qolgan uch elementini qamrab oladi). “Didaktik masalalar tuzilmasida maqsad aks etib, – deb so‘zini davom ettiradi muallif, – unga erishish vaziyatga va faoliyat uchun zarur bo‘lgan mavjud axborotga bog‘liq. Har bir didaktik masala o‘qitishning ayni bir xil texnologiyasi yordamida hal etiladi. Qayd etib o‘tish joizki, pedagog va metodistlar didaktik masalalarni maqbul tarzda qo‘yishni va o‘qitishning xuddi ana shu “ayni bir xil” texnologiyasini ishlab chiqishni o‘rganmadilar. Bu boradagi ishlarda hali ko‘p tartibsizliklar mavjud.

ZPTni shakllantirish borasida Rossiya pedagogikasining orqada qolishiga asosiy sabablardan biri “ilmiy qoidalarni bayon etishning tavsifchilik usuli”dir. Shuning uchun ham, amalda ish beradigan konsepsiyalar yaratilmaydi. V.P. Besalkoning ta’kidlashicha, ta’lim konsepsiyasi mavjud, ammo uni aniqlashning ilmiy asoslangan metodikasi yo‘q; pedagogik tizim tushunchasi bu qiyinchilikni bartaraf etishga xizmat qiladi, chunki pedagogik tizim mohiyatini elementlar asosida tavsiflash orqali ta’limning umumiy konsepsiyasi ifoda etiladi. Bu konsepsiya esa PTga aylanadi. Birinchisi bo‘lmasa, ikkinchisi ham yo‘q.

ZPTning yangi konsepsiyalarining boshqacha ta’riflari ham ma’lum. M.Erautning ko‘rsatib o‘tishicha, ZPTning bir-biriga bog‘liq mazmunlarga ega bo‘lgan ikki konsepsiyasi shakllangan. Birinchisi – amaliy didaktika sifatida mavjud bo‘lgan o‘qitish texnologiyasi konsepsiyasi. Ikkinchisi, o‘qitish materiallarini muntazam sinovdan o‘tkazish va yangilash yo‘li bilan takomillashtirish. Ilmiy tadqiqot g‘oyasi har ikkala konsepsiyani birlashtiradi. Maqsad ZPTni rivojlantirishdir (Eraut M.Educational Technology: Conceptual Frameworks and historical Development. In: The international Encyclopedia of Education, v.1-10, v.3. Oxford: Pergamon Press, 1985).

Shunday qilib, hozirgi zamon pedagogika fani ZPTning beshta konsepsiyasini taklif etadi: instrumental (the teacher's Tool Concept), kommunikatsion (The Mass Communication Concept), tizimli (The Systems Concept), interaksion (The interactionist Concept), intellektual (the intellectual Interaction Concept).

ZPT bo'yicha tadqiqot olib borayotgan hozirgi zamon olimlari ZPT konsepsiyasini ishlab chiqishda O'TV va ZPTni qat'iy tabaqalashtirish zarurati haqida fikr bildiradilar. Masalan, K.Richmondning yozishicha, "pedagogik texnologiya va o'qitishning audiovizual vositalari o'rtasidagi farqni o'qitishning har bir metod va vositasini alohida va birgalikdagi qo'llab, ularning o'qitish samaradorligini oshirishga qo'shgan hissasini aniqlash orqali bilish mumkin".

Shunga o'xshash fikrni M.Vulman ham bayon etadi: "Texnologiyani jihoz sifatida tushunmaslik kerak, chunki jihoz muammodan qutqarish vositasi emas". "Ta'lim ensiklopediyasi"da (Nyu-York, 1971) u ZPT bo'yicha o'z konsepsiyasini bayon etadi: "ZPT – pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun obyektlar, usullar, vositalar, voqealar va munosabatlardan birgalikda yoki alohida, maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish".

Parij universiteti professori Raymon Lalle ZPT tushunchasiga qarama-qarshi nuqtayi nazarni bildiradi. U ZPT jarayonlari va metodlari haqida shunday yozadi: "... bizni o'z faoliyati masalalariga qanchalik javob berishidan qat'iy nazar, ilg'or muhandislik fikrlari tufayli yaratilgan va pedagogik maqsadlarda foydalaniladigan vositalar qiziqtiradi, xolos". Ushbu holda magnitofonlar, audiovizual vositalar, o'qitish mashinalari va boshqa nazorat qiluvchi qurilmalar nazarda tutiladi. Bu erda "qat'iy nazar" so'zini R. Lalle ZPT konsepsiyasining birinchi bosqichi tarafdori bo'lgani uchun kiritgan. Unga ko'ra, PT bu o'qitishning texnik vositasi (O'TV). Aslida bu ZPT muammosiga eskicha nuqtayi nazardan qarashdir.

Professor Din Spitser ham o'zining "Nima uchun pedagogik texnologiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi?" nomli maqolasida ZPT konsepsiyalarini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qiladi: "Keyingi 30-yil davomida ZPTni rivojlantirishga milliardlab dollarlar sarflandi va qancha-qancha ish kunlari yo'qotildi, ammo muvaffaqiyatdan darak yo'q, - deb

yozadi u. Muallif pedagogik texnologiyani muhandislik san'atining tarmog'i (qismi) deb hisoblaydi. Ana shunga bog'liq holda ta'limda O'TVlarini qo'llashning foydali jihatlarini baholash uchun qator mulohazalarni ilgari suradi:

1. Funktsional bahosi: "Agar asbob ishlasa, demak, bu yaxshi konstruksiya hisoblanadi".

2. Tijorat bahosi: "Bozorning iqtisodiy shart-sharoitlari ko'rsatadiki, marketing-apparatura dizayniga qaraganda yaxshi".

3. Estetik bahosi: "Bu loyiha samaradorligiga navbatdagi xavf. Estetik shart-sharoitlar o'qitish samaradorligidan yuqori qo'yilishini ko'rish mumkin".

4. Ilmiy bahosi: "Bizning universitetlarimiz va ilmiy-tadqiqot institutlarimizda olib borilayotgan ko'pgina ishlarda pedagogik texnologiyalar tayyorlashning amaliy yo'nalishlari haqida qayg'urilmaydi. Pedagog-texnologlar tayyorlashning akademik va muhandislik yo'nalishlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishga ehtiyoj mavjud".

Biz ham muallif fikriga qo'shilamiz: agar apparatura (O'TV) ishlamasa, bu hol o'qituvchilarni ajablantiradi va uni o'zlashtirish muddatini 10-15 yilga uzaytiradi (bu bizga O'TV bilan ishlashdagi tajribamizda yaxshi ma'lum). Ayni vaqtda apparatura o'zlashtirilgan bo'lsa va "moslashmagan-turmushiy" bosqichdan «moslashgan-soddalashtirilgan» bosqichga o'tgan holda o'qituvchi "eskicha", ya'ni an'anaviy tarzda (O'TVlarisiz) ishlashga o'rganadi, chunki unga stereotip qarashlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada u yangi texnika: o'qitishning interfaol va intellektual vositalarini o'zlashtirib ololmaydi.

ZPT muammolarini tadqiq etuvchi rossiyalik olimlar ZPT chegaralarini "buzish" tendensiyasini davom ettirmoqdalar. Masalan, T.A. Ilinaning fikricha, ZPT tushunchasini birlashtiruvchi masalalarni ikki guruhga ajratish mumkin. Bular: O'TVni o'quv jarayonida qo'llash yoki qator muammolarni qamrab oluvchi jarayon texnologiyasi-tizimli tahlil va dasturli o'qishni tashkil etish.

Bu erda shuni qayd etib o'tish kerakki, O'TVlarini pedagogik texnologiya tushunchasiga tenglashtirib bo'lmaydi. Shuningdek, "tashkil

etish” va “texnologiya” o‘rtasiga “yoki” bog‘lovchisini qo‘yish ham mumkin emas.

Bu muammolar keyingi 15 yil davomida hal etildi. Pedagogik texnologiyalardagi “masofaviy ta’lim”, “yo‘ldosh orqali ta’lim berish” kabi yo‘nalishlar ancha vaqtdan buyon ma’lum. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda ta’lim oluvchilar xonadan chiqmasdan turib sinov-imtihon topshirishi va elektron pochta orqali universitetni tamomlaganlik haqida diplom olishlari mumkin.

Bu masalalarga bog‘liq holda V.P. Bepalkoning bildirgan fikrini eslatib o‘tishni lozim topdik: «ZPTni o‘zlashtirish jarayoni qirq yil davom etdi». Bundan tashqari, ayrim tadqiqotchilar ZPT konsepsiyasi va ta’rifini tahlil qilib, qismni butun deb hisoblashga urinmoqdalar. Masalan, professor N.E. Shurkova pedagogik texnikani mohiyatga ko‘ra, pedagogik mahorat (pedagogik talablar, pedagogik muloqot, baho, ziddiyatlarni hal etish va boshqalar) ni qarab o‘tadi va faqat ana shu qismning o‘zini ZPT deb hisoblaydi. Uning ta’rifiga ko‘ra, ZPT ta’limga emas, tarbiya tomonga ko‘proq “og‘gan”: “ZPT-odamlar yoki insonga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning ilmiy asoslangan usullari majmuyi” (Qarang: Pedagogicheskaya texnologiya. 1992. S. 3, №-150. S. 66-70).

ZPT konglomeratining konseptual sharhini ensiklopedik ta’rif bilan yakunlash lozim: Texnologiya (grekcha- tehne- san’at, mahorat, malaka+logos-ta’limot, tushuncha) - mahsulot ishlab chiqarishda xomashyolar, materiallar yoki yarim fabrikatlarni qayta ishlash, tayyorlash, ularning xossa va shakllarini o‘zgartirish usullari majmuyi”. Albatta, ushbu ta’rifni ZPT ta’rifi bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Chunki bu ta’rifda ZPTni aniqlovchi asosiy belgilar etishmaydi. Bizning fikrimizcha, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Muallif-tadqiqotchilar amalda erishgan natijalarning, taklif etilayotgan pedagogik tizimning qayta tiklanuvchanligi, ya’ni qo‘yilgan maqsadga muvofiq holda har qanday pedagogning o‘qitish texnologiyasini amalda joriy eta olishi va natijaga erishishi. Afsuski, hozircha bunday holatga erishilganicha yo‘q. Bu borada mustaqil ish olib borayotgan va muvaffaqiyatga erishayotgan rus olimlarining nomini tilga olib o‘tish mumkin. Bular: Sh.A. Amonashvili, S.N. Lisenkova, Z.F. Shatalov va

boshqalar. Shuningdek, A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiyning ishlarini ham eslab o‘tish joiz. Ammo ular faoliyat ko‘rsatgan pedagogik tizimlar individual texnologiya edi.

2. Barcha pedagoglar uchun tushunarli bo‘lgan pedagogik san‘at va mahorat haqidagi ilmiy bilimni joriy etuvchi pedagogik mahsulotlarning raqobatbardoshligi. Ayni holda ZPT bu – o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar to‘plami, usullar va vositalar majmuyi hamda foydalanuvchilarga pedagogik xizmatlar bozorida tovar sifatida taqdim etilayotgan xizmatlar. ZPTning noraqobatbardoshligiga P.Ya. Galperinning aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi misol bo‘la oladi. Chunki bu metod pedagogik xizmatlar bozorida tovar darajasiga etkaziladi. Ammo Gollandiyada bu nazariya ZPT (tovar) darajasiga etkazilmadi va ta‘lim muassasalari rahbarlariga sotilmoqda.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kapital hajmi. Xorijiy mamlakatlarda yaratilgan pedagogik texnologiyalarni sotib olish mamlakat iqtisodiga zarar keltiruvchi qator muammolarni, ya‘ni texnologik bog‘liqlik, urbanizatsiyaning jadallashuvi, ijtimoiy taranglik, madaniy bog‘liqlikni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin (jumladan, madaniyatni eksport qilish, zaxira qismlari monopoliyasiga bog‘liqlik, uy-joyga xizmat ko‘rsatish, suv bilan ta‘minlash, sanitariya va gigiyena, kommunikatsiya va ta‘lim olish uchun xizmat ko‘rsatish baholarining ortishi). Shuningdek, ekologik muammolar, hayot tarzi, xulq-atvor me‘yorlari, ijtimoiy holatlar, dunyoqarash borasida o‘zgarishlar kuzatiladi. Xorijiy mamlakatlar texnologiyalarini qo‘lga kiritish oqibatida yuzaga keladigan noteng munosabatlar “aks sadosi” ana shulardan iborat bo‘lishi mumkin.

4. Rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi amallarni izchil bajarish uchun ko‘rsatmalarning qisqa va qulay bo‘lishi. Algoritmdan farqli o‘laroq texnologiya “ha-yo‘q”, “yoki”, “agar” tipidagi tizimni qamrab olmaydi. Texnologiya – jamiyat ehtiyojlariga mos maqsadga olib keluvchi (odatda, 4, 5 ta) eng maqbul yo‘riqnomalar¹.

¹ Qarang: Bogolyubov V.I. Evolyusiya pedagogicheskix texnologii. «Shkolnye tehnolo-gii», 2004, №4; Tojiyev D.; Toshpo‘latov U. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi. // Kasb-hunar ta‘limi, 2005 , 2-son, 17-23 betlar..

Xullas, pedagogik texnologiyalarning fan sifatidagi mohiyati, vazifasi, unga asoslanib dars jarayonini tashkil etish haqida kamida yarim asr davomida ilmiy munozaralar olib borilyapti. Bu munozaralarning mazmuni, natijasi o‘laroq bir guruh mualliflar pedagogik texnologiyalarni o‘qitishning zamonaviy vositalari majmuasi deb hisoblashsa, boshqalari esa kommunikatsiya jarayoni, uchinchi guruhdagilar o‘qitish jarayoni va

2.4. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari

AQSh 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo‘yicha AQSh Assotsiatsiyasi”. Hozirgi kunda mamlakat bo‘ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQShda 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o‘qitish” jurnali nashr etila boshlandi.

Angliya 1967 yil - Pedagogik texnologiya bo‘yicha Milliy kengash tuzilgan. 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o‘qitishni dasturlashtirish” (Educational Technology progratted tearing) jurnalini, 1971 yilda – “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshlandi.

Yaponiya - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug‘ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etiladi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha umumiyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo‘yicha xalqaro aloqalar o‘rnatish bilan ham shug‘ullanadi.

Italiya – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi.

Vengriya - 1973 yili o‘qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy jurnallar

№	Mamlakatl ar	Tashkilot nomi	Tash. top.yil	Jurnal nomi	Nashr et. yil
1	AQSh	Ta'lim kommunikatsiyasi hamda assotsiyasi	1971	“Ta'lim texnologiyasi”	1961
2	Angliya	Pedagogik ta'lim milliy kengashi	1967	“Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'lim”	1964
3	Yaponiya	4 nomdagi ilmiy jurnallar	1965 1970	“Ta'lim texnologiyasi”	1965
4	Italiya	Milliy markaz tashkil etildi	1971	“Ta'lim texnologiyasi”	1971
5	Vengriya	O'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi	1973	“Ta'lim texnologiyasi”	1971
6	Sobiq ittifoq	PFA qoshida maktab ta'limi tashkil etildi	1965	“Maktab va ishlab chiqarish”	1965

“Texnologiya” tushunchasi bu vaqtda ideologik nuqtai nazardan qabul qilinmagan edi. “Maktab va ishlab chiqarish” jurnali nashr etila boshlandi.

O'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977) sovet olimi S.G.Shapovalenko o'qitish jarayonining uchta texnologik prinsiplarini ko'rsatdi:

- Bilim va texnikani mukammal egallash.
- Audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.
- Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondoshishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L.Salai “o'qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni taxlil qilish, o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o'qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi. E. Bisterski va J. Sellerlar (AQSh) to'plagan ma'lumotlar bo'yicha o'qitish texnikasi faqatgina yordamchi vosita va

yangi sistemadan iborat bo‘libgina qolmay, balki o‘qish jarayoni tashkiliy shaklini, metodi va mazmunini o‘zgartirib uning rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchilar va o‘quvchilar pedagogik fikrlashlariga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib, o‘tgan asrning 70-yillari oxiri 80-yillari boshlarida texnika rivojlanishi va chet elda ta‘limning kompyuterlashtirilishi boshlanishi oqibatida “o‘qitish texnologiyasi” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari o‘quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarish vositalari, metodlari sistemasi sifatida tushunila boshlandi:

- Amaliy masalalarni echish uchun sistemali bilimlarni qo‘llash.
- O‘quv jarayonida texnik vositalardan foydalanish.
- Quyidagi shartlarga amal qilgan holda o‘qishda yuqori natijalarga erishish mumkin:

- O‘quvchi tomonidan o‘qishga faol munosabatlarni shakllantirganda.

- O‘quv materiallarini ma‘lum ketma-ketlikda berilganida.
- Aqliy va amaliy faoliyat uslublarini mashqlarda namoyish etish va mustahkamlash.

- Bilimlarini amalda qo‘llash.

Bu konsepsiyaning muhim vakillari I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, S.L. Rubinshteyn, Yu.A. Samarina va boshqalar hisoblanadilar.

Assotsiativ-reflektorli konsepsiyasi doirasida tushunchalar shakllantirish nazariyasi ishlab chiqildi, uning mazmuni o‘qitish jarayoni olayotgan bilimlarini umumlashtirish va ma‘lum tushunchalar tashkil etish sifatida tushuniladi.

Tushunchalarni yuzaga keltirishga bolalarni aqliy harakatlar usullariga o‘rgatish yo‘li bilan erishiladi – taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlashtirish. O‘rgatish faoliyati nazariyasi asoslari A.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, P.Ya. Galperin, D.B. Elkonin va boshqalar asarlaridan boshlangan.

Neyrolingvistik dasturlashtirish nazariyasi (NLP)

O‘qitish jarayonini ma‘lumotlarni insonning nerv sistemasi orqali harakati ko‘rinishida tasavvur qiladi. NLP modelida quyidagilar ko‘rsatiladi:

Ma'lumotlarga kirish, uni saqlash, qayta ishlash va chiqish – u yoki bu shaklda qayta tiklash.

Ikki turdagi ma'lumotlar uzatish: sensorli (neyro) va verbal (lingvo), ana shundan “neyrolingvistik” degan nomi kelib chiqqan.

Axborotlar o'tish kanallari vizual, audioal yoki kinestik (tegib ko'rish) rivojlanishi bilan farq qiluvchi uch turdagi, bolalar uch modalligi.

Ikki turdagi bolalar, miyaning turli yarim sharli rivojlanishi bilan farq qiluvchi: chap yarim shari (mantiqiy, verbal fikrlash jarayonlari) va o'ng yarim shari (bunda emotsional jarayonlari jamlangan).

Har bir bola nerv sistemasining xususiyatlari individual tuzilishiga, ular foydalanayotgan vositalar va metodlar samaraliligi yoki samarasizligini belgilaydi.

2.5. Pedagogik texnologiya tamoyillari

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlar ulashuvida paydo bo'lgan, pedagogik texnologiya mustaqil fanga aylandi. Har bir mustaqil fan o'z mohiyatiga ko'ra uning nazariy asoslarini tashkil etuvchi o'zining tamoyillariga ega bo'ladi, pedagogik texnologiya tamoyillari, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlarining negizini tashkil etuvchi qoidalar yig'indisiga tayanadi. Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko'ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: ilmiylik, loyihalalanish, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik. Ushbu barcha tamoyillar o'zaro bog'liq bo'lib, biri birini talab etadi va to'ldiradi. Bu tamoyillar asosida o'quv jarayoni tashkil etiladi, ya'ni uning tayyorgarligi va o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillarida pedagogik va texnologik fanlarning yutuqlari qamrab olingan. «Pedagogik texnologiya» fani ko'rinishidagi mazkur tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham ega (1-rasm):



1-rasm. PTning umumiy didaktik tamoyillari

1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili ikki jihatni o'zida aks ettiradi:

1) ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar sohalari bo'yicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bo'lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.

3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A.Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili tinglovchilarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi etakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediya vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar "soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari" g'oyasi etakchi o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. "humanus" – insoniylik, "humanitas" – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsada, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi.

Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvar-lashtirish – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog tinglovchilar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

5. O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga tinglovchilarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2) o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga vatinglovchilarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

6. Ta'limning uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi.

Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog etakchiligini ta'minlagan ta'limdan tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

7. Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar. Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli tinglovchilarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiqetishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin.

2.6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasining mohiyatini

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasining mohiyatini yorituvchi turli qarashlar va turli ta'riflar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Pedagogik texnologiya-o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T. Lixachyov).

Pedagogik texnologiya – o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayonining loyhasidir (V.P. Bepalko).

Pedagogik texnologiya-ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (**I.P. Volkov**).

Ta'lim texnologiyasi – didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi (**M.Choshanov**).

Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonining o‘quvchi-talabalar va o‘qituvchi uchun so‘zsiz qulay sharoitlar ta’minlashni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha hamma detallari o‘ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (**V.M. Monaxov**).

Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda ko‘rib, butun ta’lim jarayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda majmualiy yondashuv usulidan foydalanishdir (**YuNESKO**).

Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig‘indisini va ularning amal qilish tartibini bildiradi (**M.V. Klarin**).

Pedagogik texnologiya so‘zsiz rioya qilish eng yuqori natijani kafolatlaydigan ko‘rsatmalar emas, balki qonuniyatlar bo‘lib, ularning amaliy ahamiyatidan iborat (**V.Yu. Pityukov**).

Pedagogik texnologiya – bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir (**Sakomoto**).

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o‘zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo‘lib, uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo‘ladi (**U.Nishonaliyev**).

Pedagogik texnologiya-bu o‘qituvchi (tarbiyachi)ning o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida o‘quvchi-talabalarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularni oldindan belgilangan sifatlarini shakllantirish jarayonidir (**N.Saydahmedov**).

Pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoniga tizim sifatida qarab, uni tashkil etuvchilar, ya’ni o‘qituvchi (pedagog)ning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma’lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko‘rsatgan ta’sirini va ta’lim natijasini nazorat

jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir (**B.G' Ziyomhammadov**).

Pedagogik texnologiya bu – obyektiv, moddiy jarayon. Agar biz o'quv-tarbiya jarayonidan uning obyektiv, moddiy (substansiyalik) jihatini ajrata olsak, shunda biz texnologiyaga eng kamida uning tafsilotiga ega bo'lamiz (**V.K. Dyachenko**).

Pedagogik texnologiya – o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi (**B.L. Farberman**).

Pedagogik texnologiya – turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini o'zida mujassam etuvchi umumlashtirishdan iborat (**G.K. Selevko**).

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning hozirgi kunda shunday turli-tuman ta'riflari mavjudligi natijasida bu masalaning echimini quyidagicha o'ziga xos usulda hal qilish to'g'risida ham taklif bildirilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtayi nazarlardan yondashish mumkin.

Hozir ta'lim-tarbiya sohasida rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llash bo'lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardandir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

2.7. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi

Pedagogik texnologiya, o'z tamoyillariga, binoan, tegishli tabiiy qobiliyatga va zaruriy o'qituvchilik ish tajribasiga ega bo'lgan etuk pedagoglar tomonidan loyihalanadi. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari, qayta takrorlanadigan o'rgatuvchi sikl sifatida ro'yobga chiqariladigan o'quv jarayonini yaratishga imkon beradilar.

O'quv jarayonining tashkil etish samaradorligiga ta'sir etuvchi, keyingi omil, o'quv grafigini maqbullashtirish hisoblanadi. O'qitish jarayonining samaradorligi nuqtai nazardan, bir haftaga ajratilgan auditoriya soatlarning eng kam miqdori to'rt soatni tashkil etishi kerak. Haftalik auditoriya soatlari bundan kam bo'lgan fanlar uchun o'quv jarayonini blokli tashkil etish tavsiya etiladi. O'quv maqsadlariga erishishda, o'quv jarayonining muhim tarkibiy elementi sifatida, o'qitish jarayonini samarali tashkil etishga alohida o'rin ajratiladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari samarali hisoblanadi. O'qitishning ushbu texnologiyalari, talabaning tabiiy qobiliyati darajasida fanlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratadilar, shaxs rivojiga imkoniyat tug'diradilar.

O'qitishning rejalashtirilgan natijalariga kafolatli erishish, o'qitish jarayonini texnologik tashkil etish va boshqaruvchanligi orqali ta'minlanadi.


O'qitish jarayoni sifati, olingan bilim va malakalarni muntazam joriy diagnostik testlar o'tkazish, o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar vosita va usullari yordamida tuzatishlar kiritish, orqali ta'minlanadi. Rejalashtirilgan natijalarga unga kafolatli erishishni ta'minlash imkoniyati mavjud.

Qayta takrorlanadigan o'qitish shakli sifatida, qo'llaniladigan pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibi (tuzilmasi) rasmda tasvir etilgan.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilishga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Bularga o'quvchi-talabaning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar kiradi.



Zamonaviy rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchitalaba shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

Bulardan tashqari xususiy (o'quv fanlari), muqobil hamda mualliflik zamonaviy pedagogik texnologiyalari yo'nalishlari ham mavjud. **Empirik** – sezgi a'zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e'tibor sezgi a'zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv – atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalashtirilgan (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurni shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta‘lim berish lozim. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta‘lim metodi bo‘lib, optimallashtirilgan (bir necha variantlardan eng ma‘qulini, mosini, muvofiq‘ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ – tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, o‘quvchi-talabalarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion – axborotlarni turli tomondan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv – axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish va moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inkluziv – o‘qituvchi bilan o‘quvchi-talabaning o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Hozirda zamonaviy pedagogik texnologiyaning yuqorida aytilganlaridan tashqari mutaxassislar tomonidan tajriba-sinovlar olib borilayotgan boshqa yo‘nalishlari ham mavjud.

2.8. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari

Ma‘lumki, darslik, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-uslubiy va ommabop adabiyotlarda pedagogik texnologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan «o‘qitish texnologiyasi, ta‘lim texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, rivojlantirish texnologiyasi» kabi atamalar keng qo‘llanilmoqda. Biroq hali ularning bir-birlaridan farqi va chegaralari qat‘iy aniqlanib berilgani yo‘q. Shunday bo‘lsada, yuqorida keltirib o‘tilgan va boshqa zamonaviy pedagogik tushunchalar bugungi kundagi ta‘limga bo‘lgan yondashuvlarning 10-15 yil ilgari pedagogik qarashlardan mutlaqo farq qilishini ko‘rsatmoqda.

Bu yillar davomida “pedagogik texnologiya”lar tushunchasining mazmuni va mohiyati o‘zgardi va u yangi ma’no bilan boyidi. U yangicha nuqtayi nazardan tahlil etilmoqda. Pedagogik texnologiya borasida aniq qarashlar va konsepsiyalar shakllanmoqda. Masalan, bugungi kunda dastlabki paytlarda ta’lim-tarbiya uchun umumiy hisoblangan pedagogik texnologiyalarni ayrim pedagog-tadqiqotchilar tarbiya sohasiga qo‘llash mumkin emasligini e’tirof etmoqdalar. Gap shundaki, har qanday pedagogik texnologiyalar pedagogik faoliyat jarayonida tashxislanuvchan maqsadni aniqlash va unga erishishni oldindan rejalashtirishni taqozo etadi. Albatta, ta’lim jarayonida tashxislanuvchan maqsadni belgilash imkoni mavjud. Ta’lim oluvchini kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorlash uchun o‘quv materiallari etarli darajada. Maqsadga erishganlik, ya’ni ta’lim natijasi yakuniy nazorat qilinadi. Demak, o‘qitishni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uning natijasini tekshirib ko‘rish mumkin. Ammo tarbiya ishlarida muammo butunlay boshqacha tus oladi.

Birinchidan, tarbiya jarayonida tashxislanuvchi maqsadni qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki har bir (ta’lim oluvchi yoki tarbiyalanuvchi) inson ko‘p omilli tizim bo‘lib, alohida psixologik, psixofiziologik va shaxsiy xususiyatga ega. Pedagogik jarayonda ularni bir tizimga keltirish, alohida o‘rganish, yaxlit holda tahlil etish yoki bir yo‘nalishda birlashtirish ham ancha mushkul. Bu muammoni zamonaviy pedagogikaning bugungi kundagi imkoniyati bilan hal etib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, har qanday pedagogik texnologiya qo‘yilgan maqsadga erishishni kafolatlashi zarur. Biroq hozirgi vaqtgacha pedagogikada insonning tarbiyalanganlik darajasini va unda shakllangan muayyan shaxsiy sifatlar va insoniy qadriyatlarni, umuman unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish natijalarini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmagan. Bunday mezonlarsiz esa pedagogik natijalarga erishishning kafolatlanganligi haqida fikr yuritishdan ma’no yo‘q. Pedagogik texnologiyalar natijalarini subyektiv ekspert baholash nisbiy xarakterga ega. Uni me’yor yoki o‘lchov tarzda deb qabul qilib bo‘lmaydi.

Uchinchidan, bu erda gap ta’lim oluvchilarda ma’lum shaxsiy sifatlarni shakllantirish haqida emas, balki ularning o‘z-o‘zini

rivojlantirishi va kamol toptirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratib berish haqida ketmoqda.

Har qalay, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, “pedagogik texnologiya”lar tushunchasi ijtimoiy ongdan o‘rin ola boshladi. U endilikda ilmiy va amaliy fikrlashga o‘ziga xos yo‘nalishlar bermoqda. Uning regulyativ (muvofiqlashtiruvchi) ta’siri shundan iboratki, pedagogika sohasidagi tadqiqotchi va amaliyotchilarni insoniy faoliyatlar sohasiga, shu jumladan, ta’lim muammosiga juda qiziqtirib qo‘ydi, to‘g‘rirog‘i, erkin ijodiy yondashuvni talab etmoqda. Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar qo‘llanilganda:

- pedagogik jarayonning natijaviyligi ta’minlanadi va asoslanadi;
- talab etilgan natijaga erishishni kafolatlash uchun fan va amaliyotning eng so‘nggi yutuqlari qo‘llaniladi;
- pedagogik faoliyat ekstensiv (bekorga ko‘p kuch, vaqt va resurs sarflash) tarzida emas, balki ilmiy asosda tashkil etiladi;
- faoliyatni “to‘g‘rilash” bo‘yicha tadbirlarni kamaytirish maqsadida loyihalash va oldindan rejalashtirish ishlariga alohida e’tibor beriladi;
- ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida zamonaviy axborot vositalaridan foydalaniladi.

Aytish mumkinki, bugungi kunda texnologiyalanuvchanlik inson faoliyatining tarkibiy qismiga aylandi. Ta’lim jarayonining samarasi va uning ilmiy maqbulligi o‘zining yangi sifat darajasiga ko‘tarilmoqda.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyalar – bu ilmiy asoslangan didaktik jarayon amalga oshiriladigan, samaradorligi va ishonchliligi yuqori bo‘lgan hamda ta’lim natijasiga erishishni kafolatlaydigan pedagogik faoliyat. Pedagogik texnologiyani o‘qitish, tarbiya, rivojlantirish texnologiyalari sifatida ham tavsiflash mumkin.

O‘qitish texnologiyasi (jarayon sifatida) pedagogik tadbirlar, amallar va usullar yig‘indisi bo‘lib, yaxlit didaktik tizimni tashkil etadi. Uni pedagogik amaliyotda joriy etilishi kafolatlangan ta’limiy natijaga erishishga olib keladi va unda ta’lim oluvchilar shaxsi rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘qitish texnologiyasi (natija sifatida) didaktik jarayonning ilmiy loyihasi (modeli) bo‘lib, pedagogik amallarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

Tarbiya texnologiyasi – bu ma’lum maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy jarayon hisoblanib, ta’lim oluvchilarda ijtimoiy tajriba unsurlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rivojlantirish texnologiyasi o’qitish texnologiyasi bilan uzviy bog’liq. Psixik rivojlanish – bu insonda aqliy ko’nikmalarning shakllanish jarayoni. Qayerda ko’nikmalar shakllanishi jarayoni bo’lsa, o’sha erda har doim psixik rivojlanish kuzatiladi. O’qitishda yakuniy natija bilim, ma’lum maqsad asosida shakllantirilgan ko’nikma va malakalar bo’lsa, o’zlashtirilishi lozim bo’lgan o’quv materialida esa predmet mazmuni hisoblanadi. Ruhiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar turlicha bo’ladi. Natija (psixik material) psixik ko’nikma (amal)larning shakllanganlik darajasi hisoblanadi.

Biz quyida G.K. Selevko fikriga asoslanib, pedagogik texnologiyalar tasnifini keltirib o’tamiz.

Qo’llanish darajasi bo’yicha: umumpedagogik, xususiy metodik (predmetlar), lokal (modul) texnologiyalar.

Falsafiy asosi bo’yicha: materialistik va idealistik, ilmiy va diniy, gumanistik va antigumanistik, antropofik va teosofik, programmatik va ekzistensialistik texnologiyalar, erkin va majburiy tarbiya va boshqalar.

Mazmuni va tuzilish xususiyati bo’yicha: ta’limiy va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta’lim va kasbga yo’naltiruvchi, gumanitar va texnokratik texnologiyalar, monotexnologiyalar, politexnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Ilmiy jihat. Pedagogik texnologiyalar pedagogika fanining asosiy sohasi bo’lib, o’qitish maqsadi, mazmuni va metodlarini o’rganadi. Pedagogik texnologiyalar yordamida o’qitish metodlari ilmiy asoslanadi va pedagogik jarayonlar loyihalanadi.

Jarayonli-ifodali jihat. Aniq ta’limiy natijaga erishishni kafolatlaydigan pedagogik jarayonni, uning maqsadi, mazmuni, metodi va vositalari majmuyini ifodalaydi.

Jarayonli-mazmunli jihat. Texnologik (pedagogik) jarayon amalga oshiriladi, barcha shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalar ishga tushiriladi.

Pedagogik texnologiyalarning darajalari:

Lokal (mahalliy) pedagogik texnologiyalar. Didaktik va tarbiyaviy vazifalarning alohida qismlari (faoliyatning alohida turlari), tushunchalarni shakllantirish, shaxsda alohida sifatlarni rivojlantirish, dars texnologiyasi, yangi bilimlarni o'zlashtirish, takrorlash va bilimlarni nazorat qilish texnologiyasi va boshqalar.

Xususiy metodik pedagogik texnologiyalar xususiy metodika ma'nosini anglatadi, ya'ni bunda o'qitish va tarbiyalashning ma'lum mazmunini jorish etish maqsadida usul va vositalar majmuyi biror o'quv predmetni o'qitish, muayyan sinf o'quvchilari, o'qituvchi, tarbiyachi uchun ishlab chiqiladi va amalda qo'llaniladi.

Umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiyalar muayyan mintaqada, o'quv muassasasida ta'limning ma'lum bosqichidagi yaxlit ta'limiy jarayonni tavsiflaydi. Bu erda pedagogik texnologiya pedagogik tizim sifatida qaraladi. Unda o'qitish maqsadlari, mazmuni, vositalari va metodlari, jarayon subyekti va obyektlarining faoliyati algoritmlari yig'indisi mavjud bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va mazmunini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, monografiya va qo'llanmalar (V.P. Bospalko, V.V. Guzeev, M.V. Klarin, V.M. Monaxov, V.Yu. Pityukov, G.K. Selevko va boshqalar), maqolalar (T.S. Nazarova, I.Ya. Dyachenko va boshqalar) tahlili shundan dalolat beradiki, pedagogik texnologiyalar tuzilmasida quyidagi komponentlar alohida ajralib turadi:

1. O'qitishning tashkiliy qismi:

- o'quv-moddiy baza;
- poligrafik va texnikaviy baza;
- pedagog va talaba (o'qituvchi).

2. O'qitishning mazmunli qismi:

- makro va mikro maqsadlar;
- o'quv material mazmuni.

3. Jarayonli qismi –texnologik jarayon:

- o'quv jarayoni;
- talabaning biluv faoliyati metodlari va shakllari;
- materialni o'zlashtirish jarayonini boshqarish bo'yicha o'qituvchi faoliyati.

4. O‘qitishning tashxis qismi - o‘lchash va baholash:

– bilim va ko‘nikmalarni o‘lchash etaloni;

– o‘lchash instrumenti (shkala);

– baholash.

5. Korreksiya qismi – tuzatish:

– teskari aloqa;

– yakuniy natijani ta‘minlash;

– qo‘shimcha didaktik jarayonni tashkil etish.

Bir qarashda bu qismlar har qanday o‘quv jarayoni uchun umumiylik kasb etadigandek tuyuladi, biroq pedagogik texnologiyalar quyidagi metodologik talablarga – texnologiyalanuvchanlik mezonlariga javob beradi¹.

1. Konseptuallik – loyihalananayotgan pedagogik texnologiyalar muayyan ilmiy konsepsiya – falsafiy, psixologik, didaktik hamda ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslanishi lozim.

2. Tizimlilik – pedagogik texnologiyalar pedagogik tizimning barcha jihatlarini – mantiqiy jarayonni, unsurlarining o‘zaro aloqasini, yaxlitligini o‘zida aksi ettirishi lozim.

3. Boshqaruvchanlik – o‘qitish jarayoni maqsadini tashxislash, rejalashtirish, loyihalash imkoniyatlarini, natijalarini korreksiyalash uchun bosqichma-bosqich tashxislash, vosita va usullar o‘rnini muntazam almashtirishni taqozo etadi.

4. Samaradorlik – zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobat sharoitida mavjud bo‘ladi va natijalar bo‘yicha samarali, sarf (kuch, mehnat, vaqt – *mualliflar*) bo‘yicha eng maqbul bo‘lishi, o‘qitishning ma‘lum andozasiga erishishni kafolatlashi lozim.

5. Takroriylik – loyihalangan pedagogik texnologiyalarning qo‘llanish doirasini boshqa ta‘limiy muassasalarga, boshqa subyektlarga ko‘chirish va kengaytirishni taqozo etadi.

Bu mezonlarga tayangan holda pedagogik texnologiyalarga quyidagicha ta‘rif beramiz: “Pedagogik texnologiya o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchi-talabalarga muayyan sharoitda va

¹ Qarang: Селавко Г.К. Современные образовательные технологии – М.: «Народное образование» 1978, с.13;

ma'lum ketma-ketlikda ta'sir etishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini tezkor shakllantirishni kafolatlaydigan jarayondir".

Biz bu erda "muayyan sharoit" deganda talabalarga qo'yilgan tashqi shart-sharoitlar yig'indisi – o'qitish shakllarini, ma'lum "ketma-ketlik" deganda esa o'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan faol o'qitish metodlarini nazarda tutamiz. Aslida bu ta'rif asosida ishlab chiqarishga xos bo'lgan texnologik jarayon yotadi. Uning maqsadi – berilgan (loyihalangan) namunada mahsulot olishdir. Pedagogik texnologiyalar ham oldindan belgilangan o'quv maqsadlariga erishish uchun o'qitish jarayonining barcha bog'liq unsurlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, uning bosqichlarini ko'rish, joriy etish sharoitlarini aniqlash, imkoniyatlarini chamalashga qaratilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda pedagogic texnologiyalarning ikki jihatini alohida qayd etish lozim:

- u oldindan loyihalangani;
- yakuniy natijani kafolatlaydi.

Bu prinsiplarni izohlashga harakat qilamiz: ma'lumki, ishlab chiqarishda har qanday mahsulot muayyan texnologik xarita yordamida tayyorlanadi. Texnologik xarita – bu foydalanilayotgan vositalar ko'rsatilgan holda harakatlar ketma-ketligining qadami, bosqichlari ifodalangan jarayon yozilmasidir. Bu jarayon ko'p hollarda grafik shaklda beriladi, texnologik xaritada texnologik chizmalar – texnologik jarayonning shartini ifodalaydigan mantiqiy bog'lanishlar mavjud bo'ladi.

Demak, har bir fan mavzusi uchun texnologik xarita tayyorlanishi, unda o'qituvchi, talaba va o'quv materiallari, vositalarining o'zaro harakatlari qadam-baqadam aks etishi lozim. Bunda subyektning xatti-harakati ma'lum o'quv vaqti bilan ilgari lanadi. Boshqacha aytganda, o'qituvchi pedagogik jarayonga kirishishi uchun o'zida didaktik masalalarni aniq tasavvur qilishi va berilgan vaqt doirasida talabaning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishi va boshqarishini texnologik xarita – loyiha asosida amalga oshiradi.

Shubhasiz, loyihalangan pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etilsa, yakuniy natijani kafolatlashi lozim.

Yakuniy natija oldindan belgilangan maqsadga erishish demakdir. Ma'lumki, bugun talaba o'quv materialining 55 % ini o'zlashtirsa, yakuniy natija ta'minlanadi, ya'ni o'quv materialini o'zlashtirish koeffitsiyenti $K = 0,55$ qabul qilingan. (Bu jahon pedagogik hamjamiyati qabul qilgan miqdor). Bu koeffitsiyent miqdori $0 \leq K = a - r \leq 1$ chegarada bo'ladi.

Guruh ichida ijobiy faoliyat ko'rsatadigan va o'quv materialining 100% o'zlashtiradigan talabalar ham borligini unutmazlik lozim. Shu boisdan, ta'lim tizimimizda qo'llanilayotgan har qanday o'qitish texnologiyalari talabalarda o'quv materialining $0,55 \leq K \leq 1$ chegarada ta'minlashi shart ekan va shundagina yakuniy natijaning kafolatlanganligi haqida bir fikrga kelish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar o'zining ta'lim amaliyotida qo'llanilishiga ko'ra uch iyerarxik darajaga ega:

1. Umumpedagogik texnologiyalar pedagogik tizim loyihasi sifatida mavjud bo'ladi va ko'proq muayyan mintaqa, ta'lim muassasasi, ma'lum o'qitish bosqichidagi yaxlit ta'lim jarayonini tasniflaydi. Bu jarayon "o'qituvchi – moddiy muhit – talaba" funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

2. Xususiy predmetli pedagogik texnologiyalar "xususiy metodika" ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari va vositalari yig'indisi sifatida bir predmet, sinf (auditoriya), o'qituvchi doirasida qo'llaniladi. Ular ko'p hollarda "o'qitish texnologiyalari" deb yuritiladi va ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi muayyan o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini aniq texnologiya bilan ko'rsatib beradi.

3. Lokal (modulli) texnologiyalar o'zida o'quv jarayonining alohida qismlari, o'quv elementlariga doir masalalarni aks ettiradi. Masalan, biror mavzuni o'rganish uchun o'nta o'quv elementining ro'yxati tashxislanuvchan maqsad sifatida keltiriladi. O'qituvchi shulardan ayrimlarini pedagogik texnologiyaga murojaat qilgan holda talabalarning o'zlashtirishiga sharoit tug'diradi, qolgan o'quv unsurlari odatdagi metodika bilan ish ko'rganligini payqash qiyin emas.

Bugun oliy ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonining ko'plab variantlari mavjud: muammoli ta'lim, algoritimli ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, kompyuterli ta'lim, masofaviy ta'lim va hokazo. Biroq, bu

texnologiyalar o'z maqsadi, mazmuni, bosqichlari, qo'llanilayotgan metod va shakllari bilan umumiy yaqinlik, o'xshashlik kasb etadi. Shu boisdan keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiyalarni tasniflashga oid urinishlarni kuzatish mumkin (G.K. Selevko, M.A. Klarin va boshqalar). Olimlar tasniflash asosida turlicha ilmiy nazariyalarni qabul qilishyapti. Shulardan biri mavjud ta'lim tizimini modernizatsiyalash yo'nalishlari bo'yicha tasniflash hisoblanadi (G.K. Selevko).

1. Pedagogik munosabatlarni xalqchillashtirish va demokratlashtirish asosida (E.N. Ilina, Sh.A. Amonashvili): pedagogik hamkorlik, haqchilshaxsiy texnologiya va boshqalar.

2. O'quvchi (talaba)lar faoliyatini jadallashtirish va demokratlashtirish asosida o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim, V.F. Shatalov texnologiyasi va boshqalar.

3. O'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish asosida (S.N.Lesnikov, V.P.Bespalko, V.D.Shadrikov, V.K.Dyachenko): dasturli ta'lim, tabaqali ta'lim, kompyuterli ta'lim va boshqalar.

Bu texnologiyalar birmuncha ommabop hisoblanib, bugun amaliyotga kirib ulgurganligi bilan ko'pchilikka tanish bo'lishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, ular zamirida an'anaviy o'qitish tizimi yotadi va uning imkoniyatlaridan foydalanish har bir pedagog uchun mas'uliyatli vazifadir.

Ta'lim jarayonida talabaning tutgan mavqeyi bo'yicha pedagogik texnologiyalarni farqlash imkoniyati mavjud. Shu boisdan talaba mavqeyi va o'rnini aniq belgilash muammosi ilmiy asoslanishi lozim: 80 daqiqalik o'quv vaqti davomida talaba "obyekt"mi yoki "subyekt"?

Dastlab falsafiy lug'atga murojaat qilgan holda subyekt va obyekt tushunchalarining mohiyatini belgilab olamiz.

Subyekt (yunoncha-*subjectum*) – 1) tashqi borliq (olam)ni bilishga intiladigan va o'z amaliy faoliyati bilan unga ta'sir ko'rsatadigan insondir; 2) qandaydir xususiyatlarni tashuvchi inson, shaxsdir.

Obyekt (yunoncha-*objectum*) – 1) bizdan tashqarida mavjud va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan tashqi olam bo'lib, bilishning, shuningdek, subyektning amaliy ta'sir predmeti hisoblanadi.

2) qaysidir faoliyat yo'naltirilgan predmet, hodisa.

Borliqni anglash bilish subyekt va obyektlarining o'zaro harakat mahsuli hisoblanadi. Bilish subyekt – ongli va bilimlar tizimi bilan qurollangan, faoliyat usullarini egallagan insondir. Subyektga qarshi turadiganlarning barchasi – obyekt. Shu bilan birga, “subyekt” va “obyekt” o'rtasida nisbiylik momenti mavjuddir: agar biror narsa bir munosabatda obyekt sifatida namoyon bo'lsa, boshqa munosabatda subyekt bo'lishi mumkin. Bu holat inson, uning faoliyatiga ham tegishlidir. Shu o'rinda taniqli nemis faylasufi L.Feyerbaxning quyidagi nazariyasini keltirish joiz: “O'zim uchun “men” – subyektman, boshqalar uchun esa – obyektman, xullas “men” ham obyekt, ham subyekt hisoblanaman”.

Demak, inson turli holatlarda turlicha – birida subyekt, boshqa holatda obyekt sifatida ham namoyon bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi mumkin ekan. Xo'sh, ta'limiy jarayonda talaba qachon subyekt va qachon obyekt bo'la oladi? Qanday qilib nisbiylikning momenti aniqlanadi?

Ma'lumki, har qanday ta'limiy texnologiyalar asosini belgilangan vaqt doirasida amalga oshiriladigan didaktik jarayon tashkil etadi. Jarayon bu pedagogik hodisa va pedagogik faoliyat akti sifatida ta'lim tizimi holatini almashishidir. Uni pedagogika fanida qabul qilingan quyidagi ramziy tenglama yordamida ifodalash mumkin:

$$D_j = M + O'f + B,$$

bunda: **D_j** – didaktik jarayon, **M** – talabaning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi; **O'f** – talabaning o'quv faoliyati; **B** – o'quv faoliyatning boshqarilishi.

Talabaning fan (mavzu)ga bo'lgan qiziqishini har doim o'qituvchi ta'minlaydi. Buning uchun u zaruriy o'qitish metodlaridan (muammoli, tarixiy materialdan foydalanish, audio va vizual ta'lim va b.) samarali foydalanadi. Demak, bu bosqichda o'qituvchi – subyekt, talaba shaxsi – obyekt ekan.

Didaktik jarayonning ikkinchi bosqichi – o'quv faoliyati mutlaq talabaga tegishli faoliyatdir. Bu erda talaba – subyekt mavqeyini egallaydi, obyekt esa o'quv materiallari hisoblanadi. O'qituvchi bu bosqichda nazoratchi-muvofiqlashtiruvchi funksiyani bajaradi va shubhasiz, subyekt maqomini egallaydi. Ayni shu bosqichda “subyekt-subyekt” tizimi ishga tushadi.

Uchinchi bosqich o'quv-bilish faoliyatini boshqarishda ikki holatni

kuzatish mumkin: Bu faoliyatning o'qituvchi tomonidan boshqarilishi yoki talabaning o'zini-o'zi boshqarishi. Birinchi holatda o'qituvchi subyekt, talaba-obyekt mavqeyini egallashini farqlash qiyin emas. Ikkinchi holatda talabaga berilgan topshiriq etaloni yordamida ular o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demak, bu erda talabaning subyektga aylanishi kuzatiladi. Shu asosda didaktik jarayon tuzilmasini tahlil asosida talaba shaxsining subyekt yoki obyekt mavqelarini egallashi uchun nisbiylik momentini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyalarning muhim jihatlaridan biri, ta'limiy jarayonda talaba tutgan mavqe, o'qituvchining talabaga munosabati hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Avtoritar texnologiyada pedagog o'quv-tarbiya jarayonining yagona subyektini hisoblanib, talaba bor-yo'g'i "obyekt", bo'ysunuvchi shaxs. Bu texnologiya talaba tashabbuskorligini va mustaqilligini chegaralab qo'yishi jarayonning qat'iyatligi bilan ajralib turadi.

2. Didaktikotsentrik texnologiyada ham "subyekt" nisbati o'qituvchi va talaba faoliyatida ustunlikka ega bo'lish bilan birga didaktik vositalar asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Bu erda talaba shaxsiga, uning namoyon bo'lishiga mutlaqo e'tibor qaratilmaydi, ta'lim-tarbiyadan ustuvor hisoblanadi. Didaktikotsentrik texnologiyalar texnokratik tavsifga ega, u vositaning maqsadi texnikaning inson qadriyatlarini ustidan ustunligi qoidasiga bo'ysunadi.

3. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar aynan shaxs manfaatini qanoatlantiradi, mamlakatimizda belgilangan ta'lim-tarbiya tizimining bosh maqsadi – mustaqil fikrlovchi shaxslarni shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratadi, milliy ta'lim modeli tuzilmasiga mos keladi. Uning asosida talaba shaxsi nafaqat subyekt, balki ustuvor obyektga aylanadi, rivojlanish uchun daxlsiz, ziddiyatsiz sharoitlar ta'minlanadi. O'qituvchi va talabaning teng hamkorligi butun o'qitish davrida kuzatiladi: mavzu maqsadini ishlab chiqish, mazmunini saralash, jarayonni boshqarish, baholash ijodiy harakatga aylanadi.

Demak, o'zida aniq o'rnatilgan didaktik masalalarni va ularni echish texnologiyalarini mujassamlashtirgan pedagogik tizim shaxsga yo'naltirilgan

ta'lim hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim barcha turdagi ta'limlarni yo'naltirish bo'yicha integratsiyalashni taqozo etadi. Integral pedagogik texnologiyalar, o'z navbatida, talabalarning mustaqil fikrlashini ta'minlashga kafolat beradi¹.

2.9. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari

So'nggi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga kiruvchi mamlakatlarning xususan, Rossiya pedagog olimlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, T.N.Ballo, L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov, G.K.Selevko, S.K.Ismagulova, A.Kushnir, I.P.Volkov, M.V.Klarin, B.T.Lixachyov, V.V.Yudin, V.A.Slasyonin, I.P.Pidkasistiy, V.M.Monaxov, I.Ya.Larner, V.S.Bezrukova, G.M.Romansev hamda qozog'istonlik olimlar M.J.Aristanov, J.S.Haydarov, o'zbekistonlik olimlar L.L.Farberman, R.X.Jo'rayev, J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov, O'.Q.Tolipov, K.Ishmatov, N.S.Saidahmedov, M.Ochilov, A.P.Parpiyev, M.Usmonboyeva, M.Hoshimova, F.Sh.Rasulova, B.Ziyomhammadov, S.Bozorova, A.V.Golish, A.Ochilov, I.Mamajonov va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida o'quv jarayoniga pedagogik texnologiya tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini ochib berishga harakat qildilar hamda o'quv jarayoniga ZPTni joriy etish bo'yicha samarali ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

O'qitishga texnologik yondashish, ya'ni o'quv jarayonini ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan tavsifga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar asrimizning 50-yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, "o'qitish texnologiyasi" iborasi ham, birinchi marta amerikalik olim Skinner tomonidan ishlatilgan. U o'qitish texnologiyasi – psixologiya fani yutuqlarini amaliyotda qo'llashdan iborat deb ta'riflagan². Pedagogik aloqalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi matnlar qo'mitasi professori Golbrayt esa, pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "O'qitish texnologiyasi – ilmiy va boshqa bilimlarni amaliy

¹ Saidahmedov N., Mirzajonova F. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari// Ta'lim va tarbiya, 2003 – yil 1-2 sonlari, 13-15 betlar; Pedagogik texnologiya .

² Аристанов М.Ж., Пидкасистий П.И., Хайдаров Ж.С. Проблемы модельного обучения: вопросы теории и технологии. – Алма-ата, Мектеп, 1980, с. 208.

masalalarni hal etishda sistemali ravishda qo‘llashdan iborat”³. Albatta, bu ta’rifni ham mutlaqo to‘g‘ri deb bo‘lmaydi, chunki jahon pedagogikasida pedagogik texnologiya tushunchasining 12 xil ta’rifi mavjudligi ham ma’lum. Bular orasida YuNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta’rif pedagogik texnologiyaning tub mohiyati va uning barcha jihatlarini ochib beradi: “Pedagogik texnologiya ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnika resurslarini hamda ularni o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning sistemali metodidir”¹.

Psixolog N.F. Talizina ta’kidlaganidek, «ta’lim tizimida pedagogik texnologiya iborasining paydo bo‘lishiga quyidagilar sabab bo‘lgan: 1) didaktika qoidalarini barcha mamlakatlarda (xususan, AQShda) keng tarzda ommalashmagani, 2) uning qoidalari o‘ta konstruktiv tusda bo‘lmay, zamon talabidan orqada qolganligi va 3) asrimizning 60-yillarida ta’lim jarayoniga texnikaviy dasturlangan ta’lim mashinalarining kirib kelganligi”.

Pedagogik texnologiyalar tushunchasi o‘z rivojlanish tarixiga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tish lozim. Xorijiy mutaxassislar bu tushunchani rivojlanishini uch bosqichga bo‘lib o‘rganish kerak, deb hisoblaydilar. Birinchi bosqichda o‘qitish jarayonini faqat o‘qituvchining o‘zi olib borar edi. N.F. Talizina iborasi bilan aytganda: “Inson tajribasi o‘qitish texnologiyasini bajargan”². Ikkinchi bosqichda darslik va qo‘llanmalar chop etila boshlangan, so‘ng – o‘qitish texnologiyasi mazmunida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘qituvchiga yordam beruvchi turli didaktik materiallar vujudga keldi. Uchinchi bosqichda esa o‘qitish texnologiyasi mazmun jihatdan yanada boyidi: o‘qituvchi va talabalar uchun yuqoridagilar qatoriga texnik vositalar, ya’ni o‘rgatuvchi mashinalar ham qo‘shildi. O‘rgatuvchi mashinalarning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi natijasida dasturlangan ta’lim tushunchasi vujudga keldi. U pedagogik texnologiyaning dastlabki muqobili sifatida ishlatila boshlandi.

Dasturlangan ta’lim tarafdorlari, xususan, U.Shramm

³ Буга П., Карпов Б. Технологии обучения в высшей школе // Вестник высшей школы. 1992 г. № 11, с. 15-17

¹ Зеер Е.Ф. Личностно-ориентированное профессиональное образование. Учебное пособие. Екатеринбург, Из-во УГППУ, 1998, с.51

² Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. – Москва, изд-во МГУ, 1984, с.13

ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonida o'rgatuvchi mashinalarni keng qo'llanilishi, bu jarayonni o'qituvchi ishtirokisiz, faqat mashinalar yordamida tashkil etish mumkin, degan g'oyani ilgari surdi. Ularning "o'qitishni og'zaki bayon qilish metodikasidan voz kechish vaqti keldi, mashina o'qituvchi shaxsini bemalol almashtirishi mumkin", - deb ehtiyotsizlik bilan aytgan fikrlariga didaktika mutaxassislari ham, amaliyotchi pedagoglar ham juda ehtiyotkorona munosabatda bo'ldilar³. Shuning uchun bo'lsa kerak, 60-yillarda yaratilgan dasturlangan ta'lim, o'qitishning aniq maqsadlarini belgilashning o'sha davrdagi zamonaviy shakli bo'lishiga qaramay, fan va amaliyotda uzoq vaqt o'z rivojini topmadi. Lekin o'sha yillar jahon pedagogikasida texnik vositalarni rivojlantirish va ularni sinfdagi barcha o'quvchilarni qamrab olishini ta'minlashi, axborot sig'imi va ularning axborot o'tkazish qobiliyatlarini oshirishi, o'quv axboroti uzatish tarmoqlarini individuallashtirish muammolarini hal etishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ko'pchilik mutaxassis olimlar o'quv jarayonida keng qo'llanilayotgan televideniye, radio, kino kabi vositalar o'rniga EHM, axborot saqlashning kompyuterlashtirilgan tizimi, lazerli aloqa tarmog'i, mikroelektron qurilmalar va boshqa yangi axborot vositalaridan foydalanishga o'tish zarurligiga e'tiborni qaratdilar.

O'quv jarayonida zamonaviy texnika vositalarini qo'llash tarafdorlari ta'lim sifatini yangilash aynan shu vositalarga bog'liq, deb hisoblaganlar. Ishlab chiqilayotgan tegishli metodik tavsiyalar ta'lim jarayonida texnik muhitni yaratishga, ya'ni texnologiya tushunchasini o'qitish jarayoniga tatbiq etish masalalariga qaratildi. Natijada, dastlab "kompyuter texnologiyasi" va "yangi axborot texnologiyasi" kabi tushunchalar vujudga keldi. Bu texnologiyalar pedagogik texnologiyani amalga oshirishda zamonaviy texnik vosita sifatida qo'llanila boshlandi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asrimizning 50-yillari o'rtasida o'quv jarayonini to'la-to'kis yangi, o'ziga xos texnologik (takrorlanuvchan) usulda tashkil etishga yondashish g'oyasi vujudga kelgan edi. 70-yillarda esa o'qitish metodlarining turli-tumanligi ulardan o'quv jarayonida

Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта М: Знание, 1980, с 90.


foydalanishni qiyinlashtirayotganligi ham e'tirof etila boshlandi, ya'ni barcha metodlar uchun umumiy bo'lgan ilmiy asos yaratish zarurati tug'ildi. Natijada pedagogik metodlar texnologiyasi, ya'ni "o'qitish texnologiyasi" tushunchasi paydo bo'ldi. O'qitish metodikasi ko'p hollarda o'quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar yig'indisidan iborat bo'lsa, pedagogik texnologiya bundan farqli o'laroq, birinchidan, yakuniy natijani kafolatlanishi o'quv jarayonini ham loyihalaydi. B.L. Farberman ta'kidlaganidek, "pedagogik texnologiya o'quv maqsadlarining aniq belgilanishi, yakuniy natijaning kafolatlanishi, o'quv jarayonining takrorlanuvchanligini ta'minlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan tavsiflanadi. O'quv jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish shakli 1-chizmada berilgan.

Pedagogik texnologiyalar o'qitish natijasi o'qituvchi shaxsidan ko'ra ko'proq talabaga, uning mustaqil o'qishiga bog'liqligini yaqqol ochib beradi. Haqiqatan ham, YuNESK Oning ta'lim va informatika bo'yicha ikkinchi kongressi (Moskva, 1996) va Butun Rossiya "Telematika-96" ilmiy-metodik anjumani (Sankt-Peterburg, 1996) materiallarida ta'kidlanganidek, yangi axborot vositasi va uning imkoniyatlari bilan to'la qurollangan talaba o'quv materialining 70-90 foizini mustaqil o'zlashtirishni uddalay olar ekan.

B.Blum tadqiqotlarida esa bu ko'rsatkich 75 foiz chegarasida aniqlangan. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida o'quv materialining asosiy qismi talabanning mustaqil o'zlashtirishiga o'tkaziladi va demak, dars soatlari keskin kamayadi. Bu bilan, birinchidan, bilish jarayonida talaba faolligi va mas'uliyati oshadi, ikkinchidan esa, professor-o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamalari ham me'yorlanadi.

Pedagogik texnologiyalar, avvalo – umumpedagogik maqsadlar fan va mavzular miqyosidagi aniq o'quv maqsadlariga ajratiladi, ularga muvofiq holda oraliq, yakuniy baholash va talabalarning mustaqil o'zlashtirishlari bo'yicha topshiriqlar tuziladi. O'quv maqsadlari, topshiriq (test)lar va yakuniy natija oldindan belgilangandan so'nggina o'quv jarayoni boshlanadi. Uning asosiy mazmuni aniq belgilangan yakuniy maqsadga to'la-to'kis erishishga yo'naltiriladi. Bunda o'qituvchiga test

yoki boshqa turdagi topshiriqlardan, o'quvchilar bilish jarayonini faollashtiruvchi turli didaktik konstruksiyalar va vositalardan foydalanish erkinligi beriladi. Eng muhimi, yakuniy natijaga erishish kafolatlansa bo'lgani. O'qitish natijalariga qarab, o'quv jarayoni mazmuniga va aniqlashtirilgan (xususiy) o'quv maqsadlarga tuzatishlar kiritilib boriladi. Bu esa, bo'lajak o'quv jarayonini loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.



1-chizma. Pedagogik texnologiyalarning mazmuniy blok shakli.

Pedagogik texnologiyalarda o'quv jarayonini takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lishi quyidagicha tushuntiriladi. O'quv jarayoni malakali mutaxassis yoki tajribali o'qituvchilar tomonidan tuzilgan

topshiriq (test)lar bo'yicha amalga oshirilar ekan, unda mahorati turlicha bo'lgan o'qituvchilar deyarli bir xil natijaga erishishlari mumkin. V.P. Bospalko ta'kidlaganidek: "pedagogik texnologiya, (dars o'tuvchi) o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi-talaba shaxsini shakllantirish jarayonini ifodalash-loyihalashdir"¹.

Tuzatishlar kiritish

Haqiqatan ham, AQShda yaratilgan va YuNESKO tomonidan ma'qullangan pedagogik texnologiyalarni joriy etayotgan jahondagi 27 dan ziyod mamlakatlar o'quv jarayonida AQShdagiga juda yaqin natijalarga erishmoqdalar. Xususan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiyalar bo'yicha o'qitilgan 5000 o'quvchi-talabaning 75 foizi an'anaviy usulda o'qiganda faqat eng yuqori o'zlashtiruvchi o'quvchi-talabalargina erisha oladigan ko'rsatkichlarga ega bo'lganlar. Ba'zi mamlakatlarda esa bunday ko'rsatkich ulushi 80-85 foizni tashkil etadi.

Biz bixeviorizm va B.Blum taksonomiyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalar haqida fikr yuritishga harakat qildik. Bundan tashqari, shaxsning effektiv sohada rivojlanishini ta'minlovchi, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi o'qitishning individuallashtirish bilan ajralib turuvchi Kyoller sistemasi kabi o'qitish texnologiyalari mavjud. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi mamlakatimiz o'quv yurtlaridagi kadrlar tayyorlash jarayoni mazmunini yanada boyitib, uni jahon andozalari bilan uyg'unlashuviga, shu bilan birga, mustaqillik mafkurasi, o'zbek xalq pedagogikasi va milliy an'analarga xos va mos bo'lgan pedagogik texnologiyalarni yaratishga nazariy va amaliy asos bo'ladi, deb o'ylaymiz¹. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini quyidagi mezonlarga ko'ra baholash mumkin:

¹ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии.—М: Педагогика, 1989,с.13

¹ Ishmatov K. Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari.// Ta'lim muammolari. 1999, 1-2 sonlari 54-57- betlar.

Pedagogik muammo echimining ilmiy asoslanganligi;

Pedagogik jarayonning asosiy obyektini hamda subyektini hisoblab ta'lim oluvchilarning ongini, faol o'quv bilish faoliyatlarining ta'minlanganligi;

Olingan natijaning sifat va samaradorligi nisbatan yuqoriligi;

Olingan natijaga ortiqcha vaqt, zo'riqish vositalari va shu kabilar sarflanmaganligi;

Pedagogik texnologiyalar ijodiy izlanishlar mahsuli bo'lib, ma'lum yangilikka egaligi va uzoq muddatlar davomida qo'llanish imkoniyatlarining mavjudligi;

Pedagoglar ommasi tomonidan e'tirof etilib, oson o'zlashtirilishi va amaliyotga keng ko'lamda tatbiq etilishi kabilardir.

Agar ta'lim-tarbiya jarayonida ko'zlangan natijaga nisbatan ko'p vaqt, zo'riqish kuchlari, materiallar, vositalar kabilar sarflash hisobga olingan bo'lsa, bunda qo'llanilgan texnologiyani samarali, ilg'or deb bo'lmaydi. Samarali, ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tarkibiy unsurlari (ta'lim mazmuni, didaktik maqsadlar, ishtirokchilari, tashqi ta'sir etuvchi omillar, amalga oshirish shart-sharoitlari kabilar)ni har tomonlama hisobga olgan, ijodiy izlanishlar natijasidir. Ilmiy-amaliy manbalarning tahlili va shaxsiy tajribalarimizga asoslangan holda quyidagilarni ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida ko'rsatib o'tamiz.

1. Ta'lim standartlari doirasida bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi o'quv unsurlari mazmunining yaxlit tugal tizim holida mujassamlashtirib o'rganish;

2. Axborot ko'lami qisqa vaqt ichida shiddatli oshib borayotgan bir paytda amaliy jihatdan muhim o'quv materiallariga tayanch nuqtalar sifatida qarab, ularni ta'lim oluvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishiga katta ahamiyat berish;

3. Har bir mavzu, bilim va o'quv unsurini o'rganishda yangi kiritilayotgan yoki avvaldan ishlatilgan, lekin mohiyati ta'lim oluvchilar tomonidan anglanmagan tushunchalar, iboralar va so'zlarning mohiyati va mazmunini izohlab, tushuntirish;

4. Muammoli va dasturli ta'lim unsurlaridan keng ko'lamda foydalanish;

5. Ishlab chiqarish jarayonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qiziqarli, muammoli vaziyatlar tarzidagi masalalarni echish;

6. Tahsil oluvchilarning mustaqil izlanuvchan o'quv bilish faoliyatlarini oqilona tashkil etib, unga rahbarlik va muntazam rahbarlik qilish usul va vositalaridan foydalanish;

7. Tahsil oluvchilarni o'qib-o'rganishga undovchi, uni hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'taruvchi omil (o'yin, munozara, bir-birini nazorat qilib, baholash kabi)lardan keng ko'lamda foydalanish;

8. Fan, texnika taraqqiyotiga oid yangiliklar va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarining ilmiy asoslarini aniq misollar yordamida ko'rsatish;

9. Ta'lim-tarbiya ishini loyihalashtiruvchi, amalga oshiruvchi va natijalarini nazorat qilib, baholash yo'li bilan yanada takomillashuviga erishadigan ijodiy izlanuvchan pedagoqlarni tayyorlash, ularni oqilona ishlashlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar.

Yuqoridagi fikrlardan zamonaviy pedagogik texnologiyalar ma'lum yangiliklar, yuqori samaradorlikka ega bo'lgan ilmiy-nazariy va amaliy izlanish natijasi ekanligi ayon bo'ladi. Shunday ekan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini yaratish muammolari bo'yicha olib boriladigan umumiy va amaliy tadqiqotlarga keng yo'l bergan holda ushbu nazariya mohiyatini to'laqonli aks ettiruvchi pedagogik terminologiya shakllantirilishini taqozo etadi. Bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan umumiy ishlanmalarning mavjud bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, umuman nazariy bazaga ega bo'lmasdan turib, bu muammolarni hal etish mumkin emas.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uni ta'lim jarayonida qo'llash muammolariga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar mazkur nazariyaning ta'lim rivojini ta'minlashdagi ahamiyatini chuqur anglab etish, uning imkoniyatlarini aniqlash va keng ko'lamli axborot maydonini egallashga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmini bilish ta'lim jarayonini rivojlantirish va

boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buni nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir¹.

Texnopedagogik mazmunda e'lon qilinayotgan ilmiy ishlar sonining tobora ortib borayotganiga qaramay, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy-metodologik asoslarini yaratish, unga ilmiy fan maqomini berish zaruriyatini asoslash borasidagi muammasizlar hanzuzgacha ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan etarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan.

Zero, metodologiyaning mukammalligi obyektiv jarayonni o'rganish va uni takomillashtirishning hal qiluvchi omilidir. U ilgari ilmiy bilish faoliyatining faqat falsafiy asoslari haqidagi masalalarni ifodalagan bo'lsa, endilikda bilish nazariyasidan bilish vositalariga jiddiy e'tibor berish, bilishni tashkil etish, bilimning ichki tartibqoidalari, mantiqi va tarkibini o'rganishi bilan farq qiladi. Metodologik formula ilmiy bilish va amalga joriy etish izchilligini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda amaliyotning ustuvorligi, olingan natijaning haqqoniyligi, obyektga muvofiqligini aniqlash muhim xususiyatdir. Har bir muammoni o'rganish umummetodologiya, xususiy metodologiya va ayni mavzu metodik tizimidan iborat bo'ladi. Bu uch metodologik asos bir-birini to'ldiradi, obyektiv qonuniyatlarini aniqlash samaradorligini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiyalar (PT) o'tgan asrning so'nggi choragida o'rganila boshlandi, rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaxshi natijalar berdi. Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik texnologiya metodik ta'minlash omili sifatida e'tirof etildi. Uni nazariy va amaliy rivojlantirish bo'yicha anchagina tadqiqotlar olib boriladi. Ammo uning metodologik asosi yaratilmaganligi tufayli ZPTni o'rganishda har xil yondashuvlar mavjud.

Internet ma'lumotlarida jahonning har bir hududida ZPTni o'rganish va joriy etish tajribalarida o'ziga xos yo'nalishlar mavjud. Bu har xillikka sabab, avvalo, pedagogik jarayonning dialektik xususiyatidir. Ikkinchidan, ZPTning metodologik modeli ishlab chiqilmagan. ZPTni takomillashtirishda fanlararo bog'liqlik imkoniyatlari aniqlanmagan.

¹ Qarang: Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogikaning tatbiqiy asoslari. – T.:Fan, 2006, 26-27 betlar.

Demak, dialekik qonuniyatlardan kelib chiqadigan umummetodologiya ZPTni o'rganishda, rivojlantirishda hal qiluvchi omildir. Zero, PT amaliy jarayon bo'lsada, falsafaning bilish nazariyasi uning ilmiyligini ta'minlaydi. Bilish nazariyasining obyekt va subyekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, prinsiplari, bilishda amaliy mezon va obyektiv borliqni bir butunlikda o'rganish pedagogik texnologiyaning samaradorligini oshiradi. Agar dialektikaning bilish nazariyasi barcha fanlarning, jumladan, pedagogikaning ham umumiy muammolarini o'rganishda keng qo'llanilsa, metodologik asos bo'lsa, bu modellashtirish mezonidir.

Modellashtirish borliqni bilvosita o'rganishga asoslangan ilmiy usuldir. U moddiy va g'oyaviy bo'lishi mumkin. «G'oyaviy modellar g'oya shaklida mavjud bo'lishi mumkin».

Albatta, pedagogik texnologiyalar g'oyaviy modellar bilan ifodalanadi. XX asrning uchinchi choragida pedagogika fanining taraqqiyoti g'oyaviy modellarni qo'llash bilan xarakterlanadi. Bu keyinchalik pedagogik texnologiyalarning shakllanishiga asos bo'lgani tabiiy hol. Pedagogik jarayonning murakkab qonuniyatlarini ifodalashda g'oyaviy modellashtirish keng imkoniyat yaratmoqda.

Xususi metodologiya ZPTning predmeti va pedagogik jarayonning o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Ayrim tadqiqotlarda pedagogik jarayonning qonuniyatlarini e'tiborga olmaslik hollari uchraydi. Ma'lumki, amaliyotda pedagogikaning o'ziga xos qonuniyatlari buzilishi ta'lim-tarbiyani inqirozga olib bordi. Bu qonuniyatlar keyingi yarim asrda faqat nazariy qo'llanmalardagina ko'rsatiladi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari bo'yicha tadqiqotlar ham, qo'llanmalar ham juda kam. Fanning o'ziga xos qonuniyatlariga asoslanmaslik pedagogik tadqiqotlarning bir tomonlama, natijalarning sun'iy, tavsiyalarning umri qisqa bo'lishiga sabab bo'lmoqda. ZPTni takomillashtirishda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini hisobga olish uning ilmiy va amaliy garovidir.

Pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlari har bir masalaning ilmiy tadqiqiga metodologik asos bo'lishi fanning oldida turgan vazifani samarali hal etish imkonini beradi. Bu qonuniyatlar pedagogik voqelik bilan pedagogik jarayon o'rtasidagi turg'un bog'liqlikdir. Pedagogik

jarayon qonuniyatlari bu voqelikni rivojlantirishda barqaror, doimo qo‘l keladigan har bir tadqiqot predmetini, ilmiy ishning samarali metodikasini belgilashda umumiy mezondir.

Pedagogik jarayonning o‘ziga xos umumiy qonuniyatlari dialektik qonuniyatlardan kelib chiqadi. Pedagogik jarayonning bir butunligi esa uning maqsad, vazifa, mazmun, shakl va metodlarining ijtimoiy-iqtisodiy talabga mosligi bilan o‘lchanadi. Bu jarayonning samaradorligi texnikaviy va boshqa vositalar, gigiyenik, ma‘naviy-psixologik shart-sharoitga bog‘liqligi, tarbiya, ta‘lim, ma‘lumot va rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘qitish va o‘rganishning uyg‘unligi, subyekt va obyekt faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi kabilar.

ZPT ta‘lim-tarbiya jarayoniga bir butunlikda yondashish orqali yuqori natijalarga erishish kafolati sifatida jahonda tan olingan. Shuning uchun ham, 1996-yil YuNESKO tomonidan Dorussalom universitetida o‘tkazilgan konferensiyada “Pedagogik texnologiya ta‘limning optimal shaklini tanlashda, butun o‘qitish va bilimni o‘zlashtirish jarayonida texnik, insoniy omillarning hamkorlikdagi metodik tizimini yaratish va qo‘llashdir”, degan xulosaga kelingan edi. ZPTning yana bir o‘ziga xos xususiyati unda o‘quvchi, talaba faolligining ustuvorligidir. Ta‘lim-tarbiya jarayonida bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash motivini shakllantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini tarkib toptirish, ma‘naviy-psixologik muhit ZPT ning tarkibiy qismidir. Bu o‘zaro bog‘liqlik ham pedagogik jarayonning o‘ziga xos qonuniyatidan kelib chiqadi.

Shuningdek, ZPTni o‘rganishda pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qo‘llaniladi. Kuzatish, pedagogik tajribalarni o‘rganish, suhbat, anketa, tajriba o‘tkazish kabi usullar bor. Har bir usulni qo‘llash ZPTning xususiyatidan, uning o‘ziga xos prinsiplaridan kelib chiqadi. Bunda ishlab chiqarish texnologiyasiga o‘xshashlik holati mavjud. Pedagogik jarayon tizimi, texnologiyasi ham natija bilan o‘lchanadi. Shunga qarab muvofiqlashtirib boriladi.

Ikkinchidan, pedagogik-psixologik tashxis ZPTning muhim tamoyilidir. Chunki maqsad, mazmun, metod, shakl va vositalar

optimalligi pedagogik tashxis bilan aniqlanadi. Pedagogik tashxisga asosan jarayonni modellashtirish ta'lim-tarbiyadagi mavhumlikka barham beradi.

Uchinchidan, har qanday ishlab chiqarishdagi singari natija ZPT ning bosh mezonidir. Ta'lim-tarbiya jarayonining modeli, kafolati natija bilan o'lchanadi. Shuning uchun olingan natijaga asosan pedagogik jarayonni baholash, muvofiqlashtirish ZPTning asosiy amaliy maqsadidir.

ZPT nazariyasining mazmuni va tarkibiy tuzilmasi (tuzilishi) ko'rib chiqilayotgan muammolar majmuyida markaziy o'rin egallaydi. ZPT ning quyidagi chizmada muhim ilmiy-nazariy belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Yuqorida qayd etilgan jihatlarga tayangan holda ZPT nazariyasi mohiyatini ochib berish mumkin.

Manbalarda bu tushuncha quyidagicha sharhlanadi: "Nazariya (grekcha *theoreo* so'zidan olingan bo'lib, *theoria* – qarab chiqaman, tadqiq etaman) keng ma'noda – ma'lum hodisaning mohiyatini yoritish va tushuntirishga yo'naltirilgan qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar majmuyi; nisbatan tor va maxsus ma'noda esa – qayd etilayotgan nazariya obyekti bo'lgan faoliyat qonuniyatlari va mavjud aloqalari to'g'risidagi to'laqonli tasavvurni bera oluvchi ilmiy bilimlarning eng yuqori, eng taraqqiy etgan tashkiliy shakli". Ushbu ta'rifga asoslanib, ZPT nazariyasi mohiyatini quyidagi chizmada ta'riflash mumkin:

Tarkibiy tuzilma tahlili ZPT funksiyasiga aniqlik kiritish va uning konseptual modelini qurishga oid yondashuv variantini asoslash imkonini berdi. Konseptual va mantiqiy til asosi, shuningdek, ilmiy texnopedagogik bilimlarning asosiy salmog'ini ishlab chiqishda deduktiv yondashuv va ZPT nazariyasining konseptual asosiga aniqlik kiritish uchun esa induktiv yondashuvdan foydalaniladi.

- predmetlilik (pedagogik texnologiya nazariyasiga oid barcha atama, tu-shuncha, kategoriya va ta’kidlar bir predmetli yoki muayyan sohaga taal-luqli bo‘lishi kerak);
- bir-biriga moslik yoki to‘liqlik (pedagogik texnologiya nazariyasining tili, uning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari, modellari va hokazolar);
- aniqlik (obyekt ma’nosini ikki aspektda: empirik va semantik jihatdan ochib beradi);
- tekshiruvchanlik (nazariyaning real obyektga moslik darajasini tekshiradi);
- haqqoniylik (pedagogik texnologiya nazariyasining asosiy ta’kidlari ishonchli bo‘lishi zarur);
- tizimlilik (texno-pedagogik qonunlarni tabaqalashtiruvchi va muvofiq-lashtiruvchi aloqalar yordamida yagona tizimga birlashtirish).

Demak, ZPT nazariyasi deduktiv xulosaviy tavsifga ega va uning mohiyati ishonarli, aniq ifoda etuvchi ilmiy nazariya sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Ta’lim texnologiyalarining mustaqil fan sifatida shakllanishi.
2. “Ta’lim texnologiyalar”ining rivojlanish bosqichlari
3. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari
4. Pedagogik texnologiya tamoyillari.
5. Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi
6. Pedagogik texnologiya fanining paydo bo‘lishi vaqtini aytib bering.
7. Pedagogik texnologiya fanining paydo bo‘lishi davrni izohlab bering.
8. Pedagogik texnologiyaning tamoyillarini aytib bering

¹ Qarang: Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asosi.–T.: «Fan», 2006, 35-36 betlar.

AN'ANAVIY VA NOAN'ANVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

3.1. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining mazmuni va metodikasi xususiyatlari

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Ya.A.Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir qator jiddiy qarshiliklarga uchragan bo'lsa ham G'arb mamlakatlariga juda tez tarqaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan bir shakli deb e'tirof etildi.

Sinf-dars tizimi Sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tadbiq bo'lmadi. Ularda oktyabr



to'ntarishiga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi davom etib keldi.

Ta'lim jarayonining eng qisqacha ta'rifini quyidagicha berish mumkin: ta'lim jarayoni o'ziga xos boshqaruv jarayoni hisoblanib, bunda pedagogik tizimga maqsadli yo'naltirilgan holda ta'sir ko'rsatilishidir. Ma'lum ma'noda shuni ta'kidlash mumkinki, ta'lim jarayonida bilimlar tashkillashtiriladi va o'zgalarga uzatiladi. Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagogika fanida maxsus ta'lim modellari qo'llaniladi. Bu modellar pedagogik tizimlarni oqilona boshqaruvni tashkil qilishga yordam beradi. Pedagogik modellar tarkibi va mohiyatiga ta'lim berishning tiplari kiradi. Pedagogika fanida ta'lim asosan uchta turga ajratiladi: an'anaviy ta'lim berish usuli, pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim berish usuli, dasturlashtirilgan ta'lim berish usuli. Quyida biz ularning mohiyatiga qisqacha tavsif berib o'tamiz.

Shuni ta'kidlash joizki, an'anaviy ta'lim usullarining birortasini ham mukammal universal deb baholash mumkin emas. Ularning har birida ham

ijobiy, ham salbiy tomonlari kuzatiladi. Biroq u yoki bu usulning ochiq tarafdorlari uchraydiki, ular ta'limda aynan o'zlari ma'qul deb bilgan didaktik usulni qo'llashni targ'ib qiladilar. Bu tadqiqotchilar o'zlari mukammal deb bilgan ta'lim usulini mutlaqlashtiradilar va ularning kamchiliklaridan ko'z yumadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'limda mazkur usullar optimal darajada o'zaro integratsiyalagandagina yuksak yutuqlarga erishish mumkin.

Ta'lim usullarining birinchisi hamda eng qadimiysi «an'anaviy o'qitish usuli» hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usulida ta'limning sinfda dars berish ko'rinishi va «kimdir gapiradi, kimdir tinglaydi» kabilidagi holat yuzaga keladi. An'anaviy dars berish usulining o'ziga xosligi shundaki, bu usul yordamida qisqa muddat ichida katta ko'lamdagi ma'lumotni uzatish mumkin. Uning kamchiligi shundaki, u asosan, talaba tafakkuriga emas, balki uning xotirasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ta'lim usulida mashg'ulotlar olib borilganida ijobiy qobiliyatlar, mustaqil fikrlash va faollik kamroq taraqqiy qiladi.

A.A. Verbiskiy an'anaviy ta'limning psixologik jihatdan ziddiyatli tomonlarini quyidagilarga ajratib ko'rsatadi:

1. *Birinchi psixologik ziddiyat* – bu o'quv faoliyati mazmunining (demakki, ta'lim beruvchining ham) belgilar tizimida o'z aksini topgan tajribaning o'tmishga yo'nalganligi va kasbiy-amaliy faoliyat mazmuni ko'rinishida ta'lim sub'ektining kelajakka yo'naltirilganligidir. O'tmish bilim va tajribalariga tayangan holda uzatiladigan ta'lim, saboq oluvchi uchun bu bilimlarni kelajakda foydalanish nuqtai nazaridan mavhum hisoblanadi. Ma'lumki, tayyor bilimlarni qabul qilish ta'lim oluvchini noma'lum bilan to'qnash kelish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Demak, tafakkurni rivojlantiradigan, muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradigan holat bu o'rinda ko'zga tashlanmaydi.

2. *Ikkinchi psixologik ziddiyat* – bu o'quv axborotlarining ikki xilligi. Bu ikki xillik, bir tomondan, axborotlar madaniyatning bir qismi hisoblanishida, ikkinchi tomondan, ularning o'sha madaniyatni o'zlashtirib olish vositasi ekanligida ko'zga tashlanadi. Bu psixologik ziddiyatni hal qilish uchun ta'lim beruvchi o'quv axborotlaridagi, yuqorida

aytganimizdek mavhumlikni turmushning real sharoitlari bilan bog‘lamog‘i zarur.

3. *Keyingi psixologik ziddiyat* – madaniyatning yaxlitligi bilan uni o‘zlashtirish jarayoni bir qator fan sohalari yordamida amalga oshirilishi o‘rtasida yotadi. Bu an‘ana maktab o‘qituvchilarining va oliy o‘quv yurtidagi kafedralar tizimining ko‘pligi bilan hamda ularning turli xil fan sohalariga bo‘linganligi bilan tavsiflanadi. Natijada talaba borliq to‘g‘risida yoki o‘tilayotgan predmet yuzasidan yaxlit tasavvurning o‘rniga “maydalangan ko‘zgu”ni qo‘lga kiritadi. Talaba maydalangan ko‘zgu siniqlaridan yaxlit qiyofani vujudga keltirish imkoniyatidan mahrum.

4. Psixologik ziddiyatning keyingisiga – madaniyatning jarayon sifatida dinamik ko‘rinishga ega ekanligi va bu madaniyatning ta’limda statik belgili tizimlar orqali uzatilishi o‘rtasidagi qarama-qarshilik kiradi. Ma’lumki, ta’limda madaniyatning taraqqiyot dinamikasidan mahrum bo‘lgan tayyor o‘quv materialini beriladi va u mustaqil turmushdan talaba shaxsining ehtiyojlaridan uzilgan holda gavgalangan bo‘ladi. Natijada ham ta’lim oluvchining, ham madaniyatning o‘zi rivojlanmay qoladi.

5. So‘nggi psixologik ziddiyat – bu madaniyat mavjudligining ijtimoiy shakli bilan uning ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilishining individual shakli o‘rtasida ifodalanadi. An‘anaviy ta’limda bu ziddiyatning hal bo‘lishi mushkuldir, chunki talaba hamkor mahsulot hisoblagan bilimlarni umumlashtirmaydi [3].

Agar muammoga e’tibor berib qaralsa, yuqoridagi psixologik ziddiyatlarning mahsuli o‘laroq ta’lim oluvchida hatto ijodiy individuallik shakllanmay qoladi. Xulosa qilib aytganda, an‘anaviy ta’lim usulining asosiy kamchiligi talabalarda ijodiy tafakkurning rivojlanmay qolishligidir.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulot o‘qituvchining kundalik o‘quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma xil usullardan foydalanishini, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni, o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashgʻulotlar sinf sharoitidan tashqarida, oʻquv ustaxonasi, tajriba er uchastkalari va kolxozsovxoz ekin maydonlarida ishlash, ekskursiyalar oʻtkazish yoʻli bilan olib boriladi.

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi

Bir soatlik darsga moʻljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravnshta tashkil qilingan mashgʻulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Taʼlim tizimida eng koʻp qoʻllaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. Oʻquv materiallarini mustahkamlash darsi.
3. Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darsi.
4. Oʻquvchilarning oʻzlashtirishini nazorat qilish va baholash
5. Uygʻunlashgan darslar.

Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism-didaktik usul, dars tuzilishi boʻlavermaydi. U oʻqitish usuli bilan bogʻlangandagina dars tuzilishini tashkil qila oladi. Yaʼni dars tuzilishining oʻzgarishi bilan oq dars olib borish usuli ham oʻzgaradi. Demak, darsning shu qismiga kelib, darsning shakli ham, usuli ham oʻzgaradi, yangilanadn. Bu bilan darsning yangi bosqichi boshlanadi.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga oʻtishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining oʻzgarishi dars bosqichi deb yuritiladi.

- Masalan, aralash dars turining tuzilishi:
- uy vazifalarini soʻrash, tekshirib koʻrish;
- yangi materiallarni bayon qilish;
- yangi materiallarni mustahkamlash;
- uy vazifalari topshirishni oʻz ichiga oladi. Bunda:

a) uy vazifalarini koʻrish suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yoʻli bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining 1-qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida oʻqituvchi tushuntirish, hikoya qilish, maktab maʼruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanishi mumkin. Bu-dars tuzilishining ikkinchi qismi, darsning ikkinchi bosqichi;

v) yangi materiallarni mustahkamlash jarayonida suhbat, mashq qildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu-dars tuzilishining uchinchi qismi, darsning uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish. Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu-dars tuzilishini to'rtinchi qismi, darsning to'rtinchi bosqichidir.

Sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlarni tashkil etish

Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Maktablarimizda darsning boshlanish davrini-darsning tashkiliy daqiqalari deb yuritiladi. To'g'ri, darsning shunday bir kichik tashkiliy qismi ham bo'lmog'i lozim. Biroq, bu dars shaklining biror bosqichi eki tuzilishiga kirmasligi kerak. Tashkiliy daqiqada sinfnng tayyorgarligini sinchiklab kuzatish muhimdir.

Tajribali o'qituvchilar fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darhol ish boshlab yuboradilar.

Ayni paytda o'qituvchi oldida ikki vazifa-butun sinf o'quvchilari diqqatini o'ziga jalb qilish va butun sinf o'quvchilarini tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlarini ta'minlash vazifalari turadi.

Dars mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadni ravshan va aniq qilib uqtirish bilan boshlanadi. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi aytiladi.

Darsda rejada mo'ljallang'an materialni o'tib bo'lingach, u albatta yakunlanishi, xulosalar chiqarilishi kerak.

Darsni tashkil etish va olib borishdagi bosh maqsad-ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashdpr. Buning uchun:

a) o'tilayotgan mavzudan ko'zlangan maqsadni uqtirish bilan bir vaqtda, o'quvchilar materialni faol, idrok qilishga safarbar etilgan bo'lishlari kerak. Ya'ni o'qituvchi bayon qilayotgan materiallar o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, ongli o'zlashtirishga intilishlarini ta'minlamog'i lozim;

b) ajratilgan vaqt ichida o'qituvchi materiallarni tizimli va izchil bayon qilish bilan bir vaqtda, o'quvchilarni ham, albatta, mavzuga oid mustaqil ish olkb borishlarini ta'minlash juda muhimdir.

O'qituvchi dars materiallarini bayon qilish jarayonida o'quvchilarga muammoli vaziyat tug'diradigan savollar bersin va o'quvchilar axtarish, fikrlash va izlanishlar yo'li bilan bayon qilinayotgan materiallarni puxta o'zlashtirib oladigan bo'lsinlar. Bunda umumsinf jamoasi va har qaysi o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan bo'lmog'i lozim;

v) endilikda darsda uzoqdan-uzoq vaqt sarflab o'quvchilarning bilimni aniqlash va baholash, bilimlarni bayon qilish va mustahkamlashda o'quvchilar ishtirokini cheklab qo'yish kabi hollarga barham berilmoqda. Bilimlarni bayon qilish jarayonida o'quvchilar faoldigi (og'zaki va yozma mashqlar, laboratoriya tajriba ishlari, mustaqil ijodiy ishlar) ishga solinmog'i lozim. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilimlarini ham ishga tuigirishga xizmat qiladi va to'g'ri baholash uchun katta imkoniyat tug'diradi;

g) o'quvchilarning mustaqil mantiqiy fikr qilishlari, qunt, irodalarini tarbiyalash hamda nutq madaniyatini rivojlantirish, tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda mustaqil ishning ahamiyati hamisha diqqat markazida bo'lishi, dars jarayonini shu maqsadga muvofiq qurish nazarda tutilmog'i lozim;

d) dars jarayonida o'tilayotgan o'quv materiallarining boshqa fanlarning aloqador mavzulari bilan bog'lanishini ko'rsatish ham muhim ahamiyatga molikdir.

Darsga bo'lgan talablar

Dars, yuqorida aytib o'tilganidek, o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas. O'quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko'riktanlovlar, jumhuriyat miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik o'qishlarda o'rtaga qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

- Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.

- Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.

- Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bogʻlangan boʻlmogʻi lozim.
- Har bir dars xilmaxil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmogʻi lozim.
- Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.
- Har bir dars oʻqituvchi va oʻquvchilarning faolligi birligini taʼminlamogʻi lozim.
- Darsda oʻquv materiallarining mazmuniga oid koʻrsatmali qurollar, texnika vositalari va komshoterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

3.2. Anʼanaviy taʼlimni zamonaviy taʼlim texnologiyalariga asoslangan taʼlimdan farqi

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarlik teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud boʻlib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq oʻtkazish metodlari, yoʻllari majmuasi. Alohida metodikalarni tashkil qiladi. Pedagogika fani sohasida maʼlum oʻquv fanini oʻqitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab qilinadi. Ular orasidagi farqlar quyidagicha.

Pedagogik texnologiya bilan metodika orasidagi ayrim farqlar

Asosiy tushunchalar	Pedagogik texnologiya	Metodika
Taʼriflar	Pedagogik texnologiya-insonga oldindan belgilangan maqsad boʻyicha taʼlim-tarbiyaviy taʼsir oʻtkazish faoliyatidan iborat.	Metodika maʼlum oʻquv fanini oʻqitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi fanlar.
Maqsad	Komil insonni shakllantirish	Alohida oʻquv fanlarini oʻqitish hamda tarbiyaviy ishlarning yuqori sifatda boʻlishini taʼminlash

Qo'llash miqyosi	Barcha ta'lim-tarbiya jarayonida	Xususiy fanlarni o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda
Vositalar	Barcha ta'lim-tarbiyaviy vositalar, xususiy metodikalar	Alohida o'quv fanlarini o'qitishda hamda tarbiyaviy ishlarda qo'llaniladigan vositalar
Pedagogik jarayon	Ta'limi va tarbiya texnologiyasi asosida. Ta'lim menejmenti va marketingi asosida. Ta'lim-tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarni umumlashtiruvchi loyihalar asosida rivojlanib boradi. Yetarli tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan qo'llanganda o'zaro o'xshash natijalar olinishi ta'minlanadi.	Ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalari asosida rivojlanadi. Xususiy tajribalar asosida boyitib boriladi. Bir muallifning ilg'or pedagogik tajribasini hamma pedagoglar aynan qo'llay olmaydilar. Bundan esa natijalar har kimda har xil bo'ladi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy bo'lagi hisoblanadi.
Natija kafolati	Oldindan belgilangan maqsadga erishish kafolati bor.	Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijaga erishadilar.
Kelib chiqishi	Xususiy metodikalarning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan.	Ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan.

Ushbu farqlar haqidagi masala yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin. «Aslida zamonaviy ta'lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo'lib tashlamagani deyarli mo'jiza, chunki bu nozik nihol (ya'ni, qiziquvchanlik) rag'batlantirish bilan bir qatorda eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, bo'lmasa, u shubhasiz, mahv bo'ladi» (A. Eynshteyn).

Bu erda ta'lim metodlari qiziquvchanlikka etarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar

xususiy (o‘quv fanlari) darajasidagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e’tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko‘proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo‘naltiruvchi tomonlari ko‘proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o‘zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg‘unligi, ko‘plab «agar,,,»lar (agar o‘qituvchi iste’dodli bo‘lsa, agar bolalar qobiliyatli bo‘lsa, yaxshi ota-onalar bo‘lsa... kabilar) yo‘qligi bilan farq qiladi.

Ya’ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo‘llash mumkinligi bilan juda ham individual bo‘lgan metoddan farq qiladi.

An’anaviy ta’limni zamonaviy ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’limdan farqi

An’anaviy ta’lim berish	Texnologik yondashuvga asoslangan ta’lim berish
1. Konseptual asoslar	
<p>Ta’lim oluvchiga yondashish bo‘yicha nazoratli-nasihatgo‘y, egallab bo‘lingan usul bo‘yicha qayta tiklashli, ta’lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini bostiruvchi, qat’iy tashkil etilgan bo‘ysinish asosidagi (avtoritar) ta’lim</p> <p>(2) O‘rta ta’lim oluvchi imkoniyatlari, ularni o‘zlashtirish va bilimlarni qayta tiklashlariga yo‘naltirilgan ta’lim</p> <p>(3) O‘rganish – eslab qolish vazifasi, dars berish esa – asosiy faoliyat</p> <p>(4) Ta’lim paradigmasi: ta’lim beruvchi – kitob – ta’lim oluvchi</p>	<p>Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va ta’limga tizimli – harakatli yondashishga asoslanadi. Ta’lim oluvchi shaxsi – ta’lim jarayonining markaziy egasi. Munosabatlarning insonparvarligi va erkinligi, o‘qishga majburlashdan voz kechish</p> <p>(2) Tabaqalashtirish va individuallashtirish; umumiy ta’lim oluvchining aqliy rivojlanish darajasi va ushbu fanni ular tomonidan o‘zlashtirilishini hisobga olish</p> <p>(3) O‘rganish–aqliy rivojlanish, mustaqil egallash jarayoni va asosiysi ta’lim oluvchilarning egallagan bilimlarni qo‘llay olishlari; xususiyati bo‘yicha muammoli, izlanuvchan, ijodiy</p> <p>(4) Ta’limning yangi paradigmasi, ya’ni: ta’lim oluvchi – kitob – ta’lim beruvchi</p>

2. Ta'lim oluvchining tutgan o'rni va vazifasi	
(1) Ta'lim beruvchi ta'siridagi bo'ysunuvchi ob'ekt Bilim–birdan-bir maqsad	Mustaqil bilish faoliyatini olib boruvchi, ta'lim jarayonining teng huquqli sub'ekti Bilim - shaxsiy muammolarni hal etish vositasi
(3) Xato- jazolanadi	(3) Xato qilishga haqqi bor – xatolarda o'rganadi
3. Ta'lim beruvchining tutgan o'rni va vazifasi	
Kitob bilan birga, yagona tashabbuskor shaxs – bilish sub'ektini nazorat qiluvchi, asosiy bilim manbai: boshqaruv organlarining rahbarlik buyruqlarini bajaruvchisi	Ta'lim oluvchilarning mustaqil bilish faoliyatlari tashkilotchisi, ularning masul maslahatchisi va yordamchisi. Ta'lim oluvchilarning nafaqat BMK nazoratini, balki ehtimoliy chetga chiqish o'z vaqtida to'g'rilash maqsadida ularning ta'lim berganlik tashhisini ta'minlaydi
4. Ta'lim berish va o'rganish usullari	
Tayyor bilimlarni og'zaki bayon qilish orqali bildirish. Oddiydan umumiylikka induktiv mantiqqa, mexanik eslab qolishga, qayta tiklash (o'zgarishsiz qaytarish) bayoniga asoslangan, namuna bo'yicha ta'lim berish. Natijada ta'lim oluvchilarni sustkashlikka, nutq faoliyati bo'shishigacha olib keladi	Muammolarni izlash, bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarni yaratish, faol bilishning ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga asoslangan faol ta'lim berish usullari
5. Ta'lim berish vositalari	
Ta'lim beruvchi so'zlari, ko'rgazmali va texnik vositalar. Murakkab (texnik) tilda yozilgan o'quv adabiyotlar, shu bois qabul qilishga murakkab; asosan uy vazifasi uchun qo'llaniladi.	An'anaviy vositalar bilan bir qatorda – axborotli texnologiyalar. O'quv materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil izlash uchun ishlatiladi
6. Ta'lim berishni tashkillashtirish shakllari	
Ommaviy ta'lim berish: ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan ajralgan munosabatda; mustaqillikning etishmasligi Ta'lim beruvchi faqat pedagogik faoliyatni rejalashtiradi	Maqsadni belgilash: yakuniy o'quv natijalarining mezonli cheklanuvchidek, tashhisiy belgilangan maqsadlarni kafolatli erishishga yo'naltirish; olingan natijalar sifatini o'lchashning mezon va ko'rsatmalari mavjud Nafaqat bashorat qiladi, balki pedagogik faoliyatni loyihalaydi va rejalashtiradi, shu

<p>O'zlashtirilgan BMK nazorati</p> <p>(4) Miqdoriy baho - baholash-majburiylik vositasi hisoblanadi, ta'lim beruvchini ta'lim oluvchi ustidan xukmronlik quroli bo'lib xizmat qiladi: ta'lim oluvchi faoliyatini yakuniy tahlili va baholanishi.</p>	<p>bilan birga o'quv faoliyatining mazmuni va tuzilishini ishlab chiqadi, ta'lim oluvchilarni mustaqil o'quv - bilish faoliyatlarini bashorat qilayotganlarida, rejalashtirayotganlarida va tashkillashtirayotganlarida ularning tashabbuslarini oshiradi va qo'llab-quvvatlaydi</p> <p>Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan ta'lim jarayonini o'quv diologidek tuzadi; ularda mustaqillikka intilishni rivojlantirish uchun, o'zi mustaqil ta'lim olishga tayyorgarlik, o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini amalga oshirish va o'z-o'zini taqdim eta olish qobiliyatlari uchun sharoit yaratadi. Nafaqat BMK nazorati, balki ta'lim berilganlik, rivojlanish, tarbiyalanganlikning monitoringi</p> <p>(4) Ta'lim beruvchi umumiy natijani baholaydi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlikdagi mehnatlarini tahlil qiladi: ko'zlanayotgan natijalarga nima uchun erishilmadi yoki qisman erishildi.</p>
---	--


Pedagogik texnologiyaning farqli xussiyatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ***o'quv jarayonning qayta takrorlanish imkoniyati;***
- ***uzluksiz teskari aloqani ta'minlash, o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish o'rgatuvchi sikllarning mavjudligi;***
- ***o'qitish natijalarini rejalashtirish va unga erishishni kafolatlaydi.***

Hozirgi zamon an'anaviy ta'limining afzalliklari va kamchiliklari Ta'lim turlari

An'anaviy ta'lim		Noan'anaviy ta'lim
Xulosa		


Shu o'rinda an'anaviy ta'lim usulining kamchiliklaridan yana biri bu ta'lim oluvchining shaxsiy, hayotiy tajribalarini inobatga olmasdan ta'lim berilishi ekanligi. Bunday ta'lim tizimida ta'lim beruvchining o'quv axborotlari ta'lim oluvchining hayotiy tajribalari bilan bog'lanmaydi. Natijada «ma'lumot, ma'lumot uchun» holati yuzaga chiqadi, qolaversa ta'lim oluvchi o'zining hayotiy tajribalarini o'quv materiali bilan bog'lay olmasa, tabiiyki, uning ijodiy tafakkuri rivojlanmaydi. Oqibatda jamiyat uchun zarur shaxslarni kamol toptirish masalasi zayflashib qoladi.



1-sxema. Materiallar qatlamlarini rivojlantirish zaruriyati modeli¹

¹ Tessmer, M. and Wedman, J. F. (1990). A layers-of-necessity instructional development model. Educational Technology Research and Development, 38(2), 77-85.

Shunday qilib, biz yuqorida an'anaviy ta'lim usuli bo'yicha ta'lim berishning bilim oluvchiga ta'sirini uning psixologik va pedagogik jihatlarini, bu ta'sirda kuzatiladigan psixologik ziddiyatlarni tahlil qilib chiqdik. E'tibor berilsa, an'anaviy ta'lim usulidan foydalanilganda uchraydigan asosiy kamchilik – bu ta'lim oluvchi ijodiy tafakkurining rivojlanmay qolishi kamchiligidir.



2-sxema. Baholash va qayta tekshirish modeli¹

Demak, an'anaviy ta'lim usulidan o'zga, hech bo'lmaganda, ta'lim oluvchini shunchaki tinglovchi roldan faol ishtirokchi roliga olib chiqish bilan ustuvorlikka ega bo'ladigan ta'lim usulini yaratish – bu davr talabi. Shu davr talabining ta'sirida pedagogik usullar (texnologiyalar) yaratish ustida ko'pgina olimlarimiz tadqiqotlar olib bormoqdalar, buning natijasida «ta'lim-tarbiya» deb ataladigan tizimni yangi, nisbatan samaraliroq bosqichga ko'taradigan, talabalar aqliy taraqqiyotini jadallashtiruvchi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqila boshlandi.

¹ Tessmer, M. and Wedman, J. F. (1990). A layers-of-necessity instructional development model. Educational Technology Research and Development, 38(2), 77-85.

3.3. Ta'limning noan'anaviy usullari

Pedagogik texnologiyalarning ta'limning boshqa barcha usullaridan farqi shundaki, ular talabalar hamda talabalarda ta'limiy qiziqish va motivatsiyani uyg'otish hisobiga nisbiy samarali ta'lim olishga yordam beradi. Ularning tarkibiga tezlashgan ta'lim metodikalari, guruhiy ta'lim metodikalari, ta'lim beruvchi o'yinlar va hokazolar kiradi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'lami kengaydi hatto boshqa sohalarga ham ko'chdi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida o'tkaziladigan treninglar. Shuningdek ishbilarmonlik o'yinlari yordamida hodimlarning ma'lum sifatlari va malakalari shakllantiriladi. Tibbiyot sohasida ba'zi ruhiy xastaliklarni davolashda ham bir qancha psixologik treninglar qo'llanilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, pedagogik va psixologik texnologiyalar 3 ta funksiyani bajaradi.

Instrumental funksiya. Bunda ta'lim sub'ektlarida ma'lum ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Gnostik funksiya. Bunda o'quv faoliyati qatnashchilarida bilimlar shakllantiriladi va talaba hamda talabalarning tafakkuri rivojlantiriladi.

Ijtimoiy-psixologik funksiya. Bunda talabalarda ma'lum ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar rivojlantiriladi. Masalan, kommunikativ ko'nikmalar shakllantiriladi.

Har bir funksiyaga mos holda ma'lum texnologiyalar qo'llaniladi: instrumental funksiya uchun o'yin mashqlari, gnostik funksiya uchun didaktik texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik funksiya uchun rolli o'yinlar qo'llaniladi [2].

Biz yuqorida pedagogik texnologiyalarni qisqacha tahlil qildik. Endi bevosita pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lish tarixiga oid materiallarni tahlil qilamiz.

Ma'lumki, biz pedagogik texnologiyalarning paydo bo'lishi haqida mulohaza yuritishdan oldin ularning kelib chiqishi bevosita muammoli ta'lim bilan bog'liqligini ta'kidlamoqchimiz. Muammoli ta'lim ta'limning inson tafakkurini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat ekanligi sababli yuzaga keldi.

Pedagogik psixologiya tarixida ta'lim oluvchida savolga javob qaytarishga qiynaladigan, o'ylashga majbur qiladigan ta'lim usulini ilk bor Suqrotida, Pifagor maktabi saboqlarida, tasavvuf ahllarida kuzatiladi.

Ta'limni faollashtirish, talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga bog'lash orqali ularni fikr yuritishga, tafakkurini ishlatishga jalb qilish zarur degan g'oyalarni J.J.Russo, I.G.Pestolossi singari mutafakkirlarning asarlarida uchratish mumkin. Ularning asarlarida qotib qolgan, yodlashdan nariga o'tmaydigan eski ta'lim usullaridan voz kechib, ta'limning «faol» usullariga o'tish targ'ib qilinganligining guvohi bo'lamiz [26].

Talabalar aqliy faoliyatini faollashtirish usullarini ishlab chiqish XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Dars jarayonida alohida o'quv metodlarini qo'llash orqali talabalarni aqliy jihatdan rivojlantirishga harakat qilish natijasi o'laroq quyidagi ta'lim usullari vujudga kelgan:

- a) evristik usul (G.Armstrong);
- b) tajribaviy-evristik usul (A.Ya.Gerd);
- v) laboratoriyali-evristik usul (F.L.Vintergalter);
- g) laboratoriyali dars usuli (K.P.Yagodovskiy);
- d) tabiiy-ilmiy ta'lim (A.P.Pinkevich) va hokazolar.

Yuqorida sanab o'tilgan ta'lim usullarini B.E.Raykov ularning mohiyati o'xshash bo'lganligi sababli umumlashtirgan holda «tadqiqot metodlari» deb nomlaydi. Aniqroq qilib aytganda, talabalarni amaliy faoliyatga undaydigan, talabalar aqliy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladigan ta'limning mazkur «tadqiqot metodlari» an'anaviy ta'lim usulining o'ziga xos turi bo'ldi. Tabiiyki, mazkur ta'lim usullarini amaliyotda qo'llanilishi maktabda talabalarda o'qishga qiziqishini orttirib yuboradi; ularga o'zlari mustaqil holda «kichik kashfiyotlar» qilayotganligi quvonch tuyg'usini beradi, eng muhimi, ularda mustaqil bilishni kuchaytirish evaziga ijobiy faollikni, aqliy rivojlanishni yuksaltiradi. Tarixan, mazkur ta'lim usullari o'qitish jarayoniga XX asrning 30-yillariga kelib keng qo'llanila boshlandi. Biroq shu davrga kelib, u keskin tanqid ostiga ham olindi. Tanqidchilarning fikricha, bilimlar tizimini shakllantirish uchun ta'lim jarayonida o'quv predmetining mantig'iga putur etar ekan. Shuning uchun ular bir ovozdan eski ta'lim usulini qo'llash tarafdorlari bo'lib qolaverishdi. Biroq tayyor, qotib qolgan bilimlarni yodlatishga yo'naltirilgan ta'lim tizimidan voz kechish zarurati bunga o'xshagan olimlarning fikrini tan olmaslik, o'quv jarayonini faollashtirish usullarini topishga intilishni vujudga keltirdi.

Ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatiga ko'ra ta'limning quyidagicha metodlari ajratilgan:

1) Tushuntiruv ko'rsatmalilik metodi – bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan oshirilib boriladi. O'quvchilar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar.

Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, uni takomillashtirilgan usullari mavjud, bu – programmalashtirilgan ta'limdir.

2) Reproaktiv metodda o'quvchi faoliyati ko'psatib, unda o'quvchiga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3) Muammoli ta'lim metodi – o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o'quvchi bilim va malakani shakillantiradi. Ushbu metodni takomillashtirish yo'llaridan biri ishchan o'yinlarni tashkitl etishdan iboratdir.

4) Qisman izlanish metodi – o'qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u produktiv xarakterga ega, bunda o'quvchi ijod qiladi.

5) Tadqiqot metodi – O'qituvchi ilmiy yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u o'quvchining mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilismlar transformatsiyasini talab etadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning o'ziga xos metodlaridan biri ishchan o'yinlardir. Ishchan o'yinlar munosabatlar sistemasini modellashtirish, faoliyati xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.


Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonining "yaxlitligi" "tizimlilik" va "majmuaviyligi"ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, ta'lim jarayonining yaxlitligi uning tizimlilik bilan uzviy bog'liq.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Rivojlantiruvchi ta'limning maqsad va vazifalari

Bugungi zamonaviy ta'limning asosini tashkil etayotgan rivojlantiruvchi ta'limda shaxs o'qitishning diqqat markazida bo'lib, shunga binoan, ta'lim maqsadi, mazmuni va shakllari o'quvchiga, uning shaxsiga qaratilganligi bilan o'zgacha mazmun kasb etadi. Bu ta'limning **maqsadi** mazmunida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari asosiy ko'rsatkichlar sifatida qabul qilinib, ushbu jihatlar bo'lajak mutaxassis shaxsida kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish bilan birga, o'quv topshiriqlari, ularni tahlil etish va yechish borasidagi zaruriy ko'nikma hisoblangan ijodiy tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish

Didaktika ta'lim jarayonining quyidagi uchta funksiyasini ajratib ko'rsatadi: **ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.**



Ta'lim jarayoni tuzilishining andozasi

Ta'lim berish funksiyasi ta'lim jarayonining o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Ta'lim natijasi sifatida bilimlarining to'laligi, chuqurligi, tizimlili, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ko'rsatadi. Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutqi rivojlanishi, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy va ehtiyoj-sababli sohalari rivojlanadi.


Ta'limning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganligi "rivojlantiruvchi ta'lim" tushunchasi bilan ifoladanali. XX asr 60-yillaridan boshlab rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishga nisbatan turli yondoshuvlar yuzaga keldi.

Tarbiyalash funksiyasi. Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyati turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Tarbiyalash funksiyasi ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish jarayonida etakchi o'rin tutadi.

O'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari)da tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- rejalashtirish;
- tashkil etish;
- boshqarish (rag'batlantirish);
- nazorat;
- natijalarni baholash va tahlil qilish.



Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy tamoyillaridan biri o'qitishda ko'proq axborot shaklidan ilmiy izlanish, o'quvchilarning mustaqil ishlari, imkoniyatlaridan keng foydalanish asosida o'qitishning faol metod va shakllariga o'tishni, boshqacha qilib aytganda, "qayta takrorlash"dan "tushunish, fikrlash"ga o'tishni ko'zda tutadi. Bu o'zgarishlarni:

- mavjud ta'lim mazmunini modernizatsiyalash;
- uning tashkiliy shakllariga nisbatan texnologik yondashuvni shakllantirish;
- ta'lim oluvchi shaxsining individualligi, o'ziga xosligi va ehtiyojlari doirasidan kelib chiqib o'kitishni tashkil etishga xizmat qiluvchi yangicha ta'lim shakllari tizimini yaratish tamoyillari tashkil etadi.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

Bilimlarni egallash bosqichlari

Xulosa

Ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchi uchun bilimlar, malakalar va ko'nikmalar tashkil qilinadi va unga uzatiladi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagogika fanida maxsus ta'lim usullari mavjud: an'anaviy ta'lim berish usuli, pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim berish usuli, dasturlashtirilgan ta'lim berish usuli. An'anaviy ta'lim usulidagi ta'lim oluvchini passiv tinglovchi roldan aktiv ishtirokchi rolga olib chiqadigan, aqliy taraqqiyotni tezlashtiradigan pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilish zaruriyati paydo bo'ldi. Pedagogik texnologiyalar talabalarda ta'limga nisbatan qiziqish va motivatsiyani oshirish hisobiga nisbatan samaraliroq ta'lim olishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar uchta funksiyani bajaradi: a) instrumental funksiya (ma'lum ko'nikma va malakalar shakllantiriladi); b) gnostik funksiya (bilimlar shakllantiriladi va ta'lim oluvchining tafakkuri rivojlantiriladi); v) ijtimoiy-psixologik funksiya (ma'lum ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar, masalan, kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi). Har bir funksiyaga mos holda ma'lum texnologiyalar qo'llaniladi: instrumental funksiya uchun o'yin mashqlari qo'llaniladi; gnostik funksiya uchun didaktik texnologiyalar qo'llaniladi; ijtimoiy psixologik funksiya uchun rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Pedagogik texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi asosida psixologiyaning quyidagi qoidalari yotadi: a) tafakkur jarayonining asosida noaniqlik, muammoli vaziyatlar yotadi; b) agar biz muammolarni hal qiladigan, noaniqliklarni aniqlashtiradigan tafakkurni muammoli tafakkur deb hisoblasak, bu tafakkur usulining asosida birinchi navbatda muammoni hal etish jarayoni yotadi; v) aqliy taraqqiyotning asosida doimo muammoni hal etish yo'li bilan, mustaqil fikr yuritish orqali masalaga tanqidiy yondosha bilish yordamida yangi bilimlarni o'zlashtirish yotadi; g) aqliy taraqqiyot qonuniyatlari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirish qonuniyatlari aksariyat hollarda bir-biriga mos keladi. Pedagogik texnologiyalarni o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan va ta'lim oluvchilarga beriladigan topshiriqlar uchta muhim jabhaga ega bo'ladi: a) yangi noma'lum munosabatlarga nisbatan bilish ehtiyojining paydo bo'lishiga zaruriyat; b) paydo bo'lgan noaniqlikning aniqlashtirishdagi

xatti-harakatlar, ishlar, amallar zaruriyati; v) ta'lim oluvchilarning mazkur topshiriqlarni hal etishga nisbatan imkoniyatlarining borligi zaruriyati.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida qo'llanilishiga ko'ra bir qancha tiplarga ajratiladi: a) pedagogik texnologiyalarga talabalarda eski bilimlar tizimi bilan davrning yangi talablari o'rtasida nomunosiblik paydo bo'lganda zarurat tug'iladi; b) pedagogik texnologiyalarni talabalarning yangi amaliy shart-sharoitlar bilan to'qnash kelganida va ulardagi nazariy bilimlarning etarli emasligida ta'lim tizimiga qo'llash taqozo qilinadi; v) pedagogik texnologiyalar insonning nafaqat bilish jarayonlariga, balki shaxsiga ta'sir qilish imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi va jamiyatimiz uchun muhimroq ta'lim usullaridan biri hisoblanadi.

TA'LIMNING FANGA YO'NALTIRILGAN TEXNOLOGIYASI

4.1. Ta'lim texnologiyalarning ilmiy asoslari

«Pedagogik texnologiyalar» konsepsiyasiga o'zining ma'lum hissasini qo'shgan va «to'liq o'zlashtirish» texnologiyasini ishlab chiqqan amerikalik psixologlar Dj.Kerrol va B.Blumlarining olib borgan tadqiqotlariga e'tibor qaratiladi. Barcha talabalarni hamma narsaga o'rgatish mumkinmi?» – degan savol maktab bitiruvchilari uchun majburiy bo'lgan umumta'lim minimumi masalasiga borib taqaladi. Ma'lumki, barcha talabalarga berilgan hamma uchun bir xil bo'lgan ta'lim mazmuni talabalar tomonidan har xil qabul qilinadi. Natijada talabalarning o'zlashtirish darajalarida har xillik kuzatiladi.

Qizig'i shundaki, talabalarning asosiy qismi talab qilingan ko'rsatkichdan sal kamroq bo'ladi («qoniqarli» baho olganlar). Tabiiyki, o'z-o'zidan savol tug'iladi: o'zlashtirish darajalaridagi bunday har xillikning oldini qanday qilib olish mumkin? Jahon tajribasidan ma'lumki, bu masala ikki xil yo'l bilan hal qilinadi: birinchisi – o'zlashtira olmayotgan talabalarni keyingi yilga qoldirish va ularni ta'limning barcha yillik siklini qaytadan takrorlashga majbur qilish; ikkinchisi – aqliy rivojlanishi ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil darajadagi talabalarni (gemogen tengdoshlarni) bir guruhda o'qitish. Ochig'ini aytganda, bu majburiy chora, aniqrog'i maktabning chorasizligi, xolos. Barcha talabalar etarli darajadagi yuksak natijalarga etkazib o'qitish zarurati psixologlar va pedagoglar oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Aynan mana shu vazifani hal etish oqibati o'laroq «to'liq o'zlashtirish» texnologiyasi dunyoga keladi. Mazkur texnologiyaning ijodkorlari amerikalik psixologlar Dj.Kerrol va B.Blumlar quyidagi fikrni ilgari suradilar. Talabalarni o'zlashtirish darajalarining har xilligi odatda ulardagi ta'lim olishga nisbatan qobiliyat ko'rsatkichlarining har xilligi bilan belgilanadi. Biroq Dj.Kerrol shu narsaga e'tiborini qaratdiki, an'anaviy ta'lim usulida har doim ta'lim shart-sharoitlarning o'lchovlari qayd qilinishi (barcha uchun bir xil bo'lgan o'quv vaqti, ma'lumot uzatish usuli va hokazo) olimning fikriga ko'ra, bu o'rinda bitta parametr qayd

qilinmasdan qolinmoqda. Bu – ta'limning natijalari. Shunda Dj.Kerrol ta'limning natijalarini doimo qayd qilinadigan parametruga aylantirib qo'yishni taklif qildi. Shunda, uning fikricha, vaziyat butunlay o'zgarishi kuzatiladi. O'qituvchilar ham so'ngi natijaga qarab darslarini o'tishi, ya'ni «talabalar berilgan topshiriqlarni bajaryaptimi yoki yo'qmi, ko'zda tutilgan bilim va malakalar egallandimi yoki yo'qmi degan fikr muhim hisoblanadi.

Bu nazariy yondashuv keyinchalik B.Blum tomonidan rivojlantirildi. Blumning tahlil qilishicha, talabaning qobiliyati uning o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati bilan o'lchanadi. Biroq bu sur'at hamma uchun o'rtacha ko'rinishga kelgan sharoitda emas, balki mazkur talaba uchun optimal tanlangan sharoitda o'rnatildi. Muallif talabalarning qobiliyatini ularning o'quv materialini o'zlashtirishlari uchun cheklanmagan vaqt berilgan sharoitda o'rgandi. Shunda talabalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish imkoniyati yuzaga keldi:

-qobiliyati zaif talabalar. Ular hatto o'quv materiallarini o'zlashtirishi uchun ko'nikma va bilimlarini egallashlari uchun etarli darajada muddat berilganda ham vazifani bajarishni uddalay olmaydilar.

-iqtidorli talabalar (taxminan 5%). Ularda o'quv materiallarini o'zlashtirish sur'ati yuqori bo'ladi va ular har qanday o'quv topshirig'ini yuqori tempda bajaradilar. Bunday talabalar jami kontingentning qariyb 90%ini qamrab oladi, ularning bilim va malakalarini egallashga nisbatan qobiliyatlari o'zlashtirish uchun sarf qilingan o'quv muddatiga bog'liq .

Bu tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar asosida olim o'z g'oyasini shakllantiradi va bu holat u yaratgan «to'liq o'zlashtirish texnologiyasi»ning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Olimning fikriga ko'ra, ta'lim jarayoni to'g'ri tashkil etilganda, ayniqsa qat'iy vaqt chegaralari olib tashlanganda 50 % talabalar ta'lim jarayonida uzatilayotgan o'quv materiali mazmunini to'liq o'zlashtirib olishi mumkin. Qolgan 50 % talabalarda o'zlashtirish darajasi quyi bo'ladi.

E'tibor qilinsa, an'anaviy dars berishda quyi samaradorlikka ega bo'lganlar 90% ni tashkil etishsa, talabalarga ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallash uchun qo'shimcha muddat berilganda ularning 50 %ida samarali o'zlashtirish kuzatiladi. Demak, an'anaviy ta'lim usulidan

farqli o'laroq ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyani jalb etish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligi oshiriladi [4].

Dj.Kerrol va B.Blumlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar asosida ularning izdoshlari Dj.Blok va L.Andersonlar pedagogik texnologiyalardan biri – to'liq o'zlashtirish asosidagi ta'lim texnologiyasini yaratishdi.

Shunday qilib, yuqorida pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyatiga, ularning psixologik tuzilishiga, shaxs psixologiyasiga, ta'siri masalasida xorijdagi ilmiy psixologik yo'nalishlarning ba'zi qarashlariga to'xtalib o'tildi. Ta'kidlanishicha, shu o'rinda V.P.Bespalko tomonidan umumlashtirilgan jadvalga e'tiborni qaratishni maqsadga muvofiqdir [5].


1-rasm. O'zlashtirish nazariyalarining klassifikatsion tasviri

XX asrning 70-80-yillariga kelib angliyalik psixolog E.De.Bono pedagogik texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishi tarafdori bo'lib chiqdi va o'z tadqiqotlarida ularning ta'lim oluvchilar aqliy taraqqiyotiga ta'sirini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, ta'lim oluvchida tafakkur jarayonini uyg'otmaydigan ta'lim har doim kutilgan natija bermaydigan ta'lim hisoblanadi.

Ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida ta'lim oluvchining emotsional sohasiga ta'sir etuvchi pedagogik texnologiyalar samarali hisoblanadi.

Ma'lumki, his-tuyg'ular, shuningdek, emotsional holatlari (emotsional ton, kayfiyat, shijoat, ehtiros va boshqalar) shaxsning ta'lim olishga nisbatan intilishini, sa'yi-harakatlarini kuchaytiradi, jadallashtiradi, safarbarlikni ob'ektga yo'naltiradi.

Quyidagi 1-rasmda hozirgi zamon pedagogik psixologiya fanida nisbatan mashhur bo'lgan o'zlashtirish nazariyalarining klassifikatsion sxemasi o'z ifodasini topgan. Ularning (yuqorida bazi nazariyalar qisqacha tahlil qilib chiqildi) qiyoslanishi insonni o'quv-bilish faoliyatining umumiy tuzilishini yaratish uchun asos bo'ladi. O'zlashtirishning turli xil nazariyalari va gipotezalari kontekstida tushuntiriladigan hamda mashqlarining ketma-ketlik tizimi ko'rinishida tatbiq etiladigan o'quv faoliyatining umumiy formulasi mazkur nazariya ichida faoliyat algoritmini tashkil toptiradi.



4.2. To'la o'qitish konsepsiyasi va qayta takrorlanadigan o'qitish sikli tarkibi va tuzilmasi

Texnologik jarayon ishlab chiqarilgan texnologik hujjatlar asosida amalga oshiriladi, bu hujjatlarning asosiy tarkibiy qismi esa texnologik xaritalar hisoblanadi. Texnologik hujjatlar, qayta takrorlanadigan ishlab chiqarish siklining qancha mahsulot kerak bo'lsa, uni shuncha marta amalga oshirish imkonini beradi.

Shunga o'xshash, pedagogik texnologiya doirasida qayta takrorlanadigan o'qitish siklini amalga oshirish uchun, uning yakunlovchi bosqichida pedagogik-texnologik xaritalar ishlab chiqiladi. Uning asosida o'qitish jarayonini bir necha marta tashkil etish mumkin, ya'ni qayta takrorlanadigan o'qitish siklini ro'yobga chiqarish mumkin. Pedagogik texnologik xaritalar, pedagogik texnologiyani ko'p nusxada ko'paytirishga va o'quv yurtining qaerda joylashganligidan qat'iy nazar ko'zlangan o'qitish natijalariga erishishga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologik xarakterlarning shakli va mazmuni – jadvalda keltirilgan.

Pedagogik texnologik xarita har bir mavzu modul uchun alohida tuziladi. Ularning majmuasi pedagogik texnologik xaritalar albomini tashkil etadi.


Pedagogik texnologik xarita – pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanadigan o'qitish siklini tashkil etuvchi hujjatlaridan biridir.

Qayta takrorlanadigan o'qitish sikli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi (2-rasm):

O'quv fanining umumiy maqsadini o'rnatish. O'quv rejadagi har bir fan mutaxassisning shakllanishi uchun ma'lum bir maqsadga ega. Bu maqsad aniq ifodalanishi va fanni o'rganishdan oldin har bir talabaga etkazilgan bo'lishi kerak.

Har bir mavzuni o'zlashtirishi uning o'rganishdagi o'quv maqsadini to'g'ri qo'yilishiga bog'liq. O'quv fanini to'la o'rganishdagi mavzuning ahamiyati o'quv maqsadi toifasini belgilaydi.

Dars boshlanishida o'quv maqsadi, uning boshqa mavzular bilan, mutaxassisning kelajakdagi amaliy faoliyati bilan bog'liqligi talabalarga etkaziladigan bo'lishi kerak.



Rasm 2. Pedagogik texnologiyada qayta takrorlanadigan o'qitish siklining tuzilmasi

Har bir mavzu (bo'lim va modul) bo'yicha tayanch iboralarni aniqlash (1 jadval). Pedagogik texnologiyada o'qitishning moduli tizimini qo'llash samaralidir, u fanning bir yoki bir necha fundamental tayanch iboralarini qamrab olgan axborotning tugallangan bloklariga tayanadi.

4.3. Blum taksonomiyasi



Benjamin Blum (1913-1999) Amerikalik psixolog-pedagog Blum taksonomiyasi asoschisi. 1956 yilda Bendjamin Blum ta'lim ruhshunoslardan iborat bo'lgan guruhni boshqargan. Bu guruh o'rganish jarayonida muhim bo'lgan aqliy darajalar ketma ketligini tasniflash jarayonini rivojlantirgan.

Blum Taksonomiyasi - Bloom's Taxonomy¹ – bilish va emotsional sohalari kiradi.

O'tgan asrda B. Blum boshchiligidagi ekspertlar guruhi o'qish maqsadining eng mashhur tasniflaridan birini – “Blum taksonomiyasini” – ishlab chiqdi. Ushbu tasnif, turli o'quv dasturlarining mualliflari etishishga intilgan maqsadlarni bir-biri bilan taqqoslash uchun asos sifatida xizmat qilishi kerak edi. Blum taksonomiyasida barcha aqlga to'g'ri keladigan o'qish maqsadlari uch bir-biri bilan kesishmaydigan doiralarga bo'lingan:

- bilish (Cognitive Domain);
- emotsional (Affective Domain);
- xarakat (Psychomotor Domain).

Bilish maqsadlari bilim olish va aqliy uquvlikni rivojlantirish bilan bog'liq xamma narsa o'z ichiga oladi.

Emotsional maqsadlar o'quvchilarning emotsional o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish bilan bog'liq barcha masalalarni o'z ichiga oladi.

Harakat maqsadlariga xarakat ko'nikmalari va jismoniy chidamlilikni rivojlantirish kiradi.

Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda B.Blumning taksonomiyasiga muvofiq umumiyroq ta'lim maqsadlaridan foylaniladi. “Taksonomiya” tushunchasi ob'ektlarning o'zaro tabiiy ko'inishi asosida ierarxik (ko'p bosqichli) prinsipi bo'yicha joylashgan ob'ektlar kategoriyasi bayonini o'z ichiga oluvchi ob'ektlar tasnifi va tizimlanishini ifodalaydi. Taksonomiya – ob'ektlarni – ularni tabiiy bog'lanishlari asosida tasniflash va tizimlashtirishni bildiradi.

¹Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10 p

1956 yilda Bendjamin Blum ta'lim ruhshunoslardan iborat bo'lgan guruhni boshqargan. Bu guruh o'rganish jarayonida muhim bo'lgan aqliy darajalar ketma ketligini tasniflash jarayonini rivojlantirgan. Keyinchalik bu taksonomiya degan nom olgan va uchta bir biri bilan o'zaro qo'shilgan sohalar hisoblangan: bilim sohasi, psixomotor va emotsional sohalar. B.Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan:

B.Blumning bilish sohasida o'quv maqsadlar taksonomiyasi

1-jadval

№	O'quv maqsadlarining asosiy kategoriyalari	tur	Kenja tur xarakteristikalari
1	Bilim. Mazkur kategoriya o'rganilgan materialni xotirada saqlash va xuddi o'ziday qilib qayta aytib berishni ifodalaydi. Gap turli xil mazmun aniq faktlardan tortib to yaxlit nazariyagacha ustida ketayapti. Bu kategoriyani esga, xotiraga keltirishdan iborat.	Faktni bilish, faktlarni tanlash metodlarni bilish. Umumiy tushuncha, struktura, nazariyalarni bilish	Termonologiyani bilish, aniq faktlarni bilish, belgilangan belgilarni bilish. Rivojlanish tendensiyalarini bilish. Guruhlarni bilish, tekshirish va baholash mezonlarini bilish. Aniq muammo bo'yicha mazkur sohada qo'llanilayotgan tadqiqot metodlarini bilish. Hodisalarni tushuntirish va sharhlab berish va ularni oldindan ko'rish, bashorat qilish uchun zarur qonun va prinsiplarini bilish, nazariya va strukturalarini bilish.
2	Tushunish. O'rganilganni ahamiyatini tushunish qobiliyatini ko'rsatgichi sifatida materialni ifodalashni bir shakldan boshqa tilga o'tkazish xizmat qilish mumkin. Tushunishni ko'rsatgichi sifatida o'quvchi tomonidan materialni tushuntirib berish, uni qisqa bayon qila olish yoki voqeani		Mazmunni bir tildan boshqa tilga transfer qilish. Interpretatsiyalash. (izohlash, talqin qilish) Ekstrapolesiya (mazmunni o'xshatish asosida o'tkazish)

	kelgusida qanday kechishi haqida taklif kiritishi xizmat qilishi mumkin. O'quvchining mazkur o'quv natijalari materialni oddiy eslashdan yuqori turadi.		
3	Metod, qoida, umumiy tushunchalarni qo'llash. Bu erda qoida, metod, tushuncha, prinsip, qoidalarni qo'llash kiradi. Tegishli ta'lim natijalari materialni tushunishga nisbatan yuqoriroq darajada uni egallashni talab qiladi.		Metod, qoida, umumiy tushunchalarni qo'llash.
4	Tahlil. Ya'ni butunni elementlarga bo'lishni amalga oshirish ko'nikmasi, ushbu elementlar gradasiyasi va ular orasidagi munosabatlarni o'rnatish, butunni tashkil etish prinsiplarini anglash. Bu erda o'quv natijalari tushunish va qo'llashga nisbatan yuqori intellektual darajaligi bilan xarakterlanadi, chunki o'quv materiali mazmunini ham uning ichki tuzilishini ham anglash talab etiladi.		Elementlar tahlili. Elementlar orasidagi munosabatlar tahlili.
5	Sintez. Ya'ni yangi strukturani olish maqsadida berilgan elementlaridan butun, yaxlitni yaratish. Tegishli natijalar yangi sxema va strukturalarni yaratishga urg'u beruvchi ijodiy xarakterdagi faoliyatni taqozo etadi.		Insho yozish. Faoliyat rejasini ishlab chiqish. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini ko'rinishini yaratish.
6	Baholash. Qabul qilingan maqsadlarni hisobga olib material va metodlarni baholash.		Ichki mezonlar (strukturaviy, mantiqiy) asosida baholash. Tashqi mezonlar asosida baholash (belgilangan maqsadga mos ravishda).

Blum taksonomiyasidagi bilish maqsadlari ierarxiyasining oltita darajasi.

Bilim darajasi (Knowledge Level). Bu eng pastki, boshlang'ich daraja. Bu darajaga tegishli barcha maqsadlar aks ettirish terminlarida

ifoda etiladi. Masalan: “O‘zbekistonning barcha tarixiy shaxarlari aytish”, “Kompyuterni o‘chirish bo‘yicha barcha xarakatlarning ketma-ketligini sanab o‘tish”. Bu erda tinglovchilarni tegishli ma’lumot bilan ular uni qaytara oladigan qilib tanishtirishni o‘zi kifoya.

Tushunish darajasi (Comprehension Level). Keyingi darajani yutug‘ini aks ettirish uchun tinglovchilar o‘rganilayotgan materialni o‘z so‘zlari bilan ifodalab berishi kerak. Taklif qilingan ma’lumotni jamlash, uni o‘z so‘zi bilan ifodalash qobiliyati, tinglovchilar uni o‘zlashtirganidan dalolat beradi (ma’lumotni aks ettirilishi va uni qayta ishlash ro‘y berdi).

Qo‘llash darajasi (Application Level). Ushbu darajada maqsadlar, olingan bilimlarni yangi vaziyatda qo‘llash terminlarida ifoda etiladi (masalan, nostandart masalalarni echishda).

Tahlil darajasi (Analysis Level). Ushbu darajaning maqsadlari, o‘quvchilar o‘rganilayotgan materialni alohida tarkibiy qismlarga bo‘lish va uning ichki tashkilotini tasvirlab bera olishga qobil ekanliklarini nazarda tutadi.


Sintez darajasi (Synthesis Level). Ushbu darajaning maqsadlariga etgach, o‘qitilayotganlar olingan bilimlarni unumli kombinatsiya qilishga, ulardan yangi konstruksiyalar tuzishga qodir bo‘ladilar.

Baholash darajasi (Evaluation Level). Bu eng yuqori, oltinchi daraja, unda o‘qitilayotganlar o‘rganilgan material, o‘rganilgan sohaga oid yangi ma’lumotlar bo‘yicha mazmunli baholash mulohazalarini yuritishadi.

Mazkur o‘quv maqsadlar taksonomiyasi dunyoda eng ko‘p tarqalganlardan biri hisoblanadi. U test topshiriqlarini ishlab chiqaruvchilarga o‘quv materiali elementini mazkur taksonomiyadagi o‘quv maqsadlari kategoriyasini biri bilan bog‘lanishini aniqlashga imkon beradi. Bu esa test topshiriqlari mazmunini izlash sohasini sezilarli darajada toraytiradi va turli variantlarni ishlab chiqish uchun imkoniyatlar yaratadi.

B.Blum taksonomiyasini qo‘llash (identifikatsiyalangan o‘quv maqsadlarini ifodalashda qiyinchilik tug‘ilganda) umumiy o‘quv maqsadlarni shakllantirishga imkon beradi.

BLUM TAKSONOMIYASI



B.Blum taksonomiyasidan foydalanib pedagog faqatgina maqsadni ajratib va aniqlashtirib qolmasdan, balki ularni tartibga keltiradi. Maqsadlarni ierarxik klassifikatsiyasi pedagog amaliyotchi uchun quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir:

- kuchni bosh masalaga to'plash;
- aniq o'quv maqsadlar pedagogga o'quvchilarning umumiy ishida ularga orientirlarni tushuntirishga;
- ularni muhokama qilishga, tushunish uchun oydin qilishga imkon beradi.

B.Blum taksonomiyasini identifikatsiyalangan o'quv maqsadlarini ishlab chiqishni osonlashtirish uchun qo'llash zarur. Bu holda "bilim", "tushunish", "qo'llash", "tahlil", "sintez" va h.k. kategoriyalarda umumiyroq o'quv maqsad aniqlanadi, keyin esa ta'limning kuzatiladigan natijasiga eng ko'p mos keladigan fe'llar tanlab olinadi. Yangi pedagogik ta'lim bugungi kunda barcha o'quv yurtlari bitirib chiqarayotgan yoshlar qanday ilmiy bilim, ko'nikma malakalariga ega bo'lishlari bunday o'zlari va jamiyat uchun qanday foyda keltirishlari to'g'risida o'ylashlari, qayg'urishlari tabiiydir. Zero, yangi XXI asrning ilmiy texnikaviy taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlari uchun, balki ma'naviy madaniy, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarida ham muhokamali, ilmiy

axborot, ma'lumotlarga ega bo'lgan, fanni ishlab chiqarish bilan, hayot bilan bog'lab olib borishga qodir shaxslar kerakligini taqozo qilmoqda.

Har bir tayanch iboraning o'quv maqsadini B.Blum pedagogik taksonomiyasi (1-jadval) asosida belgilash. Bu bosqich, pedagogik texnologiyada qayta takrorlanadigan o'qitish sikli uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Fanning u yoki bu tushunchasini o'rganish darajasi, u fanni ta'limning mazkur yo'nalishi uchun ahamiyati orqali aniqlanadi. Ta'lim yo'nalishiga ko'ra, bir tushunchaning o'zi turli o'quv toifalariga kirishi mumkin. Ta'limning bir yo'nalishi uchun bu masalan – bilish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish uchun qo'llash bo'lishi mumkin va h.k.

Shuning uchun matematik va umumtabiiy, umumkasbiy blokka kiruvchi fanlarning tayanch iboralarining o'quv maqsadlari toifasi, mutaxassis chiqaruvchi kafedralar bilan kelishilgan holda o'rnatilishi zarur.

Barcha tayanch iboralar o'quv maqsadlarining yig'indisi, shu fanning o'quv maqsadlari katalogini tashkil etadi.

Har qaysi tayanch ibora, modullar uchun diagnostik testlar ishlab chiqish. Bu testlar talabalarning bilim olishini tashxislash maqsadida, joriy nazorat uchun ishlatiladi. Bilimlarning o'zlashtirilish darajasiga ko'ra, har bir tayanch ibora uchun testlar tuziladi.

O'qitish. Yangi o'quv materialini bayon etish va uni ishlab chiqish, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosida amalga oshirish tavsiya etiladi. Butun o'quv faoliyati, aniq va ravshan ifoda qilingan o'quv maqsadlari asosida quriladi.

O'quv maqsadi toifasiga ko'ra, o'quv materialining birligi, tarkibi, turli xil bo'lishi mumkin.

Test o'tkazish. Joriy test diagnostik xarakterga ega bo'lib teskari aloqa vazifasini o'taydi, Uni o'tkazishdan asosiy maqsad tuzatishlar va qo'shimcha o'quv tadbirlar zaruriyatini aniqlashdan iboratdir.

O'quv maqsadlariga erishilganligini baholash. U joriy test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Test sinovlari natijasiga ko'ra talabalar guruhi ikkiga bo'linadi:

Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishganlar.

Bilim va ko'nikmalarni to'la o'zlashtirishga erishmaganlar.

O'quv materialini to'la o'zlashtirmagan talabalar, o'qituvchi rahbarligida shu materialni o'rganishni davom etadilar. Ular bilan qo'shimcha (tuzatish) o'quv ishlari tashkil etiladi. Testlar natijalari asosida, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi. Kamchiliklarni tuzatish uchun o'quv materialini o'zlashtirmagan talabalarning guruhi bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Materialni takroriy bayon qilishda boshqa yangi usullardan foydalanish lozim: birinchi marta ishlatilmagan ko'rgazma qurollar, va o'qitishning texnik vositalarini ishlatish, individual ishlardan foydalanish zarur. Shu yo'llar bilan o'quv materialining to'la o'zlashtirilishiga erishish lozim. Har qaysi talaba o'quv materialini to'la o'zlashtirish imkoniyatiga ega, chunki u davlat kirish test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgandir.

U oliy ta'lim muassasida o'qishga yaroqlilik tanlovidan o'tgandir. Bilimlarni to'la o'zlashtirilishini ta'minlash muammosida alohida masala bo'lib, o'qitish sur'atlari turadi. Aynan shu bilan talabaning qobiliyati aniqlanadi. Iqtidorli talabalar uchun (ular taxminan 5 % ni tashkil etadi) o'quv materialini o'zlashtirish uchun eng kam vaqt, «o'rtacha» talabalar uchun ulardan ko'ra ko'proq vaqt, «bo'sh» talabalar uchun eng ko'p vaqt zarur bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalariga o'tish dolzarbligi shu bilan asoslanadi. Bunda har bir talaba o'quv materialini davlat ta'lim standartlari talablari darajasida, o'zining tabiiy qobiliyatlari darajasida o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Iqtidorli talabalarda chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni egallashga imkoniyat paydo bo'ladi.

Mavzu (modul) bo'yicha o'quv materialini guruhning barcha talablari tomonidan o'zlashtirilganidan so'ng, keyingi mavzu (modul)ga o'tiladi, ya'ni o'quv jarayoni o'rgatuvchi sikl shakliga ega bo'ladi. O'qitishning modul tizimida, o'rgatuvchi sikllar soni, o'quv fanining modullari soniga teng bo'ladi.

II-BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYASI

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING TURLARI

5.1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining turlari.

Globalashuv sharoitida ta’lim shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim

Bu ta’lim o‘qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta’lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishini ta’minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat

Bu turdagi ta’lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash

qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaslik;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmaslik;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- talabaning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- talabaning shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- pedagog sifatida har bir talabaning hurmati va ishonchini qozona olishi zarur.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim talabani taʼlim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi taʼlim talabalarni oʻz-oʻzini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, oʻzining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini toʻla namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim jarayonida oʻquv materialini oʻzlashtirishga ijodiy, tanqidiy yonashishni, yangi gʻoyalarni ilgari surish, ularni asoslash, oʻz fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimni topish koʻnikma, malakalarini oʻzlashtirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Pedagog tomonidan taʼlim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qoʻllanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada oʻstirishga xizmat qiladi. Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Taʼlim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- oʻquv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini taʼminlash;
- mashgʻulotlarning loyihalashtirilishiga eʼtiborning qaratilishi nafaqat oʻqitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, talabalar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi

Mashgʻulotlarini tashkil etishda pedagoglar oʻquv axborotlarining talabalar bilim, koʻnikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni


qiziqтира oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratishlari zarur.

Eng muhimi pedagoglar o‘quv mashg‘ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo‘lishlariga e’tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto‘g‘ri bo‘lsada, fikr bilirishlari)ga imkon berish, nima bo‘lganda ham ularni o‘ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo‘natirilgan ta’limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Ta’lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yana bir belgisidir:

- ijodiy topshiriqlar;
- kreativ yondashishni taqozo etuvchi vazifalar;
 - muammoli vaziyatlar;
- rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari;
- bahs-munozara, debat;
- musobaqa ko‘rinishidagi bellashuvlar

Ayni vaqtda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi turlari farqlanmoqda (10-rasm):



10-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy turlari

DIDAKTIK O‘YINLI TEXNOLOGIYALAR

6.1. Didaktik o‘yinli texnologiyalar.

Ayni o‘rinda ta’limning innovatsion xarakterga ega ushbu shakllari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

O‘yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi

I. Amaliy o‘yinlar. Dastlab “o‘yin” tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o‘yinlardan samarali foydalanilmoqda.

Amaliy o‘yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar

Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik o‘yinlar” deb yuritiladi.

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin sub’ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanlanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

O‘yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. “Maktabgacha yoshdagi bola o‘yin faoliyatida o‘qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg‘aygan sari

o‘yinning roli biroz kamayib boradi. O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi”¹.

Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi. “O‘yin inson hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi etakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi”².

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi:

- tushuncha, mavzu va alohida bo‘lim mohiyatini o‘zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;
- pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;
- o‘quv mashg‘uloti shakli yoki uning bir qismi sifatida;
- sinf (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri (“Zakovat”, “Bilimon”, “Huquq fani bilimdoni” va b.) sifatida

O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur.

O‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zining hayotda o‘rnini belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish,

¹ Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya / Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas’ul muharrir: A.Majidov. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 432-bet.

² O‘sha manba. – 432-bet.

o'z imkoniyatlarini amalga oshirishan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o'yin jarayonida shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O'quv faoliyatining asosiy motivi – bu o'quv-bilish motivi bo'lsa, o'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa talabada o'zi tanlangan va asoslarini o'zlashtirayotgan kasbga bo'lgan qiziqishi sanaladi. Talaba o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalari, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stiradi. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi.


O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri

O'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (m: ta'lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish talaba (o'quvchi)larga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.

O'quv mashg'ulotlaridan o'yinlar va o'yinli vaziyatlarni qo'llash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- didaktik maqsad talabalar oldiga o‘yinli topshiriq shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysundiriladi;
- didaktik o‘quv materialdan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv faoliyatida didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qo‘llaniladi;
- muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o‘yin natijasi sanaladi

O‘quv jarayonida o‘yin texnologiyalarining o‘rni, roli, shuningdek, o‘yin elementlari hamda ta’limning o‘zaro uyg‘unligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan pedagogik o‘yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o‘yinlar o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi (11-rasm):



11-rasm. Pedagogik o‘yinlarning asosiy belgilari

Har qanday o‘yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o‘yinlar ham o‘zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo‘ladi.

Ta’lim muassasalarida ko‘p holatlarda rolli va kasbiy xarakterga ega ishbilarmonlik o‘yinlari foydalaniladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalarining asosini talabalarning **faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyati** tashkil etadi.

Pedagogik o‘yinlar yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish, mustahkamlash, talabning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy

kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni echishga qaratiladi. Ular yordamida talabalar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mashhur pedagog G.K.Selevko pedagogik o'yinlarni quyidagi tartibda tasniflagan (12-rasm):

Ayni o'rinda o'yin metodikasiga ko'ra guruhlangan o'yin texnologiyalarining mohiyati xususida so'z yuritiladi.

1. Didaktik o'yinlar – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

2. Syujetli o'yinlar – pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o'zaro bog'liqligiga asoslangan o'yinlar sanaladi. Bu kabi o'yinlar odatda pedagogik muammolarning echimini izlash, ta'im-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadida qo'llaniladi.


3. Rolli o'yinlar – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan o'yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Rolli va ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (m: o'quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish talabalarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratsa,

o'quvchilarga ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

4. Ishbilarmonlik o'yinlari – ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka hamda sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar. Bu turdagi o'yinlar ta'lim oluvchilarda aniq faoliyat yo'nalishida zarur BKM va sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Shu jihatdan ishbilarmonlik o'yinlari ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatining modellashtirilishini anglatadi. Ishbilarmonlik o'yini talabalarda kasbiy sifatlarni hosil qilish bilan birga shaxsiy sifatlarni ham tarbiyalaydi, ularning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

5. Imitatsion o'yinlar – ishlab chiqarish korxonalarini, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar. Bu turdagi o'yinlar ssenariyasi, syujetidan tashqari, imitatsiya jarayon, ob'ektlarning tarkibiy tuzilmasi va ahamiyatini to'la ochib berish maqsadida modellashtiriladi. Imitatsion o'yinlar jarayonida ta'lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, m: masalalar echish, ma'lum bir usulni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6. Dramatik o'yinlar (psixologik va ijtimoiy dramalar) – psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar bo'lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariga ko'ra rolli va ishbilarmonlik o'yinlariga yaqin. Odatda psixologik va ijtimoiy xarakterdagi dramatik o'yinlar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo'lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror toptirish, o'zgalarning ruhiy holatini to'g'ri baholash, og'ir vaziyatlarga uch kelgan sub'ektlarga yordam ko'rsatish hamda samarali, unumli faoliyat ko'rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi.



12-rasm. Pedagogik o‘yinlar tipologiyasi (G.K.Selevko)

Barcha o‘yinlarda bo‘lgani kabi pedagogik o‘yinlar jarayonida ham ishtirokchi-talabalar faol holatda bo‘ladi, sheriklari bilan o‘zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o‘z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o‘rnatish orqali o‘zini o‘zi o‘rganadi.

Pedagogik jarayonda o‘yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e‘tibor qaratish lozim. Jumladan:

- o‘yin ssenariysini tayyorlash;
- yo‘riqnomalar tuzish;
- auditorivani o‘yin mohivatiiga muvofiq iihozlash

Ssenariy va uning mohiyati muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan ssenariygina tegishli ta‘lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish imkoniyatini ta‘minlaydi. O‘qituvchilar o‘yin ssenariylarini tayyorlashga alohida e‘tibor qaratishlari, ssenariyni tayyorlash malakasiga ega bo‘lishlari zarur.

Pedagogik xarakterdagi o‘yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- o‘quv maqsadi;
- o‘yinning vazifasi;
- o‘rganiladigan muammo tafsiloti;
- o‘yin vaziyatining tafsiloti;
- ishtirokchilarning tasnifi

Ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalari qo‘llash quyidagilarga asoslanadi:

- guruhni shakllantirish;
- mashg‘ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- muammoli vaziyatni vujudga keltirish;
- rollarni taqsimlash,
- o‘yin reglamentini o‘rnatish;
- materiallar, yo‘riqnomalar, qoidalar va ko‘rsatmalar to‘plamini tarqatish;
- maslahat berish

O‘yin texnologiyalarini qo‘llashda rollar qur‘a tashlash yo‘li bilan taqsimlanadi. Bunda rollar nomi yozilgan kichik qog‘ozchalarda foydalanish mumkin. Rollarning talabalar o‘rtasida qur‘a asosida taqsimlanishi kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan noroziliklarning oldini oladi. O‘yin jarayonida belgilangan vaqt (reglament)ga, muloqot odobiga rioya etish, faollik ko‘rsatish hamda o‘yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta‘minlaydi:

- o‘yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;
- o‘yin maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri, aniq belgilanishi;
- o‘yin qoidalarining aniq, lo‘nda (8-10 tagacha) ifodalanishi;
- o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi;
- talabalarning o‘yin jarayoniga qiziqishlari;
- rollarning samarali, to‘g‘ri taqsimlanishi;
- jamoada ko‘tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;
- ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari;
- har ishtirokchining o‘yin natijasi uchun mas’uliyatni his etishi;
- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilishi

O‘yin jarayonida hech kim halaqit qilmasligi kerak. Bordiyu, zaruriyat bo‘lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarning harakatlarini tuzatishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin.

Har qanday jarayon singari o‘yin yakunida uning tashkil etilishi, o‘tkazilishi yuzasidan muhokama o‘tkazilishi zarur. Muhokama chog‘ida o‘yin ishtirokchilari, tomoshabin (jamoaning o‘yina ishtirok etmagan a‘zolari), ekspertlar o‘yinning tashkil etilishi va o‘tkazilishi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalari, takliflarini bildiradi.


Pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinlar quyidagi texnologiyaga ega (13-rasm):

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- taqrizchilarni chiqishlari;
- fikrlar almashinuvi;
- ishtirokchilarning o‘z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;
- o‘yinga yakun yasash

O‘yin texnologiyalarining metodik ta‘minoti loyiha, o‘yinning mezonlari, ish qog‘ozlari (metodik ko‘rsatmalar), o‘yin mohiyatini yorituvchi hujjatlar (ssenariy) kabilardan iborat. Pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan o‘yinlar sub’ekt faoliyatini taqozo etadigan hamda mashina (m: kompyuter) o‘yinlari tarzda farqlanadi. O‘yinlar chog‘ida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajyorlar, sport anjomlari (koptok, arqon, halqa), xomashyolar (plastlin, yumshoq o‘yinchoqlarni yasash

uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog'ozlari, o'yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va b. kerak bo'ladi.



13-rasm. Pedagogik o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi


6.2. Muammoli o'qitish texnologiyasi

Muammoli ta'lim – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim

Muammoli o'qitish takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarali o'qitish texnologiyasi muammoli ta'limdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli ta'lim ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Bu turdagi ta'limning ilk g'oyalari amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui (1859-1952 yy.) tomonidan asoslangan. U 1894 yilda Chikagoda

o‘qitish o‘quv rejasi bo‘yicha emas, balki o‘yin va mehnat asosida olib boriladigan tajriba maktabini tashkil etgan.



14-rasm. Muammoli ta'limning asosi bo'lgan yo'nalishlar


J.Dyui muammoli ta'lim asosi sifatida quyidagi yo'nalishlarni belgilagan (14-rasm):

Muallif ko'rsatilgan yo'nalishlarda ta'limni tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalangan:

- 1) so‘z; san’at asarlari; texnik qurilmalar;
- 2) o‘yinlar; mehnat

O‘tgan asrning 60-yillarida muammoli ta'lim L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner kabi tadqiqotchilarning qarashlari negizida yanada rivojlangan. S.L.Rubinshteynning “Tafakkur muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oyasi muammoli ta'limning psixologik asosi sifatida qabul qilingan.

Muammoli ta'limning bir necha turlari mavjud. M: M.N.Skatkin o‘z ishlarida muammoli ta'limning quyidagi turlari borligiga urg‘u beradi (15-rasm):



15-rasm. Muammoli ta'limining asosiy turlari

Muammoli ta'limning asosini **muammo** (yun. “to‘siq”, “qiyinchilik”) yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli TT ularning echimini topishga xizmat qiladi. Ko‘p holatlarda muammo va

muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular birbiridan farq qiladi.

Muammo (yunon. “to‘siq”, “qiyinchilik”, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala

Mohiyatiga ko‘ra muammo uni keltirib chiqargan sabablarni o‘rganish, uni hal etishda ahamiyatli, samarali bo‘lgan yo‘l, metod va vositalarni izlash, ularning samarali ekanligini asoslovchi dalillarni to‘plash, dalillarni yangicha, yangi tahlitda izohlash asosida hal qilinadi.

Pedagogika sohasida ko‘p holatlarda “muammo” tushunchasi tashkiliy- pedagogik, psixologik, ta‘limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi:

- didaktik xarakterdagi muammo;
- amaliy xarakterdagi muammo;
- ilmiy-metodik xarakterdagi muammo;
- sof ilmiy xarakterdagi muammo

Ma‘lum bilimlar, noma‘lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi.


Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma‘lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala

Ta‘lim jarayonida muammoni qo‘yish bir necha sathda kechadi. Ular (3-jadval):

3-jadvali. Muammoni qo‘yish darajalari

Darajalar	Muammoni qo‘yish mohiyati
1-daraja	O‘qituvchi muammoni qo‘yadi va talabalarni uni hal qilishga yo‘naltiradi
2-daraja	O‘qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning o‘zlari mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
3-daraja	O‘qituvchi muammoni qo‘rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro‘para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o‘zlari shakllantirib, muammoni echish usullarini tahlil qiladi

Ta'lim jarayonida masalani qo'yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo'ladi. O'quv materiallari mazmunini o'zlashtirishda muammoning qo'yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi (16-rasm):




16-rasm. Muammoni qo'yish va hal etish bosqichlari

Pedagogik jarayonda talaba "muammo"ga emas, balki muammoli vaziyatga ro'para qilinadi.

Muammoli vaziyat – talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi

Darhaqiqat, muammoli vaziyat deganda talabaning hozirda yoki kelgusida ta'lim maqsadiga erishishi uchun xavf tug'diraigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyatni hal qilish bir necha bosqichda kechadi. Ya'ni (17-rasm):




17-rasm. Muammoli ta'limning asosi bo'lgan bosqichlari

Pedagogikada muammoli vaziyat metodi ham qo'llaniladi.

Muammoli vaziyat metodi – talabalarni muammoli vaziyatga to'qnash kelishini ta'minlash asosida uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish va ularning bilish faoliyatini faollashtirishga asoslanadigan yo'l

Metodning mohiyati aniq vaziyatni tahlil qilish, baholash va uning echimi yuzasidan qaror qabul qilishdan iborat. Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodi qo'llanilganda talabalarning faoliyatlari quyidagi tizim asosida tashkil etiladi (18-rasm):



18-rasm. Muammoli vaziyat metodiga asoslangan talabalar faoliyati

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta‘lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda talabalar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadi.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi quyidagicha:

- muammoli vaziyat tavsifini keltirish;
- talabalarga kichik guruhlariga bo‘lish;
- guruhlar tomonidan muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarining aniqlanishi;
- guruhlarining muammoli vaziyatning oqibatlari to‘g‘risida fikr yuritishi;
- guruhlar tomonidan muammoli vaziyat yechimi borasidagi variantlarning asoslanishi;
- variantlar orasidan to‘g‘ri yechimning tanlanishi;
- guruh tomonidan yechimning bayon etilishi;
- jamoada yechim yuzasidan muhokamaning tashkil etilishi

Muammoli vaziyatni echishda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

- muammoni turli nuqtai nazardan o‘rganish va tahlil qilish;
- mavjud dalillarni solishtirish va umumlashtirish;
- qo‘shimcha dalillarni aniqlash va ularni o‘zaro qiyoslash;
- muammo bilan bog‘liq xulosalarni chiqarish;
- talabalarning mustaqil ravishda muammoni qo‘yishlari

Muammoli vaziyat metodi quyidagi afzalliklariga ega:

- talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- talabalar muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishni o'rganadi;
- talabalarning bilim va qobiliyatlarini
- baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- talabalar fikrlar va natijalarni tahlil qilishni o'rganadi

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyat metodini qo'llash

1. O'qituvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi.
2. O'qituvchi tomonidan muammo vaziyat bayon qilinadi.
3. O'qituvchi talabalarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
4. O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga ajratadi.
5. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganib, uning sabablarini aniqlaydi.
6. Guruhlar muammoni yechish imkoniyatlarini muhokama qiladi.
7. Muammoli vaziyatni yechish yo'llari tanlanadi.
8. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi topiladi.
9. Guruhlar yechim yuzasidan taqdimot qiladi.
10. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
11. Jamoa o'qituvchi bilan muammoli vaziyatning samarali yechimini tanlaydi

quyidagi tartibda kechadi:

Ta'lim jarayonida ushbu metodni qo'llashda ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanai. Ular:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo talabalarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi

Mohiyatiga ko'ra muammoli ta'lim muayyan texnologiyalarga asoslanadi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari

Muammoli ta'lim texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ushbu texnologiyalarning asosiy g'oyasi – shaxsni fikrlashga, muammo mohiyatini tushunish, muamoli vaziyatni hal qilishga undash, unda muammoni his qila (ko'ra) olish, echimni topish yo'lida tadqiqot olib borish va muammoni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlash sanaladi.

Ushbu ta'lim texnologiyasi juda qadimdan shakllangan. M: qadimgi Gresiyada Suqrot tomonidan qo'llanilgan usul, qadimgi Hindiston, Xitoy, Movarounnahrda qo'llanilgan bahs-munozalar. Zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan muammoli ta'lim texnologiyalari 1894 yilda amerikalik psixolog va pedagog J.Dyui tomonidan (Chikago tajriba maktabida) asoslangan.


Bu turdagi ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllari mavjud:

- muammoli bayon;
- muammoli ma'ruza;
- evristik suhbat;
- muammoli namoyish;
- izlanishga asoslangan amaliy mashg'ulot;
- ijodiy topshiriq;
- xayoliy muammoli tajriba;
- muammo farazlarini shakllantirish;
- masalalarni muammoli yechishning optimal variantlarini tanlash;
- muammoli vazifa;
- muammoli o'yin

Ta'lim tizimida muammoli ma'ruza muammoli ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan o'qitish shakli sanaladi.

Muammoli ma'ruza – o'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyati oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza

Muammoli ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchilar ularni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratishlari zarur. Quyidagilar muammoli ta'limning asosiy metodlari sanaladi (19-rasm):



19-rasm. Muammoli ta'lim metodlari

6.3. Interfaol ta'lim texnologiyalari

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar ham qo'llanilmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi.

Interfaol ta'lim ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi.


Interfaol ta'lim (ingl. “interact”, rus. “interaktiv”; “inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini hamda o'qituvchi bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar

Bu turdagi metodlar interfaol ta'limning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Hozirgi kunda interfaol metodlarning 100 dan ortiq turi mavjud bo'lib, o'quv materialining xarakteri, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin.


Mohiyatiga ko‘ra interfaollik talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtai nazardan esa interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi (20-rasm):



20-rasm. An’anaviy ta’limga asoslangan suhbat

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda echimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.




21-rasm. Interfaol ta’limda tashkil etiladigan suhbat (dialog)

Interfaol ta’limda suhbat quyidagi shaxslar o‘rtasida tashkil etiladi (21-rasm):

Interfaol TT mohiyatiga ko‘ra suhbatning “talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi.

O‘qituvchi interfaol ta’lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqib olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol TTni qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.




22-rasm. Interfaol ta’lim samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar

O‘quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto “bolalar o‘yini” kabi taassurot uyg‘otadi. Biroq, bunda

o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi (22-rasm):

Shu bilan birga interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq (23-rasm):



23-rasm. Interfaol ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar


Odatda interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- individual;
- juftlik;
- guruh;
- jamoa bilan ishlash

Interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalari erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;
- o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
- turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish

Interfaol ta’lim muayyan belgilarga ega. Quyidagilar interfaol ta’limga xos asosiy belgilar sanaladi (24-rasm):



24-rasm. Interfaol ta’limning asosiy belgilari

Izoh: Refleksiya (lot. “reflexio” – ortga qaytish, aks etish): kishining o‘z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib etishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash), o‘z-o‘zini tahlil qilishi.

Barcha ta’lim turlari kabi interfaol ta’lim ham ustuvor tamoyillarga ega:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi

Interfaol ta'lim quyidagi imkoniyatlarga ega:

- talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- talabalarda mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun pedagoglar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:

1. Ta'lim jarayoniga jamoadagi barcha o'quvchilarning to'la qamrab olinishi.
2. Talabalarning mashg'ulotlarga ruhan tayyorliklarini inobatga olish.
3. Talabalar sonining ko'p bo'lmasligi (25-30 nafar o'quvchi bilan kichik guruhlarda ishlash samaralidir).
4. O'quv xonasining jihozlanishi (stullar doira, archa, "Jonli liniya" kabi shakllarda joylashtiriladi).
5. Topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarning ishlanmalarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi.
6. Talabalarning kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol, nofaol talabalarning teng miqdorda bo'lishi)

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.


Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol ta'limning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum (25-rasm):

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blis-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va b.

2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zigzag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotatsiya”, “T-jadval”, “Yumaloqlangan qor” va h.k.

3. Grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b.



25-rasm. Interfaol ta'limning asosiy shakllari

RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

7.1. Rivojlantiruvchi ta'limning maqsad va vazifalari

Bugungi zamonaviy ta'limning asosini tashkil etayotgan rivojlantiruvchi ta'limda shaxs o'qitishning diqqat markazida bo'lib, shunga binoan, ta'lim maqsadi, mazmuni va shakllari o'quvchiga, uning shaxsiga qaratilganligi bilan o'zgacha mazmun kasb etadi.

Bu ta'limning **maqsadi** mazmunida shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari asosiy ko'rsatkichlar sifatida qabul qilinib, ushbu jihatlar bo'lajak mutaxassis shaxsida kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish bilan birga, o'quv topshiriqlari, ularni tahlil etish va yechish borasidagi zaruriy ko'nikma hisoblangan ijodiy tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Rivojlantiruvchi ta'limning asosiy tamoyillaridan biri o'qitishda ko'proq axborot shaklidan ilmiy izlanish, o'quvchilarning mustaqil ishlari, imkoniyatlaridan keng foydalanish asosida o'qitishning faol metod va shakllariga o'tishni, boshqacha qilib aytganda, "qayta takrorlash"dan "tushunish, fikrlash"ga o'tishni ko'zda tutadi. Bu o'zgarishlarni:

- mavjud ta'lim mazmunini modernizatsiyalash;
- uning tashkiliy shakllariga nisbatan texnologik yondashuvni shakllantirish;
- ta'lim oluvchi shaxsining individualligi, o'ziga xosligi va ehtiyojlari doirasidan kelib chiqib o'qitishni tashkil etishga xizmat qiluvchi yangicha ta'lim shakllari tizimini yaratish tamoyillari tashkil etadi.

Zamon talablariga mos holda ma'ruzalarning rivojlana borishi an'anaviy ta'lim modeli doirasida cheklangandir. Chunki ma'ruzaga faqat o'qitishning bir tashkiliy formasi sifatida emas, balki talabalar mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlardan chiqishda mustaqil qarorlar qabul qilishlarida amaliy ko'nikmalar hosil qilishlarining boshqaruvchi vositasi sifatida ham qarash lozimdir. Buning uchun rivojlantiruvchi ta'lim, ushbu ta'lim modelida ma'ruzaning tutgan o'rni va funksional vazifasi to'g'risida to'xtalib o'tish lozim hisoblanadi. Zamonaviy ma'ruzalarni ta'lim jarayonida tutgan o'rni, mohiyati va funksional vazifasini aniqlash uchun


rivojlantiruvchi ta'limning quyidagi ikki modelini qisqa tahlil qilib chiqamiz.

1. Rivojlantiruvchi ta'limning siklik modeli
2. Faoliyatni rivojlantirish modeli

Rivojlantiruvchi ta'limning siklik modeli. Andragogikaning asosiy konsepsiyasiga muvofiq katta yoshdagilarni o'qitish bir necha sikllarni o'z ichiga oladi.

O'qitish va ta'limni rivojlantirish siklik jarayon davomida yuzaga kelib, tajribalarga asoslanadi va quyidagi bosqichlardan tashkil topadi (1-rasm):

- **aniq tajribalar** o'quvchining shaxsiy tajribasi va kuzatishlari natijasida olingan ma'lumotlarni to'plashdan boshlanadi.
- **refleksiv kuzatish** to'plangan ma'lumotlarning ma'nosini va mohiyatini izlash, tahlil qilish va fikrlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.
- **abstrakt konsepsiyalashda** aniqlangan muammolarni hal qilish modeli va yo'llari konsepsiyasi yaratiladi.
- **faol tajriba**- amaliy tajribalar o'tkaziladi.



1-Rasm. O'qitish sikli modeli (Kolb, Fray)

Quyidagi model o'ziga xos muhim xususiyatlarga ega bo'lib, bunda o'qitish bir-biri bilan ketma-ket bog'langan bosqichlardan iborat siklik

jarayon shaklida tashkil etiladi. Jarayon tajribadan boshlanadi va hech vaqt bosqichlar o'rtasida uzilish bo'lmaydi. Sikllar nafaqat ma'lum ketma-ketlik asosida bir-birini almashtiradi, balki bir-biriga qarama-qarshi ham turadi. Masalan, aniq tajribalarga abstrakt konsepsiyalash qarshi tursa, faol tajribaga reflektiv kuzatish qarshi bo'ladi. O'qitish jarayonida turli pedagoglar ushbu siklning u yoki bu boqichiga ko'proq e'tibor qaratishadi va bu holatni Kolb va Fray "o'qitish stili" deb ko'rsatadi.

Ushbu modelga muvofiq o'quvchi o'z tajribasi va bilimining qaysi sohada yetarli emasligini aniqlashtiradi, qiynalayotgan muammolarini shakllantiradi hamda Ushbu muammolarni hal etish vositalari va yo'llarini belgilaydi, o'quv maqsadini aniqlab oladi.

Faoliyatni rivojlantirish modeli. Oddiy o'qitishdan farqli o'laroq, oliy ta'limda talabalarga nafaqat fan bo'yicha yangi bilim va ma'lumotlar beriladi, balki olingan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, bilimlarni rivojlantirish va qayta ishlashga ham o'rgatiladi. Ta'lim berish jarayonida modellar o'rnini almashadi – kasbiy faoliyat ko'rinishi o'zgaradi, talabaning qobiliyati, uquvi rivojlanadi, o'quv maqsadi o'zgaradi. Ta'lim faoliyatining rivojlanish samarasi ham aynan shu bilan xarakterlanadi. Rivojlanuvchi faoliyat quyidagi uch xil yo'nalishda amalga oshadi:

1. Shaxsiy faoliyatda
2. Faoliyat refleksiyasida
3. Metodologik muhitda

Bu yerda metodologiya bilim olishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga qaratilgan g'oyalar, konsepsiyalar, uslublar va vositalar majmui sifatida qaraladi. Ta'lim jarayoni nuqtai nazaridan ushbu modelni quyidagicha o'qish mumkin: talaba o'z faoliyati davomida reflektiv holatga olib chiquvchi bir qancha muammolarga duch keladi va ketma-ket ravishda quyidagi uch jarayonni amalga oshiradi:

- *tahlil* – o'z faoliyatini tadqiq qilish, ya'ni faoliyatni qayta shakllantirish va o'zlashtirishdagi muammoli vaziyatlarni aniqlash;
- *tanqid* – o'zlashtirishdagi muammolar sababini aniqlash;

□ *me'yorlashtirish* –faoliyatni rivojlantirish. Muammoni barataraf etishga qaratilgan g'oyalar, gipotezalar va usullarni o'ylab topish, yangi me'yorlarni tuzish.

An'anaviy va rivojlantiruvchi ta'lim modellarini taqqoslab quyidagilarni aniqlashimiz mumkin:

An'anaviy ta'lim modelining maqsadi va natijasi standart vazifalarni yechish bo'yicha bilimlar berish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Rivojlantiruvchi ta'limning maqsadi va natijasi bo'lajak mutaxassislarni aniq ishlab chiqarish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan kompetentligini rivojlantirish, nafaqat standart vaziyatlarda, balki o'zgaruvchan nostandart vaziyatlarda ham mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilimlar berish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Rivojlantiruvchi ta'lim modelida ma'ruza dialog shaklida olib boriladi va talabada ma'ruza mazmuni bo'yicha tahlil qilish, izlanish, yangi g'oyalar hosil bo'lish, o'z g'oya va fikrlarini bayon etish, boshqa talabalarning ushbu muammo bo'yicha fikrlarini tinglash va unga o'z munosabatlarini bildirish imkoniyati yaratiladi.

7.2. Tanqidiy tafakkurining o'ziga xosligi

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqiydiligidan namoyon bo'ladi. Aqlning sertashabbusligi deganda, insonning o'z oldida yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishini, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga yetkazishda, yechimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taalluqli qo'shimcha belgi va alomatlarini kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. Aqlning pishiqligi vazifalarni tez yechishda, yechish paytida yangi usul va vositalarni tez izlab topishda, ularni saralashda, ana shu usullar va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda, trafaretga aylangan, eski yo'l hamda usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining va o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga,

muhokamalarga, muammotik vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning tanqidiyligi ob'ektiv va sub'ektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash o'z-o'zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga (ba'zan etalonga) asoslanib amalga oshsa, unday tanqidiylik ob'ektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi sub'ektiv xatolarga, umuman sub'ektivizmga og'ib ketsa, bunday holda sub'ektiv tanqidiylik deyiladi. Sub'ektiv tanqidiylik salbiy oqibatga olib keladi, shuningdek, insonlar o'rtasida «anglashilmovchilik g'ovi» ni vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona, ratsional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi, deb atish mumkin.

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil tafakkur deb ataladi. Nomustaqil tafakkurlari kishilar «tayyor mahsulotlar quli» ga aylanadilar o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql-zakovatli inson bo'lish o'rniga kaltabin, aqlan erinchoq, behafsala odam bo'lib voyaga yetadi. Demak, tafakkurning nomustaqillik illati jahon progressiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi (samaradorligi) bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsiyanomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri sermahsul tafakkur deb ataladi. Demak, vaqt oralig'ida bajarilgan ish ko'lami va sifatiga oqilona baho berish- tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkurning ixchamligi deganda, muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi (plani) mazkur jarayonda masala yechish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa, hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini

tasavvur qilmog‘imiz shart. Fikrning operativ jihatdan, tezkorlik bilan o‘zgartishdan va to‘g‘ri yo‘nalishiga yo‘llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, «Talaba imtihonda avval g‘oyani noto‘g‘ri yoritayotib, o‘z-o‘ziga «birdaniga» xatosini anglab, to‘g‘ri javob bera boshlashi» kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, inshaklsiyalarni tinglovchilarga xato va kamchiliksiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi qo‘yilgan savolga va muammoga to‘liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator faktorlarga: jumladan, fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga muvaqqat bog‘lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, tafakkurning tezligi boshqa shartlarga: insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko‘nikma va malakalariga ham bog‘liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma’lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o‘quvchilarga juda zarur psixologik qurol bo‘lib xizmat qiladi. Imtixon paytida, seminar mashg‘ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. O‘rinsiz, salbiy emotsiyalar (his-tuyg‘ular) uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya’ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo‘lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba’zi talabalar, aksincha, imtihonda hayajonlanib, fikrlari ravonlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta’sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg‘onib funksiyasi jadallashib ketadi va fikr «birdaniga» ravshanlanishi mumkin. Shuning uchun o‘qitish jarayonida talaba va o‘quvchilarning aqliy faoliyatini to‘g‘ri baholashda ularning individual topologik xususiyatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim oluvchining tafakkur tiplari ham o‘zlashtirish va fikrlash jarayoniga ta’sir etishi tabiiy. Tafakkur qilishga odatlar – 16 aqliy xulq harakatlar. Tafakkur qilishga odatlar – intellektual xulqning xillarixususida amerikalik olimlar doktor Arthur Costa va Dr Bena Kallickning to‘rttomlik “Tafakkur qilishga odatlar”: Rivojlanish bilan bog‘langan qator (2000) nomli asarida keltirilgan. Ularning fikricha,

maktablar va firmalarda odamlar xalqaro tarmog'ini yaratish, to'la fikrlashni o'rganish uchun qandaydir tuzilish jamg'arma va uyushmalarni yaratish kerak.

“Tafakkur qilishga odat” ning ma'nosi - muammolar bilan to'qnashganda va tayyor javoblar bo'lmagan darhol ma'lum bo'ladi. Tafakkur qilishga odat talabalarga maktabda va kundalik hayotida yordam berishi mumkin, chunki ular muammolar, dilemmalar va topishmoqlar bilan har kuni to'qnashadilar. Bu odat qachonki siz javobni bilmasangizda o'zingizni qanday tutish kerakligini ko'rsatadi. Costa va Kallick tasdiqlaydilarlarki, “tanqidiy fikrlashning nafaqat axboroti ma'lum, balki qanday harakat qilish kerakligi ham mavjuddir”.

*“Qachon o'qituvchilar ataylab tanqidiy fikrlashni qabul qiladilar va baholaydilar, bu ularning loyiha harakatlarini o'zgartiradi, ularni mazmun tanlashni aniqlaydi va ular baholashini oshiradi. Natijalar yashaydigan doira qancha keng bo'sa, shuncha har bir odatning qadriyatlariga ularning ta'siri kattaroq imkoniyatlarini ko'rish mumkin”¹.
Art Costa*

7.3. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni.

Tanqidiy fikr – bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash – bu o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:

- hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi;
- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;
- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

¹Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-10p

Ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talaba o'rtasida hamda o'quvchi-talabani o'zaro hurmatini tarbiyalaydi.
2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talaba tajribasidan foydalaniladi.
3. O'quv mazmuni o'quvchi-talabani talablariga mos va aniq belgilanadi.
4. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalaniladi.
5. Har xil buyum va qarashlar integrasiyalashadi.
6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'riladi.
7. Ta'lim o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba, o'quvchi-talabani o'zaro munosabati orqali berib boriladi.
8. O'quvchi-talaba mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi – o'quvchi-talabani tayyorlash darajasiga muvofiq metodlar tanlanadi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb-hunarga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O'quv dasturlaridan o'rin olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars «aqliy hujum» shaklida o'rganilishi tavsiya etiladi va munozarali mavzular munozarali dars shaklida o'rganilishi maqsadga muvofiq. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, noverbal va verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi **interfaol metodlar** qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

2. O'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

3. O'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, talabalar intellektual, zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. Endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba

shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa, muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinib tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun, belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni, o'zlashtirish uchun mos metodlari, o'quv vositalari va ularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari, fikrlash darajalari yoki olgan bilimlarini o'zlashtirish darajalariga qarab, har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti)ni yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabaning barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, zamonaviy pedagogik texnologiya talablari asosida avval «o'qish so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» tamoyiliga asoslanishi, talabaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash talabalarga individual va tabaqalashgan yondashuv xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

An'anaviy metodikada talaba shaxsining rivojlanishini hisobga olgan holda uning bilimi ko'nikmaga, undan esa malakagacha rivojlanishiga ahamiyat berilmasligi ayon. O'qituvchi talabaga iloji boricha o'rganilayotgan mavzudan ko'proq axborot berishga harakat qiladi. O'qituvchi: axborotlarni to'plash, tanlash, qayta ishlash va o'rganilgan axborotlarni qo'llash kabi bilishning uchta bosqichdan iborat modeliga rioya qilavermaydi. Keyingi navbatda talabaning bilish faoliyati (olgan bilimi) uning yangi pog'onasiga, ya'ni bilish faoliyatining faollashuv jarayoniga o'tishi kerak. Shundagina bilim ko'nikmaga, ko'nikma esa malakaga aylanadi. Talabalar bilish faoliyatining faollashuvi qator tamoyillarga tayanadi: fanni o'rganishga qiziqtirish, tayanch iboralarga asoslanish, muammoli metodlarni qo'llash, mustaqil ishlarni tashkil etish, yalpi va yakka ishlarni tashkillashtirish, ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish, ta'lim mazmunini turmush bilan bog'lash, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va hokazo. Bundan esa, ta'lim jarayonida o'qituvchi rioya qilishi kerak bo'ladigan asosiy tamoyillar kelib chiqadi:

- talabada o'z kuchiga ishonish hissiyotini uyg'otish;
- talabaga o'z vaqtida kerakli yordam berish.

Talabalarning fanlarga oid tanqidiy fikrini bilish maqsadida quyidagi varaqalar tarqatiladi:

1. Ma'ruzani eshitib yozib bordim, lekin o'zlashtirilayotgan material mohiyatini bir davrning o'zida to'liq tushunib yetmadim.

2. Oliy ta'limning mazmuni va shakli o'rta maktabnikidan nimasi bilandir farq qiladi.

3. Ilmiy tushunchalar, atamalar va ta'riflardan foydalanishda qiyinchiliklarni his qilaman.

4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlarining mohiyatini tushuna olmayman.

5. Nazariy bilimlar bilan amaliyot o'rtasida birmuncha nomutanosibliklar mavjud.

6. Mustaqil faoliyatni rejalashtirishning oqilona usullari yetishmaydi.

7. Mustaqil bilim olish uchun juda oz vaqt qoladi.

8. O'quv yili davomida bir qancha materiallar individual ishlashga yig'ilib qoladi.

9. Reyting nazoratida his-tuyg'u barqarorligining yetishmasligi sababli diqqatni bir joyga to'play olmayman.

10. Seminar mashg'ulotlari va reyting nazoratiga tayyorlanish uchun birlamchi manbalarning yo'qligi yomon oqibatlariga olib keladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Ammo tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlar to'plami mavjud.

Tanqidiy fikrlash tajribasini egallashga quyidagilar kiradi:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- har bir talabani tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish, o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- ta'lim jarayonida faol ishtirok etish;
- turli fikr va g'oyalarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Tanqidiy (tahliliy) fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlariga o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. Ta'lim jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va ta'limga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi, tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyasi va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi.

Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talabalarning fikrlari, tanqidiy tahlil natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O‘qituvchi (pedagog) talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo‘lishi lozim. Bu esa talabalarda o‘zgaralar g‘oyalari mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o‘z fikri, o‘ziga taalluqli bo‘lgan g‘oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko‘rsata olish kerak. Talabalarning o‘zlari ham o‘z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari hamda masalalarni muhokama qilish jarayonida o‘ta muhim vazifa ekanligini tan olishlari kerak.

Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro bir-birlari bilan fikr almashishlarini ko‘zda tutadi. O‘zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlar tizimini so‘rovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilar fikrini tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o‘laroq talabalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o‘tkazishning bir necha modellari mavjud, ya’ni: o‘ziga ishonch hosil qilish, ishda faol ishtirok etish, o‘rtoqlar va o‘qituvchi bilan fikr almashish, o‘zgaralar fikrini tinglay olish va boshqalar.

7.4. Tanqidiy fikrlashni o‘stiruvchi faol metodlar

«Tanqidiy fikrlash metodi»ning mohiyati jamoa hamkorligi asosida, axborotlarni qabul qilish, ularga o‘z munosabatini bildirish, xatolik va nomunofiqlarni izlash, o‘z mulohazalarida nuqsonlarga yo‘l qo‘ymaslikka intilish, o‘z tushunmovchiliklarini anglash, farqlash, aniq xulosalar chikarishga yo‘llashdan iborat.

«Tanqidiy fikrlash» - ongli mustaqil tahliliy fikrlash jarayoni bo‘lib, bunda – o‘quvchi o‘ziga taklif etilgan ma’lumotlar, axborotlar, nuqtai-nazar va axloq kodekslari to‘g‘risida sog‘lom fikr yuritish imkoniyatini beradigan metoddir. «Insonning sharoitlar va tajriba natijalariga nisbatan

tanqidiy fikrlashgina shaxs istagi va qiziqishlarini to'g'ri yo'lga sola oladi». Shuningdek, «Tanqidiy fikrlash» - o'qitishning oxirgi bosqichi bo'lmasdan, axborotlarni oddiy tarzda tushunish, boshlang'ich uzatish bo'lgani sababli, xir bir ishtirokchini ongli, tahliliy fikrlashga o'rgatadi. Natijada ishtirokchi vazminlik bilan mantiqli, maqsadli fikrlash qobiliyatini o'zida tarbiyalashga harakat qiladi. Demokratik jamiyatda bunday shaxsni tarbiyalash muhimdir, shuning uchun ham «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» vazifalarini oqilona hal etish uchun ham bu metod ahamiyatlidir.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash, axborotlarni qabul qilishdan boshlanib, karor qabul qilish bilan tugaydigan fikrlash, uylash jarayoni ekan, bu jarayonda ta'lim oluvchilar bahsli muammolarni yechish vaqtida tinglash, muloqotga kirishish madaniyatini o'rganadilar, turlicha nuqtai nazarlarni taqqoslaydilar, xulosalar chiqaradilar, o'zgalar fikriga befarq qaramaydigan, analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intiladigan insonlar bo'lishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham bu metod faoldir.

«O'qitish va yozish» uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturining asoschilari o'qitishning tayanch modelini uch bosqichga ajratadilar – chaqiruv, mazmunni anglash, fikrlash.

Tajribaning ko'rsatishicha bu bosqichlarda o'qituvchi o'qitishning interfaol metodlarini aniq tanlasa va qo'llasa, dars samaradorligi oshadi, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

Chaqiruv bosqichida, o'qituvchi o'quvchi talablarining yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarini aniqlaydi. Bunda u albatta o'quvchilarning boshlang'ich, oldingi bilimlariga tayanish va ular hisobga olish lozim. Agar o'quvchi yangi bilimlarni, oldingi egallangan bilimlarga tayanib, ular bilan bog'lab olib bormasa, axborotlar o'z kuchini yo'qotadi va faoliyat samarasiz bo'ladi. Aynan, shu bosqichda tushunmovchiliklar, bilim olishdagi xatoliklar aniqlanadi, bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlash uchun harakatlanuvchi kuch bo'ladi.

Chaqiriq bosqichining maqsadi: dastlabki ma'lumotlarni aniq, erkin namoyon qilish orqali, o'quvchilarni faollashtirish;

- qiziqishlarni oshirish, o'qitish matnlarini hosil qilishdan iborat.

Mazmunni anglash bosqichida o'quvchi yangi tushunchalar, g'oyalar bilan to'qnashadi.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning dastlabki egallagan ma'lumotlari, tushunchalariga tayanib, ularni yangi bilim bilan boyitishi kerak ya'ni o'qituvchining bilgan va bilmagan ma'lumoti to'ldiriladi. Bunda o'quvchilar bilmayman, bilmoqchiman, bilib oldim qoidasi asosida ish tutishi lozim. Buning uchun matn mazmunini o'qish, diafilm, kinofilmdan parchalar namoyish etish, ma'ruza (albatta bolalar tomonidan) va nutq eshitish, tajribalar o'tkazish kabi ishlar amalga oshirilishi mumkin. O'quvchi ushbu ishlarni o'tkazishi jarayonida mustaqil va faol qatnashib, o'z bilimlari, fikrlari nuqtai-nazarlariga tayanib, yangi bilimlarni taqqoslaydilar, solishtirib ko'radilar, mohiyatini tushunib yetishga harakat qiladilar. Oldingi bilimlari bilan yangilarni bog'laydilar, sintezlaydilar, taqqoslaydilar va tahlil qiladilar shunga ko'ra mazmunni anglash bosqichining maqsadi:

- dastlabki ma'lumotlarni yangilari bilan to'ldirish;
- o'quvchilarda ishlarni bajarishda qiziqishni orttirish;
- taqqoslashga, mohiyatini tushunishga tahlil qilishga o'rgatish;
- yangi masalani yangicha bayon etish, ya'ni yangi darsni bayon etishdan iborat bo'lishi lozim.

Fikrlash bosqichida yangi olingan bilimlar tanqidiy fikrlashlar yordamida, yangi g'oyalar, axborotlar mustahkamlanadi, to'ldirilgan tushuncha, ma'lumotlar tahlil qilinadi, ular mohiyati ustida fikr yuritiladi. O'zaro fikr almashish, o'zgaralar taqdim etgan ma'lumotlar bilan tanishish asosida o'quvchilarda so'z boyligi oshish imkoniyatlari yaratiladi.

Bunda o'quvchilar erkin, mustaqil holda o'tilgan mashg'ulot, yangi mavzu to'g'risida o'z fikrlarini bildiradilar va tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.

«Tanqidiy fikrlash» metodi. O'rtaga tashlagan masala yoki muammo yuzasidan fikr aytish, o'zgaralar fikrini tanqidiy idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga undaydigan texnologiyadir.

Bu metoddan bahs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan masalalar muhokamasida foydalaniladi.

Bahs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan muammo yoki topshiriq qo'shib savollar o'rtaga tashlanadi.

Ta'lim oluvchiga o'z nuqtai nazarini aniqlash, fikrlash bir joyga tuplash uchun vaqt beriladi.

Ta'lim oluvchi o'z nuqtai-nazarini asoslaydi, dalillar keltiradi.

Muhokama qiliniyotgan masala yuzasidan o'z fikrlarini erkin bildirishlari uchun o'quvchi-talabalarga imkon yaratiladi.

Bildirilgan fikrlar, nuqtai-nazarlar ta'lim oluvchilar hamkorligida muhokama qilinadi.

O'zaro fikr olishish ta'lim oluvchilardan hamsuhbatini diqqat bilan tinglash, uning so'zini bo'lmaslik, so'z qo'shmaslik talab etiladi.

Muhokama qilingan axborotni tahlil qilish, izohlash, g'oyalardan yakuniy xulosa chiqarish bilan yakunlanadi.

«Tanqidiy fikrlash» metodini qo'llash qoidalari:

Tanqidiy fikrlash uchun vaziyat yaratish.

O'quvchilarning fikr-g'oyalarini asoslash uchun guruhlarni tashkil qilish.

Har bir guruh fikrini aniq yoxud muhokama jarayoniga axborotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish uchun kuzatuvchi (ekspert)lar tayinlash.

Aniq xulosalar, tahlil fikrlar kuzatuvchilar (ekspertlar) tomonidan rag'batlantirishga imkon yaratish.

«Tanqidiy fikrlash» metodining ta'lim oluvchiga psixologik ta'siri

«Tanqidiy fikrlash» bahsli-tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammolarni yechishga qaratilganligi sababli, ta'lim oluvchilarda tinglash, o'zgalar fikrini bo'lmaslik, unga tanqidiy ko'z bilan qarash, taqqoslash, tegishli hukm chiqarishga e'tiborni qaratish lozim. Uning natijasida har qanday ta'lim oluvchida:

- o'ziga ishonch ko'zi bilan qarash;
- munozarada faol ishtirok etish;
- o'zgalar fikriga va taqdiriga befarq bo'lmaslik;
- tengdoshlari, kuzatuvchi (ekspert)lar bilan fikr tortishish;
- o'z nuqtai-nazarini, fikrini dalillashga intilish his-tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bu o'z navbatida analitik fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga,

bosqichma-boqich tafakkur yurgizish bir-birlarini chuqurroq o'rganish imkoniyatining yaratilishiga hamda o'zgaruvchan tanqidiy fikrlashga olib keladi. Oqibat-natijada o'quvchilarning fikrlashi faollashadi, qiziqish kuchayadi, o'zini ifoda etish ishonchi uyg'onadi, tanqidiy fikrlash rivojlanib boradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: **Tanqidiy fikrlash nima?**

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, unda o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas.

Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta'kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlaridan ajratilgan o'quv ko'nikmalari ta'lim oluvchilarga ob'ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko'nikmalarni yangi vaziyatlarda qo'llay olmaydilar.

Rixer ta'biri bo'yicha o'rganish va fikrlashning ta'rifi kognitiv psixologiya, falsafa va multimedia madaniyati ta'limi sohasidagi tadqiqotlar natijalariga asoslanadi.

Bu tadqiqotlarning asosiy natijalari:

1.Samarali va muttasil o'rganish asosida talabalarning axborotlarni o'zlashtirish, sintezlash va ularni to'la egallash faolligi yotadi (Anderson va unga hammualliflar, 1985).

2.O'rganish jarayoni fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli tuman strategiyalaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Bunday strategiya o'rganish jarayonini yanada onglilashtiradi (Palinskar va Braun, 1989).

3. O'rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo'llash imkoniyatlariga ega bo'lgan taqdirda rivojlanadi (Resnik,1987).

4. O'rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi (Ros,1990).

5. Tanqidiy fikrlash va o'rganish g'oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu yagona to'g'ri javob»ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q.

Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;
- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunish;
- o'quv jarayonida faol ishtirok etish;
- turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglash;
- o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi.

Pirson, Xansen, Gordon (1979)lar ta'kidlashadiki, o'z fikrlarini ijod qilish go'yo avvalgi g'oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash;
- o'zaro tanqidiy fikrlar almashish;

- *o'z g'oyalari*ni ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- *fikrlarni muayyan g'oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o'z g'oyalari*ni to'la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo'lishi uchun talabalar ma'qul va noma'qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar yo'l qo'yiladigan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn fikrlash uchun chinakam maqsad bo'lgan va do'stona hamda samarali sharoitda beriladi.

Rang-baranglik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g'oyalar paydo bo'ladi.

Rang-barang fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo'yiladi. Faqat birgina javob mavjud bo'lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog'langan. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo'lishadi, chunki ularda o'qituvchi bilimli yoki matnda uning bu bilimlari aks etgan, shu tufayli ularning bilimlari o'qituvchi mas'ul degan ishonch shakllanib qolgan. O'quv jarayonidagi talabalarning faol ishtiroki va o'qishlariga o'zlarining mas'ul ekanligiga tayyorligi tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o'stiradi.

Mixali Chikjentmixaliy (1975) ta'kidlaydiki, talabalar o'sha murakkab darajadagi o'kuv jarayonida faol ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar.

Tavakkalchilik Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo‘rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag‘batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g‘oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi uni o‘quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Talabalarni tavakkaldan holi bo‘lgan, ya’ni g‘oyalar qadrlangan, talabalarning fikrlash faoliyatida faol ishtirokini yuqori motivatsiyalash imkoni bo‘lgan muhitda o‘ylash lozimligini ularda ishonch hosil qilish zarur.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlashning omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashdir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o‘z g‘oyalari, tasavvurlarining o‘qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog‘dagina chuqur mas’uliyat va e’tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Talabalar o‘z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba ularning fikrlari, o‘z tanqidiy tahlili natijalari qimmatli ekanligini ularning ongiga singdirish zarur. O‘qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan holi bo‘lishi lozim. Bu esa talabalarda o‘zgalar g‘oyalarini mexanik tarzda qayta ishlab chiqish eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishga olib keladi. Aslida talabalarga o‘z fikri, o‘ziga taalluqli bo‘lgan g‘oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko‘rsata olish zarur. Talabalarning o‘zlari ham o‘z fikrlarining qimmatbaho ekanligiga ishonch hosil qila olishlari zarur. Ular o‘z fikrining tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o‘ta muhim, shuningdek, katta hissa bo‘lib hisoblanishini tan olishlari kerak.

O‘zaro fikr olishuv. Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro fikr olishuvini ko‘zda tutadi. Talabalarning o‘zaro fikr olishishi ularning bir-biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi

sifatida o'zlarida bo'lgan yirik fikr va oddiy xatoga bo'lgan qobiliyatlarini boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O'zaro fikr olishishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq talabalar o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyati orta boradi hamda ularni o'z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g'oyalari tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o'tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- *o'ziga ishonch hosil qilish;*
- *ishda faol ishtirok etish;*
- *o'rtoqlar va o'qituvchi bilan fikr olishish;*
- *o'zgalar fikrini tinglay olish.*

Tanqidiy fikrlashni ta'minlovchi savollar. Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g'oyalarini tahlil qilish, o'rganilayotgan hikoyalarni o'z taxminiy rejalari bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniladi. Qo'llanmada tahlil qilinayotgan bu masalalar Senders (1969) ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli sathdagi qiyinchilikda fikrlashning turli ko'rinishlarini ta'minalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Eslab qolishga xizmat qiladigan savollar yoki formal sathdagi savollar eng kuyi sathdagi savollarga taalluqlidir. Baholash yoki hukm chiqarish beriladigan savollar fikrlashni ta'minlaydigan ikkinchi sathdagi savollar sifatida qaraladi.

Formal sath savollari faktologik axborotlar olish maqsadida beriladi. Ular faqat mexanik eslashni va talabalarda yaxshi javob berish uchun qisqa muddatda ma'lum predmetlar bo'yicha bilim qismlari (fragment)ni talab qiladi.

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko'chirish talabalardan uni ko'chim (transformatsiya) qilishni talab qiladi. Ko'chirish savollari talabalarga o'rganayotgan, tavsiflagan va ko'rgan vaziyatlari, sahnalari va voqealarini o'zlari namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko'chirish

savollari talabalarni axborotlarni qayta ishlash yoki boshqa shakllarga ko'chish qilishga ilhomlantiradi. Talabalarga sezish, ko'rish (sensor) tajribasini yaratish, shundan so'ng esa boshqalarga o'z ko'rganlarini yetkazish uchun uni e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

Talabalarga g'oyalar, faktlar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi bog'lanishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi. Sendrs izohlashga qaratilgan savollarga nisbatan yuqori darajadagi fikrlashni talab qiladigan tayanch savollar deb qaraydi, boshqalari esa (Vogn va Estes) tushunishning o'zigina izohlashdir, deb hisoblaydilar.

Tatbiq qilishga qaratilgan savollar o'qish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiq muammolarini yechish va chuqur o'rganish uchun imkoniyat beradi.


Tahlil etishga qaratilgan savollar talabalardan u yoki bu voqeaning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi.

Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi. Sintez savollari talabalarga o'zining barcha bilim va tajribalarini muammoning ijodiy yechilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin.

Baholash savollari yaxshi va yomon, adolatli va adolatsizlik to'g'risida hukm chiqarish uchun beriladi.

Baholash savollari talabalar, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baholay olishi, ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

Tanqidiy tekshirib ko'rish



Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 tipini farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilim beradigan idrokning shaklidir.

Izohli idrok etish. Bu Blum izohlari darajasiga aynandir. Idrokning bu tipida talaba g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlar tuzilmasini yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmuni bir tomonga qo'yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to'g'riligini, foydaliligini va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o'ylab ko'rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- *talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;*
- *mashg'ulotlarda faolligini ta'minlaydi;*
- *samarali munozaraga chorlaydi;*
- *talabalarning o'zlari savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;*
- *talabalarga o'z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;*
- *talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;*
- *har qanday fikrlarga bo'lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;*
- *talabalarda personajlarga bo'ladigan iztirobini o'stirishga yordam beradi;*
- *talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;*
- *talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.*

Sinkveyn. Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan refleksiyaning talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishni talab etadi.

Sinkveyn so'zi fransuzcha so'z bo'lib, besh degan tarjimani beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she'rdir.

Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumidagi oid so'z bilan).

2. Ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so'z bilan).

3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tavsif etiladi.

4. To'rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko'rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap (ibora) yoziladi.

5. Beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonimdir

Amaliyotda sinkveyn:

- *murakkab axborotni sintezlash quroli;*
- *talabalar tushunchalar zahirasini baholash vositasi;*
- *ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir.*

Sinkveyn tushunchalar va axborotlarni refleksiylash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor, ayni zamonda qudratli qurol hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Rivojlantiruvchi ta'limning maqsad va vazifalari tushuntiring.
2. Tanqidiy tafakkurining o'ziga xosligi nimadan iborat?
3. Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda qanday interfaol metodlarini bilasiz?
4. Tanqidiy fikrlashni o'stiruvchi faol metodlarini izohlang.

MODULLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

8.1. Modulli o‘qitish texnologiyasi

«Modulli o‘qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. *modulus*), uning bitta ma‘nosi faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma‘noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

Modul – bu fanning fundamental tushunchasini takdim etadi: muayyan jarayoni yoki qonuni, bo‘limi, muayyan katta mavzu, o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhidir.

Modul – bu fanning bir yoki bir necha tushunchalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, ishlab chiqilgan tamoyillar asosida shakllangan mantiqan tugallangan o‘quv materialidir.

1982 y. YuNESKOning anjumandagi ma‘ruzasida modulga “Mashqlarni xususiy tezlikda diqqat bilan tanishish va ketma-ket o‘rganish orqali individual yoki guruh mashg‘ulotlarida bir yoki bir necha malakaga ega bo‘lish uchun mo‘ljallangan alohida o‘rgatuvchi paket (to‘plam)” deb ta‘rif berilgan edi.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o‘qitish asosan inson bosh miyasi to‘qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi

Modulli o‘qitish - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta‘lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An‘anaviy ta‘limda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya‘ni bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modulli o‘qitishda ta‘lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Modulli o‘qitish texnologiyasining an’anaviy o‘qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

An’anaviy o‘qitish texnologiyasiga asoslangan	Modulli o‘qitish texnologiyasiga asoslangan
Bir tomonga yo‘naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→ o‘qituvchi→o‘quvchi) • Axborot olish • Xotirada saqlash Ma’nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag‘batlantirish. • Ikki tomonlama muloqot • Tahlil qilish orqali ma’lumotni eslab qolish • Bilim va ko‘nikmalarni namoyish etish • Mazmunni tushunish va hayotga bog‘lash.

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko‘rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta’lim an’anaviy ta’limdan o‘qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o‘qitish ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi:

- modul – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish

imkoniyati yaratiladi. Ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yo'riqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi. Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv o'yinlar;
- loyihalash va yo'naltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;
- talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin);

-axborotni «siqib» berish natijasida o‘qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o‘quv vaqti tarkibini ma’ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg‘ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talabaetarli bilimlarga ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Modulli metodika asosida o‘qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

8.2. Modulli o‘qitishning tamoyillari

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra modulli metodika asosida o‘qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

1. Faoliyatlik tamoyili: Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko‘ra modullar fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o‘qitish texnologiyasiga fan bo‘yicha faoliyat yondashuvida modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

2. Tizimli kvantlash usuli - bu prinsip didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o‘quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo‘li bilan erishiladi. Modul umumiy ko‘rinishda quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- tarixiy - bu muammo teorema masala kashfiyot va tushunchalarning tarixiga qisqacha sharh berish;

- muammoli - bu muammoni shakllantirish;

- tizimli - bu modul tarkibi tizimini namoyon etish;

- faollashtirish - bu yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko‘rsatish;

- nazariy - bu asosiy o‘quv materiali bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash gipotezani asoslash muammoni echish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;

- tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o'quv tajribasi tajribaviy ishni) bayon etish;

- umumlashtirish - bu muammo echimini va modul mazmunini umumlashtirish;

- joriy etish- bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o'rganilgan materialni amaliyotda qo'llash;

- xatoliklar – talabalarning modul mazmunini o'rganishdagi o'zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo'llarini ko'rsatish;

- bog'liqlik - o'tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog'liqligini namoyon etish;

- test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog'liqligi shu modulni o'rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

3. Qiziqtirish tamoyili - bu tamoyilning mohiyati ta'lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

4. Modullilik tamoyili - bu tamoyil o'qitishni individuallashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

*Birinchi*dan modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya'ni to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko'rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O'qitishning u yoki bu turini tanlash talabaning o'ziga havola qilinadi.

*Ikkinchi*dan modul mazmunini o'zlashtirishda o'qitish usuli va shakllarning turiligidagi ham modullilik namoyon bo'ladi. Bu esa o'qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil

o‘qish, o‘quv, imitatsion o‘yinlar va hokazo) hamda muammoli ma‘ruzalar seminarlar maslahatlar bo‘lishi mumkin.

*Uchinchi*dan modullilik yangi materialni pog‘onasimon o‘zlashtirishda ta‘minlanadi, ya‘ni har bir fan va har bir modulda o‘qitish oddiydan murakkabga qarab yo‘nalgan bo‘ladi.

*To‘rtinchi*dan modulga kiruvchi o‘quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o‘quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug‘iladi.

5. Muammolilik tamoyili- muammoli vaziyatlar va mashg‘ulotlarni amaliy yo‘naltirilganligi o‘quv materialining o‘zlashtirish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg‘ulotlar paytida gipoteza qo‘yiladi, uning asoslanganligi ko‘rsatiladi va muammoning echimi beriladi. Ko‘pchilik hollarda bizning o‘qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQShda o‘qituvchi masalani o‘rganish uslubini, o‘zi qo‘ygan muammoning echim yo‘llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko‘rsatadi va tushuntiradi. Ya‘ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda ayniqsa ana shu narsa talabani qiziqtirib qo‘yadi unda ijodiy fikrlash va faollikni tug‘diradi.

6. Kognitiv vizuallik (ko‘z bilan kuzatiladigan) tamoyili-bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O‘qitishdagi ko‘rgazmalar nafaqat so‘roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o‘zlashtirish unumdorligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun‘iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo‘lib, murakkab ob‘ektlar kompyuter sur‘atchalari ko‘rinishida tasvirlanadi. Modulning tarkibiy tuzilmasi bo‘lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o‘quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bu esa:

Birinchidan talabanning ko‘rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

*Ikkinchi*dan o‘quv materiali mazmunini o‘zida zich joylashtirib ravshan ko‘rsatuvchi rasm talabada tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan rangli suratlar o'quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda talabalarni estetik tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ko'rgazmali ma'lumot og'zaki ma'lumotdan ko'ra ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko'rish mexanizmining ma'lumotni o'tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko'ra ancha yuqoridir. Bu esa o'z navbatida, ko'rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma'lumotning qariyb 90 foizini etkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko'rgazmali ma'lumot bir vaqtning o'zida beriladi. Shuning uchun ma'lumotni qabul qilish va eslashga og'zaki ma'lumotdan ko'ra kam vaqt talab etiladi. Ko'rgazmali ma'lumot ishlatilganda taassurot hosil bo'lishi og'zaki bayondan ko'ra o'rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi.

Insonning ko'rgazmali ma'lumotga ishonchi, og'zaki ma'lumotdan ko'ra yuqori bo'ladi. Shuning uchun "yuz bor eshitgandan ko'ra, bir bor ko'rmoq afzalroqdir" deb bezij aytilmagan.

Shu bilan birga ko'rgazmali ma'lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko'rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi. Og'zaki ma'lumotning o'zlashtirilishi esa, bunga bog'liq bo'ladi. O'zni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvollar ko'rgazmali ma'lumotni qabul etish o'qitish samarasini oshiradi ya'ni o'quv-ilmiiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma'lumotni ko'paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o'qitishni individuallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

7. Xatoliklarga tayanish tamoyili - bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga talabalarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi talabada tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

8. O'quv vaqtini tejash tamoyili - bu tamoyil talabalarda individual va mustaqil ishlash uchun o'quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo'naltirilgan bo'ladi. To'g'ri tashkil qilingan modulli o'qitish o'qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli

o'qitishning barcha tamoyillari to'la amalga oshirilganda, o'quv jarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o'quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o'qitish – talabalarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o'qitishda fan tarkibidagi modullar



orasidagi uzviylikni ta'minlashga o'qitishni jadallashtirishga talabalarning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o'rgatishga hamda o'quv materialini bosqichma-bosqich o'qitish orqali fanni

samarali o'zlashtirishga erishiladi.

8.3. Modulli-kredit texnologiyasi

Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi. Bugungi kunda taraqqiyparvar insoniyat davlatlar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy sohalarda o'zaro kelishuvga erishish, hamkorlikni yo'lga qo'yishning yangidan yangi yo'llarini izlashda davom etmoqda. Binobarin, yuqorida aytib o'tilganidek, insoniyatning omon qolishi va rivojlanishda davom etishining yagona chorasi irqiy, etnik, diniy ziddiyatlarga barham berish va o'zaro birlik, hamkorlik, hamjihatlikka erishishdir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab barcha sohalarda bo'lgani kabi oliy ta'lim tizimida ham xalqaro hamkorlikka erishish, oliy ma'lumotli, malakali kadrlarni tayyorlashga yagona yondashuvni qaror toptirish yo'lida amaliy harakatlar olib borilmoqda. 1954 yilning 19 dekabrda qabul qilingan Yevropa kengashining Yevropa madaniyati konvensiyasi ham dastlab mazkur mintaqa davlatlari miqyosida oliy

ma'lumotli, malakali kadrlarni tayyorlashga nisbatan yagona yondashuvning qaror topishi uchun zamin tayyorlagan edi. Hozirda esa u jahonning ko'plab mamlakatlari universitet (institut, akademiya)lari faoliyatining o'qitish tizimida yagona malakaviy talablar asosida tashkil etilishida muhim hujjat bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur Konvensiya g'oyalari Yevropa hududida shaxs tafakkurini shakllantirishda ko'p tillikka asoslanish uchun zarur shart-sharoitlarni hosil qilishdan iborat edi. Konvensiyani imzolovchi tomonlar o'z hududlarida fuqarolar tomonidan Yevropa hududida mavjud bo'lgan tillar, turli millatlarning tarixi va rivojlanish taraqqiyotini o'rganish hamda o'z hududida boshqalarga o'z tili yoki boshqa tillarni o'rgatish imkoniyatini yaratib berish¹lari zarur edi.

Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta'lim makonini yaratilishi uchun ilk qadamlar 1949 yilda qo'yildi. Xuddi shu yili asosiy maqsadi Yevropada ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar kechishi va birligini ta'minlashdan iborat bo'lgan birinchi xalqaro tashkilot – Yevropa Kengashi tashkil etildi.

Bolonya jarayoni yagona Yevropa oliy ta'limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro uyg'unlashuvi jarayonidir. Ushbu jarayonning rasman boshlanish muddati 1999 yilning 19 iyuni deb e'tirof etilgan. Binobarin, xuddi mana shu sanada 29 mamlakat vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolangan edi. Ayni vaqtda mazkur tizim o'ziga 1954 yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Yevropa madaniyati Konvensiyasini ratifikatsiya qilgan (oliy davlat hokimiyati organi tasdiqlagan) 49 mamlakatdan 47 ishtirokchi mamlakatlarni qamrab olgan.

Bolonya tizimining asosiy maqsadi ijtimoiy sub'ektlar tomonidan oliy ma'lumot olish imkonini kengaytirish, Yevropa oliy ta'limining sifati va samaradorligini istiqbolli oshirish, talabalar hamda o'qituvchilarning harakatchanligi, faolligini rivojlantirish, shuningdek, akademik daraja va boshqa kasbiy malakalarning mehnat bozoriga yo'naltirgan holda oliy

¹ Болоньский процесс // <http://sun.tsu.ru/mminfo/000063105/340/image/340-081.pdf>.

ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan muvaffaqiyatli ta'minlashdan iborat. Mazkur tizimni qabul qilgan mamlakatlar oliy kasbiy ta'limni zamonaviylashtirish, oliy o'quv yurtlarining Yevropa komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladigan turli loyihalarda teng huquqlilik, hamkorlik asosida qatnashish, talabalar va o'qituvchilarni o'zaro akademik almashtirish uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar.

Tizimning umumiy asoslari Bolonya shahrida imzolangan deklaratsiyada o'z ifodasini topgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Diplom ilovasiga ko'ra fuqarolarni ishga samarali joylashtirish, Yevropa oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatga bardoshlilikini oshirish imkoniyatini yaratadigan o'zaro muvofiq keluvchi akademik darajalar tizimni qabul qilish.

2. Ikki siklli: tayyorgarlik va bitiruv ta'limiga o'tish. Ta'limning birinchi sikli uch yil davom etadi. Ikkinchi sikl esa magistrlik va doktorlik darajalarini olish uchun yo'naltiriladi.

3. Keng ko'lamda talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlash uchun mashaqqatli sinov birliklarini qayta topshirishning Yevropa tizimiga o'tish. Mazkur tizim talabalarning o'rganiladigan fanlarni tanlash huquqiga ega bo'lishlari uchun imkoniyat yaratadi. Buning uchun asos sifatida "Umr bo'yi ta'lim olish" konsepsiyasi doirasida qo'llash imkonini beradigan tizim - YeSBT (Evropa sinov birliklari tizimi)ni qabul qilish taklif etiladi.

4. O'qituvchilar almashinuvini rivojlantirish. Yevropa hududida ishga sarflanadigan vaqt davrini inobatga olgan holda o'qituvchilar va b. xodimlar almashuvini kengashtirish. Transmilliy ta'lim standartlarini o'rnatish.

5. O'zaro mos mezon va metodologiyalarni ishlab chiqish hamda sifatini ta'minlashda Yevropa hamkorligini qaror topshirishga ko'maklashish.

6. Oliy ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini ishlab chiqish va oliy o'quv yurtlari talabalar va xodimlari faoliyatini tashqi baholashga tortish.

7. Oliy ta'limda, ayniqsa, o'quv rejalarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalariaro hamkorlik, talaba va o'qituvchilar almashinuvi va birgalikdagi ta'lim dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga oid amaliy

tayyorgarlik va ularni olib borish borasida zarur evropacha nuqtai nazarlarning shakllanishiga ko‘maklashish.

Deklaratsiyaga a‘zo bo‘lish uchun quyidagi dastlabki talablar qo‘yiladi:

- oliy o‘quv yurtigacha 12 yillik ta‘lim;
- ikki bosqichli oliy ta‘lim-bakalavriat va magistratura;
- o‘quv jarayoni va o‘qitish natijalarini baholash YeSTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi

Bolonya deklaratsiyasiga a‘zo davlatlarda ta‘lim modul-kredit tizimiga asoslanadi. 1989 yilda Yevropada Yevropa hamjamiyatining **ERASMUS** (European Community Action Scheme for mobility of University students) va **TEMPUS** kabi dasturlar joriy etildi.

2001 yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta‘lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Bugungi kunda ERASMUS dasturi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati universitetlari o‘rtasidagi talabalar almashinuvi 145 ta oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan. Ular o‘rtasida Yevropa universitetlari ta‘limi natijalarini o‘zaro tan olish tizimi – **YeSTS** (European Credit Transfer System) shakllantirilgan.

“**Kredit**” atamasi (ESTS-credit) – “sinovdan o‘tdi” ma‘nosini anglatib, talabanning o‘quv yurtida ma‘lum bir kurs (modul)ni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi

Modul-kredit tizimi – har bir o‘quv fani (moduli)ning talabalar tomonidan ma‘lum miqdordagi kredit birliklari asosida o‘zlashtirilishini ta‘minlovchi tizim

Kredit birliklarining soni talabalar tomonidan sarflanadigan mehnat sarfiga mos holda belgilanadi. **Talabanning mehnat sarfi** – auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar va o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan boshqa faoliyatlarini o‘z ichiga oladi. O‘quv fani (modul)ni o‘rganish uchun talaba tomonidan sarflangan umumiy mehnat sarfi miqdori (auditoriya va mustaqil ish soatlari) bir o‘quv yilida 750-800 soatni tashkil etishi lozim. Ayni o‘rinda aytib o‘tish zarurki, kreditlar auditoriya soatlari bilan chegaralanib qolmay, balki talabanning auditoriyadan tashqari sharoitda

ham o‘quv fani (moduli)ni o‘zlashtirish uchun sarflaydigan yuklamani ham inobatga olgan holda belgilanadi.

Odatda o‘quv rejasiga kiritilgan fanlar bo‘yicha ajratiladigan kreditlar soni 3 ga teng. Ba‘zan o‘quv fani uchun ajratilgan kredit soni 3 tadan ko‘p yoki kam bo‘lishi mumkin. Kreditlar barcha (majburiy va ixtiyoriy) tanlangan o‘quv fanlari bo‘yicha taqsimlanadi.

Kreditlarning taqsimlanishida fan bo‘yicha kurs loyihalari va amaliy ishlarining mavjudligi inobatga olinadi. O‘quv fani uchun ajratiladigan kreditlar miqdori fanning murakkabligi hamda talabalar tomonidan uning o‘zlashtirilishiga bog‘liq bo‘ladi. YeSTSda kreditlar yig‘indisi semestrda – 30 tani, o‘quv yili davomida – 60 tani, bakalavriat davrida esa – 240 ni tashkil etadi.

YeSTS kredit texnologiyasiga o‘tishdan ko‘zlangan maqsad talabalarga xorijda o‘qishni davom ettirish uchun oliy yurtini tanlashda shart-sharoit yaratish; muayyan davlatdagi mavjud ta‘lim olish muddatining xorijiy davlatlarda tan olinishini ta‘minlash; Yevropa oliy o‘quv yurtlari o‘quv rejalarini o‘rganish va shu asosida o‘quv jarayonini takomillashtirish; talabalar qobiliyatini to‘la rivojlantirish va o‘qitishning yuqori natijalariga erishish.

Modul-kredit tizimi ham muayyan tamoyillarga tayanadi. Ular:

1. Transferancy – YeSTS tizimiga xohlagan shaxs yoki tashkilotning to‘siqsiz kirishiga shart-sharoit yaratish. Ushbu shart-sharoit kuchli axborot targ‘iboti vositasida yaratiladi, uning natijasida umumiy yangilik, aniqlik va ochiqlik muhiti shakllantiriladi.

Axborot targ‘iboti quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) almashish sxemasiga kiritilgan talabalarining o‘qish natijalari haqida bir-biriga o‘z vaqtida axborot etkazib turish; 2) oliy o‘quv yurtlarining o‘z axborot paketlari bilan muntazam almashib turishlari, ta‘lim xizmatlari doirasida bir-birini imkoniyatlarini o‘rganish; 3) oliy o‘quv yurtlarida, YeSTS haqida to‘la ma‘lumotlarning mavjudligi.

2. Agreement – talaba bilan ikkala oliy ta‘lim muassasasining YeSTS koordinatorlari orasida tayyorlash mazmuni, o‘quv tartibi va muddatlari, attestatsiya tadbirlari, o‘quv rejalaridagi farqni bartaraf etish tartiblari haqida o‘zaro kelishuvlarini anglatadi.

3. Sredits – Host (talaba qabul qiladigan) universitetida muvaffaqiyatli o‘tilgan barcha fanlar Post (talabani boshqa OTMga yuborgan) universitetda hisobga olinishi zarur.

4. Ta’limning insonparvarlashuvi – shaxsning turli ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi va ta’lim jarayonida inson qobiyatining ochilishini anglatadi. YeSTS ta’limni davom ettirish uchun oliy ta’lim muassasasini, o‘quv fanlarini va o‘qituvchilarni tanlash imkoniyatini beradi.

5. Ta’limning individuallashtiruv har bir talabaning individual reja va ta’lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70 % ni, majburiy fanlar esa 30 % dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70 % ni, auditoriyadagi ishi esa 30 % ni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar individual ta’limni tashkil qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

6. Ta’limning samaradorligi guruhda individual o‘qitishli auditoriya mashg‘ulotlari va talabaning mustavqil ishlarini uyg‘unlashtirish orqali ta’minlanadi. Auditoriya o‘quv vaqtining 70% gacha qismini individual o‘qitishga, shuningdek umumiy o‘quv vaqtining 70%gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o‘quv fanlarining talabalar tomonidan o‘z qobiliyatlari darajasida o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Bu asosida ta’limning samaradorligi ta’minlanadi.

Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi, OTMning jihozlanganligi, professor-o‘qituvchilar tarkibi faqat darajali, yuqori malakali kadrlardan iborat bo‘lishi, o‘qitishning yuqori sifatlari – YeSTS uchun dastlabki zaruriy talablar hisoblanadi. O‘quv jarayonini tashkil etishning ushbu tizimi, quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘quv rejasi bo‘yicha barcha o‘quv fanlari ikki guruhga bo‘linadi:

1) majburiy fanlar;

2) talaba tomonidan ixtiyoriy tanlanadigan fanlar.

Ular taxminan 1:2 nisbatda bo‘ladi.

Har bir talaba shaxsiy o‘quv rejasiga ega bo‘lishi zarur. Qolaversa, talaba har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchini tanlash huquqiga ega.

Modul-kredit tizimi uchun har bir semestrda o‘rganiladigan fanlarning soni kamida 3 ta, ko‘pi bilan 7 ta bo‘lishi, mustaqil ishga

ajratilgan soatlarning auditoriya soatlaridan ko'pligi o'ziga xos jihatlar sanaladi.

Asosiy hujjat transkript (transcript of records) – unifikatsiyalashgan hujjat bo'lib, yagona shaklga ega

Transkript ta'lim natijalarining tan olinishi uchun majburiy hujjat sanaladi. Unda talaba o'qiyotgan davlatda qabul qilingan baholash tizimi hamda o'z mamlakatida olgan baholari to'g'risidagi ma'lumot beriladi.

O'quv fanlari bo'yicha dasturlar "sillabus" deb nomlanib, ular quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

- o'quv fanining to'liq nomi va uning o'quv rejasidagi tartib raqami;
- o'quv fanini o'rganishdan ko'zlangan maqsad;
- o'quv fanining qisqacha mazmuni;
- mashg'ulotlar jadvali ilovasiga asoslangan taqvimiy reja;
- o'qitish texnologiyasi;
- talabaning mas'uliyati va unga qo'yilgan talablar;
- talabalar bilimni baholash tartibi va mezonlari;
- asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

Modul-kredit tizimiga ko'ra o'quv mashg'ulotlari shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari va talabaning mustaqil o'qib-o'rganishiga asoslanadi.

- oliy ta'lim muassasasi haqida ma'lumot;
- o'quv rejasi;
- o'quv jarayonining grafigi;
- o'quv fanlarining mazmuni;
- OTMda mavjud bo'lgan o'qitish tizimining
- metodik xususiyatlari haqida ma'lumotlar:
- talabalar bilimni baholash tizimi va
- baholar shkalasi haqida ma'lumotlar;
- ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarga oid ma'lumotlar;
- OTM faoliyatining tarixiy taraqqiyoti va uning zamonaviy rivojiga oid ma'lumotlar;
- qo'shimcha ta'lim xizmatlari to'g'risida ma'lumotlar

Ta'limning birinchi bosqichida har bir talabaga axborot paketi beriladi. Unda ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular talabalarga modul-kredit tizimi bo'yicha muvaffaqiyatli ta'lim olish shartlaridan xabardor bo'lish imkoniyatini yaratadi:

O‘quv kreditlarini hisoblashda haftalik auditoriya o‘quv yuklamasi 36, talabalarning haftalik mehnat sarfi o‘rtacha 54 soat miqdorida qabul qilingan.

Modul-kredit tizimi bo‘yicha tashkil etiladigan ta’lim uchun ham ta’lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv rejasi ta’lim jarayoni uchun asosi bo‘lib xizmat qiladi. Aynan o‘quv rejasiga muvofiq o‘quv faoliyatining turlari bo‘yicha talabalar tomonidan sarflanadigan mehnat sarflari aniqlanadi. O‘quv faoliyati turlari bo‘yicha mehnat sarflarini hisoblash taxminan shunday kechadi (4-jadval):

4-jadval. O‘quv faoliyati turlari bo‘yicha kreditlar taqsimoti (namuna)

№	DTS asosida o‘quv faoliyatining nomi	Haftalar soni	Auditoriya soatlari	Umumiy o‘quv yuklamasi	Kredit
1.	Nazariy va amaliy ta’lim	136	[136·36]	136·54=7344	7344·0,029=213
2.	Pedagogik amaliyot	8	288	432	13
3.	Bitiruv ishi	5	5·36=180	5·54=270	8
4.	Attestatsiya	19	-	-	6
5.	Ta’til	32	-	-	
Jami:		204	5508	8262	240

Kreditlarni hisoblash va ularni o‘quv faoliyatlari turlari, bloklar va alohida fanlar bo‘yicha taqsimlashda o‘tish koeffitsienti ($K_{o,t}$)ni aniqlash talab etiladi:

$$K_{o,t} = 240 : 8262 = 0,029$$

Bu erda: 240 – bakalavriatning YeSTS bo‘yicha umumiy mehnat sarflari yig‘indisi, soat.

Jami kreditlar soni talabalarning mehnat sarfiga ko‘ra o‘tish koeffitsienti (0,029)ga ko‘paytiriladi.

O‘quv faoliyatining turlari, bloklar va alohida o‘quv bo‘yicha kreditlarni hisoblash quyidagi namuna bo‘yicha amalga oshiriladi (5-jadval):

5-jadval. Fanlar bloklari bo‘yicha kreditlar taqsimoti

№	Fanlar bloklarining nomlanishi	Auditoriya soatlari	Umumiy o‘quv yuklamasi	Kredit
---	--------------------------------	---------------------	------------------------	--------

1.	Umumgumanitar va ijtimoiy fanlar	1214 ($\approx 25\%$)	1726	50
2.	Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar	846 (25%)	1292	37
3.	Umumkasb fanlari	2034 (50%)	3682	89
4.	Ixtisoslik fanlar	468 ($\approx 10\%$)	794	23
5.	Qo‘shimcha fanlar	334 ($\approx 5\%$)	450	14
6.	Malakaviy amaliyot	432 6	648 9	19
7.	Bitiruv ishi	180	270	8
Jami		5508	8262	240

O‘quv jarayoni modul-kredit tizimi asosida tashkil etilganida, odatda 4 balli yoki 100 foizli baho shkalasi qo‘llaniladi. Ya’ni:

A-4 b;
 B-3,5 b;
 C-3 b;
 D -2,5;
 E-2 b;
 F- 1,5 b;
 F-1 b

100 foizli baholash tizimi taxminan quyidagicha taqsimlanadi:

- mashg‘ulotlarda qatnashishi – 5%;
- joriy nazorat (test) – 30 % (odatda 10 % dan 3 marta);
- mustaqil ta’lim – 15 % (o‘rtacha 5 % dan 3 marta);
- laboratoriya ishi – 10 %;
- kurs loyihasi (ishi) – 10 %;

Yevropa mamlakatlarida modul-kredit tizimi bo‘yicha faoliyat yuritayotgan universitetlarda baholash mezonlari va darajalari quyidagicha (6-jadval):

6-jadval. Baholash mezonlari va darajalari

Baholar ta’rifi	Shartli belgisi	O‘zlash-tirish %	Baholash mezonlari	Tayyorgarlik darajasi
A’lo	A	90-100 (baholash)	Bilimlarni umumlashtira oladi, ma’lumotlarni	4-daraja (ijodiy daraja)

			baholaydi, tahlil qiladi, tushunadi, biladi	
Juda yaxshi	V	80-90 (sintez va tahlil)	Bilimlarni sintezlaydi, tahlil qiladi, qo‘llaydi, tushunadi, biladi	3-daraja (ko‘nikma va malakalarga egalikni to‘la namoyish etish darajasi)
Yaxshi	S	70-80 qo‘llash	Bilimlarni qo‘llaydi, tushunadi, biladi	3-daraja (ko‘nikma va malakalarga egalik darajasi)
Qoniqarli	D	tushunish	Bilimlarni tushunadi, biladi	2-daraja (bilimlarni qayta tiklash darajasi)
Etarli	E	50-60 bilish	Bilimlardan xabardor	1-daraja (tasavvur etish darajasi)
Etarli emas, qo‘shimcha yana ishlash talab qilinadi	FY	40-50	Bilimlardan yomon xabardor	0-daraja (yomon tasavvur etish darajasi)
Etarli emas, qo‘shimcha yana juda ham qo‘p ishlash talab qilinadi	F	40 kam	Bilimlardan mutlaqo xabardor emas	0-daraja (mutlaqo tasavvur eta olmaslik darajasi)

O‘quv fani (moduli) materialining 90-100 % o‘zlashtirilishi uchun “a’lo” baho qo‘yiladi. Bu kasbiy tayyorgarlikni 4-darajasiga teng bo‘lib, “ijod darajasi” deb belgilanadi. Agarda o‘quv fani (moduli) dasturi bo‘yicha materiallar kamida 50 % o‘zlashtirilsa, u holda “etarli” bahosi qo‘yiladi va u o‘zlashtirishning “tasavvur etish darajasi” deb belgilanadi. O‘quv fani materiallarining 40 % dan kam o‘zlashtirishi, tayyorgarlikning 0-darajasi (“mutlaqo tasavvur eta olmaslik darajasi”)ga teng hisoblanadi.

Har bir kurs yakunlangandan so‘ng talaba kreditni yakunlaganligi to‘g‘risidagi guvohnomaga ega bo‘ladi.

MASOFALI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

9.1. Masofali o‘qitish texnologiyalari

Masofali o‘qitish zamonaviy ta’limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta’lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda etakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o‘qitish borasida boy tajriba to‘plangan.

Masofaviy ta’lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an’anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim

Masofaviy ta’lim texnologiyasi 1969 yilda Angliya premerministri G.Vilson tashabbusiga ko‘ra shakllantirilgan deb hisoblanadi. Ammo masofadan o‘qitish ancha oldinroq, ya’ni, birinchi barqaror, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan. 1858 yildan boshlab London universitetida barcha xohlovchilarga ularning mustaqil bilim olishlari, barcha ixtisosliklar va barcha sohalardagi akademik daraja uchun imtihon topshirishlariga ruxsat etilgan. 1938 yildan buyon Sirtqi ta’lim bo‘yicha Xalqaro kengash, 1982 yildan boshlab, Masofaviy ta’lim bo‘yicha Xalqaro Kengash nomi bilan mashhur xalqaro ta’lim tashkilotlari sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ochiq universitetlardagi o‘qitish xarajatlari an’anaviy institutlarda o‘qitishga qaraganda 8-10 marta arzon. M: Angliyada turg‘un o‘qitishga 3000, masofaviy o‘qitish orqali bilim olishga esa atiga 300 funt sterling to‘lanadi. Binolarga xizmat ko‘rsatish, jihozlar va laboratoriya uchun xarajatlar, o‘qituvchi, ma’muriyatlar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar shtati qisqaradi. Ta’lim oluvchilarga filiallar tarmog‘i, telestudiya va kompyuter tarmog‘i orqali maslahatlar beriladi. Angliyada o‘quvchilarni tayyorlash dasturi 130 ta kursni o‘z ichiga qamrab oladi, ularning ko‘plari fanlararo bog‘lanish xususiyatiga ega.

Masofaviy ta'lim AQShda o'tgan asrning 60-yillarning o'rtalaridan, Yevropada esa 70-yillarning boshlarida jadal rivojlana boshlandi.

O'qitishning bu shakli ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning bir-birlari hamda o'qitish vositalari bilan o'zaro ta'sirining maqsadga yo'naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo'lib, bunda ta'lim jarayoni ularning geografik fazoviy joylashishiga bog'liq bo'lmaydi. Ta'lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya'ni o'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari, nazorat, o'quv-moddiy, moliyaviy-iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va marketing kabi elementlarni qamrab olgan o'ziga xos pedagogik tizimda kechadi.

Axborot-ta'lim muhiti ma'lumotlarni uzatish vositalari, axborot resurslari, o'zaro muloqot bayonlari, foydalanuvchilarning ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan apparat-dasturiy, tashkiliy-uslubiy ta'minot va boshqalar masofadan ta'limning tizimiy-tashkiliy majmui sanaladi.

Masofaviy ta'lim o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish, turg'un sharoitda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralangan shaxslar, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining tinglovchilari, xorijiy mamlakatlarning ta'lim muassasalarida o'qitish istagida bo'lgan abituriyentlar, ikkinchi mutaxassislikni egallashni xohlovchi kadrlarga juda qulay sharoitni yaratib beradi.

Mazkur ta'limni tashkil etishda o'qituvchilarning faoliyati faqat o'quv axborotlarini uzatish bilan cheklanmaydi. Shu sababli bu turdagi ta'limni tashkil etishga bir necha mutaxassis jalb qilinadi. Ular o'z vazifalariga ko'ra turlicha nomlanadi. Xususan:

1. O'qituvchi – masofaviy ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan o'quv-metodik qo'llanmalarining muallifi.

2. Moderator – masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbatlari va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog (muloqot jarayonining to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi, bildirilayotgan fikrlarni umumlashtiradi, zarur bo'lganda ularni to'g'rilaydi, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilish faoliyatlarini faollashtiradi).

3. Tyutor (lot. “tutorem”) – o‘quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma’ruza o‘qituvchisi bilan talaba o‘rtasida ta’limiy aloqani o‘rnatuvchi pedagog (ustoz, murabbiy).

4. Edvayzer (fr. “avisen” – “o‘ylamoq”, “advisor” – “o‘ylovchi”) bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining ta’lim oluvchilar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi.

5. Fasilitator (lot. “facilis”, ingl. “facilitator” – engil, qulay) – masofaviy ta’lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarining faoliyatini muammoning echimini topishga yo‘naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog.

6. Invigilator – masofaviy ta’lim asosida tashkil etiladigan o‘qitish natijalarini nazorat qiluvchi mutaxassis-pedagog.

Masofaviy ta’lim tizimida produktiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va ilmiy izlanish (tadqiqot) metodlari qo‘llaniladi. Mazkur tizimda o‘qitish vositalari sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

Kitoblar (bosma va elektron shaklda); didaktik materiallar; kompyuter o‘quv tizimlari (oddiy va multimedia shaklida); audio o‘quv axborotlari; video o‘quv axborotlari; virtual stendlar; trenajyorlar; ma’lumotlar bazasi; texnik vositalar – radio, televidenie, magnitofon, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor, videoproektor, kodoskop, kompyuter, Internet tarmog‘i va b.

O‘quv kurslarida bir tinglovchining o‘rniga boshqa tinglovchi qatnashishi, uning o‘rniga sinov topshiriqlarini topshirishning olini olish maqsadida masofaviy ta’lim tizimida nazorat videokonferensiyalarni tashkil etilishiga asoslanadi.

Masofaviy ta’lim tizimiga ko‘ra mashg‘ulotlar ma’ruza, seminar, laboratoriya mashg‘uloti, kurs ishi, sinov, imtihon, maslahat, mustaqil ish kabi shakllarda yo‘lga qo‘yiladi.


Avvaldan yozib olingan videoma’ruzalar ta’lim oluvchilarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish uchun sharoit yaratsa, faksimal aloqa, xabar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda

telekommunikatsiya vositalari – bosma matnlar, audio va videoyozuvlar o‘rni elektron o‘quv-axborot resurslari, dasturlari bilan to‘ldirilmoqda.

Masofadan o‘qitishning tashkiliy-metodik modeli sifatida quyidagilar tavsiflanadi:

- eksternat asosida o‘qitish;
- bir universitet negizida o‘qitish;
- bir necha o‘quv yurtining hamkorligi;
- maxsus masofaviy o‘qitish maqsadida tashkil etilgan avtonom ta’lim muassasalari;
- avtonom o‘qitish tizimlari;
- multimedia dasturi asosida norasmiy integrallashgan masofali o‘qitish;
- vagonalik modeli va b.

Hozirda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda masofaviy ta’limning quyidagi modellari (YuNESKO, 2000 yil) amal qilmoqda (26-rasm):



Quyidagi ushbu modellarning mohiyati ochib beriladi.

1. Birlamchi model (u faqat masofaviy ta’limni tashkil etishga xizmat qiladi; unga ko‘ra ta’limning kunduzgi shakli zarur bo‘lmaydi; ta’lim barcha holatlarda masofadan tashkil etiladi; o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘quv faoliyatining shakl, metod va vositalarini erkinlik tanlash huquqiga ega; hududiy markazlar tashkil etilgan bo‘lib, ularda ta’lim oluvchilar o‘qituvchilardan maslahat olish, yakuniy imtihonlarni topshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi; Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti (United Kingdom Open University) ana shu model asosida faoliyat ko‘rsatadi).

2. Ikkilamchi model (unga ko‘ra ta‘lim qisman OTMda, qisman masofali dastur asosida tashkil etiladi; har ikki holatda ham dars jadvallari, o‘qitish dasturlari, imtihonlar va baholash mezonlari bir xil bo‘lib, e‘tibor amaliy tajribaga, pedagogika innovatsiyalarni tadqiq etishga qaratiladi; Avstraliyadagi Yangi Angliya universiteti (University of New England) shu model asosida ishlaydi).

3. Aralash model (masofaviy ta‘limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model; ta‘lim oluvchilar masofaviy ta‘lim kurslari va universitet dasturlarini o‘zaro parallel ravishda o‘zlashtiradi; an‘anaviy kurslar doirasida virtual seminar, taqdimot va video-ma‘ruzaga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etiladi; bu kabi integrallashgan kurslar Yangi Zelandiyaning Massey universiteti (Massey University, New Zealand)da tashkil etiladi).

4. Konsorsium (lot. “consortium” – “sheriklik”, “birgalikda ishtirok etish”; masofaviy ta‘limni tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma; universitetlar o‘quv materiallarini o‘zaro almashtiradi yoki muayyan vazifalarni o‘zaro bo‘lishib olgan holda bajaradi; m: bir universitet masofaviy ta‘lim uchun o‘quv materiallarini tayyorlasa, ikkinchisi virtual o‘quv guruhlarini o‘qituvchilar bilan ta‘minlaydi yoki masofaviy ta‘lim dasturlarining akkreditatsiyasini ta‘minlaydi; bunday holatda universitet, uning markazlari, fakultetlari, nodavlat tashkilotlari, davlat muassasalari universitetlar bilan hamkorlikka erishishlari mumkin; Kanadadagi Ochiq o‘quv Agentligi (Open Learning Agency, Canada) ushbu model asosida ish ko‘radi).


5. Franchayzing (ingl. “franchise” – “litsenziya”, “huquq”; o‘zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o‘zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta‘lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi; ushbu model asosida ta‘lim oluvchilar garchi muayyan universitetda tahsil olsalarda, konsorsiumga a‘zo etakchi oliy ta‘lim muassasasining talabasi oladigan hajmda sifatli ta‘lim xizmatlaridan foydalanish huquqiga, qolaversa, ular kabi diplomga ega bo‘ladi; Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) bilan o‘zaro hamkorlikka erishgan Sharqiy Yevropadagi qator universitetlar ana shu modelga asoslanib faoliyatni tashkil etadi).

6. Validatsiya (ingl. “validation” – “qondirish”; ta’lim mahsuloti, ta’lim xizmatlari yoki ta’lim tizimi iste’molchilari ehtiyojlarining qondirilishi; masofali ta’limning keng tarqalgan bu modeliga ko‘ra o‘zaro hamkor ta’lim muassasalari tenglik tamoyiliga muvofiq masofaviy ta’limni barcha darajada birgalikda tashkil etish xususida kelishib oladi; ularning biri diplom validatsiyasi, ikkinchisi o‘quv kurslari, dasturlarini akreditatsiya qiladi, uchinchisi namunadagi diplom hamda sertifikatlarni berish uchun mas’ul bo‘ladi, ilmiy darajalar beradi va h.k.).

7. Uzoqlashtirilgan auditoriyalar (unga ko‘ra zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion xarakterdagi ta’lim vositalari keng qo‘llaniladi; bir oliy o‘quv yurtida tashkil etilayotgan o‘quv kurslari, ma’ruza va seminarlar undan uzoq masofada joylashgan ta’lim muassasalarining o‘quv auditoriyalarga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman va radioeshittirish ko‘rinishida uzatiladi; o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi; AQShning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA), Xitoyning markaziy radio va televedenie universiteti (China Central Radio and TV University)da masofaviy ta’limning ushbu modelidan foydalaniladi.

8. Loyihalar (u davlat ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturlari doirasida keng qamrovlik loyihani amalga oshirish uchun mo‘ljallanadi; asosiy e’tibor o‘quv materiallarini tayyorlovchi etakchi mutaxassislar, xodimlar, masofaviy ta’lim kurslarini tashkil etadigan o‘qituvchi va olimlardan iborat ilmiy-metodik markazni shakllantirishga qaratiladi; markaz tomonidan tayyorlangan masofaviy ta’lim kurslari muayyan davlat hududida katta auditoriyaga uzatiladi; loyiha doirasida rejalashtirilgan ishlar bajarilgach (tugatilgach) yakunlanadi; Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar tomonidan qishloq xo‘jaligi, agrotexnika, ekologiya bo‘yicha tashkil etiladigan ana shu modelga misol bo‘la oladi).

Masofaviy ta’lim ham barcha ta’lim turlari kasbi muayyan tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ular (27-rasm):



27-rasm. Masofaviy ta'limining ustuvor tamoyillari

Quyida ushbu tamoyillarning mohiyati ochib beriladi.

1. Interfaollik tamoyili (u talaba va o'qituvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlab qolmay, balki talabalar o'rtasida o'zaro aloqani yuzaga keltiradi).

2. Boshlang'ich bilimlarga egalik tamoyili (masofaviy o'qitish tizimida tinglovchilarning oldindan tayyorgarlik ko'rishlari, texnik vositalari – kompyuter, model, elektron doska va b. bilan ta'minlanishi, Internet aloqa tizimiga ulanishi, tizimda samarali ishlay olish malakalariga ega bo'lishlar muhim).

3. Individuallik tamoyili (bu tamoyil real o'quv jarayonida kirish va oraliq nazoratlari o'tkazilishini, ularning natijalarini tahlili asosida individual o'quv rejalari tuzilishini ifodalaydi).

4. Identifikatsiyalash tamoyil (u masofaviy o'qitish tizimida mustaqil ta'lim natijalarini nazorat qilish shakli bo'lib, talabalarning BKM darajasini o'rganishda bevosita muloqot videokonferensiyalaridan foydalanish, shu maqsadda samarali texnik vositalarni qo'llashni nazarda tutadi).

5. Ta'limning aniq vaqtga asoslanishi tamoyili (unga ko'ra o'quv jadvali qat'iy rejalashtiriladi va rejalashtirilgan jadvalga qat'iy rioya qilinishi nazoratga olinadi).

6. Ta'limning oshkoraligi va o'zgaruvchanligini ta'minlash tamoyili (masofaviy ta'limning yosh, ma'lumoti jihatidan turlicha bo'lgan talabalar uchun qulayligini, o'qitishning ochiq rejalashtirilishini; ta'lim vaqti, sur'ati va joyini erkin tanlash imkoniyati mavjudligini; o'quv mashg'ulotlarida ixtiyoriy qatnasha olishini, izchillik, tizimlilik, uzviylik nuqtai nazaridan o'quv materiallarining muntazam o'zgarib borishini ta'minlash imkoniyatiga egaligi tavsiflaydi).


7. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashning pedagogik maqsadga egaligi tamoyili (unga ko'ra masofaviy ta'lim tizimini loyihalashtirish, yaratish va tashkil etishda mavjud texnik vositalarini maqsadga muvofiq qo'llanilishi tahlil qilib borilishi hamda ularni qo'llashda yo'l qo'yilishi ehtimoli bo'lgan xatolarning oldi olinishi lozim).

O'quv yurtlarida masofaviy ta'limning tashkil etilishi muayyan jarayon sifatida kechadi. Tabiiyki, har bir jarayon ma'lum bosqichlarda amalga oshiriladi. Masofaviy ta'limni tashkil etish bosqichlar quyidagilardir:

O'quv muassasalarida masofaviy ta'limni amalga oshirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (28-rasm):

Ayni o'rinda masofaviy ta'limni amalga oshirish bosqichlarining mohiyati xususida so'z yuritiladi.

1. Tahlil bosqichi (unda o'quv muassasining masofaviy ta'limni tashkil etishga bo'lgan ehtiyoji, ta'lim oluvchilarning soni, ta'lim shakli, metod va vositalari, loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi).



28-rasm. Masofaviy ta'limning ustuvor tamoyillari

2. Loyihalashtirish bosqichi (unda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko'lami va texnik topshiriqlar loyihalashtiriladi).

3. Joriy qilish bosqichi (ushbu bosqichda masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmua tegishli serverda o'rnatiladi, tizimga muvofiq domen tanlanadi; masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuadan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi xodimlarga ish o'rgatish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi).

4. O‘quv kontentlarini yaratish bosqichi (unda soha mutaxassisleri bilan hamkorlikda masofaviy ta’limning asosiy elementlaridan biri – o‘quv kontentlari yaratilib, ular ekspertlar tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladi).

5. Ishga tushirish bosqichi (unda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi; o‘quv jarayoni doimiy nazoratga olinadi; tizim xavfsizligi monitoring qilib boriladi).


6. Rivojlantirish bosqichi (unda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘rilanadi, yangi o‘quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo‘lgan ishlar ko‘lami bajariladi).

Masofaviy ta’lim texnologiyalari ta’limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir


Ushbu texnologiyalar ta’lim axborotlarini taqdim etish, ta’lim axborotlarini uzatish hamda ta’lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari orasida elektron axborot-ta’lim resurslari (EATR) muhim o‘rin tutadi (29-rasm).

Masofaviy ta’lim tizimida EATR elektron axborot tashuvchi vositalar – disketa, SD-ROM, DVD kabilarda o‘quv axborotini tashish yoki Internet tarmog‘i orqali elektron pochta orqali yuborish imkoniyatini ta’minlaydi. Aksariyat hollarda tinglovchilar EATR bo‘yicha o‘quv axborotlarini Internet tarmog‘iga bog‘langan holda tegishli saytlardan oladi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari quyidagicha asosiy talablarga javob bera olishi zarur (30-rasm):



Shu bilan birga masofaviy ta’lim texnologiyalari quyidagi qo‘shimcha talablarga javob bera olishi zarur:



- 1. Adaptatsiya** (ta'lim oluvchining o'z shaxsi, turar-joy sharoiti, moliyaviy ahvoli, psixologik va fiziologik xususiyatlari ko'ra ta'lim jarayoniga moslasha olishi zarurligini ifodalaydi).
- 2. Iqtisodiy muvofiqlik** (bu talab ta'lim tizimini moliyalashtirishda mablag'lar miqdorining cheklanganligini bildiradi).
- 3. O'zgaruvchanlik** (u ta'lim sifati va mazmunini tezkor, izchil, uzluksiz yangilab borish, o'quv manbalari va materiallarini modernizatsiyalash zarurligini anglatadi).
- 4. Nazorat** (o'qitishning barcha bosqichlarida ta'lim natijalarini sifatli nazorat qilish, tinglovchi shaxsini aniqlash muhimligini ifodalaydi)

Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda bu tizimda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilar malakasini oshirishga yuqori talablar qo'yiladi. O'qituvchi malaka oshirish tizimiga kelishlari bilan ta'lim berish sub'ektidan ta'lim olish ob'ektiga aylanadi va o'quv jarayonidagi o'zaro munosabatlar xarakteri o'zgaradi.

9.2. Blended learning

Blended learning (aralash o'qitish) zamonaviy ta'limning nisbatan yangi, biroq, tobora ommalashib borayotgan shakli sanaladi.

Blended learning (aralash o'qitish) – onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli

Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba mustaqil ta'lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi. Guruhli mashg'ulotlar davomida "blended learning" (aralash o'qitish)ning qo'llanilishi tufayli har bir talaba o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi, o'tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o'rganishga tayyorlanadi.

Blended learning (aralash o'qitish) ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi, qo'shimcha materiallar esa talabaga onlayn platforma orqali uzatib beriladi. Talaba mustaqil ta'lim olar ekan, guruhning boshqa a'zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali

hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar vaqt miqdori bo‘yicha o‘zaro mos kelishi turlicha o‘zgarib turishi mumkin. Ta’limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta’lim samarali ravishda qorishtirib yuboriladi.

Aralash ta’lima o‘qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar uchun soatlar hajmi kamaytiriladi degan faraz noto‘g‘ridir.

Blended learning (aralash o‘qitish)ning muvaffaqiyati ta’lim vositalarining to‘g‘ri tanlanishi bilan belgilanadi. Bu ta’lim shaklining afzalligi shundaki, talabaning o‘zi o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligi va ta’lim jarayonining intensivligini o‘zi belgilaydi.

Aralash o‘qitish o‘zida quyidagi Yevropa ta’limi modellarini jamlaydi:

1. Masofaviy ta’lim (distance learning).
2. Auditoriya ta’limi (face-to face learning).
3. Internet ta’limi (online learning).
4. Uzlaksiz ta’lim (lifelong learning)

Bu shakldagi ta’lim quyidagi shaxslar uchun nihoyatda ahamiyatlidir: ish vaqti qat’iy tartibga solinmagan sohalarning xodimlari; ishlab chiqarish ajralmagan holda ta’lim olishlari lozim bo‘lgan korxonalar, tashkilot va firmalarning xodimlari; “jonli muloqotga asoslangan ta’lim” muhitida o‘qishni xohlovchi shaxslar uchun.

Aralash ta’limning tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgaruvchan hisoblanadi. Ayni vaqtda xorijiy mamlakatlarda aralash ta’limning o‘ndan ortiq shakllari mavjud.

O‘qitish amaliyotida aralash ta’lim o‘z “o‘lcham” (ko‘rsatkich)lariga ega. Ular quyidagilardir:

- malakali kadrlar guruhining shakllantirilganligi;
- mahorat darslariga asoslangan ta’lim;
- yuqori darajadagi yutuqlari kafolatlovchi muhit;
- talabalarning o‘z shaxsiy ta’limiy yutuqlari uchun javobgarligi

OTMda blended learning (aralash o‘qitish) quyidagilarga asoslanadi:

1. Onlayn ma'ruza mashg'ulotlari.
2. Onlan amaliy mashg'ulotlar.
3. Internet tarmog'ida muhokama qilinadigan loyiha va guruh ishlari.
4. Onlayn rejimda tashkil etiladigan laboratoriya mashg'ulotlari.
5. Onlayn rejimda mustaqil topshiriladigan test.
6. Onlayn rejimda tashkil etiladigan maslahat

9.3. Vebinar texnologiyalar

Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo'llanilmoqda.

Vebinar texnologiyalar (ingl. "webinar" – web-based seminar) –

- 1) web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminar;
- 2) Internet texnologiyalari va maxsus dasturlar qo'llanilgan holda talaba (tinglovchi)lar bilan interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakli

Garchi "vebinar" tushunchasi shu ma'noni anglatsada, biroq, ta'lim amaliyotida keng ma'noda qo'llanilib, turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo'yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog'ida namoyish etiladigan lavhalar) va ta'lim vositalarini anglatishga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi.

Bu turdagi texnologiyalarning yaratilish tarixi 1980-yillardan – birinchi marta matnli xabarlarni almashish tizimi yaratilgan vaqtdan boshlangan. O'tgan asrning 90-yillarida yanada takomillashgan muloqot tizimi veb-chat hamda juda qisqa vaqtda xabarlarni almashish tizimlari payo bo'ldi. 90-yillarning oxirlariga kelib, birinchi konferens-aloqalarni

tashkil etish tizimi ishlab chiqildi. Shundan so‘ng ko‘plab boshqa muloqot tizimlari, jumladan, Internet tarmog‘idagi konferens-aloqalarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi.

Vebinar mashg‘ulotlarni olib borish uchun pedagoglarning oldiga veb-kamera o‘rnatilib, u tomonidan tashkil etilgan mashg‘ulot tarmoq orqali namoyish etiladi. Bu mashg‘ulotni Yer sharining istalgan nuqtasida ko‘rish, Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter vositasida talabalar va pedagog o‘rtasida muloqotni tashkil etish mumkin. Mashg‘ulot ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqa Veb-ilova xizmati orqali ta‘minlanadi.

Vebinarga ulanishi uchun ishtirokchi (talaba, tinglovchi) o‘z manzilini sayt manzilidagi brauzer qatoriga kiritishi zarur. Talabalar pedagogni tinglagan holda unga savollarni og‘zaki hamda yozma tarzida berishlari mumkin. Pedagog o‘z kompyuterida o‘quv materiallari (matnli hujjatlar, taqdimot slaydlari va b.)ni namoyish etish, virtual doskaga yozish, chizish imkoniyatiga ega. U ishtirokchilarning barchasini ko‘rib turadi va istalgan talaba, tinglovchiga yoki ularning barchasiga bir vaqtning o‘zida e‘tiborni qarata oladi. Boshqacha aytganda mashg‘ulot o‘tayotgan virtual auditoriya to‘la ravishda pedagogga ko‘rinib turadi.

Odatda vebinar mashg‘ulotlar turli shakllarda tashkil etiladi. Jumladan (33-rasm):




Ta'lim shaklining tanlanishi pedagog tomonidan qo'yilgan maqsadan kelib chiqib belgilanadi.

Vebinar mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- talabalar tomonidan o'quv materialining puxta o'zlashtirilishini ta'minlash;
- talabalarning mavjud bilimlarini mustahkamlash;
- jamoada ishlash metodlarini o'zlashtirish;
- o'zaro tajriba almashish;
- kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish;
- hilish faolivati mustaqil tashkil etishda

Odatda vebinar mashg'ulotlar talabalar tomoni o'quv moduli, uning muayyan bo'limi, mavzulari mustaqil o'rganilgandan keyin tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlarning an'anaviy darslardan farqi – ularda har bir talaba, tinglovchi o'quv materialini muhokama qilish va muayyan ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish masalalarini muhokama etisha faol ishtirok etishi mumkin. Mashg'ulotning muvaffaqiyati pedagogning mahoratiga, muloqot jarayonining to'g'ri tashkillashtirishiga, auditoriyaning faolligiga va mashg'ulot shaklining maqsali tanlanganligiga bog'liq.

Vebinar mashg'ulotlar uch bosqichda tashkil etiladi. Ya'ni (34-rasm):



34-rasm. Vebinar mashg'ulotlarning tashkil etilish bosqichlari

Mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagi texnik vosita (qurilma)lar kerak bo'ladi:

1. Shaxsiy kompyuter (u Internetga ulangan bo'lishi lozim).
2. Veb-kamera (kompyuterga ulangan yoki avtonom).
3. Garnitura (mikrofon yoki ovozni qabul qiluvchi moslama – qulqochin, ovozli kranay (kolonka)).
4. Exoni bartaraf etadigan moslama (ishtirokchilardan kimnidir kompyuteridagi karnay miqrofon oldida bo'lib qolsa, u holda boshqalarning ovozi mikrofonga “tushib qoladi” va bu exo hosil qiladi).
5. Dasturiy ta'minot (shaxsiy kompyuterlarda Adobe Flash Player plaginining so'nggi modeli, shuningdek, veb-brauzer (Mozilla Firefox, Google Chrome) o'rnatilishi zarur)

Vebinar mashg'ulotlardan oldin talaba, tinglovchilar bu haqida xabardor qilinadi. Shu maqsadda ularga xabarnoma yuboriladi. Unda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- mashg'ulotning nomi;
- vebinar mashg'ulotni olib boruvchi haqia ma'lumot;
- mashg'ulot sanasi, boshlanish vaqti va davomiyligi;
- mashg'ulot maqsadi va vazifalari;
- vebinarining tarkibiy tuzilmasi va mazmuni (bo'limlar bo'yicha) haqida qisqacha ma'lumot;
- kutilayotgan natijalar

Qo'shimcha ravishda ishtirokchilarga “Vebinarida qanday ishtirok etish mumkin?” nomli qisqacha yo'riqnomani yuborish maqsadga muvofiqdir.

Vebinar mashg'uloti haqidagi xabar masofaviy o'quv kursining “Yangiliklar forumi”da tarqatilishi va tavqimda qayd etilishi kerak. Agarda vebinar mustaqil tashkil etilayotgan bo'lsa, u holda ishtirokchilar mashg'ulot haqida bir hafta oldin xabardor qilinishi, shuningdek, mashg'ulot haqida yana bir bor bir kun va bir soat avval xabar yuborilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu turdagi mashg'ulotning dasturiy ta'minoti mutaxassislar tomonidan ta'minlanadi. Ayni vaqtda vebinar mashg'ulotlar turli tijorat (Webinar.ru, Comdi, Mirapolis Virtual Room va b.) hama erkin tarqatuvchi (OpenMeetings, OnWebinar va h.k.) serverlar yordamida tashkil etiladi.

9.4. Masofaviy ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar

Zamonaviy sharoitda innovatsion xarakterga ega vositalar ham qo'llanilmoqda. Ularning texnologik-didaktik imkoniyati talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirish bilan birga, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bugungi kunda har bir OTMda tashkil etilayotgan o'qitish jarayonida kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, proektor, elektron doska, modem, telefon, internet, multimedia, mikrofon, karnay (kolonka), vebkamera, CD-ROM kabi texnik vositalar, ma'lumotlar ombori (bazasi) va vebinar texnologiyalar kabi innovatsion xarakterga ega vositalar samarali qo'llanilmoqda. Quyida ularning mohiyati haqida to'xtalib o'tiladi.

Kompyuter (ingl. "computer" – hisoblash mashinasi) – ma'lumotlarni qayta ishlash va hisob-kitob ishlarini qat'iy belgilangan tartibda amalga oshiruvchi, shuningdek, ramziy belgilarga asoslangan boshqa vazifalarni bajaradigan dasturiy elektron qurilma yoki tizim. Qurilma tomonidan bajariladigan qat'iy belgilangan tartib dastur deb nomlanadi. Kompyuter quyidagi tarkiyuiy elementlardan tashkil topgan: tizim bloki, monitor, klaviatura, sichqoncha hamda tashqi qurilmalar.

Skaner (ingl. "scanner" ("scan" so'zidan) – sinchiklab razm solmoq, sinchiqlab qaramoq) – qandaydir ob'ekt (odatda tasvir, matn)ni tahlil qilish asosida ob'ekt tasviri (matni)ning raqamli nusxasini hosil qiladigan qurilma. Nusxa olish jarayoni skanerlash deb nomlanadi.

Videoko'z – eshik oldi (ostona)agi vaziyatni televizor yoki videomonitor ekranidan masofaviy kuzatishga mo'ljallangan zamonaviy elektron qurilma. Tashqi tomonan videoko'z oddiy "eshikko'zi"dan hech qanay farq qilmaydi, shu sababli diqqatni o'ziga tortmaydi. Videoko'zning muhim jihati agar u o'rnatilsa, uy, bino ichidagi shaxslarning eshik olida kim turganligini bilish uchun albatta ostonaga kelishi talab etilmaydi.

Videokamera – televizion uzatish kamerasi va video yozuvni amalga oshiradigan qurilmaning o'zaro qorishmasi bo'lib, u dastlab "televizion kamera", "telekamera" tarzida qo'llanilgan. Dastlab kichik hajmli qo'l telekamerasi sifatida qo'llanilgan videokameralar oilaviy video lavhalarni videomagnitafonga yozib olish maqsadida qo'llanilgan. Keyinchalik TV-

kamerava videomagnitafonning o‘zaro qorishmasi sifatida kamkorder (ingl. “camcorder”) paydo bo‘lganidan keyin videokamera jurnalistikada qo‘llanila boshlandi.

Proektor LCD (ingl. “liquid crystal display” – LCD) – bir yoki bir nechta suyuq kristalli matritsaan iborat bo‘lib, tasvirni ekranga uzatib berishga xizmat qiladigan qurilma. Undan foyalanish vaqtida tasvirning syujetidan kelib chiqqan holda tasvirni yorqinlashtirish va keskin o‘zgarishlarni bartaraf etishga to‘g‘ri keladi.

Elektron doska (ingl. “interactive whiteboard” – interfaol doska) – katta sensorli ekranga ega qurilma bo‘lib, u kompyuter va proektor ham kiradigan tizimning bir qismi sanaladi. Proektor yordamida kompyuterning “Ish stoli”dagi tasvir elektron (interfaol) doskaning yuzasiga chiqariladi, natijada doska “ekran”ga aylanadi. Doskaga uzatib berilgan tasvirni o‘zgartirish, unda ma’lum o‘zgarishlarni hosil qilish yoki unga belgilar qo‘yish mumkin. Barcha o‘zgartirishlar mos ravishda kompyuterda faylga yozib olinadi, uni saqlab qo‘yish fleshka yoki diskka yozib olish, qayta ishlash mumkin. Bu vaziyatda elektron doska axborotni kirituvchi qurilma sifatida namoyon bo‘ladi. Doskani maxsus stilus yoki qo‘lni unga salgina tekkizish orqali boshqarish mumkin. Doska va kompyuter o‘rtasidagi aloqa ikki yoqlama bo‘lib, qo‘l yoki doskaning ruchkasi (stilusi) xuddi sichqoncha kabi ishlaydi.

Modem (“modulyatsiya”, “demodulyatsiya” so‘zlaridan olingan) – uzluksiz signallarni raqamli ma’lumot (modulyatsiya)larga va raqamli ma’lumotlarni esa uzluksiz signal (demodulyatsiya) lariga aylantirib beradigan qurilma. Kompyuter telefon tarmog‘i orqali axborot almashish maqsadida ishlatilayotganda tarmoqdan uzatilayotgan signallarni qabul qilish va ularni raqamli axborotlarga aylantirish imkonini beradigan qurilmaning mavjud bo‘lishi taqozo etiladi. Modemning vazifasi kompyuter uzatilgan signalni telefon tarmog‘ining ish chastotasi diapozoniga mos chastotali elektr signaliga aylantirib berish, shuningdek, kompyuterlararo aloqani o‘rnatishdan iborat. Ushbu qurilma o‘zining kommunikasion dasturlariga ega. Mazkur dasturlar uzoq masofalarga ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish imkonini yaratadi.

Telefon (qad. yunon. “uzoq” + “ovoz” – uzoqdagi ovoz) – muayyan masofadan turib, ovozni uzatish va qabul qilib olishga mo‘ljallangan apparat. Zamonaviy telefonlar elektr signallarni bevosita yuborish imkoniyatiga ega.

Internet (angl. “Internet” – butunjahon kompyuter tarmoqlarining birlashgan tizimi) – dunyoning barcha nuqtalaridagi o‘n minglab axborotlarni saqlovchi va uzatib beruvchi kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi ulkan butunjahon kompyuterlar tarmog‘i; uning vazifasi xohlovchilarga istalgan ma’lumotlarni etkazib berishdan iborat. Ko‘p hollarda “Butunahon tarmog‘i”, “Global tarmoq” yoki oddiygina “Tarmoq” deb nomlanadi. Internet asosida Butunjahon o‘rgamchak to‘ri (World Wide Web – WWW), shuningdek, juda ko‘plab boshqa ma’lumotlarni etkazib beruvchi tizimlar ishlaydi

Elektronnaya pochta (ingl. “electronic mail” tushunchasidan olingan; “email”, “e-mail”) – 1) joylashgan o‘rni, xabar matni yoki fayl (hujjat, fotosurat va h.k.)an qat’iy nazar boshqa shaxsga ma’lumotlarni yuborish imkoniyatini beradigan elektron pochta; 2) kompyuter tarmog‘i, shuningdek, Internetdan foydalanuvchilar o‘rtasida elektron xabarlarni almashish va olish borasida ko‘rsatiladigan xizmat; texnologiya. Odatda elektron pochta orqali yuborilgan xabar elektron xat (maktub) yoki e-mail (imeyl), pochtaning o‘zi esa quti (elektron quti) deb nomlanadi. Mazkur pochta tarkibiy elementlari, ishlash tamoyillari va xarakterli xususiyatlari (foydalanishning oddiyliigi, etkazib berishda ma’lumotlarning biroz tutib turilishi, etarli darajadagi ishonchlilik, qolaversa, etkazib berish kafolatining mavjud emasligi)ga ko‘ra amalda oddiy (qog‘oz orqali yuboriladigan) pochtaning o‘zi bo‘lib, unda ham pochta, xat (maktub), konvert, quti, etkazib berish va b. tushunchalar qo‘llaniladi.

Multimedia (ingl. “multi” – ko‘p, “media” – muhit) – bitta raqamli taqdim etishda matn, ovoz, garfika, foto, videoni birlashtiradigan zamonaviy texnik va dasturiy vositalarni qo‘llash asosida interfaol dasturiy ta’minot boshqaruviga ko‘ra sodir bo‘ladigan vizual va audioeffektlarning o‘zaro ta’siri. O‘quv jarayonida kompyuter dastur (tizim)lari, mustaqil ta’lim uchun turli topshiriqlar ko‘rinishdagi kompyuter modellari, o‘quv mashg‘ulotlarining turli bosqichlarida hal etiladigan o‘quv-bilish

vazifalari, kompyuter o‘quv o‘yinlari, shuningdek, Internet tarmog‘idagi ta’limiy veb-sahifalar kabi multimedia mahsulotlaridan foydalaniladi.

Mikrofon – turli xil ovozli animatsiya (Windows tizimi yoki MSWord matn muharriri) va taqdimotlarni tayyorlashda qo‘llaniladigan qurilma. Animatsiyalar to‘liq ovozli shaklda tayyorlanadi.

Karnay (kolonka) – Windows tizimi yoki MSWord matn muharririda qo‘llaniladigan ovozli animatsiya va taqdimotlarni namoyish etishda ovozlarni kompyuterdan foydalanuvchiga eshitishga xizmat qiladigan qurilma. Uning asosiy vazifasi ovoz (musiqa, ovoz va b.)ni qurilma orqali chiqarib va kuchaytirib berishdan iborat.

Vebkamera – kompyuterlararo videotasvirlarni uzatuvchi qurilma. U xalqaro Internet tarmog‘i xizmatidan foydalanishda qo‘llaniladi. Vebkamera yordamida dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan sub’ektni ko‘rish, u bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘linadi.

Internetda skayp tizimidan foydalangan davebkamera qo‘llaniladi. Bunda videoqo‘ng‘iroqlarni, konferensaloqalarni amalga oshirish mumkin.

CD-ROM (CompactDiskReadOnlyMemory) – faqat o‘qish maqsadida foydalaniladigan lazerli qurilma, lazerli (kompakt) disk. Ushbu disk o‘zida 650 Mbayt (700 Mbayt) hajmdagi ma’lumotni sig‘diradi, uni ishlatish qulay B ma’lumotlarni almashishda tezkorlik ta’minlanadi. Lazerli (kompakt) diskning CD-ROM (o‘qish uchun) va CD-Writer (yozuvchi; ma’lumot va dasturlarni yozish uchun) ko‘rinishlari mavjud.

9.5. Mahorat darslari

Mahorat darslari zamonaviy ta’limning yana bir tobora ommalashayotgan shakli sanaladi.

Mahorat darslari – ochiq tashkil etilib, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilgan samarali o‘qitish shakli

Bu shakldagi o‘qitish bir martalik sanaladi. Mahorat darslarini tashkil etishda ko‘p yillik ish tajribasiga ega, shuningdek, samarali metodika yoki texnologiyaga ega innovator pedagoglarning kasbiy malakalari ochiq tarzda, interfaol muloqot asosida hamkasb pedagoglar hamda talabalarga namoyish etiladi.

Malakali pedagoglar tomonidan mahorat darslarini tashkil etishda quyidagi vazifalar bajariladi:

Mahorat darslarini tashkil etish natijasi sifatida quyidagi mahsulotlar yaratilishi mumkin:

- pedagoglarning ijodiy ishlari mahsuli (dastur, metodik qo‘llanma);
- mashg‘ulotlar uchun tarqatma materiallar;
- pedagogik adabiyot va manbalar kartotekasi;
- ta’lim va tarbiyaning yangi shakllarini metodik jihatdan asoslash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni shakllantirish;
- malaka oshirish kurslari, seminarlar, praktikumlarning dasturlari;
- ijodiy va ommaviy xarakterdagi tadbirlar Nizomi va b.

- muayyan muammo bo‘yicha tajribali, mahoratli pedagogning ish tajribasining ommalashtirilishi;
- tajribali, mahoratli pedagog tomonidan izchil harakatlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri va izohli namoyish etish orqali pedagogik faoliyatda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish tartibining ko‘rsatilishi;
- malakali, mahorali pedagogning metodik yondashuvlarini belgilangan muammoni hal etish usullari bilan o‘zaro muvofiqlashtirish;
- mahorali pedagog tomonidan o‘zining kasbiy malakalarining shogird (talaba)larga o‘rgatilishi;
- talabalarning kasbiy takomillashuvlari uchun mahorali pedagog tomonidan yoram ko‘rsatilishi;
- pedagog xodimlar o‘rtasida innovatsion g‘oya, texnologiyalarni ommalashtirish;
- mahorat darslari ishtirokchilari (talabalar)ning kasbiy kompetentliklarini oshirish;
- mahorat darslarning har bir ishtirokchisida individual ijodiy pedagogik faoliyat uslubini shakllantirish

9.6. “Keys-stadi” texnologiyasi

So‘nggi vaqtlarda “Keys-stadi” metodi xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda va bugungi kunda respublika ta’limida ham tobora ommalashib bormoqda. Shu sababli ayni o‘rinda ushbu metod (texnologiya)¹ mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

¹ Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.; Сборник кейсов для вузов по

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – 1) talabalarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;
2) real vaziyatlarni bayon etishda qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi

Texnologiyaning asosiy vazifalari¹ quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish

Darhaqiqat, keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va talaba (talaba) o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

“Keys-stadi” texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta’lim jarayonida qo‘llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo‘llanila boshlangan. Keyslarning ilk to‘plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan². Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng


дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла / Учеб.-мет.пособие. – СПб.: Изд-о Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. – С. 3.

¹ Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.-мет.пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО “Удмуртский университет”, 2013. – С.

² Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.

qoʻllanilmoqda. Oʻzbekistonda mazkur texnologiyani taʼlim jarayoniga tatbiq etish yoʻlidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Zamonaviy oʻqitish amaliyotida oʻquv keyslarining quyidagi turlari qoʻllanilmoqda (31-rasm):



Taʼlimda qoʻllaniladigan “Keys-stadi”ning tayyor variantlari ham mavjud boʻlib, ularni sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yoʻl har bir fan boʻyicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. Birgina Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ularning narxi 10 \$. Ammo baʼzi keyslarning narxi 500 ta 1000 \$ gacha. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar oʻzlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shugʻullanadi.

Texnologiya talabalarda predmetni oʻzlashtirishga boʻlgan qiziqishni, amaliy koʻnikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va toʻgʻri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol oʻzlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

“Keys-stadi” yordamida talabalar quyidagi koʻnikma, malakalar¹ga ega boʻladi:

¹ Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 81-б.

- 1. Tahliliy ko‘nikmalar** (ma’lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma’lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).
- 2. Amaliy ko‘nikmalar** (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo‘llay bilish).
- 3. Ijodiy ko‘nikmalar** (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).
- 4. Muloqot ko‘nikmalari** (unga ko‘ra talaba bahs-munozara olib borish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtira bilishi zarur).
- 5. Ijtimoiy ko‘nikmalar** (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o‘zgalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o‘zini boshqara olishi lozim).
- 6. O‘z-o‘zini tahlil** (bahs-munozara jarayonida o‘zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo‘lishi muhim)

Har o‘qituvchi keys-stadiga asoslangan o‘quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo‘lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e’tiborni qaratish talab etiladi.

- maqsad aniq ifoda etish (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) tushunilmasligi;
- savol yoki topshiriqlar ma’lum darajada murakkab bo‘lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish;
- tezda o‘zining amaliy ahamiyatini yo‘qotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o‘zida namoyon eta olishi;
- ta’limning barcha yo‘nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo‘lishi;
- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta’minlay olishi

O‘quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e’tiboriga adabiyotlar ro‘yxatining

taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning echimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan muammoga bevosita taalluqli bo'lishi zarur. Keyslarni echishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Keys (muammo) bilan tanishing.
2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali yechish yo'llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring

Xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (Evropa), katta (AQSh) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida echiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriyat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiqir. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lmagan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

Aytib o'tilganidek, xorijiy mamlakatlar katta hajmli, murakkab ilmiy-tadqiqot xarakteriga ega keyslar ko'p qo'llaniladi va ularni hal etish butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida amalga oshiriladi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu keyslaran samarali foyalanish mumkin. Shu bilan birga o'rganilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida kichik hajmli, sodda – mini keyslardan ham foydalanish foydadan holi emas. Murakkab va oddiy mini keyslar o'rtasidagi eng muhim farqlar – ularning hajmi, murakkablik darajasi va tarkibiy tuzilmasida aks etadi.

Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

1. Pedagogik annotatsiya.
2. Kirish.
3. Keys (muammo)ning bayoni.
4. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
6. Metodik ko'rsatmalar.
7. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
8. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
9. Keys yechimini tahlil qilish.
10. O'qituvchi (keysolog) ning yechimi

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

1. Keys (muammo)ning bayoni.
2. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.
3. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.
4. Metodik ko'rsatmalar.
5. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).
6. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.
7. Keys yechimini tahlil qilish.
8. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi

Anglanganidek, ta'lim jarayonida o'quv keyslarini qo'llashda jarayon (mashg'ulot) yakunida albatta o'qituvchi (keyolog)ning echimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu echim asosida talabalarning o'z o'quv-bilish harakatlarining qanchalik to'g'ri, samarali, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda topshiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

Agar keys **savolli-keys** bo'lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va echishga oid **bir necha savollar** keltiriladi. M:

1. Yoshlarning "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilishining asosiy omillari nimalardan iborat?

2. Yoshlarning “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilishlarida OAVning o’rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

Agar keys **topshiriqli-keys** bo’lsa, u holda keysni echish jarayonida bajarilishi zarur bo’lgan **topshiriqlar** beriladi. M:

1. Yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni samarali shakllantirish yo’llarini belgilang.



32-rasm. O’quv keyslarining asosiy guruhleri

ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mumkin.

Pedagogik turkum fanlarni o’qitishda qo’llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko’ra B.Blum taksonomiyasi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo’llash tizimi)ga muvofiq bir necha guruhga ajratish mumkin (32-rasm):

Pedagogik turkum fanlarni o’qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o’rinli foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi. Quyidagi misollar ushbu fikrning to’g’riligini tasdiqlaydi.

1. Pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.

Keys bayoni. Sobir o’rta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida “uch” baholar ko’p bo’lganligi, salbiy xulqqa egaligi

sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadi. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq, Sobirning ota-onasi har gal o‘g‘illarini o‘zlari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta’lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Keys savollari:

1. Aytinch, kasb-hunar kollejlarning rahbarlari Sobirni o‘qishga qabul qilmaslikka haqlimlar?

2. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

O‘qituvchining echimi. Kasb-hunar kolleji rahbarlari ijtimoiy xavf bo‘lmagan holda “uch” bahoga o‘qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko‘zga tashlanishi uchungina Sobirni o‘qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo‘lgan huquqini poymol etishgan. Qolaversa, kasb-hunar kollejlarda ta’lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o‘zlari tanlay oladi.

Bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o‘zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o‘ta olmasa, u holda ana shu kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi.

Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasi) poymol etganliklari sababli kasb-hunar kollejlarning rahbarlari ma’muriy javobgarlikka tortiladi.

2. Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

Keys bayoni. Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o‘rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o‘qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o‘zining karikatura janrida ishlangan rasmini ko‘radi. Karikatura yorqin ishlangan, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh o‘qituvchining karikaturagaya, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutyapti. Biroq, o‘qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: “Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdiki, uni hatto o‘chirgim kelmayapti. Rasm

ijodkori – yosh rassom uni qog‘ozga ko‘chirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!”.

Keys savollari: 1. O‘qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan Siz qanday baholaysiz?

2. Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday tarbiya metodini qo‘lladi?

O‘qituvchining echimi. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘zining tarjribali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani o‘zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san’at asari sifatida qabul qildi. Natijada o‘qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning o‘rniga o‘zining san’atga bo‘lgan muhabbatini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o‘qituvchining irodali, o‘ziga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, hissiyotlarini jilovlay olish, o‘z-o‘zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko‘rsatdi. Oqibatda talabalar o‘qituvchining ruhan barqaror ekanliklarini angladi. Shu sababli keyingi safar ular o‘qituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istashmaydi.

Bayon etilgan vaziyatda o‘qituvchi: 1) **izohlash** (o‘zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganlikni ifodalovchi hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli); 2) xulq va faoliyatni rag‘batlantirish metodlaridan biri bo‘lgan – **qo‘llab-quvvatlash metodidan** foydalandi.

3. Ta’lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo‘naltirilgan keys.

Keys bayoni. Tarix fani o‘qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi:

- 1) ma’lumotlarni izchil bayon qildi;
- 2) zarur o‘rinlarda tayanch tushunchalarga alohida urg‘u berdi;
- 3) xaritadan tarixiy voqelar sodir bo‘lgan joylarni ko‘rsatdi;
- 4) vaqti-vaqti bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi;
- 5) o‘quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

Keys topshirig‘i. O‘qituvchining xatti-harakatlari qanday metodlar yordamida amalga oshirilganligini aniqlang.

O‘qituvchining echimi. Tarix fani o‘qituvchisi qo‘llagan metodlar: 1) hikoya; 2) tushuntirish; 3) tasvirlash; 4) suhbat; 5) namoyish.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan keys.

Keys bayoni. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

- 1) o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining;
- 2) zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi;
- 3) dastlabki bajarilishi o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi.

Ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto'g'ri ko'rsatilgan.

Keys topshirig'i. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifodalang.

O'qituvchining echimi. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:


- 1) o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;
- 2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
- 3) o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;
- 4) zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

5. Pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keys.

Keys bayoni. Og'zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys topshirig'i. Og'zaki bayon qilish metodi turlarini "Baliq skeleti" grafik organayzerida ifodalang.

O'qituvchining echimi:




9.7. O'quv loyihalarini ishlab chiqish texnologiyasi

O'quv loyihalarini ishlab chiqish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda. Xo'sh, o'quv loyahasining o'zi nima? O'quv loyihalarini tayyorlash jarayoni qanday kechadi?

O'quv loyihasi – 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;
 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;
 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita


Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda "o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llaniladi. **O'quv loyihaviy faoliyat** – o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashkil etiladi.

Ular quyidagilardir (35-rasm):




35-rasm. Talabalar o‘quv loyihaviy faoliyati bosqichlari

Talabalar tomonidan juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzularda o‘quv loyihalarini tayyorlash quyidagi bosqichlarda kechadi (36-rasm):



36-rasm. Talabalar tomonidan o‘quv loyihalarini tayyorlash bosqichlari

O‘quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo‘yicha tayyorlanishiga ko‘ra quyidagicha turlanadi (37-rasm):



37-rasm. O'quv loyihalarining turlari

Har bir o'quv loyihasi o'z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko'ra muayyan turga mansub bo'ladi. O'quv loyihalarining asosiy turlari quyidagilardir (7-jadval):

7-jadval. O'quv loyihalari turlarining mohiyati

Axborotli loyihalar	Tadqiqot loyihalari	Amaliy loyihalar
Maqsadi		
Muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	Tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish
Natijasi		
Maqola, referat, ma'ruza, keys va b.	Hisobot, ma'ruza, keys va b.	Harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma to'plami va b.
Loyiha mavzusi (namuna)		

<p>Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi o'qitish sifati va samaradorligini kafolatlay oladimi? Pedagogning innovatsion faoliyati aynan nimalarda aks etadi?</p>	<p>Ish tajribasidan qat'iy nazar har bir pedagog innovator bo'la oladimi? Pedagogning innovatorlik faoliyati darajasi</p>	<p>Pedagogning innovatsion faoliyat malakalarini o'zlashtirish dasturi. Pedagogning innovatsion faoliyatni tashkil etish strategiyasi</p>
<p>Modul Modul</p>		

O'quv loyihalari muayyan topshiriq bo'lib, uning natijasi oddiy bir mahsulotni tayyorlash (m: texnologik xaritani tayyorlash, biror-biror model, deylik, dizaynerlik modelini yaratishdan iborat bo'ladi. Biroq, ayni o'rinda shuni ham qayd etish kerak, "loyiha" tushunchasi negizida hamisha ham amaliy harakatlar natijasida tayyorlangan biror-bir mahsulot tushunilmaydi. Chunki loyiha doirasida nazariy, amaliy va metodik xarakterdagi g'oyalarni yaratish negizida mahsulotni yaratishga to'g'ri keladi.

O'quv loyihalarini tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi muhim o'rin egallaydi. Uning zimmasiga bir qator vazifalar yuklatiladi. Ular:

- loyiha ishi uchun muayyan mavzu, muammoni belgilash;
- loyiha topshiriqlarini ishlab chiqarish;
- loyiha ishini o'quv jadvaliga kiritishi;
- loyiha jarayonini modelini avvaldan ishlab chiqish, topshiriqlarni talabalarning imkoniyatlariga moslashtirish;
- talabalarni loyiha ishi bilan tanishtirish; ularning amaliy faoliyatlari nazorat qilib turish

Amaliyot o'qituvchisi avvaldan quyidagi material va hujjatlarni tayyorlab olishi lozim:

- loyiha (chizma, elektroshema)lar;
- loyihaga taalluqli topshiriqlar bayoni;
- ma'lumot yig'ishga oid yo'naltiruvchi savollar;
- o'quv maqsadlarni yoriuvchi ma'lumotlar

Amaliyot o‘qituvchisi ta’lim jarayonida talabalarning faoliyatlarini nazorat qilib borai va nazorat natijalarini “Nazorat protokoli”ga qayd etadi. Protokol talabalarning faoliyatini baholashga doir mezonlarga ega bo‘lishi lozim.

9.8. Portfolio va nazorat texnologiyalari

Talabalar portfoliolarini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish. Zamonaviy sharoitda nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda o‘quv portfoliosi ham innovatsion xarakterga ega. Ayni o‘rinda ana shu vosita to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladi.

So‘nggi yillarda zamonaviy ta’limda pedagogning kasbiy, talabaning esa o‘quv faoliyatini mazmunan takomillashtirish, shuningdek, har ikki faoliyat turining sifatini ma’lum ko‘rsatkichlar asosida etarlicha, xolis baholashga nisbatan ehtiyoj kuchaymoqda. Portfolio pedagog hamda talabaning faoliyatiga bilvosita baho berish, qay darajada sifatli va samarali ekanligini tahlil qilish imkoniyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, portfoliolar pedagog va talabalarga ularning shaxsi, faoliyati bilan turli ekspertiza (tekshiruv)lar jarayonida komissiya a’zolarini bilvosita tanishish imkoniyatini beradi.

〔 “Portfolio” (ingl. “portfolio” – “portfel”, “hujjatlar solinadigan sumka”) – avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to‘plami 〕


Ushbu to‘plam pedagog yoki talabaning shaxsi, faoliyatining turlari, erishilgan yutuqlari to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlarni berishga xizmat qiladigan individual papka sanaladi. Umuman olganda, portfolio har bir pedagog yoki talabaning maksimal darajada erishgan yutuqlari, ularning ijodiy imkoniyatlari, qiziqish hamda qobiliyatlarini yoritadi.

〔 Portfolio pedagog yoki talaba uchun o‘ziga xos reklamadir 〕

O‘quv portfoliosi. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasida keng qo‘llanilayotgan nazorat vositasi bo‘lgan o‘quv portfoliosi quyidagi imkoniyatlarga egaligiga ko‘ra amaliy ahamiyat kasb etadi:

- ko'p funksiyalilik va o'zining shaxsiy muvafaqqiyatini baholash;
- individual muvafaqqiyatlar monitoringini amalga oshirish;
- imtihonni tashkil etish;
- ta'lim natijalarini xolis belgilash;
- ta'limiy muvafaqqiyatlar hamda qo'shimcha natijalarni aniq ko'ra olish;
- talabaning mavjud imkoniyat va qobiliyatlarini, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ko'ra olish, shaxsiy, kasbiy hamda ijodiy salohiyatiga yetarlicha baho berish

Mohiyatiga ko'ra talabalarning o'quv portfoliolari bir necha turga bo'linadi. Ular (38-rasm):



38-rasm. Talabalar o'quv portfoliolarining asosiy turlari

Quyida talabalar o'quv portfoliolarining turlariga xos xususiyatlar to'g'risida so'z yuritiladi.

1. Hujjatlar portfolioli (bunda talabaning individual ta'limiy muvaffaqiyatlari aks ettiruvchi diplom, faxriy yorliq, guvohnoma va b. jamlanadi).

2. Ishlar portfolioli (unda talaba tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqotlar, ularning natijalarini aks ettiruvchi reyting daftarchasi, ijodiy ish daftari, elektron hujjatlar, modellar, loyihalar, ijtimoiy, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotga doir hisobotlar, talaba tomonidan mustaqil yoki guruhdoshlar bilan hamkorlikda to'plagan adabiyotlar, davriy nashrlarning kseronusxalari, illyustratsiyalar joy oladi).

3. Natijalar portfolioli (bunda talabaning o'zi yoki pedagoglar tomonidan jamlangan talabalarning eng yaxshi ishlari o'rin oladi; natijalar

portfoliosi individual va guruhli bo‘lishi mumkin; ushbu portfolioda aks etgan ma’lumotlar asosida “Eng yaxshi talabalar guruhi” tanlovini tashkil etish mumkin).

4. Baholovchi portfolio (u talabaning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida shakllantiriladi; bu turdagi portfoliodan nazorat ishlari, testlar, chizmalar, krossvordlar va boshqalar o‘rin oladi).

5. Taqrizlar portfoliosi (bunda talaba tomonidan erishgan yutuqlarni baholashga doir xulosa, taqriz, rezyume, esse, tavsiyanoma va tavsifnomalar jamlanadi)

6. Online portfolio (bu kabi portfolio turli shakllarda namoyon bo‘ladi; masalan: 1) talabalar tomonidan oliy ta’lim muassasasi yoki fakultet saytiga materiallarni qo‘shish; 2) shaxsiy veb-saytlarni yaratish; 3) semestr yakunlari bo‘yicha hisobot tayyorlash).

Portfoliolar yaratilishiga ko‘ra ham turlicha bo‘ladi. Ya’ni ular elektron, bosma va qog‘oz variantlarda yaratiladi. Qaysi variantda portfolioni yaratishni sub’ektning o‘zi tanlaydi.

Portfolioda talabaning joriy, oraliq va mustaqil ishlari bo‘yicha bajarigan topshiriqlari, ularga qo‘yilgan o‘zlashtirish ballari ham jamlanib boriladi. Portfolio yurgizish talabaning semestr (kurs) va o‘quv muddati davomidagi o‘zlashtirishi, mustaqil ish topshiriqlarini muntazam ravishda bajarib borganligi to‘g‘risidagi daliliy hujjat hisoblanadi. Portfolio pedagogik jarayonda pedagogga talabaning erishayotgan yutuqlari yuzasidan monitoringni olib borish imkoniyatini yaratadi va o‘zlashtirish ballarining haqqoniy, ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Talabaga esa bilim darajasining qay darajadiligini, uning dinamik o‘zlashini kuzatib borish, kasbiy jihatdan shaxsan rivojlanish darajasini mustakil baholash uchun zarur sharoitni yaratadi.

1. Istiqbolli ish o‘rniga ega bo‘lishda (rahbariyat va hamkasblar yosh mutaxassis bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar).
2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda (tadqiqot natijalarini patentlashtirish imkoniyatini ta’minlaydi).
3. Fan olipiadalarda ishtirok etishda (olipiadaning turli bosqichlarida talabanning imkoniyatlarini baholash va chamalashga muvffaq bo‘linadi).
4. Nomdor hamda Prezident stipendiyasiga talabgor bo‘lishda (tanlov xay’ati talabanning imkoniyatlaridan to‘la xabar bo‘ladi).
5. Shaxsiy maqsadlarni amalga oshirishda (qo‘shimcha faoliyat turi bilan shug‘ullanishda hamkorlarga talaba shaxsini yaqindan tanishtirish imkoniyatini yaratadi)

Quyidagi holatlarda talabalar tomonidan portfoliolarning shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir:

Talabalarning portfoliolari quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi:

- 1) titul;
- 2) mundarija;
- 3) portfolioning maqsadi;

Turiga ko‘ra portfoliolar bir necha bo‘limlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, “Ishlar portfoliosi” quyidagi to‘rtta bo‘limdan tarkib topadi:


1. “Mening qiyofam” (talabanning shaxsiga oid ma’lumotlar talabanning rasmi, esse, anketa, tavsifnomalar asosida beriladi; unda quyidagi lavhalar mavjud: “Mening anketam”; “Tanishing – bu men!”; “Mening o‘ylarim”; - “Men va mening qiziqishlarim”).

2. Portfolio-kollektor (talaba tomonidan mutaxassislik fanlari bo‘yicha to‘plagan materiallar (adabiyotlar ro‘yxati, chizma, jadval va rasmlar, maqolalarning kseronusxalari, kursdoshlarining ijodiy ishlari) o‘rin oladi; bo‘lim quyidagi lavhalardan iborat bo‘lishi mumkin: “Ish stoli”; “Bu qiziq”; “Kursdoshlarim ijodidan”; portfolio-kollektor uncha katta bo‘lmagan o‘ziga xos arxiv sanaladi).

3. Ish materiallari (talabanning o‘zi tomonidan yaratilgan, tizimlashtirilgan barcha materiallar kiritiladi; bo‘limning lavhalari quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Yozma ishlar”, “Ijodiy ishlar”, “Tadqiqot tajribalari”, “Amaliyot ishlanmalari”).

4. Shaxsiy yutuqlar (talabaning yarim, bir o‘quv yili yoki yaxlit ta’lim davrida erishgan yutuqlari, qo‘lga kiritgan natijalari aks etadi; unda quyidagi lavhalar bo‘lishi mumkin: “Mening bunyodkor g‘oyam”; “Mening ta’lim borasidagi tashabbuslarim”).

Talabalarning o‘quv portfoliosini yaratishga qaratilgan amaliy harakat bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ya’ni (39-rasm):



39-rasm. Talabalar o‘quv portfoliosini yaratish bosqichlari

Shunday qilib, bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deb nomlanadi. Bu turdagi ta’lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning innovatsion, hamkorlik, modul, interfaol, individual, dasturiy, loyiha, masofaviy, kompyuter, muammoli, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan va mustaqil ta’lim, shuningdek, o‘yin texnologiyalari kabi turlari farqlanadi. Talabalarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim shakllaridan

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, masofali o‘qitish, blended learning (aralash o‘qitish) va mahorat darslari ta’limning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etilmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida innovatsion xarakterga ega metodlar ham qo‘llanilmoqda. Ular orasida eng keng ommalashgan metodlar yagona nom bilan nomlanuvchi interfaol metodlar sanaladi. Hozirgi kunda ularning 100 dan ortiq turi mavjud bo‘lib, o‘quv materialining xarakteri, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonida ularning har biridan samarali foydalanish mumkin. So‘nggi vaqtlarda “Keys-stadi” metodi va “assessment” sinovi xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda muvaffaqiyatli qo‘llanib kelinmoqda.

Innovatsion xarakterga ega vositalarning texnologik-didaktik imkoniyati talabalarning o‘quv-bilish faolligini oshirish bilan birga, o‘qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli OTMda tashkil etilayotgan o‘qitish jarayonida kompyuter, skaner, videoko‘z, videokamera, proektor, elektron doska, modem, telefon, internet, multimedia, mikrofon, karnay (kolonka), vebkamera, CD-ROM kabi texnik vositalar, ma’lumotlar ombori (bazasi) va vebinar texnologiyalar kabi innovatsion xarakterga ega vositalar samarali qo‘llanilmoqda.

Ta’lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o‘quv loyihalarning tayyorlanishiga e’tibor qaratilmoqda. Loyiha ta’limi texnologiyalaridan o‘quv amaliyotida foydalanishda “o‘quv loyihaviy faoliyat” tushunchasi ham qo‘llaniladi. O‘quv loyihaviy faoliyat o‘quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo‘lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasidir.

Zamonaviy sharoitda nafaqat ta’lim jarayonini tashkil etishda, shu bilan birga talabalarning o‘quv faoliyatlarini nazorat qilishda o‘quv portfoliosi ham innovatsion xarakterga ega.

Nazorat savollari:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim nima?
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning qanday turlari mavjud?
3. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim turlari qanday didaktik imkoniyatga ega?
4. Amaliy o‘yinlarning zamonaviy ta‘lim uchun ahamiyati qanday?
5. Amaliy o‘yinlarning qanday turlari mavjud?
6. Didaktik o‘yinli texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
7. Didaktik o‘yinli texnologiyalar ko‘rsating.
8. 1. Muammoli o‘qitish qanday shartlar asosida samarali tashkil etiladi?
9. 2. Muammoli ta‘lim metodlarini ko‘rsating
10. Interfaol ta‘lim qanday vazifalarni amalga oshiradi?
11. Interfaol strategiyalar ko‘rsating.
12. Grafik organayzerlar deganda nimani tushunasiz?
13. 1. Modulli-kredit tizimining mohiyati nimadan iborat?
14. Masofali o‘qitish deb nimaga aytiladi?
15. Masofali o‘qitish qanay tamoyillarga asoslanadi?

Tayanch iboralar izohi

1. “Assisment” texnologiyasi - Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta‘minlovchi topshiriqlar to‘plami

2. Dars ishlanmasi - Ta‘limiy mazmunga ega loyiha va o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat

3. Dasturiy ta‘lim - 1) o‘qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo‘lgan muammolar, o‘quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta‘lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri

4. Individual ta‘lim - Ta‘lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta‘lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilan o‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ta‘lim

5. “Keys-stadi” texnologiyasi - Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun‘iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya

6. Loyihalash - Boshlang‘ich ma‘lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat

7. Loyiha - Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli

8. Loyiha metodi - O‘quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o‘zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o‘z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta‘lim metodlari majmui

9. Loyiha ta'limi - Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim

10. Masofaviy ta'lim - Muayyan nuqtadan axborot-kommunikasiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an'anaviy hamda innovasion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim

11. Model - Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi

12. Modul ta'limi - O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materialni mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi

13. Muammoli vaziyat - Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi

14. Muammoli ta'lim - Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim

15. Mustaqil ta'lim - OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim

16. Rivojlantiruvchi ta'lim - Talabalarning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'lim

17. Ta'lim jarayonini loyihalashtirish - O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni

rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati

18. Ta'lim innovatsiyalari - Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar

19. Texnologik xarita - Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat

20. O'quv topshiriqlari - O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi

21. Ta'lim dasturi - O'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi ro'yxati

22. Innovatsiya - Yangilik, yangilik kiritish

23. Ma'ruza - Yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli

24. Ixtisoslik - Birorta kasb doirasidagi maxsus tayyorgarlik

25. Loyihalashtirish - Rejalashtirish

26. Rivojlanish - Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishidagi miqdor va sifat o'zgarishlar

III-BOB. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYASI

O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA XALQARO INTEGRATSIYA

10.1. O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari

Har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi etakchi turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o'qituvchilari va olimlarini jalb etish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizning har bir oliy ta'lim muassasasi bilan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilgani o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalb etilishi ko'zda tutilmoqda¹. Bundan asosiy maqsad xorijiy ilg'or texnologiyalarni ta'lim tizimiga qo'llash hisoblanadi. Natijada kadrlarni kasb mahorati, faoliyatidagi yuqori natijadorlikga erishiladi.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda. Bunday o'zgarishlar shak-shubhasiz, barkamol shaxsni tarkib toptirish bilan chambarchas bog'liq. Aynan ana shu masala "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da o'z aksini topgan.

Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-itisodiy, g'oyaviy-siyosiy,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi. 2017 yil 20 aprel, PQ-2909-son qarori

ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning echimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki, ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, echimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

Ko'p sonli manbalar, xususan pedagogik amaliyot sohalarining tahlili ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan ob'ektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan



bog'lanmagan va tizimlashmaganligidadir.

Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan

qo'llanilishiga karamay, unga davr taqozosiga ko'ra yaqin paytlargacha etarli ahamiyat berilgan emas.

Ilmiylik nuqtai nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element)larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologik olimi G.S. Kostyukning fikricha: "Tabaqalanish differentsiatsiya - ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya - tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi". Genetik jihatdan integratsiya – uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan

mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv__predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar:

a) o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;

b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

Pedagogika fanida XX asrning 80- yillaridan boshlab integratsiya, "o‘zaro aloqadorlik", "o‘zaro ta’sir", "sintez" kabi tushunchalar qo‘llanilgan ilmiy ishlar paydo bo‘lib, ta’lim-tarbiya ishida integratsiya muammosining dolzarbligi sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta’lim-tarbiya ishiga integrativ yondashuv g‘oyasi xususiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

Integratsiya (lot. Integeration – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma’nosida tushuniladi. Ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya’ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz.

Integratsiya (mujassamlashtirish) va differentsiatsiya (tabaqalashtirish) bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi, biri ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi, balki ular har doim bir vaqtni o‘zida o‘rganilayotgan ob’ektning ikki tomoni sifatida namoyon buladi. Ilmiy bilishda ulardan biri vaqtinchalik ma’lum ustunlikka ega bo‘lishi ham mumkin. Masalani ikki tomonini fan-texnika taraqqiyoti natijasida qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishida turli kasblarning paydo bo‘lishi, ya’ni tabaqalanishini, mexanizatsiya, avtomatizatsiya va yana qo‘shma kasblar yoki keng ixtisosli mutaxassislarning dialektik rivojlanishi ekanligini ko‘rsatish mumkin.

Integratsiyalashtirish jarayonlari hozirgi zamon ilmiy bilimlarining o‘zaro ta’siridan farqli o‘laroq quyidagi yo‘nalishlarda kechishi mumkin:

- alohida olingan fan doirasida ichki ilmiy rivojlanish sifatida;
- fanlararo o‘zaro aloqadorlik doirasida, ya’ni bir yoki bir necha sohalar doirasida;
- maxsus yaxlit ilmiy bilimlar doirasida kabilar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlar uyg‘unligini integrativ yondoshuv sifatida tasavvur etish mumkin. Ikki va undan ortiq nisbatan mustaqil qismlarda kechayotgan jarayonlarni birlashtirish - integratsiyalashtirishning natijasi bo‘lishi mumkin.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi.

Tizimlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan yaxlitlik yangi sifat ko'rsatgichlariga ega bo'ladi. Integratsiyalashtirishning mohiyati, nazariy sintez vositasi sifatida yangi darajadagi bilish natijalariga erishishdir. Mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganish quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:

➤ mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganishning mohiyati, mazmuni va uni amalga oshirish shart-sharoitlari va vositalarini o'rganish;

➤ turli fanlar mazmunini integratsiyalashtirishning ilmiy-nazariy va pedagogik-uslubiy asoslari bilan tanishish;

➤ tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faolligi, mustaqilligi va bilimlar darajasini integrativ oshirishda bilimlarning dolzarbligini isbotlash;

➤ ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ruhiy-pedagogik, texnik-texnologik bilimlarni sintezlash talablari, imkoniyatlarini aniqlash.

Ko'p hollarda ta'lim-tarbiya ishida integrativ, tizimli va majmuaviy yondoshuvlar sinonim sifatida talqin etiladi. Bu tushunchalarning umumiy tomonlarini o'rganilayotgan ob'ektlarning turli qirra, tomon va xususiyatlari tashkil etadi. Lekin ular bir-biridan mohiyatiga ko'ra ham farqlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondoshuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob'ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondoshuv mutaxassislikka oid bilim, ish-xarakat usullari va shaxsiy safat hamda fazilatlarni yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.¹

Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy

¹ И. Н. Зорников, Л. П. Волкова. Проблемы и перспективы международной интеграции высшего образования.-Воронеж, 2009.

mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni koʻzda tutadi.

"Pedagogika" oʻquv predmeti integrativ fan sifatida quyidagi masalalar oʻz echimini qanday topganligiga bogʻliq holda uning samaradorligi aniqlanadi:

1. Integrativ oʻquv predmeti tarkibiga kiruvchi har bir oʻquv predmetining qanday vazifa echimini taʼminlashdagi roli;

2. Nisbatan tor doiradagi oʻquv predmetlarining didaktik vazifalarini integratsiyalash jarayonida toʻliq saklab qolgan holda umumiy maqsadga boʻysundirilishi;

3. Integrativ oʻquv predmetini oʻrganish metodikasi, shakli, metodlari, vositalari va shart-sharoitlarini majmuaviy ishlab chiqish.

Yuqorida koʻrsatilgan fikrlarga xotima berib aytganda tizimli, majmuaviy va integrativ yondashuvlarning umumiylik jihatlari mavjud boʻlib, oʻziga xos tafovutlarga ham egadir. Umuman olganda integrativ yondoshuvga tizimli va majmuaviy yondoshuvlarning natijasi sifatida qarash mumkin.

Integratsiya muammosini didaktik jihatdan tadqiq etilishi – uni taʼlim prinsipi sifatida talqin etilishini talab etadi. Metodik nuqtai nazardan olib qaraganda integratsiya taʼlim-tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi va koʻzlangan natijani kafolatlovchi shart-sharoit va usul deb tadqiq etilishidir.

Integrativ yondoshuv ilmiylik, kasbiy yoʻnalganlik, politexnizm, uzviylik, muntazamlik, tizimlilik, koʻrsatmalilik, tushunarlilik, tabaqalashtirish kabi didaktik prinsiplar bilan aloqadorlik hamda uygʻunlikda amalga oshiriladi. Oʻz navbatida integrativ yondoshuv ham hech qachon boshqa didaktik prinsiplarga oʻxshab oʻqituvchiga biror tayyor retsept bermaydi, ammo undan foydalanilgan holda didaktik va metodik masalalar echimini aniqlaydi.

Oʻquv materialini mazmunini integratsiyalash didaktik jarayon sifatida koʻp qirrali, koʻp oʻlchovli, tizim shaklidagi tadqiqot obʻekti hisoblanadi. Uni tahlil qilish (oʻrganish) tizimli-tuzilmaviy yondoshuvni talab etadi. Chunki uning funksiyasi, tarkibi, tuzilishi va shu kabi muhim xususiyatlarini oʻrganish koʻzda tutiladi. Maxsus fanlarni

integratsiyalashda ulardagi barcha xarakterli xususiyatlarni sintezlash emas, balki eng muhim va umumiy g'oyalar, muammolarni sintezlash ko'zda tutiladi.

Integratsiyalash alohida o'quv predmetlari chegarasida amalga oshiriladigan nazariy sintez vositasi sifatida va fanlararo sintez shaklida namoyon bo'lib, bevosita umumilmiy bilimlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi. Ingegratsiya – sintezning yuqori darajasi hisoblanadi. Bilish jarayonida, tahlil qismlarga ajratish, sintez esa ularni birlashtirish (umumlashtirish) sifatida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllanish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun xarakterining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli hil tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birga o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalashadi.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli - tumanligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun ta'limning natijasi maktab ta'limining 1-bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyati cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchani ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. Bu muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish sohasidir. Boshlang'ich

maktab fanlari integratsion aloqalarining mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko‘p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko‘rib chiqaylik.

Integratsiya lotincha integration tiklash, to‘ldirish, integer – butun so‘zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog‘liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning ob’ektiv yaxlitligini aks ettiradi. (tabiat-jamiyat-inson). U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog‘liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarining ishlashi va o‘rganish ob’ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Zamonaviy didaktika va metodikada ta’kidlanishicha, o‘quvchilarni o‘qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchani shakllanganligini, o‘z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo‘lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni echa olishlari bilan bog‘liq. Ta’limdagi integratsiya o‘quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondoshish orqali ko‘rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang‘ich - tabiat haqidagi elementar bilimlarni birlashtirish; oraliq - fanlar bo‘limlarini bo‘lish integratsiyasi; yakuniy - tabiatshunoslikni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta’limni to‘liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog‘liqlikning eng soddasi ma’lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog‘liqlik boshqa bilimlarga nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta’minlaydi. Bu kichik

maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo‘lgan tasavvurlar eng sodda tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o‘rganishi asosida hosil bo‘ladi. Biror bir predmetni bilish, yangi dalil va tushunchalarning tanlanishi ularni bir bilimlar bilan taqqoslanishi orqala amalga oshiriladi. Bilimlarning eng oddiy umumlashtirishi sodir bo‘ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo‘lgan bilimlar bilan bog‘lansa ayni muddao bo‘lar edi.

Bunda o‘quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o‘quvchilarning butun bir fanlar tizimini bilishini ta’minlaydi (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi), o‘rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog‘lanishlarini aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog‘onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilish imkoniyatini beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo‘ysundirishga, bilimlar chegarasidagi bo‘shliqlarni chegaralashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar yordamida boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta va o‘rta maktab ta’limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninining “Pedagogika” kitobida darslarda qo‘llanadigan fanlararo bog‘lanish ko‘rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta’lim muammolari aks etmagan. Olimlar fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, integratsiya – differensiya jarayonlari bilan birgalikda fanlarni yaqinlashtirish va bog‘lash jarayoni bo‘lib, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko‘rinishdir.

O‘quv predmetlari orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi va integratsiya tizimini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘li bo‘lib, predmetlar orasidagi aloqalar va bog‘liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondashuv – differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir hil maqsad vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o'rganib, boshqa fanlarni o'rganishga qiynaladi, ularda mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari etishmaydi.

Bularning hammasi dars jarayonida turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'lmoqda. Bu holatda integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir. Qator olimlar maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tibor qaratsa, ba'zilar integratsiya darsni samarali tashkil qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli, deb hisoblaydi.

Demak, integratsiya - o'quvchining turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir. Ular faoliyatning turli shakllarini almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashi va asabiylashishini oldini oladi.

10.2. Yaponiya ta'lim tizimi


Yaponiya ta'lim tizimi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: birinchi — boyish, ikkinchi - G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasiin qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi.

1872 yili «Ta'lim haqidagi qonun» qabul qilindi. Bunda Yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirildi. 1908 yilda Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi.

1946 yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta'lim sohasidagi xuquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishlari belgilab qo'yilgan.

Yaponlar bolaning erta voyaga etishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urgʻu beradi. Masalan, 1 yoshda – oʻziga ishonch hissini uygʻotish. 2 yoshda – amaliy sanʼat qoʻl mehnatini koʻrsatish. 3 yoshda – burch hissini tarbiyalash. 4 yoshda – yaxshilik va yovuzlikni farqlashga oʻrgatish. 5 yoshda – liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga oʻrgatish.

Yaponiya ta'lim tuzilmasi



Yaponiyada hozirgi zamon ta'lim tizimlarini tarkibi quyidagicha: bolalar bog'chalari, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi o'quv yurtlaridan iborat.

Bolalar bog'chalari. Ta'limning bu bosqichiga 3 - 5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq ravishda 3, 2, 1 yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadilar.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich maktab va 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar.

Kichik o'rta maktab 3 ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'limning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5%-xususiy. 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan bo'lib hisoblanadi.



Yuqori bosqich o'rta maktabi. Bu maktablar ta'lim yo'nalishining 10,11,12-sinflarni o'z ichiga oladi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi kechki va sirtqi bo'limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqichli

maktablarida o'qish muddati 3 yil. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta'lim oladilar. Bu tarzdagi maktablarda o'qish ixtiyoriydir. Unda quyi o'rta maktablarni bitirgan yuqori bosqich o'rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchi yoshlar qabul qilinadilar. Unda umumiy ta'lim (akademik) fanlari texnik bilimlar tijorat mahalliy sanoat qishloq xo'jaligi chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo'shib hisoblaganda 95 foiz yosh bilim oladi.

Katta maktablarda o'qish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiy o'rta va boshlang'ich maktablar ham bor. Barcha pulli ta'lim muassasalarida stipendiyalar konkursi g'olibi bo'lsa, tekin o'qish mumkin yoki chegirmalar olish mumkin. O'rta maktabdan katta maktabga o'tish imtihonlar natijalariga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'rta maktabda

o'zlashtirish ko'rsatkichiga ko'ra o'quvchi kirish imkoniyati bor bo'lgan katta maktab ro'yxatini oladi.

Dorilfununlar, kichik kollejlarda, texnik kollejlarda, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlarda Yaponiyada oliy ta'lim tizimini tashkil etadi.

Universitet o'rniga 2 yillik kollejga kirish mumkin, unda maxsus ta'lim beriladi. Bu kollejlarda yapon qizlarining 90% o'qiydilar va ayollar kasbini egallaydilar: tibbiyot hamshirasi, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, yuqori malakali uy xonimlari, aktrisa (seyyu).

Boshqa maktablardan farqli o'laroq Yaponiya maktablarida o'qish 1 apreldan boshlanib kelasi yilning 31 martida nihoyasiga etadi.

Boshlang'ich va kichik o'rta maktablarda o'quv yili uch semestrda bo'linadi: aprel – iyul, sentyabr – dekabr, yanvar - mart. Katta o'rta maktablarda esa o'quv yili 2 yoki 3 semestrda bo'linadi.

O'quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo'shma Shtatlaridan 60 kun ko'pdir. Darslar 7 soat. Ko'pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib uchdan keyin tugaydi.

O'quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo'yicha mashg'ulotlarda yoki repetitorlar ixtiyorida bo'ladi.

Yuqori bosqich o'rta maktablarida butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xoxishlariga ko'ra ingliz tili texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladilar.

Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach, bakalavr darajasi beriladi: gakushi. Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q. Lekin ba'zi universitetlar chet ellik talabalarni 2 yoki 3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi (transfer examination)¹.

Yaponiya ta'limining asosiy maqsadi va mazmuni aholini zamonaviy texnik hamda texnologik jarayonlar bilan jihozlangan hozirgi zamon

¹Westbrook J, Durrani N, Brown R, Orr D, Pryor J, Boddy J, Salvi F (2013) Pedagogy, Curriculum, Teaching Practices and Teacher Education in Developing Countries. Final Report. Education Rigorous Literature Review. Department for International Development. P. 434-444.

sanoatida samarali ishlashga moslashtirishdir. Mamlakatda maktabga muhim ijtimoiy vazifani bajaruvchi jamiyatning olgʻa siljishini taʼminlovchi dargoh deb qaraladi va xalq tomonidan eʼzozlanadi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki Yaponiyada taʼlim tizimi ham shaklan ham mazmunan yuksak uygʻunlik kasb etgan. Ibrat olsa oʻrgansa arziydigan jihatlari koʻp. Eʼtiborli yana bir tomoni - Yaponiyada faqat milliy anʼanalar bilan cheklanib qolmay jahondagi Amerika, Fransiya Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilgʻor pedagogik ish tajribalari ham ijodiy oʻzlashtirilgan.

10.3. AQSH taʼlim tizimi

Amerika Qoʻshma shtatlarida taʼlim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;

- 1- 8 - sinflargacha boʻlgan boshlangʻich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha oʻqiydilar);

- 9 – 12 - sinflardan iborat oʻrta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha boʻlgan bolalar taʼlim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qoʻshma Shtatlarida navbatdagi taʼlim bosqichi oliy taʼlim boʻlib u 2 yoki 4 yil oʻqitiladigan kollejlar hamda dorilfununlar va boshqa oliy oʻquv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

AQShda majburiy taʼlim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi oʻquv yurtlari davlat, jamoa, xususiylar tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida boʻlishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bolalar tarbiyasi bilan onalar shugʻullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. Uch yoshdan 5 yoshgacha xususiy yoki davlat bogʻchalaridan foydalanish mumkin, lekin bolalar bogʻchalari kichik va bu tizim kam rivojlangan. Enaga yollash bir haftada 200 dollarga tushadi. Bolalarda yagona bir dastur mavjud emas. Kerak boʻluvchi hamma jihozlar va kunlik ovqatni ota-onalarning oʻzi olib keladi. 5 yoshdan esa «Kinder garde» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida taʼlim boshlanadi. Boshlangʻich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha boʻlgan bolalarni qamrab oladi. Bu

boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinf-dan-sinfga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil). Maktablarda turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shoular va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9 - sinfni bitirgan tinglovchilar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi.

1 - kasb-hunar ta'limi, 2 - biznes ta'limi, 3 - savdo va sanoat ta'limi hamda 4-qurilish ta'limi. Oliy ta'lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

1-kichik mutaxassis - 2 yillik kollejlarda amalga oshiriladi. 2-bakalavr 4 yillik kollejlarda , 4 yillik kollej yoki dorifununi tugatgan 3-bosqichni davom ettirishi mumkin. Bu 1-2 yillik magistr maktabi. 4 – bosqich esa aspirantura, doktorantura. Maktablarda ta'lim televidiniesi, elektron til laboratoriyasi, videoapparatura kompyuter va hokazolarni qo'llash yo'lga qo'yilgan. Maktablar ta'til vaqtida ham ishlab turadi. To'garaklarda qayta tayyorlash ishlari olib boriladi. Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud:

1-ta'limni individuallashtirish;

2-tinglovchining mustaqil ishlashini amalga oshirish.

O'qituvchi yo'naltiruvchi rol o'ynaydi. Asosiy maqsad tinglovchi intellektini mashq qildirish mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki AQSh o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradilar. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi biznes ta'limi savdo va sanoat qurilish bo'yicha hunar, kasb-kor asoslari o'rgatiladi.

AQShda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi. Kollejlarda o'qish istagida hujjat topshirgan o'qituvchilar yuqori o'rta maktabning so'nggi ikki yili bilimlari hajmida kirish test sinovlaridan o'tkaziladi. O'g'il- qizlarning tanlagan kasbiga layoqati va qobiliyati ham aniqlanadi.

Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar elektron yozuv apparatlari (kalligrafiya va yozuv qoidalarini takomillashtirishga yordam beradigan moslamalar) ta'lim televideniesi, qo'lda ko'tarib yuradigan elektron til laboratoriyasi, slaydlar, videoappaturalar, kompyuter va hokazolardan iborat.


10.4. Germaniya ta'lim tizimi

Ta'kidlab o'tish joizki Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li bizning Respublikamizdagiga o'xshab ketadi. Ikki German davlati birlashgandan keyin sobiq Germaniya Demokratik Respublikasida ta'limni isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham bizning sharoitimizga ma'qul keladi.

Germaniyaning hozirgi davr maorifidagi asosiy muammosi sobiq GDRdagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir.

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, Germaniyada ta'lim davlat va jamiyat tomonidan ardoqlanayotgan soha bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar ichida kuchli otilikka kirgan.

Germaniya ta'lim tizimlarining bayoni quyidagicha: Germaniyada ta'lim tizimi: maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadn. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi.



Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari xayriya birlashmalari korxonalar xususiy shaxslar diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalanganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli. Bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishni bitiradi, keyin hunar-texnika bilim yurtida to'la bo'lmagan haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Maktab o'quvchilariga o'quv qo'llanmasi, asosan darsliklar bepul beriladi. Xususiy maktablar ozroq. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang'ich maktabdan so'ng o'qituvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu erda 5-6 sinf bosqichdagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar.



Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar:

Bular: asosiy maxsus maktab real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlar

asosiy maktab va yuqori maktab o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu erda o'qish 6 yil davom etadi (5-13 sinfgacha) va to'la ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziya ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi.

Asosiy maktabning maqsadi – o'quvchilarni ikkinchi bosqich I doirasidagi ta'lim va kasbiy ta'limni davom ettirishga tayyorlash va umumta'lim kurslariga qatnashishdir. Asosiy maktablarda o'quvchilarni ishchi kasbi olami bilan tanishtirish orqali kasb tanlashga yordamlashishga e'tibor qaratiladi. Asosiy maktabda asosan eng kuchsiz o'quvchilar, ijobiy ta'rif berganda, amaliy qiziqishlari bor bolalar qolishadi.

Gimnaziyani bitirganlik haqidagi etuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'limi tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning (9-10 sinflar) 79%) to'liq o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3-3,5 yilni tashkil etadi. O'qish uch bosqichdan iborat bo'lib birinchi yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taaluqli maxsus fanlardan nazariy asoslash berilib yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yildan ikkinchi yilga o'tish sinov imtihonlari o'tkazilib, o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining etakchi mutaxassislari federal erlardagi sanoat palatasi hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatta asosan amalga oshiriladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki tamoyiliga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Tinglovchilar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar tinglovchi yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidaga federal qonunga ko'ra ular moliyaviy yordam oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarining bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmoqda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda tinglovchilar 7 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak tinglovchilar xaqiqiy mehnat faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.



Shuni ta'kidlash lozimki Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega.

10.5. Kopeya ta'lim tizimi

Kopeyadagi barcha tinglovchilarning 6,5foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak

1982 – yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi va 80% ga kengaydi. Boshlang'ich maktab koreyschasiga “chxodin xakkyo” deb nomlanar va boshlang'ich ta'lim ma'nosini anglatar edi.

1996 yil Janubiy Koreya xukumati bu nomni o'zgartirdi va “gukmin xakkyo” deb nomladi. Bu atama “fuqarolik maktabi” degan ma'noni anglatadi.

Mashg'ulotlar 45 daqiqa davom etadi. Boshlang'ich sinfdagi 9 ta fanga, o'rta maktabda yana 4 ta fan qo'shib, jami 13 ta fan o'qitiladi. Maktabda chet tillariga e'tibor kuchli. Ko'pchilik ingliz tilida bimalol gaplasha oladi.

Davlat yuqori maktablari:
Koreya Ta'lim va texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi;

Umumiy yuqori maktablar: har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi;
Xususiy yuqori maktablar.



Janubiy Koreya aholi o'rtasida talabalar soniga ko'ra dunyoda birinchi o'rinlarda turadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra barcha OO'Yu. davlat tasarrufidagi va xususiy ta'lim vazirligi va mehnat resurslarini rivojlantirish xizmati tomonidan boshqariladi. Boshqa masalalar bo'yicha universitetlar Koreya Universitet ta'limi kengashi tamoyillariga tayanadi.

10.6. Fransiya ta'lim tizimi¹

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu erda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablar mavjud.


Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi.



¹National Student Fee and Support Systems in European Higher Education.-20 p

Maktabda ovqatlanish pullik lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.



Fransuz oliy ta'lim tizimining tuzilmasi

O'quv dasturining mazmunini bevosita o'qituvchining o'zi belgilaydi. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchi bolalar bilimiga to'la mas'ul ekan uning uslub tanlashiga mustaqil harakat qilishiga ham to'la

erkinliklar beriladi.

Ta'lim tizimlari. Fransiya ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni "Onalar maktabi" deb ham yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadbolalarning maktabdagi sharoitini o'z sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ularni mustaqil holda hamm, maktablarning boshlang'ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta'lim tizimida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya bosqichida tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

Kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha;

O'rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha;

Katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Boshlang'ich ta'lim.

Fransiyada boshlang'ich maktablarga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang'ish ta'lim barcha uchun majburiy va bepul.

Boshlang'ich sinflada o'qish 5 yil bo'lib, o'qish 3 bosqichga bo'linadi:

- Tayyorlov bosqich - 1 yil. Bunda bolalar hisoblashga, o'qish va yozishga, kuylashga, o'ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy mashqlar bilan mashg'ul bo'lishga maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, mehnat qilishga o'rgatiladilar. O'qish mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Ovqat pullik, lekin juda arzonlashtirilgan.

Boshlang'ish ta'limga qo'yilgan asosiy talab o'quvchilarga ifodali o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir. Fransiyada ta'lim olayotgan chet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning vatani, xalqi, tarixi, tili va adabiyotini o'rganish uchun fakultativ kurslar

tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.

- Ikkinchi bosqich -elementar kurs bo‘lib, bu 2 yil davom etadi. Tayyorlovdagi bilimlar yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bo‘limida bir o‘qituvchi ishlasa, elementar bosqichda 2 o‘qituvchi (har biri bir yildan) ishlaydi.

- Uchinchi bosqich- chuqurlashtirilgan bosqich. Bunda o‘quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Dasturlarda o‘quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo‘yicha aniq, alohida-alohida talablar qo‘yiladi.

O‘rta ta’lim.

O‘quvchilar 11 yoshdan o‘rta maktabga o‘tadilar. O‘rta ta’lim kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. O‘rta ta’lim 2 bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo‘lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5,4- o‘rta, 3-sinf eng katta sinf hisoblanadi. Birinchi bosqichda fransuz tili va adabiyoti, chet tili (ingliz, nemis, ispan, italyan tillari), tarix, geografiya, matematika, tabiiy fanlar o‘qitiladi.

Birinchi bosqich yakunlangach, o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha guvohnoma oladilar. Ikkinchi bosqichda o‘quvchilar 15-18 yoshda ta’lim oladilar. Bunda o‘qish 3 yil davom etib, 2-sinf kichik, 1-sinf o‘rta va yakunlovchi sinflarga bo‘linadi.

6-5-sinflar umumiy o‘rta ta’lim beradi, 4-3 sinflarda o‘quvchilarning qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

Guvohnoma olganlaridan so‘ng oliy pedagogika instituti, politexnika instituti, oliy ma‘muriy maktablarga imtixon bilan qolgan oliy o‘quv yurtlriga imtixonsiz qabul qilinadilar.

Oliy ta’lim.

Fransiyada quyidagi bilim maskanlarida oliy ta’lim beriladi:

- Universitetlar
- oliy texnologiya maktablari
- oliy muhandislik maktablari
- oliy arxitektura maktablari
- oliy tijorat maktablari
- siyosiy fanlar oliy maktabi
- oliy pedagogik va filologiya bilimgo‘hlari
- oliy tibbiyot o‘quv muassasalari
- oliy badiiy maktablar
- malaka oshirish oliygo‘hlari.

Oliy ta'limda uch siklda bilim beriladi. Birinshi sikl umumiy, yoki texnik, ilmiy sohada oliy ma'lumot olish bilan yakunlanib, o'qish 2 yil davom etadi. Ikkinchi siklda o'qish 1 yil davom etib, talabalar uni metriz, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Uchinchi sikl 1-2 yil davom etib, bunda:

- biron-bir predmetni chuqurlashtirib o'rganilganligi uchun diplom (bir yil);

- ixtisoslashtirilgan oliy ma'lumot to'g'risida diplom (bir yil);

- uchinchi sikl doktorlik dissertatsiyasi (1,2 yil);

- davlat doktorlik dissertatsiyasi - biron-bir sohani mukammal o'rganib, dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Sirtqi ta'lim. Frnatsiyada sirtqi ta'lim 1 mln kishini qamrab olishi mumkin. Sirtqi ta'lim xususiy yoki davlat ta'lim shoxobchalarida amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda milliy sirtqi ta'lim markazi faoliyat ko'rsatmoqda, u 500 turdagi o'rta, oliy professional ma'lumot berishni tavsiya eta oladi. Odatda ta'limning bu turi oilaviy sharoit, iqtisodiy sharoitlar tufayli maktabda o'qishni davom ettirish imkoniyati bo'lmagan kishilar uchun mo'ljallangan. Sirtqi ta'lim katta yoshlilar uzluksiz ta'limining muhim shoxchasi bo'lib qolgan.

10.7. Belgiya ta'lim tizimi¹

Ta'lim bosqichlari	Yosh
Boshlang'ich maktab	6-12
O'rta maktab	12-16
O'rta kasbiy maktab	16-18
Oliy maktab	18-23

Maktabgacha ta'lim.

Belgiyada maktabgacha ta'lim 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga etganda bolalarni maktabgacha berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv),

¹National Student Fee and Support Systems in European Higher Education.- 9 p

kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada tahminan 90% gacha bo'lgan bolalar unda tahsil olishadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalar boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi. Bolalar 6 yoshga etganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga o'qishga kiradi.

Maktab. Maktab ta'limi davri 2 ta – boshlang'ich va o'rta maktab bosqichiga bo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

Bryusseldagi flamand maktab dasturiga birinchi yoki ikkinchi sinfdan boshlab, fransuz tilini o'qitish kiritilgan. Qolgan flamand maktablarining ko'p qismida bu fan boshlang'ich maktabning 3-bosqichida o'rgatiladi. Mamlakatning fransuz tilida so'zlashuvchi qismida o'quvchining hohishiga ko'ra ingliz yoki niderland tillari ham o'rgatiladi.

German tilida so'zlashuvchi qismida fransuz tili majburiy tarzda o'qitiladi. Shuningdek, Belgiyada, belgilangan ijtimoiy guruh (dengizchi va diplomatlar bolalari)ga yo'naltirilgan qator xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi.

O'quvchilar boshlang'ich maktabni tugatib, xuddi shunday 3 ta 2 yillik bosqichdan iborat o'rta maktabga o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar fanlarni ma'lum guruhlar orasidan tanlashlari shart bo'ladi va bu tanlov ma'lum darajada ularning dars jadvalini aniqlab berishga asos bo'ladi. Dars jadvalidan bu tanlangan fanlardan tashqari xamma uchun majburiy fanlar ham joy olgan. Masalan, davlat tili va jismoniy tarbiya fanlari va hokazo.

Belgiya hududida 4 tipdagi o'rta maktablar faoliyat yuritadi:

Umumiy ta'lim beruvchi o'rta maktab (Algemeen Secundair Onderwijs, (ASO)). Mazkur tipdagi muassasalar o'quv dasturida maktab bitiruvchisi 6 yil to'liq ta'lim olib, o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettirishi ko'zda tutilgan.

Texnik o'rta maktablar (Technisch Secundair Onderwijs, (TsO)) ikkita: TTK va STK kabi "tipcha"ga bo'linadi. I "tipcha"dagi maktablarda ta'lim texnik jihatida tomoniga yo'naltirilgan, II "tipcha"ga - amaliy muassasalarga ixtisoslashgan.

Kasbiy-texnik o'quv yurtlari (Beroeps secundair onderwijs (VSO)) duradgor, zargar, g'isht teruvchi (quruvchi) usta kabi o'ziga xos mutaxassisliklar boyicha ta'lim taklif etishadi. BSO — faqat belgiya o'rta ta'limida mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi tipidir, bundan keyin oliy ta'lim olish imkoniyati ko'zda tutilmagan.

O'rta badiiy ta'lim muassasalari (Kunst secundair onderwijs (KSO)). Ushbu o'quv yurtlar san'at sohasi boyicha oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun universitet yoki kollejga o'qishga kirish uchun talabalarni tayyorlaydilar. Tanlagan yo'nalishiga qarab, akterlik mahorati, xoreografiya, musiqa yoki tasviriy san'at ustuvor bo'lishi mumkin.

Belgiyada oliy ta'lim: universitetlar va oliy maktablar.

Belgiya oliy ta'limi o'zining ko'hna an'alariga ega. O'qitish jarayoni va zamonaviy ilm-fanni rivojlantirishning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni o'tkazish o'rtasidagi bog'liqlik Belgiya ta'lim tizimi uchun an'anaviy hisoblanadi.


Belgiya ta'limiga fransuz, flamand va nemis hamjamiyatlari javobgar. 6 yoshdan 16 yoshgacha va kechki maktablarda 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun ta'lim majburiy va bepuldir.

Universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablar



1970 yil 7 iyuldagi qonunga muvofiq O'Yular universitet tipidagi o'quv yurtlar va Oliy maktablarga bo'linadi. Aslini olganda 7 ta Belgiya universiteti faoliyat yuritadi: L'ej davlat, Monse-Yenodagi Universitet, Gent davlat, Bryussel' erkin (frantsuz tilida va alohida flamand), Luven katolik (frantsuz tilida va

alohida flamand).



Ular qatorida bir nechta xorijiy universitet bo'limlari (Bryussel' va Antverpenda), hamda universitetga tenglashtirilgan qator Belgiya OOOYu (odatda ular universitet fakul'teti, markaz, birlashma yoki jamg'arma nomlariga ega) faoliyat yuritadi.

“kandidat” darajasi - 2 yoki 3 yillik tayanch ta'lim olganidan keyin beriladi. Bu 1-sikl hisoblanadi (keyin esa ta'limning 2-sikli, ya'ni ixtisos (soha) bo'yicha tayyorlash boshlanadi;

“litsenziat” - bakalavr darajasiga mos keladi, mutaxassisligi bo'yicha 2 yoki 3 yillik qo'shimcha ta'lim olishi va ilmiy ish yozganidan keyin beriladi.

Kurs	Davomiyligi	Daraja
(Tayanch)-Bazaviy	2 yil	kandidat (ta'limning boshqa tizimida bakalavr diplomiga mos keladi)
Asosiy	3 yil	litsenziat (ta'limning boshqa tizimida magistr diplomiga mos keladi)
Qo'shimcha	2 yil	doktor (mutaxassis)
Oliy	2 yil	oliy ta'lim agrejesi

Ba'zi fanlar bo'yicha ko'p muddatli o'qishdan keyingina ushbu darajaga erishish mumkin: muxandislik, farmasevt, huquq sohalari bo'yicha mutaxassisliklari uchun - 3 yil yoki meditsina, jarrohlik va doyalik (akusherlik) ixtisosligi bo'yicha doktor unvoniga ega bo'lishi

uchun 4 yil o‘qishlari shart.

“**doktor**” - magistr darajasiga to‘g‘ri keladi, mazkur darajaga “litsenziat” darajasini olgandan keyingina kamida yana 1 yil tahsil olib, dissertatsiyani yozib, albatta uni yoqlash talab etiladi.

“**oliy ta’lim agreje**”si - ushbu ierarxiya (ketma-ketlik)ning oliy darajasi hisoblanadi va u doktorlik darajasini olib, 2 yil muddat o‘tishidan keyingina berilishi mumkin.

10.8. Innovatsion ta’lim texnologiyalari

Tayanch tushunchalar: modernizatsiyalash, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiya, novatsiya, innovatsion ta’lim texnologiyalari, innovatsion jarayon, ta’limiy innovatsion jarayon, ta’limiy innovatsion jarayon bosqichlari.

10.9. Ta’lim tizimini modernizatsiyalash

Ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlari. Ta’lim sifatini ta’minlash - bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko‘rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me‘yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘rsatma va tamoyillar ko‘rinishida o‘z aksini topgan.

Модернизация - (лотинча - moderne - энг янги) - такомиллаштирилган, яхшиланган, янги талабаларга жавоб бера оладиган деган маънони билдиради.

Модернизациянинг икки тури ажаратилади:

- а) Органик (Ички резервлар ҳисобига трансформацияни ўтказиш).
- б) Ноорганик (Трансформация ташки резервлар иштирокида амалга оширилади).

Ta'lim jarayonini loyihalash – pedagogik faoliyat ko‘rinishi bo‘lib, u ta'lim jarayonining texnologik tuzilma hama o‘qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig‘indisiga egaligi bilan tavsiflanadi

Loyihalash mahsuli ta'lim jarayonining loyihasi sanaladi.

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratildi. Ular:

- 1) ta'lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi;
- 2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog‘liq holda tanlanadi;
- 3) loyihalash strategiyalari o‘qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi;
- 4) loyihalash sifati teskari aloqa (o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi) ko‘lami, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog‘liq


Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini loyihalash ikki darajada:

a) o‘qituvchi faoliyati darajasida (ta'lim jarayonining alohida qismlarini loyihalash);

b) ta'lim menedjeri faoliyati darajasida (ta'lim jarayonini yaxlit loyihalash) amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatlari loyihalash tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo‘llashga zamin tayyorlaydi.

Mohiyatiga ko‘ra ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat (3-rasm):



3-rasm. Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari

1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda talabalar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va talaba faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini talabalarining ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) sub'ekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Sub'ekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur.

Talabalar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, talabaning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi.

Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (o'qituvchi faoliyati)ni asoslash.

2. Refleksivlik tamoyili sub'ektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, talabalarining bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish

imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – sub'ektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

3. Natijaviylik tamoyili pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub'ektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

4. Ko'p omillilik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, talabalarning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

5. Talaba shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami (o'z-o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur.

Ayni vaqtda umumiy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashxis xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

6. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, talabalarning

yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlar asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Loyihalashda talabani o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsad va ijtimoiy g'oyaga asoslanib, talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi

Ta'lim jarayonidan farqli tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig'ida ko'ra olish imkoniyati yo'q. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, talaba va o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas'uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Zamonaviy sharoitda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazilishiga rasmiyatchilik nuqtai nazardan voz kechish maqsadga muvofiqir. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub'ektlari bo'lgan talabalar faol ishtirokchi, tadbir natijasini

belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi sifatida qatnashadi. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan:

- 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi;
- 2) talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatining tarbiyalanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi;
- 3) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligi haqida emas, balki sinfning ta'lim muassasasi jamoasi oldida "soxta obro'" orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to'g'risidagi xulosaning shakllanishi uchun sharoit yuzaga keladi

Ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- tadbir mavzusi va g'oyasini talabalar tomonidan bildirilgan shaxsiy tashabbuslar, ularning xohish-istaklariga ko'ra belgilash;
- tadbir ssenariysini ishlab chiqishda talabalarining mustaqil faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- tadbir mazmunida o'z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki talabalarining layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish;
- tadbirning tashkil etilishi va o'tkazilishida o'qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo'lmay, aksincha, talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularning faoliyatini yo'naltirib turish hamda zarur o'rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish;
- tadbir maqsadining natijalanganligini sinf, guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish

Muhokama jarayonida o'qituvchi tomonidan turli tanbehlarining berilishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning talabalarining o'zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o'tkazish jarayonida ularning takrorlanishini oldini olish) yo'lida chora-tadbirlarni belgilash muhim ahamiyatga ega.

Talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga texnologik yondashuv mohiyati talabalar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga e'tiborni qaratishni ham taqozo etadi:

- talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag‘batning mavjudligi;
- talabalarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil etish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari;
- tadbir g‘oyasining talabalar ichki ehtiyojlariga mos kelishi

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda bu jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

- 1) tadbir mavzusiga doir materiallarni yig‘ish;
- 2) tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
- 3) tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
- 4) tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
- 5) tadbirni tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
- 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
- 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (ularni bu uqarda xabardor qilmasdan) baholash;
- 8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash;
- 9) tadbirni tashkil etish jarayoni;
- 10) tadbirning o‘tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish

10.10. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat

Lug‘aviy jihatdan **“innovatsiya”** tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovations” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan

mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”¹.

A.I.Prigojinning fikriga ko‘ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg‘un elementlar bilan boytib borish tushunilishi lozim. Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlarga, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi. Amerikalik psixolog E.Rodjers o‘z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo‘lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo‘lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o‘rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o‘rgangan.


Innovatsion ta’lim (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay’ati a’zolari: M.Aminov va b. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan. Ta’lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Ular (1-rasm):



1-rasm. Ta’lim innovatsiyalarining asosiy turlari

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy **ko‘rinishlari** sanaladi:

- yangi g‘oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan’anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo‘lmagan tashabbuslar;
- ilg‘or ish uslublari

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u **novatsiya (yangilanish)** deb yuritiladi

Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u **innovatsiya (yangilik kiritish)** deb ataladi

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e’tirof etishicha, “yangi”, “yangilik” tushunchasi nafaqat muayyan g‘oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mohiyatiga ko‘ra novatsiya va innovatsiya o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir (2-jadval):

2-jadval. Novatsiya va innovatsiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

I.P.Podlasiyning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- talaba (talaba) faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi

10.11. Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati

Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati. Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bilish

orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo'naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko'ra har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Har qanday innovatsiyada "yangi", "yangilik" tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Turli munosabat va jarayonlarga kiritilayotgan yangilik mazmunan xususiy, sub'ektiv, mahalliy va shartli g'oyalari tarzida namoyon bo'ladi.

Xususiy yangilik munosabat, ob'ekt yoki jarayonga tegishli elementlardan birini o'zgartirish, yangilashni nazarida tutadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ektning o'zini yangilash zaruriyatini ifodalaydi.

Mahalliy yangilik alohida olingan ob'ekt uchun kiritilayotgan yangilikning amaliy ahamiyatini tavsiflash uchun xizmat qiladi.

Shartli yangilik esa munosabat, ob'ekt yoki jarayonda murakkab, progressiv yangilanishning sodir etilishini ta'minlovchi ma'lum elementlarning yig'indisini yoritishga xizmat qiladi.

R.N.Yusufbekova innovatsiyalarni pedagogik nuqtai nazardan ko'rib chiqishga e'tiborni qaratadi. Xususan, pedagogik innovatsiyalar muallif tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonida avval ma'lum bo'lmagan, qayd qilinmagan holat yoki natijaga olib boruvchi pedagogik hodisaning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni ekanligi ta'kidlanadi. Rossiyalik olimlar – A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S.Tolstoy, N.P.Stepanov va b. esa innovatsion jarayon hamda uning tarkibiy qismlarini o'rganishga e'tiborni qaratgan. Bu o'rinda ular innovatsion jarayonning tashkil etilishiga nisbatan quyidagi ikki yondashuv mavjud ekanligini e'tirof etadi:

1) yangilikning individual mikro darajasi (unga ko‘ra qandayir yangi g‘oyaga amaliyotga joriy etiladi);

2) alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta‘sirini ifodalovchi mikro daraja (bu o‘rinda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta‘sirlanishi, birligi, raqobati va birining o‘rnini ikkinchisi tomonidan egallanishi ahamiyatli sanaladi).

A.I.Prigojin, B.V.Sazonov va V.S.Tolstoylar o‘z tadqiqotlarida yangilik kiritishning tizimli konsepsiyani asoslashga uringan. Bu o‘rinda mualliflar innovatsion jarayonlarning quyidagi ikki muhim bosqichini bir-biridan ajratib ko‘rsatishadi:

1. Yangilik sifatida namoyon bo‘ladigan g‘oyalarni ishlab chiqish (m: korxonada, tashkilot tomonidan muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqishning rejalashtirilishi).

2. Yangilik (muayyan mahsulot)ni keng ko‘lamda ishlab chiqish.

Oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni tashkil etishda o‘ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Ular:

1. Gnostik-dinamik yondashuv (unga ko‘ra pedagoglar pedagogik innovatsiyalar, ularning turlari, yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, xorij mamlakatlarida yaratilgan ilg‘or pedagogik (ta‘limiy) innovatsiyalar va ularni o‘rganish, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni izchil o‘zlashtiradilar, o‘z faoliyatlarida pedagogik innovatsiyalarni faol qo‘llash borasidagi tajribalarni o‘zlashtiradilar).

2. Individual faoliyatli yondashuv (bunda pedagoglar o‘zlarining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, tajribalariga tayangan holda amaliyotda pedagogik innovatsiyalarni qo‘llashda muayyan izchillikka erishadilar).

3. Ko‘p sub‘ektki (dialogik) yondashuv (mazkur yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni hamkasblarning o‘zaro, xususan, ko‘p yillik ish tajribasi, kasbiy mahorat va tajribaga ega pedagoglarning faoliyatlari bilan tanishish, ularning ta‘lim innovatsiyalarini samarali, maqsadli va uzluksiz qo‘llashga doir tavsiya hamda ko‘rsatmalaridan foydalanishlarini ifodalaydi).

4. Insonparvarlik yondashuvi (ushbu yondashuv pedagogik jarayonda innovatsiyalarni qo‘llashda ta‘lim oluvchilarning imkoniyatlari,

xohish-istaklari, qiziqishlari, bilim, ko'nikma va malakalari darajasini inobatga olish maqsadga muvofiqligini yoritishga xizmat qiladi).

5. Individual-ijodiy yondashuv (unga ko'ra har bir pedagog faoliyatini o'rganilayotgan mavzu, o'quv materialining mohiyati, shuningdek, o'z imkoniyatlari, salohiyati, mahorati, ish tajribasidan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ijodiy ishlanmalar asosida tashkil etadi).

10.12. Pedagogik innovatsion faoliyat qonuniyatlari, bosqichlari

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarini yechishga qaratilgan faoliyat

Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BKMni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.


M.Jumaniyozovning e'tirof etishicha, pedagogik innovatsion faoliyati quyidagi **belgilar** asosida namoyon bo'ladi:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish

V.Slasteninining fikriga ko‘ra innovatsion yondashuv quyidagilarga ega bo‘lishni ifodalaydi:


- ijodiy faollik;
- faoliyatga yangilik (o‘zgartirish) kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlik;
- yangicha fikrlash;
- yuksak muomala madaniyati

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o‘zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi. Ular (5-rasm):



5-rasm. Innovatsiyalarni asoslash bosqichlari

R.N.Yusufbekova pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi



6-rasm. Innovatsion jarayon tuzilmalari


1. Sohada namoyon bo‘layotgan yangilikni ajratib ko‘rsatuvchi blok (unda pedagogikadagi yangi g‘oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me‘yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o‘zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, an’analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o‘zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o‘zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi).

3. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro‘y beradi).

Bu o‘rinda M.M.Potashnik tomonidan e’tirof etilgan innovatsiya jarayonlar mohiyatini ifodalovchi talqin alohida ahamiyatli ekanligini ko‘rsatish o‘tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur talqinga ko‘ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalarga ega (6-rasm):

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo‘ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to‘rtta qonuniyat xarakterli sanaladi (7-rasm):



7-rasm. Pedagogik innovatsion jarayon qonuniyatlari

Keskin beqarorlik qonuniyatiga ko‘ra pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar o‘zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e’tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiylikini ifodalaydi, unga ko‘ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o‘ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etiladi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘lida faollik ko‘rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g‘oyalar


yanada ilg'or yangiliklarni amalga oshirishsh yo'lida to'siq bo'la boshlaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Odatda pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi:

1. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo'llariga ongli munosabat bildirilmaydi.
2. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya'ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi


Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha **bosqichlarda** kechadi. Ular quyidagilardir (2-rasm):



2-rasm. Innovatsiyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarini o'zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo'lishlari talab etiladi. O'z mohiyatiga ko'ra pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat ko'nikma, malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni

qaror topishi asosida kechadi. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi ham murakkab jarayon bo‘lib, u bir necha bosqichda kechadi. Ya’ni (3-rasm):



3-rasm. Pedagoglarda innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari

Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro‘y beradi.

Ta’lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta’lim-tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi, o‘qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi.

Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko‘ra ta’lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lib, ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o‘qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur.

Nazorat savollari:

1. “Ta’lim jarayonini loyihalash” deganda nimani tushunasiz?
2. Ta’lim jarayonini loyihalashda qanday tamoyillar ustuvor sanaladi?
3. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish nima?
4. Innovatsiya nima?
5. Innovatsion ta’lim qanday ta’lim sanaladi?
6. Ta’lim innovatsiyalari deganda nimani tushunasiz?
7. Ta’lim innovatsiyalarining qanay turlari mavjud?
8. Nimalar innovatsiyalarning asosiy ko‘rinishlari sanaladi?
9. Novatsiya va innovatsiyaning asosiy farqlari nimalarda ko‘rinadi?
10. Innovatsion jarayonlar qanday yondashuvlar asosida tashkil etiladi?
11. Innovatsion faoliyat nima va unga qanday belgilar xos?
12. Innovatsiyalarni asoslash qanday bosqichlarda kechadi?
13. Innovatsion jarayon qanday tuzilmalarga ega?
14. Innovatsiya jarayon qanday qonuniyatlarga bo‘ysunadi?
15. Ta’lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish qanday bosqichlarda kechadi?
16. Ta’lim texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha jahon tajribasini bilasizmi?
17. Yaponiya ta’lim tizimi va texnologiyalarini izohlang.
AQSh ta’lim tizimi va texnologiyalarini tushuntirib bering.
18. Germaniya ta’lim tizimi va texnologiyalarini tahlil qiling.
19. Kopeya ta’lim tizimi va texnologiyalarini tushuntirib bering
20. Fransiya ta’lim tizimi va texnologiyalarini izohlang.

TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH

11.1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari

Tarbiyalanayotgan barkamol avlodda ya'ni bo'lajak mutaxassislarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko'p qirrali va murakkab jarayondir. Talabalarning ma'naviy-axloqiy shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq va bin ikkinchisini taqozo qiladigan yaxlit ta'lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi. Tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning aniq va mukammal **tizimigina**, yaxlit tizimli yondashuvigina ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi. Tarbiyaviy ishda mukammal tizimning mavjudligi bir xil ishni ortiqcha takrorlayvermaslikka, talabaga nisbatan biri ikkinchisiga to'g'ri kelmaydigan qarama-qarshi ta'sirlarning oldini olishga, bo'lajak mutaxassislarga bir xil talablar qo'yish va yaxlitlik bilan ta'sir o'tkazishga imkon beradi.

«Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». (A.Avloniy)

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya tizimi haqidagi masalaga borgan sari ko'proq e'tibor berilmoqda. Pedagog olimlarning asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini ishlab chiqishga imkon beradi. Oliy maktabda bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalash tizimini yaratish oliy o'quv yurtida amalga oshirilayotgan barcha tarbiyaviy ishlarning maqsadi, mazmuni, tarbiyaviy jarayon, tarbiyachi va texnik vositalar, tarbiyaning shakl-usullarini belgilashga yordam beradi. Tarbiyaviy ishlar tizimi turli kurslarning talabalari bilan o'tkaziladigan tadbirlarda izchillik va ketma-ketlikni saqlashga yordam beradi. Yoshlarga yagona pedagogik talablar qo'yish, yigit-qizlarning individual xususiyatlarini va axloqiy kamolot darajasini e'tiborga olishni yengillashtiradi.

Haqiqatan ham inson hayotini saodatga, sof insoniy faoliyatga erishishida tarbiyaning roli nihoyatda muhim. Yoshlarni tarbiyalashda biz uchun qadrlil bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat ularga sodiqlik ruhini shakllantira olsak har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi

bilinadi. Buning uchun avvalo milliy g'urur, milliy ong, milliy g'oya, ma'naviyat, yuksak madaniyat egasi bo'lish kabi tushunchalarni yoshlarning ongiga singdirishimiz lozim. Chunki tarixni bilmasdan, o'rganmasdan undan ruhiy, ma'naviy ozuqa olmasdan turib, kelajakni, kelajakdagi orzu umidlarga erishib bo'lmaydi. Demak, pedagogika fanining predmeti, o'qitishning, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun ham uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi. Ortiqroq muayyan yangi tadqiqot pedagogikani "juda ham murakkab nazariy tushuncha va amaliy ko'nikmalar aralashmasi" deb aniqlaydi (Lovat, ACDE, p.11 2003)¹.



“Pedagogika bu nima?”

Ba'zida pedagogika noaniq tushuncha sifatida bildirilsada, bu – samarali o'qitish uchun bilimlar va malakalarni talab qilinadigan kombinatsiya tushunch-asidir. Bundan ortiqroq an'anaviy ta'riflar pedagogikani “fan”, “nazariya” yoki “san'at o'qitish” amaliyoti sifatida aniqlaydilar, bu esa, talabalarni intellektual va ijtimoiy rivojlanishida ahamiyat kasb etadi”²

Bu tadqiqot birinchi o'rinda o'qituvchilarning keng va murakkab ishlarini oldinga olib chiqadi va bu ishning tabiatini haqiqatda aniqlaydi. Lovat keyingi jihatlarni bunday keltiradi: “o'qituvchi – bu baland turib rivojlangan avtonom professional, kerakli ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy malakalar, qaysiki tibbiyot, qonunda va loyihalashtirishda ekvivalent bo'lib bir qatorda turishi mumkin” (ACDE, p.11)³.

Pedagogikaning har xil modellarini turli tadqiqotlar va nazariyalar mustahkamlashi mumkin. Freebody and Lukening tasdiqlashicha, ma'lum

¹Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-4 p

²Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-4 p.

³Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5p.

chegarasi bor hududlarda o‘qituvchilarning ish tartibi va ta’lim oluvchilarga yaqinlashishlari, ya’ni ta’lim berishlari farqlanadi. Turli toifadagi talabalar qobiliyatlariga qarab samarali o‘qituvchilarni bilishadi. (A Map of Possible Practices, Luke & Freebody, June, 1999)¹.

Ta’lim-tarbiyaning **maqsadi** ob’ektiv xususiyatiga ega. U har bir jamiyatning moddiy-ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqadi; ijtimoiy buyurtma sifatida davlat hujjatlarida umumiy tarzda ifodalanadi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi tizim hosil qiluvchilik xususiyatiga ega. Pedagogik tizimning barcha komponentlari ta’lim-tarbiyaning maqsadiga bog‘liq bo‘ladi va maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi.


Tarbiyaning maqsadi - ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanishi, yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boriluvchi faoliyat jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya jarayoni yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirshga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonidir.

O‘zbekiston Respublikasida barkamol shaxsni, yuksak ma’naviy-axloqli, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalash maqsadi ta’lim-tarbiya ishlarining mazmunini belgilaydi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni tarbiyaviy vazifa shaklida ifodalanadi, aniqlanadi. Tarbiyaviy jarayon, tarbiyachi yoki tarbiyaning

¹Lea Chapuis. Pedacocy. Embedding Learning Technologies. Modul 1. 1-5p.

texnik va boshqa vositalari, ta'lim-tarbiyaning shakl-usullari tarbiya texnologiyasi deb ataladi. Pedagogik amaliyotda tarbiya texnologiyasi yordamida aniq ifodalangan tarbiyaviy vazifani tarbiyalanuvchi o'zlashtirib, egallab oladi. Tarbiyachi boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik rolini bajaradi.



11.2. Tarbiyaviy jarayonga texnologik yondashuvning mohiyati

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi nima? Tizim – qismlardan tuzilgan bir butun, ya'ni ma'lum tartibda joylashtirilgan bir-biri bilan bog'liq qismlardan tuzilgan yaxlit bir narsa yoki hodisa degan ma'noni anglatadi.

Oliy maktab talabalarida axloqiy sifatlar qandaydir biror universal shakl, vosita yoki usul yordamida emas, balki aniq maqsad, xilma-xil shakllar, vositalar va metodlar, har xil faoliyat turlari ta'sirida, ya'ni tarbiya tizimi natijasida shakllanadi.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiyaning shakl va metodlarini tasnif qilishga mualliflar turlicha yondashadilar. Tarbiyaviy ishlar odatda, tarbiyaning maqsadi va vazifalariga, uning xarakteri va davom etish vaqtiga qarab guruhlarga ajratiladi. Masalan, ommaviy ishlar, to'garak ishlari, individual ishlar. Shuningdek, tarbiyaviy ishlarning barcha shakllarini quyidagi uch guruhga birlashtirish ham mumkin: 1) og'zaki bayon etish shakllari: ma'ruzalar, dokladlar, munozaralar, ma'naviyat

soatlari, konferensiyalar, uchrashuvlar va hokazo; 2) amaliy ishlar: laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, ijtimoiy foydali ishlar, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyot, badiiy huvahkorlik va ilmiy to'garaklar, sport seksiyalari, ekskursiya kabilar; 3) ko'rsatmali ishlar: muzeylar, ma'naviyat xonalari, ko'rgazma va stentlar, shon-shuhrat xonalari va boshqalar. Tarbiyaviy ishning bu shakllari yaxlit tizimli va o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Tarbiya tizimi tarbiyaviy ishlarning barcha turlarini yuqori darajada samarador bo'lishini talab etadi. Buning uchun esa quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim: tarbiyaviy ishning shakli tarbiyaning maqsadi va mazmuniga mos kelishi lozim. Shaklning tarbiyaviy kuchi uning chuqur mazm'undorligidadir, lekin mazmun o'ziga mos keladigan yorqin shaklga ega bo'lmasa, u talabalarga kuchli ta'sir o'tkaza olmaydi, tarbiyaviy ishning shakli yoshlarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy e'tiqod, fuqarolik burchi va mutaxassislikka xos yuksak professional-axloqiy sifatlarni shakllantirishga maksimal darajada yordam berishi zarur, u yoki bu tarbiyaviy ishning qimmatini yoshlarni ijtimoiy faoliyatga ko'proq jalb etib shu tariqa boshqalar bilan aloqa, muomala qilishga qanchalik keng yo'l va imkoniyatlar ochib berishiga ham bog'liq.

Tarbiya metodlari tarbiyachining qo'lida o'ziga xos qurol bo'lib xizmat qiladi. Ular yordamida talabalar onggiga ta'sir etiladi, bo'lajak mutaxassislarning hayot faoliyati yo'naltiriladi va uyushtiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda tarbiya metodlari quyidagicha tasnif qilinadi: *ishontirish metodi; aqliy xatti-harakatlarni mashq qilish metodi; namuna, ibrat ko'rsatish metodi; rag'batlantirish va jazolash metodlari.*

Tarbiyaga texnologik yondashuv.

Texnologiya moddiy ishlab chiqarish – sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish hamda ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik, qurilish texnologiyasi va boshqalar.

Masalan, qurilish ishlari texnologiyasi bir qancha operatsiyalar yig'indisidan tashkil topgan: yer ishlari (erni tekislash, transheyalar qazish); poydevor yotqizish; devor tiklash; tom yopish; elektr, gaz, suv tarmoqlarini o'tkazish; pardozi ishlari va hokazo. Har qaysi operatsiyaning o'ziga xos bajarish usullari bor.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan bo'lsa, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino va boshqalar) shunchalik sifatli bo'ladi. Texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiyalar ham yangilanib va o'zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, tipovoy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar, uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo'lishi lozim.¹

Tarbiyaviy ishlarga texnologik yondashuv:

- tarbiya jarayonini o'zaro uzviy bog'liq etaplar, fazalar, amallarga ajratishni;

- tarbiyadan mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;

- mo'ljallangan (loyihalashtirilgan) ishlarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.


Pedagogik texnologiya tizimli, texnologik yondashuvlarga asoslanadi. Tizim (sistema) tushunchasi bo'laklardan tashkil topgan yaxlit bir narsa yoki hodisa, birikma ma'nolarini bildiradi. **Pedagogik tizim** – ta'lim-tarbiya texnologiyasining asosi, zamini hisoblanadi. Pedagogik tizim bir butun, harakatlanuvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, u, *tarbiyalanuvchi (1); ta'lim-tarbiyaning maqsadi (2); ta'lim-tarbiyaning mazmuni (3); ta'lim-tarbiya jarayoni (4), tarbiyachi, texnik va boshqa vositalar (5) va ta'lim-tarbiyaning shakl-usullaridan (6) tuziladi.*

Ayrim amaliyotchi pedagoglar «**pedagogik texnologiya**» deganda texnologik yondashuvga asoslanmagan ba'zi foydali, samarali usullarni yoki ta'lim-tarbiya jarayonida texnik vositalarni qo'llashni tushunadilar. Vaholanki, pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgilar va xususiyatlarga ega bo'lgan, tizimli, texnologik yondashuvga asoslanadi. U pedagogikada ijtimoiy-muhandislik tafakkurining mahsuli, texnokratik ilmiy fikr (ong)ning ta'lim-tarbiya sohasidagi loyihasi, ta'lim-tarbiya jarayonining natijasini ma'lum darajada standartlashtirish, takrorlanadigan pedagogik siklga aylantirishdir.

¹ Qarang: O'zbek milliy ensiklopediyasi. 8-jild, Toshkent, 2004, 411-bet

Pedagogikada qayta takrorlanadigan pedagogik sikl (jarayon)ni yaratish oson ish emas. Bunga ta'lim-tarbiya vazifalarining turli-tumanligi, ta'lim-tarbiya mazmuni va o'quv-biluv materiallarining har xilligi, talaba-tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlari, xotira, iroda kabi ruhiy xususiyatlari bir xil yemasligi kabi qator faktorlar sabab bo'ladi. Shunga qaramay rivojlangan mamlakatlarda pedagog, psixolog olimlar pedagogik texnologiyani ishlab chiqdilar, ular yaratgan pedagogik texnologiya takrorlanadigan pedagogik sikl bo'lib, ta'lim-tarbiyaviy ishda rejalashtirilgan (loyihalashtirilgan) natijalarni kafolatlaydi.¹

Oliy o'quv yurtining talabalarida ma'naviy-axloq fazilatlarini tarbiyalashning samaradorligi ko'p jihatdan bo'lajak mutaxassislarining o'z-o'zini tarbiyalashiga, ijobiy odatlar, yaxshi fazilatlarini o'zida ongli ravishda hosil qila olishiga bog'liq. Shaxsda o'z xulqini, xatti-harakatlarini, tartibga solish odati, ko'nikmasi hosil bo'lsagina ma'naviy-axloqiy tarbiyani to'la amalga oshirish mumkin. Vijdon, mas'uliyat hissi o'sgan bo'lishi ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash kabilar kishini o'z-o'zini takomillantirishga undovchi kuch hisoblanadi.



1-chizma. Tarbiyaga texnologik yondashuv

¹ Qarang: OCHILOV M., OCHILOVA N. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI. – T.: 2008, 163-182-betlar.

Jahon xalqlari tajribasida mashhur pedagoglar tarbiya sohasida erishgan yutuqlarining muhim omillaridan biri – ular tarbiyalanuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirib, yoshlarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi masalasini oqilona uyushtira bilganligidadir. Ular amalga oshirgan tarbiya tizimi ta’sirchanligining boisi tarbiya jarayonini o‘z-o‘zini tarbiyalashga rahbarlik qilish jarayoniga aylantira bilganliklaridadir. Tarbiyaning maqsadini tarbiyalanuvchilar oldiga qiyinchiliklarni yengish va kelgusidagi yutuqlarga erishish vazifasi qilib qo‘ya bilishdadir. Darhaqiqat, barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoni faqat, kishi o‘z-o‘zini tarbiyalashga faol kirishgan va bu ishni muntazam davom ettirgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

O‘z-o‘zini tarbiyalash talabada hosil bo‘lgan ma’naviy kamolotning natijasidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash talaba ongining o‘sishi, faolligi, ijodkorligi, irodasining yuksak darajada chiniqqanligi natijasida amalga oshiriladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash uchun kishi o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishi, o‘zining kuch va qobiliyatiga ishonishi lozim. O‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyoji ma’lum shart-sharoitlar va tarbiya ta’sirida hosil bo‘ladi. O‘z-o‘zini tarbiyalash uchun yigit va qizlar o‘zining jamiyatda tutgan o‘rni va burchini yaxshi tushunib olgan bo‘lishi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash natijasida kishida tashqi tarbiyaviy ta’sirlarga ongli munosabat hosil bo‘ladi va u o‘z-o‘zini tarbiyalashning xususiyatiga bog‘liq ravishda tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Ikkinchi tomondan, talabaning o‘z-o‘zini tarbiyalashi muhitning va oliy o‘quv yurtidagi mavjud tarbiya tizimining ta’siri bilan belgilanadi. Bu yerda tarbiyaning ob’ekti ham, sub’ekti ham talabaning o‘zidir.

Talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi bo‘lajak mutaxassislarining ta’lim-tarbiya jarayonida ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanishini davom ettiradi, to‘ldiradi, chuqurlashtiradi, barcha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi.

Odatda talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi masalasiga kam e’tibor beriladi. Buning sabablaridan biri o‘z-o‘zini tarbiyalashning ahamiyatini tushunib yetmaslik, oliy o‘quv yurti, fakultet rahbarlari va professor-o‘qituvchilar o‘z-o‘zini tarbiyalash ishining ahamiyatiga yetarli darajada e’tibor bermasligidadir. Shuni nazarda tutish lozimki, oliy o‘quv

yurtlarining ko'pchilik talabalari – bu O'zbekiston Respublikasi maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarning kelajakdagi o'qituvchilari. Ular ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini bajarish bilan birga o'quvchi-talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi sohasidagi ishlarni ham uyushtirishi, tashkil etishi kerak. Shuning uchun ham bo'lajak mutaxassis talabalik chog'idayoq o'z-o'zini tarbiyalash metodikasi bilan qurollanishi zarur. Oliy o'quv yurtining talabalarida o'z bilimlarini takomillashtirishga, mustaqil ishlash, o'qib-o'rganishga intilish xislati mavjud. Ba'zan ana shu imkoniyat, intilish, o'z-o'zini tarbiyalash malakasi, tajribasi kamligi tufayli ro'yobga chiqmay qoladi. Chunouchi oliy maktabning o'quv rejaları talabalarga ma'naviy-axloqiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashga doir bilim va malakalar berish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Talabalarda o'zlarining xatti-harakatlari va xulq-odatlariga tanqidiy va jiddiy qarash, lining oqibatlarini shaxsiy va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan baholay olish odatini hosil qilish o'z-o'zini tarbiyalashning muhim bosqichi hisoblanadi. Oliy o'quv yurti talabasini o'rtoqlarining fikrlariga quloq solishga, ularning tanqidiy mulohazalarini hisobga olishga o'rgatish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash ishining samarali bo'lishi uchun avvalo, talabalarda motiv, ijobiy-axloqiy sifatlar mavjud bo'lishi, yigit va qizlarning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va xulqi uchun ma'lum tartib o'rnatish talab etiladi. Talabaning o'z-o'zini tarbiyalashi ulardagi ijobiy sifatlarni o'stirish va mavjud bo'lgan ayrim salbiy xislatlarni bartaraf etishdir.

Oliy o'quv yurtiga qabul qilingan talabalar bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ishlarini uyushtirish va ularning o'z-o'zini tarbiyalashiga ko'makiashish uchun "Talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash dasturi"ni tuzish lozim. Dasturning birinchi qismida bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari ko'rsatiladi. Oliy o'quv yurti talabalari o'qish davrida bu sifatlarni o'zida tarbiyalashlari, kamol toptirishlari lozim. Ikkinchi qismida faoliyat turlari ko'rsatiladi. Talaba ularni bajarish natijasida o'zida bu zaruriy sifatlarni hosil etadi.

Dasturning birinchi qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyatning ijtimoiy va

iqtisodiy taraqqiyoti, shuningdek, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida ta’limning yangi mazmuniga o’tish – yangi o’quv rejalari va dasturlarining joriy etilishi oliy o’quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashning sifatini tubdan yaxshilashni talab etadi, bo’lajak mutaxassislarning ma’naviy, mafkuraviy va ilmiy saviyasini yanada oshirish psixologo-pedagogik va metodik tayyorgarligini kuchaytirishni taqozo qiladi. O’zbekistonning hozirgi taraqqiyoti sharoitida, masalan, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda mustaqillik mafkurasini, milliy istiqlol g’oyasini chuqur o’zlashtirib olgan, o’zi dars beradigan fanni puxta biladigan, pedagogik mahorat va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni egallagan o’qituvchigina muvaffaqiyatli ishlay olishi mumkin.

O’zbekiston maktab, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejarining bo’lajak o’qituvchisi milliy-ma’naviy qadriyatlarni va milliy axloqni egallagan bo’lishi zarur. O’qituvchining kuchi va tarbiyaviy ta’siri, avvalo mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g’oyasi uning e’tiqodiga aylanganligidadir. Oliy o’quv yurtlarida yangi o’quv rejalari va dasturlari joriy etilishi, milliy madaniy qadriyatlarga doir adabiyotlarning ko’plab nashr etilayotganligi, yuqori malakali professor-o’qituvchilarning mavjudligi talaba yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ishini yuksak darajaga ko’tarishga imkon beradi.

Bo’lajak mutaxassislarga berilayotgan bilimlar doirasini tobora kengaytira borish, ixtisoslik fanlariga doir bilimlarni puxta o’zlashtirishga erishish oliy maktabning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga yosh mutaxassislar mustaqil o’qib, o’z bilimlarini muntazam oshira borish ko’nikmasini hosil qilishlari zarur.


Bo’lajak mutaxassislar chuqur psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo’lishlari zarurligini hayotning o’zi taqozo etmoqda. Bo’lajak o’qituvchi pedagogika fanining nazariyasi va tarixini, didaktikani, tarbiya nazariyasi va metodologiyasini, xususiy metodikalarni, psixologiya va yoshlar fiziologiyasini yaxshi bilishi lozim.

O’qituvchilar jamiyatimizda ilg’or va faol kishilardir. O’zbekiston davlati ijtimoiy-iqtisodiy, mafkura, madaniyat, ta’lim sohalarini tabdan isloh qilish vazifasini hal etishda o’qituvchilarga tayanadi.

Boʻlajak mutaxassisga xos shaxsiy, kasbiy, axloqiy sifatlarni egallash uchun talaba, avvalo, tanlagan kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglab olishi, unda pedagoglik kasbiga qiziqish va ishtiyoq boʻlishi zarur. Bu fazilat shaxsning pedagogik yoʻnalishini tavsiflaydi.

Oʻqituvchi shaxsini tavsiflaydigan muhim sifatlardan yana biri pedagogik ishga qobiliyatning mavjudligidir. Pedagogik kuzatuvchanlik, mushohada, muloqot madaniyati, pedagogik takt, tashkilotchilik, kasbiy mahorat, iqtidor kabilar pedagogik ishga qobiliyatning mavjudligini koʻrsatadi.

Demokratik huquqiy davlat va uning zaminida shakllanayotgan fuqarolik jamiyat va pedagogik faoliyatning xarakteridan kelib chiqadigan bu talablar boʻlajak mutaxassis qanday fazilatlarni egallab olishi zarurligini talabalarga yaqqol koʻrsatib beradi. Boʻlajak muallim egallab olishi lozim boʻlgan bu shaxsiy sifatlarning intilishi uchun istiqbol marra, ideal boʻlib xizmat qiladi.



1-shakl.

Bu dastur mustaqil ishlarni rejalashtirish va tashkil etish uchun oliy oʻquv yurtining talabalariga tavsiya etiladi. Shu asosda har yili guruhda bajariladigan ishlarning rejasi tuzib chiqiladi. Guruhning har bir talabasi ham oʻzining qobiliyati va imkoniyatiga qarab bir yillik va semestrga moʻljallab individual reja tuzib chiqadi. Dastur eng yaxshi guruh uchun tashkil etiladigan musobaqa-konkurs shartlarini tuzib chiqish uchun ham asos boʻlib xizmat qiladi.

Bunday dastur talabalar egallab olishi lozim bo'lgan ijtimoiy-gumanitar, ixtisoslik, professional-pedagogik bilim va ko'nikmalar, ma'naviy-axloqiy sifatlarni yaxlit holda talabalar ko'z o'ngida gavdalantirishga imkon beradi. Shu bilan birga u o'z-o'zini tarbiyalash vazifalarini bir qadar oydinlashtirib, talabani bu vazifalarni, faoliyat turlarini bajarish uchun safarbar etishga xizmat qiladi.

O'z-o'zini tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo'lajak – mutaxassisning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlari bilan kasbiy faoliyatning talablari o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish zarurligini anglab, tushunib olishdan iborat. Bunday tushunchaning hosil bo'lishi har bir yigit, qizda o'z bilimlarini oshirish ustida mustaqil ishlashga, o'z-o'zini tarbiyalashga intilish hissini uyg'otadi. Ushbu dastur ana shu maqsadlarni amalga oshirishda yordam beradi.¹

11.3. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish

Oliy ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish talabalar tomonidan mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirilishini kafolatlovchi yondoshuv hisoblanadi. Bizga yaxshi ma'lumki, «*ta'lim texnologiyasi*» tushunchasi talim jarayonining mohiyati, uning bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasida kechadigan ta'limiy munosabatlarning mazmunini anglatishga xizmat qiladi. «**Pedagogik texnologiya**» tushunchasi esa o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyatning eng muhim ikki jihati, ya'ni, ta'lim hamda tarbiya jarayonining texnologiyalashtirilishini ifoda etishi zarur. Biroq so'nggi yillar mobaynida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatni uyushtirish jarayonida ulardan foydalanish mavzusida yaratilgan manbalarning deyarli barchasida ta'lim jarayonining texnologiyalashtirish muammosi uchun asosiy ob'ekt tarzida qabul qilinganligining guvohi bo'ldik. Holbuki, barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e'tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo'lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondoshuvni qaror toptirish,

¹ Қараиғ: OCHILOV M., OCHILOVA N. OLIY MAKTAB PEDAGOGIKASI. – T.: 2008, 225-237-бетлар.

mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifadardan biri ekanligini yanada chuqurroq anglaymiz.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish – aniq maqsadga va ijtimoiy g‘oyaga asoslangan hamda talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik faoliyatning tashkiliy-texnik jihatdan uyushtirilishi demakdir. Ta’lim jarayonidan farqli o‘laroq, tarbiya, jarayonini texnologiyalashtirishda ushbu jarayonning samarasini qisqa muddat oralig‘ida ko‘ra olish imkoniyati yo‘q. Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlar tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirishga nisbatan ijodiy va mas’uliyatli yondoshish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishda mazkur jarayonni loyihalashtirish hamda uning asoslarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonini loyihalashtirishning asoslari qatoriga: 1) tarbiyaviy tadbir mavzusiga doir materiallarni yig‘ish; 2) tarbiyaviy tadbirning maqsadi va vazifalarini belgilash; 3) tarbiyaviy tadbirning mazmunini ishlab chiqish; 4) tarbiyaviy tadbirning shakli, metodlari va vositalarini tanlash, 5) tarbiyaviy tadbirni tashkil etish va o‘tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash, 6) tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish, 7) talabalar faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, ularning faollik darajalarini norasmiy (talabalarni bu haqida xabardor qilmasdan) baxolash, 8) loyihani amaliy faoliyatda qo‘llash, 9) tarbiyaviy tadbirni amaliy jixatidan tashkil etish jarayoni, 10) tarbiyaviy tadbirning o‘tkazilish holati (samarali yoki samarasiz, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz tashkil etilganligi)ni muxokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish kiradi.

Oliy o‘quv yurtlari amaliyotidan ma’lumki, uzoq yillar davomida mazkur muassasada faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning aksariyati tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga nisbatan “Tarbiyaviy ishlar rejasida belgilangan tadbirlarni o‘tkazishga majburman” qabilida yondoshib kelganlar. Ularning asosiy e’tibori o‘zlari raqbarlik qilayotgan gurux talabalarini avvaldan tayyorlangan ssenariyni yod olish va unga qat’iy amal kilishga majburlash, shuningdek, *“Oliy maktab ma’muriyati hamda jamoasi oldida izza bo‘lib qolishga yo‘l ko‘ymaslik”* tamoyiliga muvofiq tarbiyaviy tadbirni uyushtirishga qaratilgan edi. Endilikda tarbiyaviy

tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan bunday yondoshuvlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Zero, tayyor ssenariy asosida muayyan tadbirni tashkil etish jarayonida uning asosiy sub’ektlari bo‘lgan talabalar faol ishtirokchi va tadbir natijasini belgilovchi shaxs sifatida emas, balki oddiy ijrochi tarzida ko‘zga tashlanadilar. Bu holat esa bir qator salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga zamin hozirlaydi. Xususan: 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishiga nisbatan salbiy munosabat yuzaga keladi; 2) talabalarda mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik qobiliyatining shakllanishi uchun imkoniyat yaratilmaydi; 3) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o‘tkazilishi ularning shaxs sifatida kamol topishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lmay, balki guruhning oliy maktab jamoasi oldida “*soxta obro‘*” orttirishi uchun xizmat qiluvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi xulosaning qaror topishi uchun imkon yuzaga keladi.

Oliy o‘quv yurtlarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy tadbirlarga nisbatan texnologik yondoshuv quyidagi holatlarning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi tarbiyaviy tadbirning mavzu hamda g‘oyasini talabalar tomonidan bildirilgan shaxsiy hamda ularning xohish-istaklari asosida belgilash; tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqishda talabalarining mustaqil faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; tarbiyaviy tadbir mazmunida o‘z ifodasini topgan rollarning majburiy tarzda emas, balki talabaning layoqati, qobiliyati, shuningdek, qiziqishlarini inobatga olish asosida taqsimlanishiga erishish; tarbiyaviy tadbirning tashkil etishi va o‘tkazilishida o‘qituvchining roli buyruq berishdan iborat bo‘lmay, iborat bo‘lmay, aksincha, talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ularning faoliyatini yo‘naltirib turish hamda zarur o‘rinlarda maslahat berish sifatida aks etishiga erishish; tarbiyaviy tadbir maqsadining natijalanganligini guruh talabalarining faol ishtirokiga tayangan holda muhokama qilish. Muhokama jarayonida o‘qituvchi tomonidan turli tanbehlarning berilishiga yo‘l qo‘yilmasligi, aksincha, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar talabalarining o‘zlari tomonidan aniqlanib, ularni bartaraf etish (keyingi tadbirni o‘tkazish jarayonida mazkur kamchiliklarning takrorlanmasligini oldini olish) yo‘lida ma’lum chora-tadbirlarning belgilanishi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy tadbirlarning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondoshuv mohiyati ushbu jarayonda talabalar mustaqilligini ta'minlashda quyidagi omillarning mavjudligiga ahamiyatni qaratishni ham taqozo etadi: 1) talabalarda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishiga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish va rag'batning mavjudligi; 2) talabalarning tarbiyaviy tadbirlarni mustaqil tashkil eta olish borasida muayyan tajribalarga ega ekanliklari; 3) tarbiyaviy tadbir g'oyasining talabalarning ichki ehtiyojlariga mos kelishi.

- tadbir mavzusiga doir materiallarni yig'ish;
- tadbir maqsadi va vazifalarini belgilash;
- tadbirning mazmunini ishlab chiqish;
- tadbir shakli, metodlari va vositalarini tanlash;
- tadbirni tashkil etish va o'tkazish (davomiyligi) vaqtini belgilash;
- tarbiyaviy tadbir ssenariysini ishlab chiqish;
- talabalar faoliyatini nazorat qilish, ularning faollik darajalarini norasmiy (ularni bu haqida xabardor qilmasdan) baholash;
- loyihani amaliy faoliyatda qo'llash;
- tadbirni tashkil etish jarayoni;
- tadbirning o'tkazilish holati (samarali, samarasiz, muvaffaqiyatli, muvaffaqiyatsiz kechganligi)ni muhokama qilish va yakuniy xulosa chiqarish

Shunday qilib, oliy o'quv yurtlari amaliyotida yuqorida bayon etilgan omillarni inobatga olish asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish nafaqat ushbu tadbirlarning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlab qolmay, balki ularning o'tkazilishiga nisbatan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi, shuningdek, ularda bir qator ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun qulay sharoit hosil qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiyaning metodologik asoslarini tushuntirib bering.
2. Barkamol shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxs, inson, odam, kishi, sub'ekt, individ, individuallik, komil inson deganda nimani tushunasiz?
4. Individ, shaxs, sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida qanday ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qilinishi kerak?
5. Tarbiya metodlari va tamoyillarini amalga oshirishda tarbiyaning qanday turlaridan foydalaniladi?
6. Oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda nimalarga ko'proq e'tibor beraladi?
7. Oliy ta'lim muassasasi doirasida va fakultet bo'yicha qanday tadbirlar o'tkaziladi?
8. Texnologiya nima?
9. Talabalar jamoasi qanday shakllantiriladi?
10. Oliy maktabda ma'naviy-axloqiy tizim nima?
11. Tarbiyaviy ishlarga texnologik yondashuv deyilganda nimani tushunasiz?
12. Tarbiya texnologiyasi nima?
13. Ta'lim turlari, metodlari va shakllarini tushuntirib bering.
14. Oliy maktabda tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish va bu jarayonni loyihalashtirishni tushuntirib bering.

Tayanch iboralar izohi

1. **Innovasion ta'lim** - Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.
2. **Innovasion faoliyat** - Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.
3. **Innovasiya** - Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

4. Integratsiya - Gibrilashgan, qo'shma mazmunli, muvofiqlashtirish.

5. Ta'limda integratsiya - Kichik mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida o'ta muhim va o'quvchilarni ijodiy kamolot sari yo'naltiruvchi mexanizmdir.

6. Jamiyatni axborotlashtirish – kompyuter texnikalari, elektronika, audio-vidioli vositalar, informatika va axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashib ketgan jamiyat ma'nosini anglatadi.

7. Axborot-resurs markazi – amaliy informatika sinfi (auditoriyasi), kompyuter laboratoriyasi, axborot-uslubiy xona, multimediali laboratoriya, telekommunikatsion tarmoq, kutubxona, qiroatxona va kichik bosmaxonani qamrab oladi.

8. Ta'limga kompyuterli o'qitish texnologiyasini qo'llashning didaktik samaradorligi – kompyuter va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib oldindan bashorat qilinuvchi talabalarni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha o'qituvchi faoliyati samaradorligi tushuniladi.

9. O'qitish texnologiyasi – ijtimoiy buyurtma, o'qitish mazmuni va maqsadiga asoslangan holda o'quv jarayonini loyihalash va uni amalga oshirishdan iborat pedagogik jarayondir.

10. Axborot texnologiyasi – o'qitishning elektron vositalari yordamida axborotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va ulardan foydalanish jarayonidir.

11. Boshqaruv algoritmi – oliy ta'lim muassasasi boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi. Bu vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan boshqaruv metodlari tanlanib, boshqaruv faoliyati boshqaruvni tashkil etish tamoyillari va qonuniyatlariga asosan amalga oshiriladi. Bunday boshqaruv faoliyati maqsadga yo'naltirilgan harakatlar majmui yoki harakatlar zanjiri shaklida namoyon bo'ladi. Bu harakatlar *“zanjiri” boshqaruv algoritmini* ifodalaydi.

12. Ilmiy-uslubiy va ijodiy-texnik ijodkorlikka erishish jarayonini pedagogik jihatdan boshqarishning predmeti – inson omili bo'lib, u o'ziga xos tarbiyaviy ishlar va uni boshqarish, ijodiy masalalarni yechish metodikasi va algoritmini o'rganishni ko'zda tutadi.

13. Axborot muhiti – ta’lim jarayonida foydalanuvchilar tomonidan turli maqsadlarda qo‘llaniladigan dasturli-apparatli vositalar, axborotli aloqa tarmoqlari, ta’lim muassasalarining tashkiliy-uslubiy elementlari va predmet sohalari haqidagi amaliy axborotlar majmuasini ifodalaydi.

14. Kasbiy ta’lim jarayoni – o‘rgatish, o‘rganib olish va uni hayotga, ya’ni amaliyotga tatbiq etish xususiyati bilan izohlanadi.

15. O‘rgatish (o‘qitish) – o‘qituvchilarning talabalarga bilim, ko‘nikma, malakalar berish, ularda ijodiy va mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

16. O‘qitish tamoyillari – kasbiy ta’lim tizimining tuzilishi, mohiyati, uning qonunlari haqidagi, o‘qituvchi va talaba faoliyatini tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo‘ladigan bilimlar majmuidir.

17. O‘qitish sifatini nazorat qilish - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o‘quv dasturini o‘zlashtirish darajasini aniqlash;

18. Ta’lim sifatini nazorat qilish - o‘qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

19. Oliy ta’lim muassasasi attestatsiyasi - oliy ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir;

20. Oliy ta’lim muassasasi akkreditatsiyasi oliy ta’lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e’tirof etilishi.

Ta'lim texnologiyalari bo'yicha tayanch atamalar izohi

Oliy ta'lim - uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Bakalavriat - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim;

Magistratura - bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim;

Bakalavr, magistr - oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan *akademik* darajalar;

Oliy ma'lumot darajasi - shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o'zlashtirishi natijasi; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) - akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori - oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati;

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti - muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Malaka talablari - uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar;

O'qitishning me'yoriy muddati - ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va fanlar dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Ta'lim dasturi - o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi, bloklarga jamlangan ro'yxati;

O'quv fanlari bloki - o'quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

O'quv rejasi - oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

O'quv fani - ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, uquv va ko'nikmalar tizimi;

O'quv yili - oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2001/2002 o'quv yili;

O'quv semestri - oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi;

O'quv fani dasturi - ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat;

Malaka amaliyoti o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va uquv hosil qilish, o'quv rejalari va

fanlar dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

Yakuniy davlat attestatsiyasi - bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash; (O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi xatboshi)

O'qitish sifatini nazorat qilish - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

Ta'lim sifatini nazorat qilish - o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

Oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi - oliy ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir;

Oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e'tirof etilishi.

ГЛОССАРИЙ

Атамалар	Ўзбек тилидаги шарҳи	Инглиз тилидаги шарҳи
<p style="text-align: center;">Таълим Образование Formation Ta'lim</p>	<p style="text-align: center;">Махсус тайёрланган мутахассислар ёрдамида билим бериш ва улардаги кўникма ҳамда малакаларни шакллантириш жараёни</p>	<p style="text-align: center;">Specially prepared with use of knowledge of experts and to give them skills and qualification in the course of formation</p>
<p style="text-align: center;">Билим Знание Knowledge Bilim</p>	<p style="text-align: center;">Ўқувчилар онгида муайян тартибда мустаҳкамланган маълумотлар, илмий назариялар, қонунлар, тушунчалардир</p>	<p style="text-align: center;">Some information to protect minds of students of scientific theories, laws and concepts</p>
<p style="text-align: center;">“Ассисмент” технологияси Технология «ассисмента» “Assessment technology” “Assisment” texnologiyasi</p>	<p style="text-align: center;">Талабаларнинг билим, кўникма ва малакалари даражасини ҳар томонлама, холис баҳолаш имкониятини таъминловчи топшириқлар тўплами</p>	<p style="text-align: center;">A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students</p>
<p style="text-align: center;">Дарс ишланмаси Разработка урока Lesson planning Dars ishlanmasi</p>	<p style="text-align: center;">Таълимий мазмунга эга лойиҳа ва ўқитувчи томонидан тузилиши мажбурий бўлган ҳужжат</p>	<p style="text-align: center;">An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence</p>
<p style="text-align: center;">Дастурий таълим Програмное образование Program education Dasturiy ta'lim</p>	<p style="text-align: center;">1) ўқитишнинг талаба, талабалар эҳтиёжи, қизиқиши, билими, дунёқараши, улар томонидан ўқув материалларини ўзлаштиришда дуч келиш эҳтимоли бўлган муаммолар, ўқув фанининг имкониятларини инобатга олган ҳолда ташкил этиладиган таълим; 2) педагогик технологияларидан бири</p>	<p style="text-align: center;">1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies</p>
<p style="text-align: center;">Индивидуал таълим Индивидуальное образование</p>	<p style="text-align: center;">Таълим жараёнида ўқитувчининг фақатгина бир нафар талаба билан ёки</p>	<p style="text-align: center;">Education aimed at developing of mastering skills of a</p>

<p>Individual Education Individual ta'lim</p>	<p>талабанинг таълим воситалари (адабиётлар, компьютер, телевидение, радио ва б. ахборот технологиялар) билан ўзаро ҳамкорлиги асосида ўқув материалларининг ўзлаштирилишини таъминлашга йўналтирилган таълим</p>	<p>student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process</p>
<p>Иновацион таълим Иновационное образование Innovative education Innovasion ta'lim</p>	<p>Талабада янги ғоя, меъёр, қоидаларни яратиш, ўзга шахслар томонидан яратилган илғор ғоялар, меъёр, қоидаларни табиий қабул қилишга оид сифатлар, малакаларни шакллантириш имкониятини яратадиган таълим</p>	<p>Education that allows to develop skills and qualities f a student</p>
<p>Иновацион фаолият Иновационная деятельность Innovative activity Innovasion faoliyat</p>	<p>Янги ижтимоий талабларнинг анъанавий меъёрларга мос келмаслиги ёки янги шаклланаётган ғояларнинг мавжуд ғояларни инкор этиши натижасида вужудга келадиган мажмуали муаммоларни ечишга қаратилган фаолият</p>	<p>An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards</p>
<p>Иновация Иновация Innovation Innovasiya</p>	<p>Муайян тизимнинг ички тузилишини ўзгартиришга қаратилган фаолият</p>	<p>An activity aimed at changing the internal structure of a certain system</p>
<p>Интерфаол таълим Интерактивное образование Interactive Education Interfaol ta'lim</p>	<p>Талабаларнинг билим, кўникма, малака ва муайян ахлоқий сифатларни ўзлаштириш йўлидаги ўзаро ҳаракатини ташкил этишга асосланувчи таълим</p>	<p>The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde</p>

<p>“Кейс-стади” технологияси Технология “Кейс-стади” “Case study” technology “Keys-stadi” texnologiyasi</p>	<p>Муаммоли вазият; талабаларда аниқ, реал ёки сунъий яратилган муаммоли вазиятни таҳлил қилиш орқали энг мақбул вариантларини топиш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қиладиган технология</p>	<p>A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems</p>
<p>Лойиҳалаш Проектирование Projecting Loyihalash</p>	<p>Бошланғич маълумотлар, аниқ белгиланган вақт, махсус танланган шакл, метод ва воситаларга таяниб, кутиладиган натижани тахмин қилиш, башоратлаш, режалаштириш орқали аввалдан фаолият моделини тузиш, фаолият ёки жараён мазмунини ишлаб чиқишга қаратилган амалий ҳаракат</p>	<p>An action aimed at developing the essence of an activity or process, acivity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means</p>
<p>Лойиҳа Проект Project Loyiha</p>	<p>Аниқ режа, мақсад асосида унинг натижаланишини кафолатлаган ҳолда педагогик фаолият мазмунини ишлаб чиқишга қаратилган ҳаракат маҳсули</p>	<p>A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness</p>
<p>Лойиҳа методи Метод проекта A method of project Loyiha metodi</p>	<p>Ўқув жараёнини индивидуаллаштириш, талабанинг ўзини мустақил намоён қилишини режалаштириш, ўз фаолиятини оқилона ташкиллаштириш ва назорат қилиш имкониятини берадиган таълим методлари мажмуи</p>	<p>A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students’ performance, control and proper organization of an activity</p>
<p>Лойиҳа таълими Образование проекта A study of project Loyiha ta’limi</p>	<p>Таълимий характердаги аниқ режа, мақсад асосида унинг натижаланишини кафолатлаган ҳолда педагогик фаолият мазмунини ишлаб чиқишга</p>	<p>Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a pla and aim that have</p>

	йўналтирилган таълим	educational characteristics
Масофавий таълим Дистанционное образование Distance learning Masofaviy ta'lim	Муайян нуқтадан ахборот-коммуникация воситалари (видео, аудио, компьютер, мультимедиа, радио, телевидение ва б.) ёрдамида таълим хизматларини кўрсатиш, таълимий маҳсулотларни тарқатиш ва етказиб беришдаи анъанавий ҳамда инновацион шакл, метод, воситаларга асосланган ҳолда таълим ресурсларидан фойдаланишга йўналтирилган таълим	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)
Модел Модел Model Model	Реал, ҳақиқатда мавжуд бўлган объектнинг соддалаштирилган, кичрайтирилган (катталаштирилган) ёки унга ўхшаган нусхаси	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
Модул таълими Модульное образование A study of module Modul ta'limi	Ўқув жараёнини ташкил этишнинг муайян шакли бўлиб, унга кўра ўқув материали мантикий тугалланган бирликлари – модулларга асосланган ҳолда маълум босқич ва қадамлар асосида ўзлаштирилади	A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
Муаммоли вазият Проблемная ситуация Dilemma Muammoli vaziyat	Талабаларнинг маълум топшириқларни бажариш (масалани ечиш, саволга жавоб топиш) жараёнида юзага келган зиддиятни англаши билан боғлиқ рухий ҳолати бўлиб, у ҳал этилаётган масала билан боғлиқ янги билимларни излашни тақозо этади	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment
Муаммоли таълим	Талабаларда ижодий изланиш, кичик	Education aimed at developing students'

<p>Проблемное образование Problem education Muammoli ta'lim</p>	<p>тадқиқотларни амалга ошириш, муайян фаразларни илгари суриш, натижаларни асослаш, маълум хулосаларга келиш каби кўникма ва малакаларни шакллантиришга йўналтирилган таълим</p>	<p>competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions</p>
<p>Мустақил таълим Самостоятельное образование Independent learning Mustaqil ta'lim</p>	<p>ОТМ талабаларида педагог раҳбарлиги ва назорати остида ўқув ҳамда мутахассислик фанлари бўйича маъруза, семинар ва амалий машғулотларида эгалланган БКМни мустаҳкамлаш, бойитиш, улар томонидан янги БКМни мустақил ўзлаштирилишини таъминлаш, уларни касбий фаолиятни мустақил ташкил эта олишга тайёрлашга йўналтирилган таълим</p>	<p>education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs</p>
<p>Педагогик муаммо Педагогическая проблема Pedagogical problem Pedagogik muammo</p>	<p>Ҳал қилиниши зарур, бироқ, ҳали ечиш усули номаълум бўлган педагогик характердаги масала</p>	<p>A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution</p>
<p>Ривожлантирувчи таълим Развивающее образование Developing education Rivojlantiruvchi ta'lim</p>	<p>Талабаларнинг ички имкониятларини ривожлантириш ва уларни тўла рўёбга чиқаришга йўналтирилган таълим</p>	<p>Education aimed at revealing and developing students' inner capacities</p>
<p>Таълим жараёнини лойиҳалаштириш Проектирование процесса обучения Projecting the educational process Ta'lim jarayonini</p>	<p>Ўқитувчи томонидан талабанинг муаммони излаш, уни ҳал этиш бўйича фаолиятни режалаштириш ва ташкиллаштиришдан то оммавий баҳолашгача</p>	<p>A targeted educational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activities and its</p>

loyihalashtirish	бўлган мустақил ҳаракат қилишини таъминловчи махсус ташкил этилган мақсадли ўқув фаолияти	assessment
Таълим инновациялари Образовательные инновации Educational innovations Ta'lim innovatsiyalari	Таълим соҳаси ёки ўқув жараёнида мавжуд муаммони янгича ёндашув асосида ечиш мақсадида қўлланилиб, аввалгидан анча самарали натижани кафолатлай оладиган шакл, метод ва технологиялар	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results
Технологик харита технологическая карта Technological map Texnologik xarita	Таълим жараёни бажарувчи ёки маълум объектга техник хизмат кўрсатувчи педагогларга тақдим этиладиган барча зарур маълумотлар, кўрсатмаларни ўз ичига олган ҳужжат	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object
Ўқув топшириқлари Учебные задания Study assignments O'quv topshiriqlari	Ўрганилаётган мавзу бўйича талабалар томонидан ўзлаштирилган билим, кўникма ва малакалар даражасини аниқлашга хизмат қиладиган таълимий вазифалар йиғиндиси	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject
Таълим дастури Программа образования Education program Ta'lim dasturi	Ўқув фанларининг бакалаврият йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига қўйиладиган малака талабларига мувофиқ кадрларнинг зарурий ва етарли даражадаги тайёргарлигини таъминловчи рўйхати	The fields of educational sciences, the bachelor and the master of qualification according to requirements of the list of proper and adequate training of personnel

<p>Таълим мақсади Цель образования Education purpose Ta'lim maqsadi</p>	<p>Таълим ва тарбия муаммоларини юқори самарадорлик билан ҳал қилишга қаратилган асос ҳисобланади</p>	<p>Education and the training ground for the problem resolution with outstanding performance</p>
<p>Таълим мазмуни Содержание образования Content of education Ta'lim mazmuni</p>	<p>Инсонни ўқитиш жараёнида эгаллаши лозим бўлган билим, кўникма ва малакалар ҳажми ва характери</p>	<p>The person has to accept in the course of training of knowledge, skills and mentality</p>
<p>Таълим методи Методы образования Education methods Ta'lim metodi</p>	<p>Таълим жараёнида ўқитувчи ва талабаларнинг аниқ мақсадга эришишга қаратилган биргаликдаги фаолиятидир</p>	<p>Teachers and students in educational process of the joint activity directed to achievement of a specific goal</p>
<p>Таълим мониторинги Мониторинг образования Education monitoring Ta'lim monitoringi</p>	<p>Таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасини назорат қилиш учун маълумотлар йиғиш технологияси</p>	<p>Development of technology for management of the level of development of data collection</p>
<p>Таълим сифати Качество образования Quality of education Ta'lim sifati</p>	<p>Таълим жараёнининг турли қатнашчиларини ўқув массаси томонидан кўрсатилган таълим хизматларидан қониқиш даражаси ёки таълимда қўйилган мақсад ва вазифаларга эришганлик даражаси</p>	<p>Participants of educational process, education level of satisfaction with services of formation of masses or education level of achievement of effective objectives and tasks.</p>
<p>Таълим стандарти Стандарты образования Standards of education Ta'lim standarti</p>	<p>Таълим олувчиларни ўқитиш ва тарбиялашга қўйиладиган талаблар кўрсаткичларининг мазмуни</p>	<p>Development of requirements of content for educational and educational indicators.</p>
<p>Таълим тамойили Принципы образования Principles of education Ta'lim tamoyili</p>	<p>Ўқитувчи фаолияти ва таълим олувчининг билиш фаолияти хусусиятини белгиловчи асосдир</p>	<p>Teachers study to know transactions and activities of property in the house.</p>

<p>Дидактик тамойиллар Дидектические принципы Didektichesky principles Didaktik tamoyillar</p>	<p>Таълим жараёни қонуниятлари, мазмуни ва методларини белгилаб берувчи ўқитиш тамойилларидир</p>	<p>Training process is determined by contents of laws and training methods to the principles.</p>
<p>Таълим воситалари Средства образования Means of education Ta'lim vositalari</p>	<p>Ўқув жараёнининг ташкил этилиши ва ўтиб боришини таъминлайдиган хилма-хил ўқув жихозлари</p>	<p>After creation of educational process and to provide a wide range of the educational equipment.</p>
<p>Билим Знание Knowledge Bilim</p>	<p>Ўқувчилар онгида муайян тартибда мустаҳкамланган маълумотлар, илмий назариялар, қонунлар, тушунчалардир</p>	<p>Some information to protect minds of students of scientific theories, laws and concepts.</p>
<p>Назарий билим Теоретическое знание Theoretical knowledge Nazariy bilim</p>	<p>Нарса ва ҳодисалар моҳиятини билиш, қонуниятларни очишни назарда тутати</p>	<p>To know an essence of things and events, provides opening of laws</p>
<p>Илмий билим Научное знание Scientific knowledge Ilmiy bilim</p>	<p>Объектив оламни анча тўғри (батафсил) ифодалади.</p>	<p>The purpose represents the world more precisely.</p>
<p>Кўникма Сноровка Skill Ко'nikma</p>	<p>Инсоннинг илгариги тажрибалари асосида муайян фаолият ёки ҳаракатни амалга ошириш қобилияти</p>	<p>On the basis of the person of the previous experience ability to perform a certain activity or operation.</p>
<p>Малака Навык Skill Malaka</p>	<p>Автоматлашган, ўрганиб қолинган ҳаракатдир</p>	<p>Got used to automated the movements.</p>
<p>Ташкил этиш Организовывать Organize Tashkil etish</p>	<p>қўйилган мақсадни яхши амалга ошириш жараёни</p>	<p>process of realization is more whole.</p>

Шакл Форма form Shakl	Ўқув жараёнининг мавжудлик усули, унинг ички моҳияти, мантиқи, мазмуни учун қобқ.	The essence of educational process is a method of his internal logic, the maintenance of a cover.
Услуб Метод Method Uslub	Ўқитишнинг мақсад ва вазифаларига эришиш йўли	Way to achievement of effective objectives and tasks of training
Услубиёт Методика Technique Uslubiyot	қатъий кетма – кетликка ва тизимга риоя қилиш	it is strict to observe the sequence and system
Методология Методология Methodology Metodologiya	Кишининг мақсадга эришишидаги қоидалар мажмуи	One set of rules for achievement of goals
Натижа Результат Result Natija	Дарс машғулотлари жараёнида режалаштирилган хулосага келиш	It is planned to finish in the course of training
Технология Технология Technology Texnologiya	Санъат ва маҳорат	Art and skill
Педагогик технология Педагогическая технология Pedagogical technology Pedagogik texnologiya	Таълим ва тарбия жараёнида замонавий педагогик технологияларни қўллаш	Use of modern pedagogical technologies in educational process and process of training
Инновация Инновация Innovation Innovatsiya	Янгилик, янгилик киритиш	Innovation

Маъруза Лекция lecture Ma'ruza	Йирик ҳажмдаги ўқув материалини оғзаки баён қилиш шакли	To explain a large number of a training material in an oral form
Педагогик техника Педагогическая техника Pedagogical equipment Pedagogik texnika	Ўқитувчининг ўз хатти- ҳаракатларини бошқаришга айтилади	The teacher has told to control the actions
Ихтисослик Специальность Speciality Ixtisoslik	Бирорта касб доирасидаги махсус тайёргарлик	Any special skills of a profession in limits
Тизим Система System Tizim	Яхлитлик, бир бутунлик	Honesty, integrity
Лойиҳалаштириш Проектирование Design Loyihalashtirish	Режалаштириш	Planning
Таҳлил қилиш Анализ Analysis Tahlil qilish	Материалларни қисмларга ажратиш	Materials components
Синтезлаш Синтезирование Synthesizing Sintezlash	Алохида-алохида материалларни умумлаштириш, яхлитлаш	Finish separately materials
Баҳолаш Отценивание Ottsenivaniye Baholash	Натижалар билан мақсадни қиёслаш	To compare results
Ривожланиш Развитие Development Rivojlanish	Шахсининг физиологик ва интеллектуал ўсишидаги миқдор ва сифат ўзгаришлар	Changes of quantity and quality of physical and intellectual human height

Узлуксизлик Непрерывность Continuity Uzluksizlik	Иш ҳаракат усулларини белгиланган вақт давомида бериш	Methods to try to work during the certain period of time
Назорат Контроль Monitoring Nazorat	Текшириш	Survey
Рейтинг Рейтинг Rating Reyting	Баҳолаш, тартибга келтириш, классификациялаш	Assessment of an arrangement, classification.
Интеграция Интеграция Integration Integratsiya	Гибритлашган, қўшма мазмунли, мувофиқлаштириш	Hybrid, considerable joint coordination
Таълимда интеграция Интеграция в образовании Integration in education Ta'limda integratsiya	Кичик мутахассиснинг касбий тайёргарлигида ўта муҳим ва ўқувчиларни ижодий камолот сари йўналтирувчи механизмдир	Vocational training is very important also art perfection, the handbook for students.
Ўқув дастур Учебная программа Training program O'quv dastur	Муайян ўқув фани бўйича билим, кўникма ва малакалар мазмуни, умумий вақтнинг мавзуларни ўрганилиши бўйича тақсимланиши, мавзуларнинг кетма-кетлигини белгилаш ҳамда уларнинг ўрганилиш даражасини ёритувчи меъёрий ҳужжат	Special preparation in a subject of knowledge, skills of content, the general time for studying of a subject of distribution to define the sequence of questions and their level of the researches showing the legal document.
Ўқув режаси Учебный план Curriculum O'quv rejasi	Таълим муассасида ўқитиладиган ўқув фанларининг тартиби, уларнинг ўқув йили бўйича тақсимланиши, ҳар бир ўқув фанига ажратиладиган ҳафталик ва	Order of establishment of educational sciences, distribution of academic year, each of which is devoted to teaching science week and annual hours of training, and

	йиллик ўқув соатлари, шунингдек, ўқув йили тузилишини белгиловчи меъёрий хужжат	also the values specified in structure of academic year.
--	--	--

Ta'lim texnologiyalari darsligining qiyosiy tahlili

№	Ta'lim texnologiyalari darsligining	Avvalga Ta'lim texnologiyalari
1	<p>Qishloq xo'jalik fanlarini o'qitish jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar. Modulli ta'lim mohiyati. Modulli ta'lim tamoyillari. Modul bloklari. Modulli-kredit tizimi mohiyati. YeSTS kreditlari. YeSTSning asosiy tamoyillari. YeSTSning xususiyatlari. Kreditlarni taqsimlash va YeSTS o'quv rejalariga o'tish metodikasi.</p> <p>Zamonaviy ta'limda tyutorlik, supervizorlik va moderatorlik faoliyati. Pedagogik fasilitatsiya – ta'limda natijaviylikni ta'minlashdagi muhim omil sifatida.</p>	<p>Avvalga darsliklarda Qishloq xo'jalik fanlarini o'qitish jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarga juda ham kam e'tibor berilgan.</p>
2	<p>Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari. Pedagogik texnologiyaning tasnifi, qonuniyatlari, tamoyillari va mezonlari. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish asoslari.</p> <p>Innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari. Ta'lim innovatsiyalari. Ta'lim innovatsiyalarining turlari. Novatsiya (yangilanish). Novatsiya va innovatsiyaning farqli jihatlari. Ta'lim innovatsionlari ta'minlaydigan o'zgarishlar. Innovatsion faoliyat mazmuni. Pedagogning innovatsion faoliyati. Pedagogik innovatsion faoliyat belgilari. Ta'lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bosqichlari. Pedagogda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari.</p>	<p>Avvalga darsliklarda Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari. Ta'lim innovatsiyalariga qisqa e'tibor berilgan</p>
3	<p>Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari turlari. Ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish va mustaqil ta'limini tashkil etish asosidagi innovatsion ta'lim shakllari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol darslar, modulli-kredit</p>	<p>Avvalga darsliklarda Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim</p>

<p>tizimi, masofali o‘qitish, blended learning (aralash o‘qitish), mahorat darslari.</p> <p>Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar: interfaol metodlar, “Sase-study” (Keys-stadi) va “Assesment” metodi.</p> <p>Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion vositalar (kompyuter, proektor, elektron doska, Internet va vebinar texnologiyalar).</p> <p>O‘quv loyihalarini ishlab chiqish. Talabalar portfoliolarini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish.</p>	<p>texnologiyalariga e’tibor berilgan.</p>
---	--

Shartli belgilar

DO‘ - Dasturli o‘qitish

ZPT - Zamonaviy pedagogik texnologiya

PT - Pedagogik texnologiya

TT - Ta’lim texnologiya

ITT - Ilmiy texnologik taraqqiyot

DT - Dasturiy ta’lim

TV - Texnik vositalar

O‘V - O‘qitish vositalari

AT - An’anaviy ta’lim

TX - Texnologik xarita

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.** Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
- 2.** Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –47 b.
- 3.** Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
- 4.** Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 103 b.
- 5.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
- 6.** Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.–T.: 2006, 159 bet.
- 7.** Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – T.: Cho‘lpon, 2005.
- 8.** Avlaev O.U. Muammoli ta’limning psixologik asosi : pedagog va psixologlar uchun qo‘llanma . 2014. 108 bet
- 9.** Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007. – 97 b.
- 10.** Ala-Mutka K., Punie Y., Redecker C. (2008a). Digital
- 11.** Ala-Mutka K. Social Computing: Study on the Use and Impacts of
- 12.** Blan W.E. Handbook for developing Competency-Based Training Programs I W.E. Blank. - New-Jerzey: Prentice Hall, 2002.
- 13.** D.K. Schneider. Intraduction to Educational technology
- 14.** David Watson. The Question of Conscience Higher edication and personal responsibility. Oxford, Institute of Edication Press. 2014.
- 15.** Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000.

16. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboeva F.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari. – T., 2002.

17. Fayzullaeva D.M., Ganieva M.A., Ne‘matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasidan – T.: TDIU, 2013. – 137 b.

18. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida innovatsion texnologiyalar” seriyasidan. – T.: TDIU, 2013. – 95 b.

19. Ibrohimov X., Nasimov X., Xudaynazarov N. Qobiliyatni aniqlashning pedagogik – psixologik asoslari. //MAKTAB VA HAYOT, 2002 yil, 7-son.

20. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. –150 b.

21. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

22. Ishmuhamedov R.J. Innovasiya texnologiyalari yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2004.

23. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari /O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

24. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari - T 2000

25. Jo‘raev R., Isaeva G. O‘quv jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tutgan o‘rni.//Xalq ta’limi, 2004 yil 4-son.

26. Karimova V.M. va boshqalar. Psixologiya. – T.: 2000.

27. Mamarajabov Sh. Fanlararo bog‘lanish asosida seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish// TA’LIM TEXNOLOGIYALARI, 2006 yil. 2-son.

- 28.** Maria Rosa, Alberto Amaral. Quality in Assurance in Higher Education. Contemporary Debates. England, Hampshire, 2014.
- 29.** Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdiev Q. Pedagogika. Darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2001.
- 30.** Mihridinova M. Zamonaviy ma‘ruza va unga qo‘yiladigan talablar.//UZLUKSIZ TA‘LIM, 2007 yil 6-son.
- 31.** Mirzajanov D. Seminar-praktikum shaklida dars mashg‘ulotlarini loyihalash// TA‘LIM TEXNOLOGIYALARI, 2006 yil. 4-son.
- 32.** Misty E Vermaat, Susan L Sebok, Steven M Freund. Discovering Computers (C)2016 (2016 edition). Textbook.USA, 2016
- 33.** Musurmonova O.M., Yo‘ldosheva S.M., Xoshimova M.K. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. –T.: 2009
- 34.** Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
- 35.** Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
- 36.** Og‘aev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. «Xalq ta‘limi» jurnali, 2001, №3, 69-71 b.
- 37.** Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011. – 275 b.
- 38.** Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metod.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.
- 39.** Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003
- 40.** Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta‘limni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari // Kasb-hunar ta‘limi j. – T.: 2002. - №5-6. – 28-29-b.
- 41.** Sayfurov D. Masofadan o‘qitish tizimining shakllanishi va rivojlanishi // Kasb-hunar ta‘limi j. – T.: 2004. - №6. – 16-20-b.
- 42.** Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. – 260 b.

43. Xo‘jaev N.X., Xodiev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2002.
44. Yo‘ldoshev J. G‘. Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y.
45. Yo‘ldoshev J. G‘. Xorijda ta’lim –T.: “Sharq”, 1995 y.
46. Yo‘ldoshev J.G‘. Yangi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari. «Xalq ta’limi» jurnali, 1999, №4, 4-12 b.
47. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004.
48. Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot «Ma’naviyat asoslari» darsi asosida ishlangan uslubiy qo‘llanma. -T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001.
49. Zufarova M.E. Pedagogik psixologiya. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008
50. Современные образовательные технологии: учебное пособие/под ред. Н.В. Бордовской. – М.: КНОРУС, 2010.

Internet ma’lumotlari:

1. www.press_service.uz
2. www.gov.uz
3. www.infocom.uz
4. <http://www.bank.uz/uz/publislVdoc>.
5. www.press_uz.info
6. www.ziyonet.uz
7. www.edu.uz
8. www.pedagog.uz
9. www.tdpu.uz

MUNDARIJA

MUQADDIMA	3
1-BOB. TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANISHI	
“TA'LIM TEXNOLOGIYALARI” FANINING MAQSADI	
VA VAZIFALARI	6
Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy komponentlari.....	6
Ta'lim texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari.....	10
Ta'lim texnologiyasi nima? Ta'lim texnologiyasining xususiyatlari.....	15
“Ta'lim texnologiyalari” fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.....	29
TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING SHAKLLANISHI VA UNING ZAMONAVIY TUZILMASI	39
Ta'lim texnologiyalarining mustaqil fan sifatida shakllanishi.....	39
“Ta'lim texnologiyalar”ining rivojlanish bosqichlari.....	45
“Pedagogik texnologiyalarini rivojlanishi.....	51
Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar markazlari..	67
Pedagogik texnologiya tamoyillari.....	70
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasining mohiyatini.	74
Pedagogik texnologiyaning umumiy tuzilmasi.....	76
Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari.....	79
Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari.....	90
AN'ANAVIY VA NOAN'ANVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'ZIGA XOS	103

XUSUSIYATLARI.....	
An'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining mazmuni va metodikasi xususiyatlari.....	103
An'anaviy ta'limni zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limdan farqi.....	109
Ta'limning noan'anaviy usullari.....	116
TA'LIMNING FANGA YO'NALTIRILGAN	
TEXNOLOGIYASI.....	124
Ta'lim texnologiyalarning ilmiy asoslari.....	124
To'la o'qitish konsepsiyasi va qayta takrorlanadigan o'qitish sikli tarkibi va tuzilmasi.....	131
Blum taksonomiyasi.....	137
2-BOB. SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM	
TEXNOLOGIYASI	
SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM	
TEXNOLOGIYALARINING TURLARI.....	137
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining turlari.....	137
DIDAKTIK O'YINLI TEXNOLOGIYALAR.....	141
Didaktik o'yinli texnologiyalar.....	141
Muammoli o'qitish texnologiyasi.....	150
Interfaol ta'lim texnologiyalari.....	158
RIVOJLANTIRUVCHI VA TANQIDIY FIKRLASHNI	
SHAKLLANTIRUVCHI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI.....	165
Rivojlantiruvchi ta'limning maqsad va vazifalari.....	165
Tanqidiy tafakkurining o'ziga xosligi.....	168
Talabalar tanqidiy fikrini rivojlantirishda interfaol metodlarning	

o‘rni.....	171
Tanqidiy fikrlashni o‘stiruvchi faol metodlar.....	178
MODULLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI.....	190
Modulli o‘qitish texnologiyasi.....	190
Modulli o‘qitishning tamoyillari.....	193
Modulli-kredit texnologiyasi.....	197
MASOFALI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI.....	207
Masofali o‘qitish texnologiyalari.....	207
Blended learning	217
Vebinar texnologiyalar	219
Masofaviy ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar.....	213
Mahorat darslari.....	226
“Keys-stadi” texnologiyasi.....	227
O‘quv loyihalarini ishlab chiqish texnologiyasi.....	234
Portfolio va nazorat texnologiyalari.....	241
3-BOB. ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI	
O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYA-	
LARI BO‘YICHA XALQARO INTEGRATSIYA.....	251
O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyalari bo‘yicha xalqaro integratsiya.....	251
Yaponiya ta’lim tizimi.....	260
AQSh ta’lim tizimi.....	264
Germaniya ta’lim tizimi.....	266
Kopeya ta’lim tizimi.....	269
Fransiya ta’lim tizimi.....	270
Belgiya ta’lim tizimi.....	274

Innovatsion ta'lim texnologiyalari.....	278
Ta'lim tizimini modernizatsiyalash	278
Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari.....	284
Pedagogik innovatsion jarayon mohiyati.....	283
Pedagogik innovatsion faoliyat qonuniyatlari, bosqichlari.....	291
TARBIYA JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISH.....	293
Tarbiyaning maqsad va vazifalari.....	293
Tarbiyaviy jarayonga texnologik yondashuvning mohiyati.....	301
Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish.....	309
TA'LIM TEXNOLOGIYALARI BO'YICHA TAYANCH	
ATAMALAR IZOHI.....	316
ГЛОССАРИЙ.....	319
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	332

Z. F. SHAROPOVA

TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI

Muharrir: F.f.n. B. T. Suyunov

«NAVRO'Z» nashriyoti. Litsenziya № AI.170
Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}. Shartli b. t. 21,25.
Nashriyot manzili: Toshkent. A.Temur ko'chasi, 19 -uy.

«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etilgan.
Bosishga ruxsat etildi 25.01.2019. Buyurtma № 07
Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}. Times garniturasini.
Shartli b. t.- 21,25. Adadi 100 nusxada.
100170, Toshkent sh., Siolkovskiy-356.